ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

4(2)
2025

ISSN 2181-6833

https://buxdu.uz

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

4-son (2025-yil, aprel)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2025

https://buxdu.uz

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2025, № 4

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)
Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Zotova Firuza Raxmatullovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

https://buxdu.uz

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 4, 2025

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «**Педагогика»** и «**Психология»**.

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры , спорта и туризма, Россия)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Чариев Ирграш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор
Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент
Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

https://buxdu.uz

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodical journal
№ 4, 2025

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullovna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov
Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov
PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev
PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva
PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

https://buxdu.uz

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
	ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH		
	ABDULLAYEVA Dilnoza Narzullayevna, MAMATKULOVA Nilufar Turabovna	Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslari	8
	NAFASOV Izzatbek Shernafasovich	Dasturiy vositalar yordamida mavzuni strukturalab bilim olish jarayonini jadallashtirish metodikasi (“Nochiziq tenglamaning ildizini taqribiy hisoblash usullari” mavzusi misolida)	12
	SHODIYEVA Go‘zal Raxmatullayevna	Talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirishda “Flipped Classroom” texnologiyasidan foydalanish	20
	RAXIMOV Nasriddin Nomozovich, TESHAYEVA Madina G‘ofur qizi	Matematikani o‘qitishda fanlararo integratsiyaning o‘rni	25
	КАЙПНАЗАРОВ Сражатдин Гайратдинович	Цифровая трансформация преподавания раздела электричества в школах	29
	БАКАЕВА Мехринисо Изатовна	Пути организации самостоятельного обучения студентов в преподавании физики	34
	HAYDAROVA Pardaxol Boboqulovna	Odam anatomiyasi va fiziologiyasidan talabalarning bilish kompetensiyasini rivojlantirish	39
	KARIMOVA Oynisa Abdimuminovna	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi	43
	SOLIYEV Tursunboy Izzatillo o‘g‘li	Oliy ta’limda “uran yemirilish zanjiri” mavzusini o‘qitishning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi masalasi	49
	SARIMOVA Dildora Soataliyevna	Kimyo o‘qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda innovatsion yondashuv	54
	JISMONIY MADANIYAT VA SPORT		
	ABDULLAYEV Mehriddin Junaydullayevich, RAXMONOVA Rushana Akmalovna	Voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari dinamikasi	59
	FATULLAYEVA Muazzam Azimovna, SAIDMURODOVA O‘g‘iloy Navro‘z qizi	12-13 yoshli qisqa masofaga yuguruvchi yengil atletikachilarning mashg‘ulot jarayonlarini pedagogik baholash texnologiyasi	63
	MIRZAYEV Ibroxim Ilhomovich	Jismoniy tarbiya darslarida maktab o‘quvchilari faoliyatini tashkillashtirish	69
	MAMANOVA Aziza Abduxaliq qizi, SHUKUROV Abduvosit Akmal o‘g‘li	Talabalarni ma’naviy tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari	73
	XAMROYEV Behruz Xalimovich	Sport o‘yinlari etnogenezisi va tarixiy tamoyillari asosida o‘qitishning pedagogik samaradorligi	77
	ИКРАМОВ Амирбек Аминович	Подвижные игры в вузах: проблемы обучения и их решения	82
	NURULLOYEV Laziz Latipovich	10-11-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarining xususiyatlari, shakllari va usullari	90
	SULTANOVA Nargizaxon Yakubjanovna	Maktab o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi	94
	DJUMANIYAZOVA Tamara		

https://buxdu.uz

	Adambaevna, XOJAMBERGENOVA Miyassar Bakbergen qızı, PARAXATOVA Aynura Tengelbay qızı,	Oliy ta’lim muasassalarida gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish va uni o‘tkazish metodikasi	98
	SAN’AT		
	BOYMURODOVA Rayxon Azamadovna	Milliy hunarmandchilikining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi holati	102
	DAVRONOV Dilshodjon Doniyor o‘g‘li	Kontrabas cholg‘u turlarida ishlash mexanizmini takomillashtirish metodlari	105
	MAMUROVA Dilfuza Islomovna, ERGASHEVA Rayhon Sobir qizi	Alohida ta’limga ehtiyojli bo‘lgan bolalarning ijodiy qobiliyatining rivojlanishida tasviriy san’atning o‘rni	112
	JALILOVA Lola Jalilovna, INOYATOVA Zarina Samadovna	Features of theatre as an art form: main genres, styles, forms, directions	116
	MUSINOVA Aziza Sadikovna	Talabalarda mis kandakorligi mahoratini rivojlantirishning mazmuni	121
	XUDOYBERDIYEVA Xulkar Zoxid qizi	Talabalarning tafakkurini rivojlantirishda me’moriy bezaklaridagi girih naqshlarni o‘rganishning ahamiyati	126
	ESANOVA Sarvinoz Uktamovna	Talabalarning xalq hunarmandchiligiga oid ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi	131
	INKLYUZIV TA’LIM		
	TOYIROVA Nazokat Moxirovna	Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilar va ota-onalarning inklyuziv munosabatlari	134
	TA’LIM MENEJMENTI		
	KODIROV Mumin Kodirovich, ESHBURIEV Rashid Majidovich, XAYDAROV Xayrillo Safarovich	Kafolatlangan ta’limga erishishda ta’lim mazmunini takomillashtirish masalalari	139
	SOXIBOV Akram Rustamovich	OTMlarda innovatsion rivojlanish jarayonini monitoring qilish, nizolarni oldini olish va hal qilish texnologiyalari	142
	XAYRULLAYEV Choriqul Kazakovich	Ta’lim samaradorligini oshirish omillari	148
	XURAMOV Ilxom Panjiyevich	Professional ta’limda ijtimoiy hamkorlik tadqiqoti tahlili	155
	БУСТАНОВ Худайкул Абрийевич, ОЧИЛОВ Тохир Мардонович	Модернизация системы образования путём внедрения информационных технологий	158
	МАХКАМОВА Муборак Юсуповна	Значение педагогической практики в подготовке квалифицированных кадров в сфере дошкольного образования Республики Узбекистан	163
	XALILOVA Muxabbat Ruzmurodovna	Uzluksiz ta’lim tizimida inson kapitali – global innovatsiyalar indeksi GII talablari asosida rivojlanishi va yangilanishi	168
	ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR		
	HAMDAMOVA Nozima Muqimovna	Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	179
	JABBAROV Rustam Ravshanovich	“Amaliy bezak san’ati” fanini interaktiv ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitishning innovatsion metodlari	184
	JO‘RAYEVA Mohigul Baxtiyor qizi	Akademik litseylarda morfologiya bo‘limini o‘qitish uchun raqamli resurslarni ishlab chiqish	191
	JO‘RAQULOV Jasur Javhar o‘g‘li	Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda immitatsion modellardan foydalanish shakl va metodlari	196

https://buxdu.uz

	БАЛТАБАЕВ Жаксылык Оразбаевич	Современные технологии развития технического творчества у учащихся: STEM, проектное обучение и цифровая среда	201
	HAMROYEVA Sevara Nasriddinovna, IZBOSAROV Baxritdin Faxritdinovich	“Elektromagnit induksiya hodisasi” mavzusini o‘qitishda eksperiment va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish	205
	SAYFULLAYEVA Gulhayo Ixtiyor qizi	Kredit- modul tizimida talaba kompetentligini rivojlantirishda integratsiyalashgan innovatsion texnologiyalarini joriy etish	210
RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM			
	ASHIROVA Anorgul Ismoilovna	Bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlashda adaptiv o‘qitish tizimlaridan foydalanib o‘qitishni individuallashtirish	216
	HOJIYEV Mirshod Jalilovich	Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-kompetensiyasini raqamli musiqiy dasturlar vositasi yordamida takomillashtirish imkoniyatlari	221
	NORMURODOV Sadriddin Salim o‘g‘li	Talabalarda raqamli media matn va tasvir bilan ishlash hamda algoritmlarini o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish	227
	NOSIROVA Shohista Elmurodovna	Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ta’siri va “Ma’lumotlar bazasi” fanini o‘qitishdagi o‘rni	231
	SAIDOVA Shahrizoda Adham qizi	Akademik litseylarida raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘rni	235
	ГАФФОРОВ Алишер Холмуродович	Инновационные подходы к обучению с использованием цифровых технологий	242
	TESHAYEV Azizbek To‘ynor o‘g‘li	Oliy ta’lim jarayonida talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirish mazmuni	246
	RAVSHANOV Bexruz Xasanovich	Kasbiy ta’limda raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzi asosida o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	251
MA’NAVIYAT VA TARBIYA			
	HAMDAMOVA Sitora Rustam qizi	Oilaviy qadriyatlar asosida talabalarning ijobiy munosabatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	256
	QODIROVA Kumush Farxod qizi	Ta’lim muassasalarida kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish	261
	TOSHPULATOVA Marjona Jamoliddinovna	Badiiy tahlil asosida o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirish	265
	BOQIYEV G‘ulomjon Ochilovich, NOROVA Maftuna Asad qizi	Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari	269
	TURSUNOV Jo‘rabek Baxtiyarovich	O‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning nazariy asoslari	274
	XAKIMOVA Marxabo O‘raqovna	Talabalarda ma’naviy qadriyatlarni ta’lim olish jarayonida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari	278
PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI			
	AZIMOVA Kamola Karimovna	Ta’lim tizimini rivojlantirishda ajdodlar merosining ahamiyati xususida	282
	ESHONQULOVA Guljahon Abduqaxxorovna	G‘azzoliy ta’limoti va zamonaviy psixologiya uyg‘unligi	286
	RAXMANOVA Zebiniso Po‘latovna	Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosida tabiatga gumanistik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy asoslari	291

https://buxdu.uz

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Abdullayeva Dilnoza Narzullayevna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Geografiya va uni o‘qitish metodikasi”
kafedrasi dotsenti, p.f.d .(DSc)
Mamatkulova Nilufar Turabovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Umumta’lim maktablarida Tabiiy fanlar ta’limida o‘quvchilarning muayyan faoliyat turiga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyojini oshirish, shuningdek, bu faoliyatni amalga oshirishning samarali usul va vositalarini hamda nazariy asoslarini ishlab chiqish ta’lim sohasida o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada umumta’lim maktablari Tabiiy fanlar ta’limida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, ta’lim samaradorligi, o‘quvchilar, bilish faoliyati, o‘quv-bilish ko‘nikmalari, amaliy faoliyat ko‘nikmalari, Tabiiy fanlar ta’limi, yondashuvlar, didaktik komponentlar, mustaqil ishlar, pedagogik shart-sharoitlar, psixologik omillar, kreativ qobiliyat.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫМ НАУКАМ

Пробуждение интереса учащихся к определённому виду деятельности в преподавании естественных наук в общеобразовательных школах, повышение их внутренней потребности в усвоении учебных материалов, а также разработка эффективных методов и средств, и теоретических основ осуществления этой деятельности является одним из актуальных вопросов, ожидающих своего решения в сфере образования. В данной статье освещены научно-теоретические основы развития учебно-познавательной деятельности учащихся в преподавании естественных наук в общеобразовательных школах, изложены мнения, предложения и рекомендации по организации учебно-воспитательных процессов, направленных на развитие учебно-познавательных навыков обучающихся.

Ключевые слова: *система образования, эффективность образования, учащиеся, познавательная деятельность, учебно-познавательные навыки, навыки практической деятельности, преподавание естественных наук, подходы, дидактические компоненты, самостоятельная работа, педагогические условия, психологические факторы, креативные способности.*

DIDACTIC BASIS OF DEVELOPING STUDENTS' LEARNING AND COGNITIVE ACTIVITY IN TEACHING NATURAL SCIENCES

Arousing students' interest in specific types of activities in natural science education in general education schools, increasing their intrinsic motivation to master educational materials, as well as developing effective methods, means, and theoretical foundations for implementing these activities is one of the pressing issues awaiting resolution in the field of education. This article highlights the scientific and theoretical foundations for developing students' educational and cognitive activities in natural science education in general education schools. It also presents opinions, proposals, and recommendations for organizing educational processes aimed at enhancing students' learning and cognitive skills.

Keywords: *education system, educational effectiveness, students, cognitive activity, learning and cognitive skills, practical activity skills, natural science education, approaches, didactic components, independent work, pedagogical conditions, psychological factors, creative ability.*

https://buxdu.uz

Kirish. Bugungi kunda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunday ta’lim mazmunini ishlab chiqish esa o‘z navbatida fan o‘qituvchilarining kasbiy mahorati, malakasi hamda o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga xissa qo‘shadigan pedagogik faoliyat usullarini chuqur o‘zlashtirishini talab etadi. Qolaversa, zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchi-yoshlarni dunyo yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, kuchli bilim-salohiyatga, mustaqil fikrga ega qilib tarbiyalash zamon talabi hisoblanadi.

Inson faoliyati jamiyat rivojlanib borishi bilan o‘zgarib, rivojlani boradi. Hozirgi kunda mazkur faoliyat turlarining ortib borishi va vazifalarinnig murakkablashib borishi bilan uning amaliy, ijtimoiy va ilmiy ahamiyati ham ortib bormoqda. Demak, faoliyat inson hayotining mavjud voqelikka nisbatan faol munosabatning amalga oshirilish shakli va mazkur faoliyat maqsadiga ko‘ra ongli harakati hisoblanadi. Faoliyat – shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi hisoblanadi [1].

Psixolog olimlar S.L.Rubinshteyn, A.A.Leonteva, L.S.Vigotskiylarning fikrlariga ko‘ra, faoliyat shaxs rivojlanishining muhim asosi bo‘lgan psixologik xususiyatlar hamda shaxs ijtimoiy shakllanishining asosiy sharti hisoblanadi. Shuning uchun pedagogika uchun faoliyatdan tashqarida o‘quv-bilish va amaliy vazifalarni amalga oshirish mumkin emas [2]. O‘quv-bilish faoliyatining ijobiy natijasi – ta’lim oluvchilarning ijtimoiy tajribasi orqali avvalgi tajribasining o‘zgarishi, rivojlanishi hisoblanadi.

Ta’lim oluvchilarning faoliyatidan kelib chiqib, bilish faoliyati va o‘quv-bilish faoliyati tushunchalarining mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, bilish faoliyati – bu o‘quvchilarning voqea va hodisalarni tushunishi, idrok etishi va fikr bildirishi, fikrlarni bir-biriga bog‘lashi, voqea va hodisalardagi muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik o‘rnatishi. Ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati esa ta’lim sharoitida namoyon bo‘lishi uning o‘quv-bilish faoliyati sifatida o‘zixa xos ahamiyatga ega.

O‘quv-bilish faoliyati – bu ta’lim-tarbiya jarayonlarida o‘quvchilarning o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida bilim va harakat usullariniо‘zlashtirish va o‘z-o‘zini shaxs sifatida rivojlantirish faoliyatidir. Umumta’lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning istiqbolda yetuk mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga imkon beradigan o‘quv-bilish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishdan iborat.

O‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati bu nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, idrok qilish va amaliy faoliyat olib borish kabi faoliyatlarning mujassamlashishidir. O‘quvchilar o‘quv-bilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi ularning o‘z-o‘zini rivojlantirishga erishishlariga yordam beradi.

F.I.Xaydarovning fikriga ko‘ra, ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyati empirik va nazariy shart-sharoitlarning ma’lum ijodiy muloqoti ravishda tashkil etilgan jarayonda amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning bilish faoliyatiga faol ta’sir ko‘rsatib, ularning o‘quv faoliyatlarini hamda shu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan hatti-harakatlarni tashkil qiladilar. Bunday o‘quv faoliyati o‘qituvchi tomonidan tashkil etilib, boshqariladi hamda reproduktiv integratsiyalash asosida tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Ma’lumki, o‘quv faoliyati bilan ta’lim, tarbiya ishlari uzviy bog‘liqdir. U yoki bu fanlardan ta’lim berish orqali tarbiyalanadi va o‘quv-bilish faoliyati rivojlanadi [3].

T.I.Shamova o‘z ilmiy ishlarida o‘quv-bilish faoliyatining mazmuni va jarayoniga nisbatan namoyon bo‘ladigan shaxs sifatida, bilimlarni samarali o‘zlashtirishga va uni o‘zlashtirish usullariga intilishi, o‘quv maqsadlariga erishish uchun ixtiyoriy harakatlarni safarbar qilishda deb ta’kidlaydi. Shuningdek, bilim olishning har bir bosqichidagi faoliyat turlari va ta’lim oluvchilarning ijtimoiy samarali va ijtimoiy foydali ish, ijodiy muloqoti munosabatlarida, shuningdek, o‘quv jarayonida turli amaliy harakatlaridagi izlanish, tajriba, tadqiqot muammolarini hal qilish va boshqalar ta’lim jarayonida bilishning maxsus o‘quv-bilish faoliyatda shakllantirish kasb etadi [4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatida o‘qituvchi bilan hamkorlikda fikrlashi, dunyoqarashi hamda xulq-atvorini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat ehtiyojidan kelib chiqadi. Bilish faoliyatida esa o‘quvchi o‘z-o‘zini namoyon etadi, ijtimoiylashadi, faolligi oshadi hamda individual xususiyatlarini rivojlantiradi.

T.I.Shamova o‘z ilmiy izlanishlarida ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda quyidagi bir nechta talablarni ajratib ko‘rsatadi:

- o‘quvchilarga taqdim etiladigan nazariy bilimlar o‘quvchilarning asosiy amaliy harakatlaridan tarkib topishi;

- o‘quuvchilarning faolliklarini oshirish vositalari bilimlarni egallash usullari algoritmining faolligiga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

https://buxdu.uz

- o‘quvchilarni faollashtirish vositalarini tanlashda ta’limning muhim tarkibiy qismlariga ta’sir etgan holda bilishning har bir bosqichi aniq maqsad asosida amalga oshirilishi lozim [4].

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, mazkur faoliyatda o‘quvchilar obyektiv borliqni anglaydilar, tafakkur qiladilar. Shuningdek, fanning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetadilar. O‘quv-bilish faoliyatida o‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtiribgina qolmay, o‘zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash, saralash, tahlil qilish kabi harakatlarni ham amalga oshiradilar. O‘qituvchi taqdim etayotgan o‘quv materillari qay darajada qiziqarli amaliy xarakterga ega bo‘lsa, o‘quvchilarning bilish motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

O‘quvchilar aynan o‘quv-bilish faoliyatida bir-birlari bilan faol muloqotga kirishadilar, shuningdek, ularda idrok etish, tafakkur yuritish kabi qobiliyatlari rivojlanadi, ijtimoiy munosabatlari mustahkamlanadi, atrof-muhitdagi voqeliklarni anglab yetadi. O‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan har bir samarali darslarda ushbu faoliyat yanada rivojlanib boraveradi, shuningdek, o‘quvchilar o‘quv materialining mazmunini o‘zlashtirishga harakat qiladi.

O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqish ularda bilimlarni o‘zlashtirishdagi muvaffaqqiyatli natijasida paydo bo‘ladi va bu rivojlanib boraveradi. O‘quvchilar o‘quv-bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lganlarida amaliy faoliyatlari ham samarali tashkil etiladi. Shu sababli, o‘quvchilarning amaliy faoliyalarini tashkil etishda ularda kichik yutuqlaridan ham zavqlanish, quvonish tuyg‘ularini shakllantirishga e’tibor qaratish lozim [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishuvi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli, biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz [6]” deb ta’kidlagan edilar. Bu o‘z navbatida ta’lim jarayonlarini ilg‘or tajribalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarning o‘quv-bilish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligini anglatadi.

Metodologiya. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatining quyidagi bir nechta turlarini ajratish mumkin:

1. Og‘zaki bayon xarakteridagi o‘quv-bilish va amaliy faoliyati. Mazkur faoliyatga ko‘ra o‘quvchilarning darslik bilan ishlash; ma’lumotlar bilan tanishish; muammoli masalalarni hal etish; jamoaviy xarakterdagi o‘quv topshiriqlarini bajarish; ma’lumotlarni umumlashtirish, tahlil etish va qayta ishlash; amaliy mashg‘ulotlarni bajarish; tajriblar, kichik tadqiqotlar o‘tkazish; laboratoriya ishlarini bajarish; loyihaviy xarakterdagi vazifalarni amalga oshirish; internet tarmog‘i orqali yangi materiallarni izlab topish; didaktik materiallar tayyorlash; lug‘atlar bilan ishlash; mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish; savol-javoblarda ishtirok etish kabi faoliyatlari amalga oshiriladi.

2. Idrok qilish xarakteridagi o‘quv-bilish va amaliy faoliyati. Ushbu faoliyatga ko‘ra, o‘quvchilar atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni kuzatish; ularni tushuntirish; xulosa chiqarish; muammoli vaziyatlarni tahlil qilish; o‘zlashtirilgan bilimlar asosida o‘z fikr-mulohazalarini namoyish etish kabi faoliyatlari amalga oshiriladi.

3. Tajribaga yo‘naltirilgan o‘quv-bilish va amaliy faoliyati. Mazkur faoliyatga ko‘ra o‘quvchilar fanga doir masalalar bilan ishlash; didaktik materiallar bilan ishlash; ma’lumotlarni tahlil qilgan holda o‘z farazlarini ilgari surish; o‘zaro tajribalar almashish; natijalarni tahlil qilish; modellashtirish kabi faoliyatlarni amalga oshiradilar.

Tahlil va natijalar. O‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish masalasi ta’lim tizimining barcha bosqichlari uchun dolzarb hisoblanib, Tabiiy fanlar ta’limida ham muhim didaktik vazifalardan biridir. Chunki, Tabiiy fanlar darslarida o‘quvchilar atrof-olam, tabiat, tabiat resurslari, tabiiy jarayonlar, voqea va hodisalar hiqida keng tasavvurga ega bo‘ladilar, shuningdek, bularga doir tajribalar o‘tkazadilar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, kichik tadqiqotlarni amalga oshiradilar. Bunday faoliyat o‘quvchilarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishlariga yordam beradi, fikrlash, ijodkorlik va kommunikativ qobiliyatlari, shaxsiy mas’uliyatlilik hamda tasavvurlarini kengaytiradi. Tabiiy fanlar bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy ko‘nikmalar orqali notanish va nostandart vaziyatlarda qo‘llash usullariga ega bo‘ladilar.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning o‘quv-bilish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish usullarini tahlil qilish asosida bu borada quyidagi bir qator yo‘nalishlarni ajratish mumkin:

♣ o‘quvchilarning ta’lim jarayoni subyekti sifatida ishtirokini ta’minlash;

♣ ta’lim jarayonlarini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;

♣ shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonlarini tashkil etish4

♣ o‘quv materiallarini o‘quvchilarda o‘quv-bilish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘naltirilgan holda ishlab chiqish;

https://buxdu.uz

♣ fanlararo integratsiyani amalga oshirish;

♣ o‘quvchilarni o‘quv-bilish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida noan’anaviy dars usullaridan foydalanish;

♣ ta’limning ilg‘or texnologiyalari (loyihalash, muammoli ta’lim, interfaol ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, hamkorlikda o‘qitish va boshqalar)dan foydalanish;

♣ o‘quvchilarning kreativ xarakterdagi mustaqil ishlarini tashkil etish;

♣ o‘quvchilarni o‘quv-bilish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish [7].

O‘quvchilarning o‘quv-bilish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi psixologik omillarni hisobga olish zarur:

1) o‘quv faoliyatining tashkil etilishini izohlovchi sabablar (motivatsiya);

2) ma’lumotlarni hissiy qabul qilish jarayonining ixtiyoriyligi;

3) diqqatning barqarorligiga erishish;

4) xotirani mustahkamlash;

5) tafakkur va nutqni rivojlantirish;

6) o‘quvchilarning irodaviy sifatlari va shaxsiy fazilatlari (intiluvchanlik, tirishqoqlik, maqsad sari intilishi, intizomlilik, mas’uliyatlilik va boshqalar) [8].

O’quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatida faollik ko‘rsata olishlari ularning zarur bilim va malakalarni tezkor va samarali o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Bu o‘rinda “faollik” tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq [9]. O‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish jarayonini tizimli tashkil etish Tabiiy fanlar ta’limining samarali va natijali bo‘lishiga asos bo‘ladi. Kasbiy mahorati yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar hamda yangiliklarga intiluvchan va o‘quvchilar tajribasidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, ularning o‘quv-bilish va amaliy faoliyatini ham ta’limning turli xil zamonaviy shakllari, turlari, innovatsion texnologiyalar vositasida rivojlantirish maqsadga muvofiq [10].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, umumta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan barcha Tabiiy fanlar o‘qituvchilari ham o‘quvchilarning faoliyatini samarali tashkil etishga oid tajribalarga ega deya olmaymiz. Aksariyat o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalari va xorijiy tajribalardan samarali foydalana olmaydilar. Ular bu jarayonda o‘quvchilarda duch kelayotgan pedagogik-psixologik muammolar (yosh xususiyatlari, individual imkoniyatlari va boshqalar)ni kasbiy tajribalariga tayangan holda aniqlay olmaydilar. Shu sababli, bugungi kunda barcha Tabiiy fanlar o‘qituvchilarining o‘quvchilarda o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga hamda bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan e’tiborini oshirish zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. To‘xtaxo‘jaeva M.X. va b. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. 1-qism. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 385-b.

2. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. – М.: Владос, 1999. – 38.

3. Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. Общая психология. Т.: издание центра Науки и технологий, 2010.

4. Шамова Т.И. Активизация учения школьников. – Москва: Педагогика, 1982. – 209.

5. Alkarova F.N. O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish vaziyatlarini tashkil etish tizimi (Texnologiya fani misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent-2021. 33-36-b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasi.

7. Ковалёва А.И. Профессиональная мобильность // Знание, понимание, умение. – М.: 2012. - № 1. – С. 298-299.

8. Иванов Д. А., Митрофанов К. Г., Соколова О. В. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий. Учебно-методическое пособие. М.: АГТКИ-ИПО. - 2003. -101 с.

9. Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To’raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quv-metolik qo’llanma. – Toshkent: 2015. – 208 b.

10.Якиманская И.С. Технология личностно-ориентированного образования в современной школе. - Москва, 2010, 98 с.

https://buxdu.uz

DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA MAVZUNI STRUKTURALAB BILIM OLISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH METODIKASI
(“Nochiziq tenglamaning ildizini taqribiy hisoblash usullari” mavzusi misolida)

Nafasov Izzatbek Shernafasovich,
Urganch innovatsion universiteti katta o‘qituvchisi

Mazkur maqola fanning mazmunli strukturasini aniqlashga, shuningdek, maqsad va metodlarni predmetli yondashuv asosida nochiziq tenglamaning biror kesmadagi ildizlarini taqribiy aniqlash usullari bo‘yicha algoritmik tarzda modullik shakllantirilgan o‘qitish metodikasini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Modulning tarkibiy qismlari mantiqiy tuzilgan o‘quv elementlari bo‘lib, ular mazmunan va funksional jihatdan o‘zaro bog‘langan va bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tuzilish birliklari tizimli strukturalangan mantiqiy graf-sxema ko‘rinishida ifodalash taklif qilingan. O‘quv materialini tarkibini tizimlashtirilgan strukturalar asosida bayon qilish (ma’ruza, amaliy, tajriba) predmetning mazmuni, tub mohiyatini o‘zlashtirib olishda kompyuterlashgan muloqotli individual tarzda, ustoz-shogird ko‘rinishida tashkil qilish, vaqtni tejash, o‘quv jarayonini samaradorligini oshirish, takomillashtirishning optimal usullari, metodlarini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv rivojlanish, tizimli fikrlash, elektron ta’lim, o‘quv mazmuni strukturalash, modullashtirish.*

МЕТОДИКА СТРУКТУРИРОВАНИЯ ТЕМЫ И УСКОРЕНИЯ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ
(на примере темы «Методы приближённого вычисления корня нелинейного уравнения»)

Данная статья посвящена определению содержательной структуры дисциплины, а также совершенствованию методики обучения, сформированной в алгоритмическом виде модульности по методам приближённого определения корней нелинейного уравнения на некотором отрезке на основе предметного подхода к целям и методам. Компонентами модуля являются логически структурированные учебные элементы, которые представляют собой структурные единицы, взаимосвязанные и взаимозависимые в содержательном и функциональном аспектах. Предлагается представить их в виде системно структурированной логической граф-схемы. Изложение содержания учебного материала на основе систематизированных структур (лекция, практика, эксперимент) позволяет организовать компьютеризированное общение индивидуально, в форме “учитель-ученик”, экономить время, повышать эффективность учебного процесса, разрабатывать оптимальные методы и способы совершенствования.

Ключевые слова: *когнитивное развитие, системное мышление, электронное обучение, структурирование учебного содержания, модульность.*

METHODOLOGY FOR STRUCTURING A TOPIC AND ACCELERATING THE LEARNING PROCESS USING SOFTWARE TOOLS
(Using the example of «Methods for Approximate Calculation of Roots of Nonlinear Equations»)

This article focuses on determining the content structure of a discipline and improving the teaching methodology, presented in an algorithmic modular form, for methods of approximately determining roots of nonlinear equations within a given interval, based on a subject-oriented approach to goals and methods. The module components are logically structured learning elements, which are interconnected and interdependent structural units in terms of content and function. It is proposed to represent them as a systematically structured logical flowchart. Presenting educational material content based on systematized structures (lecture, practice, experiment) allows for organizing individualized computer-based communication in a "teacher-student" format, saving time, increasing the effectiveness of the learning process, and developing optimal methods and ways for improvement.

Keywords: *cognitive development, systems thinking, e-learning, structuring of educational content, modularity.*

Kirish. Ta’lim tizimida an’anaviy ta’lim bilan bir qatorda ta’limning boshqa yo‘nalishlari ham paydo bo‘ldi: aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga asoslangan rivojlantiruvchi,

https://buxdu.uz

muammoli, dasturlashtirilgan, belgi-kontekst tipidagi rivojlantiruvchi ta‘lim bo‘yicha o‘rganish, algoritmlashnirilgan, rivojlantirilgan o‘qitish, hamda loyiha asosida o‘qitish va boshqalar.

V.Okonning ta’kidlashicha zamonaviy axborotlashgan jamiyatda, kadrlar tayyorlash ko‘p qirrali murakkab jarayon sifatida, jumladan, turli yo‘nalishlarning turli elementlarini o‘z ichiga oladi. O‘qitishning bunday ko‘p qirraliligi o‘quvchilarning ham, o‘qituvchining ham imkoniyatlari va individual psixologik xususiyatlariga muvofiq ta’lim tizimining har bir darajasi uchun, har bir aniq o‘quv vaziyati uchun u yoki bu yo‘nalishning afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi. Umuman olganda, ta’limning ko‘p qirraliligi V. Okon tomonidan uning turli tarkibiy qismlari: ta’lim usullari, o‘qitish usullari va boshqalar yig‘indisi sifatida ifodalanadi (1-jadval) [1, 200 b.].

1-jadval.

O‘qitishning ko‘p qirraliligi (V.Okonning ta’biricha)

Ta’lim turlari	**O‘qitish metodlari**	**Fanning tarkibiy qismlari**	**O‘quvchining pozitsiyasi**	**Faoliyat strategiyasi**
Faoliyat	Amaliy	Normativ	Faol	Operativ
O‘zlashtiruvchi	Ta’lim beruvchi	Tavsiflovchi	Sezgir	Axborotli
Ochiqlik-shaffoflik	Muammoli	Tushuntiruvchi	Tadqiqotchi	Muammoli
Boshdan kechirish	Namoyish qiluvchi	Baholovchi	Ta’sirchan	Hissiy-hayajonli

Zamonaviy ta’limning amaliyot jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgan va yangicha axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlangan ta’lim tizimiga noan’anaviy ta’lim sharoitida o‘qitishning rivojlantiruvchi, dasturlashtirilgan, algoritmlashgan, loyihalashgan, muammoli, sun’iy intellektli, insonparvarlik pedagogikasi, neyropsixologiya, neyropedagogika, virtual pedagogik agentlar kabi modellarning jadal kirib kelishi kuzatilmoqda [2-8].

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqola modulli o‘qitishdan foydalangan holda texnika yo‘nalishi universitetlarida til asosiy bo‘lmagan mutaxassisliklar talabalari uchun chet tilini o‘qitishni tashkil etish va amalga oshirishning uslubiy asoslarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Maqolada texnika yo‘nalishi universitetlarining o‘quv jarayoniga modulli ingliz tili kursini yaratish va joriy etish bo‘yicha ishlarning asosiy bosqichlari ko‘rib chiqilgan [4].

Mazkur maqolada [5] ta'lim jarayonini tashkil etishda modulli yondashuvni amalga oshirishda o‘qitish mazmunini tizimlashtirish darajalari hisobga olinadi. Ta’lim mazmunidagi tarkibiy elementlarni aniqlash va modulli dasturni shakllantirish muammolari muhokama qilinadi. Modul-kompetentlik yondashuvi asosida besh yillik bakalavriat ta’lim yo‘nalishining mazmun tuzilishini (o‘quv rejasini) ishlab chiqish masalalari (“Informatika va matematika” ikkita o‘quv profiliga ega “Pedagogik ta’lim” yo‘nalishi misolida) maqolada muhokama qilingan.

Multimedia o‘quv majmuasini yaratish bo‘yicha o‘quv materialini tanlash va tuzish tamoyillarini aniqlash, o‘quv jarayonida yetakchi yondashuv AKT texnologiyasi sifatida tarmoq texnologiyasidan foqdalanish, o‘quv materialini o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish imkoniyatlari, asosiy natijalar va tanlov tamoyillarini (muvofiqlik, transdisiplinarlik, ratsionallik, qiyosiylik) va tuzilish strukturalarini (nochiziqlilik, klasterlash, kaskadlilik, modullilik) ilmiy asoslash masalalari ko‘rib chiqilgan [6].

Maqolada tizimli fikrlashni rivojlantirish nuqtayi nazaridan elektron ta’limning mazmunini ishlab chiqish va tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Elektron ta’lim vositalarining mazmunini ishlab chiqishning asosiy uslubiy tamoyillari belgilandi: didaktik muhandislik usullariga asoslangan strukturani loyihalash; idrok va tafakkur rivojlanishining differensial-integratsiya nazariyasi asosida o‘quv-uslubiy materialni tizimlashtirish; didaktik va uslubiy resurslarning pedagogik tajriba standartlari va texnik va texnologik o‘quv muhiti bilan bog‘liqligi. Didaktik muhandislikning uslubiy yondashuvlari, shuningdek, o‘quv jarayonida kognitiv sxemalarni shakllantirish va intellektni rivojlantirish qonuniyatlari qisqacha ko‘rib chiqilgan [7].

Maqola multimedia o‘quv majmuasi uchun o‘quv materialini tanlash va tuzish tamoyillarini aniqlash masalalariga bag‘ishlangan. Turli mantiqiy asoslar bo‘yicha yondoshilgan holda multimedia o‘quv majmuasining o‘quv materialini tanlash (muvofiqlik, fanlararolik, ratsionallik, qiyosiylik) va strukturalash (nochiziqlilik, klasterlik, kaskadlik, modullik) tamoyillarini ilmiy asoslash, hamda tuzish o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish imkonini beradigan tarmoq yondashuvi taklif qilingan [8].

Tahlil qilingan qisqacha materiallarda o‘quv materialini tarkibini, mazmunini strukturalash va modullarga ajratish bo‘yicha ko‘rib chiqilgan, biroq oliy ta’lim muassasalarida dasturlash fani mazmunini aniq metodik, mantiqiy mezonlar asosida tizimlashtirilgan strukturalar va kompyuterlashgan texnologiyalar vositasida o‘qitish, o‘quv jarayonini tashkil qilish va faollashtirishning metodik jihatlari maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, dasturlash asoslari fani mazmunini strukturalangan modullarini tizimlashtirish asosida

https://buxdu.uz

dasturiy agentlar yordamida talabalarni bilim olish jarayonini faollashtirish, jadallashtirish metodikasini ishlab chiqish bo‘yicha alohida izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Metodika. Nochiziq tenglamaning ildizlarini taqriban aniqlash mavzusini dekompozitsiyalash usuli yordamida strukturalangan graf sxemasini mantiqiy bo‘laklarga (tushunchalarga) ajratilgan elementlar ko‘rinishida tasavvur etish metodikasi [2,3] maqolada ko‘rib chiqilgan.

“Nochiziq tenglamaning $x \in [a,b]$ kesmadagi ildizlarini taqribiy aniqlash usullari” mavzusida ta’lim mazmuni strukturasini aniqlashga, shuningdek, maqsad va metodlarni takomillashtirishga predmetli yondashuv asosida nochiziq tenglamaning biror kesmadagi ildizlarini taqribiy aniqlash usullari bo‘yicha algoritmik tarzda modullik shakllantirilgan o‘qitishni ko‘rib chiqamiz [5, 8]. Modulning tarkibiy qismlari mantiqiy tuzilgan o‘quv elementlari (O‘E) bo‘lib, ular mazmunan va funksional jihatdan o‘zaro bog‘langan va bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tuzilish birliklaridir. Ta'lim elementining mazmuni o‘quv ma’lumotlarining kichikroq qismlari - ikkinchi va uchinchi tartibdagi o‘quv elementlari bilan ifodalanishi mumkin. Nochiziq tenglamaning ildizlarini biror kesmadagi (intervaldagi) ildizini taqriban aniqlash mavzusini (2-bosqich) modullik-strukturalangan mantiqiy sxemasini quyidagicha tasavvur etish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Mavzuning modullik-strukturalangan mantiqiy sxemasi

Pedagogik texnologiyalarning elementar birliklari tizimi modullardan tashkil topadi. Modul – pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi, uning tarkibiy bo‘laklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo‘laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to‘plami, modullar darajasi va modullarning majmuaviy tuzilmasi kabi turlardan iborat bo‘ladi. Modul – pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi, uning tarkibiy bo‘laklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo‘laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to‘plami, modullar darajasi va modullarning majmuaviy tuzilmasi kabi turlardan iborat bo‘ladi [5, 6]. Modulli o‘qitish – tartibli o‘qitish demakdir. Bunda o‘quv materiali bitta o‘quv mashg‘uloti hajmida, o‘quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo‘limi darajasida, ba’zan esa o‘quv fanining yirik tarkibiy qismi o‘lchamida, ya’ni bloklar tarzida ham modullar yordamida o‘qitilishi mumkin.

https://buxdu.uz

Strukturaviy elementlarni aniqlashda tizimli-faol yondashuvga asoslanib, modulli o‘qitish tizimi nazariy asoslarini o‘rganish, laboratoriya, amaliy, kurs va individual ishlarni bajarish uchun o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar (talabalar yoki o‘qituvchilar uchun) shaklida ishlab chiqilishi mumkin, yani modulli struktura asosida ishlab chiqilgan test topshiriqlari va boshqalar.

Modulli texnologiya asosan mavzuga, faoliyatga e’tibor qaratish yoki tizimli tuzilish asosida birlashgan o‘quv elementlarini o‘zlashtirishga innovatsion yondashuvning o‘quv-nazorat elektron dasturiy vositalarning model-algoritm-dastur kodini mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir.

Endi biz modullarning (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8) o‘quv elementlarini taqdim etish uchun mavzuning semantik graf sxemasini tuzamiz (2-rasm). Talabalar uchun modullarning grafik diagrammalari o‘quv ma’lumotlari hajmi va uni modulda ishlab chiqish tartibi haqida aniq tasavvur beradi. Modulning mantiqiy tuzilishi grafi nafaqat ta’lim elementlarining tarkibi va o‘zaro bog‘liqligini, balki o‘quv jarayonining dinamikasini, shuningdek, o‘qituvchining ta’lim faoliyati bosqichlari ketma-ketligini ham aks ettiradi. Umuman olganda semantik grafning uchlari (tugunlari) o‘quv elementlarini (O‘E) ifodalaydi, qirralari esa o‘quv elementlarining o‘zaro bog‘liqliklariga, mashg‘ulotlarining tartib raqamlariga mos keladi [2,3].

Semantik grafga asosan mavzuni bayon qilish jarayoni modullar ketma-ketligida, dinamik vaqt $T_j = \sum_{i=1}^{8} t_i$, $j = \overline{1,5}$ mobaynida, ya’ni dastlab 2.1. modulning O‘E1 - t_1, keyin O‘E2 - t_2 va hakozo t_5 vaqt davomida bajariladi.

Strukturaviy elementlarni aniqlashda tizimli-faol yondashuvga asoslanib, modulli o‘qitish tizimi nazariy asoslarini o‘rganish, laboratoriya, amaliy, kurs va individual ishlarni bajarish uchun o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, modulli struktura asosida ishlab chiqilgan test topshiriqlari va boshqalar (talabalar yoki o‘qituvchilar uchun) shaklida ishlab chiqilishi mumkin.



2-rasm. Nochiziq tenglamaning birorta kesmadagi ildizini taqriban aniqlash jarayonini tizimlashtirilgan semantik graf sxemasi asosida modullik o‘qitish

Shuning uchun har bir modul mazmunli tuzilmaga ega bo‘lib, unda biz quyidagi tarkibiy qismlarni aniqladik: nazorat, muvofiqlashtiruvchi, axborot-uslubiy ta’minot va monitoring qismlari (3-rasm).

Nochiziq tenglamaning birorta kesmadagi ildizini taqriban aniqlash jarayonini tizimlashtirilgan semantik graf sxemasi asosida modullik o‘qitish metodikasini oddiy iteratsiya (ketma-ket yaqinlashish) metodida ko‘rib chiqamiz.

1. Algebraik va transsendent tenglamalarni iteratsiya usulidan foydalanib yechish ketma-ketligi.

O‘E1. Berilgan *f(x) =0* tenglama, ildiz yotgan kesma $x \in [a,b]$ va hisoblash aniqligi ξ. $f(x) = 0$ tenglama $x = \varphi(x)$ kanonik ko‘rinishiga keltiriladi. Bunday amalni bajarishning bir qancha variantlari mavjud [9, bet 43].

$f(x) = 0$ tenglamani ikkala tomonini biror **“*k*”** songa ko‘paytirmiz va **“*x*”** o‘zgaruvchini qo‘shamiz (yoki ayiramiz), natijada $x = x + k f(x)$ yoki $x = x - k f(x)$ tenglamalar hosil bo‘ladi, bu yerda quyidagi iteratsiya tenglamasini hosil qilamiz.

$$\varphi(x) = x + kf(x) \qquad (1)$$

yoki

https://buxdu.uz

$\varphi(x) = x - kf(x)$. (2)



3-rasm. Fan modulining tarkibiy qismlari

Iteratsiya tenglamasini berilgan misolni yechish uchun qo‘llash shartini tekshiramiz. Maqsad $|\varphi'(x)| < 1$ shart $[a,b]$ kesmada bajarilishi talab qilinadi.

$$\varphi'(x) = 1 + kf'(x) \text{ yoki } \varphi'(x) = 1 - kf'(x)$$

Aytaylik, ***m*** va ***M*** – $f'(x)$ hosilaning $[a,b]$ oraliqdagi mos ravishda eng kichik va eng katta qiymati bo‘lsin.

Agar $f'(x)$ hosilani qiymati manfiy bo‘lsa, iteratsiya tenglamasi sifatida $x=x - k f(x), (k > 0)$ tenglamani, aks holda $x = x + k f(x), (k < 0)$ tenglamani qabul qilamiz. $\varphi(x)$ tenglama uchun uchun **“*k*”** parametrning qiymatini odatda iteratsiya shartlarni inobatga olgan holda ***k = 1/M*** deb qabul qilinadi, bunda iteratsiya jarayoni yaqinlashuvchan bo‘ladi.

O‘E2. Iteratsiya metodini xatoligini baholash. $x = \varphi(x)$ tenglamaning ildizi yotgan kesmaning biror x_0 nuqtasini izlanayotgan ildizning nolinchi yaqinlashishi deb olamiz. Navbatdagi yaqinlashishini topish uchun tenglamaning o‘ng tomoniga x_0 ni qo‘yamiz va hosil bo‘lgan $\varphi(x_0)$ qiymatini x_1 bilan belgilaymiz, ya’ni

$$x_1 = \varphi(x_0) \quad (3)$$

Topilgan x_1 sonni (3) ning o‘ng tomoniga qo‘yib, yangi son $x_2 = \varphi(x_1)$ ni hosil qilamiz. Bu jarayonni davom ettirib, p – yaqinlashish x_p ni $(p\text{-}1)$ – yaqinlashish x_{p-1}, yordamida topamiz:

$$x_n = \varphi(x_{n-1}) \quad (n = 1,2,3,\ldots) \quad (4)$$

Bu formula yordamida topilgan sonlar ketma-ketligining limiti, ya’ni

$$\lim_{n\to\infty} x_n = x^* \quad (5)$$

mavjud va $\varphi(x)$ funksiya uzluksiz bo‘lsa, (5) tenglikning har ikkala tomonida limitga o‘tib,

$$x^* = \lim_{n\to\infty} x_n = \lim_{n\to\infty} \varphi(x_{n-1}) = \varphi(\lim_{n\to\infty} x_{n-1} = \varphi(x^*),$$

ya’ni

$$x^* = \varphi(x^*)$$

https://buxdu.uz

ga ega bo‘lamiz. Bu tenglikdan ko‘rinadiki, x^* berilgan tenglamaning ildizi ekan. Demak, bu ildizni (4) formula yordamida istalgan aniqlik bilan hisoblash mumkin. (5) limit mavjud bo‘lgan holda *iteratsiya jarayoni yaqinlashuvchi* deyiladi. Lekin $\lim\limits_{n\to\infty} x_n$ mavjud bo‘lmasligi ham mumkin, bunday holda oddiy iteratsiya usuli maqsadga muvofiq bo‘lmaydi.

O‘E3. Iteratsiya metodi sodda geometrik ma’noga ega. Buni tushunish uchun $y_1 = x$ va $y_2 = \varphi(x)$ funksiyalarning grafiklarini chizamiz. Bu grafiklarning kesishgan nuqtasining abssissasi $x = \varphi(x)$ tenglamaning $x = x^*$ ildizidir (4-rasm).



4-rasm. Iteratsiya metodining geometrik ko‘rinishi

O‘E4. $f(x) = 0$ tenglamaning $[a,b]$ kesmadagi ildizini iteratsiya metodida aniqlash algoritmi:

1. $[a,b]$ oraliqda iteratsiya shartini qanoatlantiruvchi ixtiyoriy nuqta $a \le x_0 \le b$ tanlanadi, va argumentni dastlabki yaqinlashishi deb hisoblash mumkin, ya’ni $x = x_0$;

2. Argumentning keyingi qiymati $y = \varphi(x)$ hisoblanadi (argumentning izlanayotgan qiymati **“*y*”** deb belgilandi);

3. Argumentning ikkita ketma ket qiymati orasidagi farqning absolyut qiymati hisoblanadi, $d = |y - x|$ va ***y* = *x*** deb olinadi;

4. Agar $d > \xi$ shart bajarilsa hisoblash jarayoni 2-banddan boshlab davom ettiriladi, aks holda tenglamaning yechimi ξ aniqlikda hisoblangan deyiladi va keyingi bandga o‘tiladi;

5. **“*x**”** ning qiymati bosmaga chiqariladi va hisoblash jarayoni to‘xtatiladi.

$f(x) = 0$ tenglamani $[a,b]$ kesmadagi ildizini ξ aniqlikda yechish namunasi.

Misol. $\arcsin(2x+1) - x^2 = 0$, $x \in [-0{,}5;0]$, $\xi = 0{,}0001$. Iteratsiya formulasini keltirib chiqarish:

Variant–1. $\arcsin(2x+1) - x^2 = 0 \rightarrow \arcsin(2x+1) = x^2 \rightarrow \sin(\arcsin(2x+1)) = \sin x^2$ $\rightarrow 2x+1 = \sin x^2 \rightarrow x = 0.5(\sin x^2 - 1) \rightarrow \varphi(x) = 0.5(\sin x^2 - 1)$.

Variant-2. $\arcsin(2x+1) - x^2 = 0 \rightarrow \arcsin(2x+1) = x^2 \rightarrow x = \sqrt{\arcsin(2x+1)}, \rightarrow$ $\varphi(x) = \sqrt{\arcsin(2x+1)}$.

Variant-3. $k(\arcsin(2x+1) - x^2) = 0, \rightarrow x = x \pm k(\arcsin(2x+1) - x^2), \rightarrow$ $\varphi(x) = x + k(\arcsin(2x+1) - x^2)$ yoki $\varphi(x) = x - k(\arcsin(2x+1) - x^2)$.

Yuqorida keltirib chiqarilgan iteratsiya formulalaridan eng soddasi $\varphi(x) = 0.5(\sin x^2 - 1)$.

Iteratsiya usulini qo‘llash shartini tekshiramiz:

https://buxdu.uz

$|\varphi'(x)|<1,\ x\in[-0{,}5;0]$. $\varphi'(x)=x\cos x^2$. $x=-0.5$ da $\left|-0{,}5\cos(-0{,}5)^2\right|<1$. $x=0$ da $|\varphi'(x)|=0$.

Demak, $x=-0.5$ nuqtada iteratsiya sharti o‘rinli, iteratsiya jarayoni yaqinlashuvchan. Berilgan misolni iteratsiya usulida yechish algoritmini blok sxemasi 5-rasmda keltirilgan. Iteratsiyalar sonini hisoblash uchun *n* o‘zgaruvchi ko‘llanilgan.

O‘E5, O‘E6, O‘E7 lar amaliy mashg‘ulotda bajariladi, ya’ni iteratsiya algoritmining dasturi tuziladi, dastur sozlanadi, testdan o‘tkaziladi va natija olinadi. Mazkur masalani turli xil aniqlikdagi yechimlari eksperiment qilinadi va xatoliklar baholanadi.

Natija. Misolni yechish dasturi C# tilida tuzildi, olingan natija quyida keltirilgan:

```
a, b, eps = -0.5  0  0.00001

a = -0.5   b = 0
 x = -0.50000000   y = -0.37629802
 x = -0.37629802   y = -0.42943626
 x = -0.42943626   y = -0.40831401
 x = -0.40831401   y = -0.41702547
 x = -0.41702547   y = -0.41348254
 x = -0.41348254   y = -0.41493194
 x = -0.41493194   y = -0.41434040
 x = -0.41434040   y = -0.41458206
 x = -0.41458206   y = -0.41448337
 x = -0.41448337   y = -0.41452368
 x = -0.41452368   y = -0.41450722
 x = -0.41450722   y = -0.41451394
   x = -0.414514       Iteratciyalar soni = 12
d = 0.00000672   eps = 0.00001000
x = -0.41451394   f(x) = -0.00000557
```



5-rasm. Iteratsiya usulining blok sxemasi

O‘E8. Talabalarga individual topshiriqlar (misollar, savollar, testlar) beriladi va mavzuni o‘zlashtirilganlik darajalari aniqlanadi.

https://buxdu.uz

Xulosa. Shunday qilib, fanning mantiqiy grafik-semantik tuzilishiga asoslangan holda universitet talabalarini o‘quv jarayonida zamonaviy multimedia texnologiyalaridan foydalanishga kompyuterli o‘qitish va malakasini oshirishning taqdim etilgan metodologiyasi axborot texnologiyalari sohasida ta’limning zamonaviy konsepsiyasini hayotga tatbiq etish va zamonaviy o‘qitish uslublarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yaratilgan zamonaviy elektron resurslar bazasi nafaqat o‘quvchilarning o‘zlari o‘qiyotgan fanlariga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, balki o‘qituvchilarning o‘zlari ham o‘zining arsenalida bo‘lgan va boshqalarga foydalanish imkoni bo‘lmagan bebaho ishlanmalarini saqlab qolish imkonini beradi.

Talabalar tomonidan bilimlarni qabul qilish va o‘zlashtirish jarayonlarini samaradorligini oshirish uchun, talabalarning intellektual salohiyatini va kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida fanning axborotli o‘quv uslubiy ta’minoti qismidagi o‘quv elementlarini turlicha variantlarda konstruksiyalash, strukturalash, dekompozitsiyalash, ta’lim jarayonini monitoring qilish masalalari keyingi izlanishlarimizda ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar:

1. Оконь В. Введение в общую дидактику. – М.: Высшая школа, 1990. – с. 384.
2. Yusupov F., Nafasov I. S. (2023). Methodology of Student Activation on the Subject of Determining the Roots of a Nonlinear Equation Based on a Decomposited Graph Scheme. // European Journal of Education and Applied Psychology 2023, No 3. https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-3-31-35
3. Yusupov F., Nafasov I. S. (2023). A Method of Student Activation Using Software Tools to Determine the Root Section of a Nonlinear Equation // Electronic Journal of Actual Problems of Modern Science, Education and Training 2023, No 11. http://khorezmscience.uz. – pp. 4-14.
4. Ковалева Ю. Ю. Методические основы применения модульного обучения в системе иноязычной подготовки студентов неязыковых специальностей//Социально-экономические явления и процессы. № 5-6 (027-028), 2011. – с. 300-305.
5. Лозинская А.М. Модель содержательной структуры программы бакалавриата «Педагогическое образование, информатика и математика»: модульно-компетентностный подход // Педагогические образование в России. № 7. 2016. – с. 183-191.
6. Лозинская А.М. (2018). Вопросы развития системного мышления в процессе электронного обучения: дифференционно-интеграционный подход // Educational Technology & Society. 21. 409-421.
7. Халметов Т.А. Принципы отбора и структурирования учебного материала мультимедийного обучающего комплекса // Проблемы современного педагогического образования. 2018. № 58-3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-otbora-i-strukturirovaniya-uchebnogo-materiala-multimediynogo-obuchayuschego-kompleksa (дата обращения: 26.01.2025).
8. Журин А.А. Традиционные и инновационные принципы отбора и структурирования содержания обучения // Естественнонаучное образование: новые горизонты. М.: МГУ. – 2017. – с. 11-43.
9. Isroilov M.I. Hisoblash metodlari: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik // 2-nashri. – T.: O‘zbekistan, 2003. – 440 b.

https://buxdu.uz

TALABALARNING TABIIY GEOGRAFIYAGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA “FLIPPED CLASSROOM” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Shodiyeva Go‘zal Raxmatullayevna,
Navoiy davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasi o‘qituvchisi

Ushbu maqolada geografiya ta’limida ta’lim oluvchilarning kreativ fikrlashini oshirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish, geografiya ta’lim jarayonini optimallashtirish hamda undagi turkum muammolarni yechishning nazariy-metodologik, uslubiy asoslarni takomillashtirish masalalari yoritilgan bo‘lib, mazkur faoliyatda “Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanishning ta’lim samaradorligidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, “Flipped Slassroom” texnologiyasining asosiy vazifalari, uning an’anaviy o‘qitish bilan qiyosiy tahlili hamda shaxsiy yondashuvni amalga oshirishdagi ijobiy ta’siri haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Keywords: *tabiiy fanlar, geografiya fanini o‘qitish, “Flipped Classroom” texnologiyasi, raqamli texnologiyalar, talabalarning faolligi, zamonaviy texnologiyalar, loyiha ishlari, integratsiya, mustaqil faoliyat.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ “FLIPPED CLASSROOM” В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ЕСТЕСТВЕННОЙ ГЕОГРАФИИ

В данной статье освещаются вопросы повышения креативного мышления обучающихся в географическом образовании, развития их профессиональной компетентности, оптимизации процесса обучения географии и совершенствования теоретико-методологических и методических основ решения ряда проблем в этой области. Особое внимание уделяется роли и значению использования технологии “Flipped Classroom” для повышения эффективности обучения. Также представлены рассуждения об основных задачах технологии “Flipped Classroom”, её сравнительный анализ с традиционным обучением и положительное влияние на реализацию личностного подхода.

Ключевые слова: *естественные науки, преподавание географии, технология “Flipped Classroom”, цифровые технологии, активность студентов, современные технологии, проектная работа, интеграция, самостоятельная деятельность.*

USING THE “FLIPPED CLASSROOM” TECHNOLOGY IN DEVELOPING STUDENTS’ COMPETENCE IN NATURAL GEOGRAPHY

This article discusses the issues of improving the creative thinking of students in geography education, developing their professional competence, optimizing the process of geography education and improving the theoretical, and methodological foundations for solving a series of problems in it, and the role and significance of using the “Flipped Classroom” technology in this activity in educational effectiveness. Also, the main tasks of the “Flipped Classroom” technology, its comparative analysis with traditional teaching, and the positive impact on the implementation of an individual approach are presented.

Keywords: *natural sciences, teaching geography, “Flipped Classroom” technology, digital technologies, student activity, modern technologies, project work, integration, independent work.*

Kirish. Dunyo miqyosida tabiiy fanlarni, jumladan, geografiya fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, masofaviy o‘qitish tizimlari, raqamli o‘quv vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanib, bo‘lajak geografiya mutaxassislarining okean qismlari, tog‘larning tuzilishi, orollar va chekka nuqtalar, dunyo mamlakatlarining chegaralari, tabiiy boyliklari, iqtisodiy rivojlanishiga oid ijodiy qobiliyatini oshirish maqsadida hamda ularning mantiqiy, kognitiv fikrlashi va kompetentligini shakllantirish, rivojlantirish masalalariga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ta’lim oluvchilarning dunyo geografiyasini o‘rganishda, kreativ fikrlashini oshirish va kasbiy kompetentligini rivojlantirish, geografiya ta’lim jarayonini tizimlashtirishda, undagi turkum muammolarni yechishning nazariy-metodologik hamda uslubiy asoslarni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarning takomillashuvi tufayli ta’lim jarayonida, uning imkoniyatlaridan foydalanishning yangicha yondashuvlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga, jumladan geografiya ta’limiga samarali tatbiq etish usullaridan biri, bu “Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanish takomillashtirishni anglatadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. “Flipped Slassroom” texnologiyasini tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dastlab, Rossiya pedagogika fanlari akademiyasining a’zosi Militsa Neshkina birinchi marta 1984-

https://buxdu.uz

yilda teskari sinf modelini taklif qilgan. 1980 va 1990-yillarda Rossiyadagi o‘qituvchilar ushbu ta’lim strategiyasi bo‘yisha pedagogik tajriba-sinovlarini olib borgan [1]. 1993-yilda Alison King *“From sage on the stage to guide on the side”* nomli asarini nashr etdi, unda mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan oldin, uning o‘quvchilarga o‘rganib kelishni vazifa sifatida berishni tavsiya etadi. Alison King asarida “Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanishga oid manbalar keltirilgan bo‘lmasa-da, ammo ilgari surgan g‘oyasi ushbu masalalarga qaratilgan [2].

Garvard professori Yerik Mazur tengdoshlar ushun o‘qitish deb atagan ta’lim strategiyasini ilgari surish orqali teskari o‘qitishga ta’sir qiluvshi konseptsiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynadi. Bu 1997-yilda strategiyani aks ettiruvshi *“Peer Instrustion: A User's Guide”* nomli kitobni nashr etdi. U fanga oid yangi mavzuni auditoriyadan tashqari vaqtda o‘rganishni taklif yetgan. Shunki Yerik Mazur olib borgan tadqiqoti natijasidan shuni xulosa qilganki, ya’ni auditoriyadagi ma’ruza mashg‘ulotini talabalar mustaqil o‘rganib kelsa va mashg‘ulot vaqtida tushunmagan savollariga javob olsa samarali ekanligini aniqladi [3].

Yerik Mazurning tadqiqotlari asosida Viskonsin-Madison universitetida informatika kursidagi ma’ruzalarni ma’ruzachining taqdimotini videolar bilan almashtirishga oid tadqiqot ishlari olib borildi [4]. 1990-yillarning oxirida J.Uesli Beyker xuddi shu g‘oyalar bilan Sidarvil universitetida tajriba o‘tkazgan. U 2000-yilda bo‘lib o‘tgan ta’lim konferensiyasida “sinfdagi burilish” deb atagan ma’ruzasini taqdim yetdi. Bu o‘qitish va o‘rganishning ushbu modeli bilan bog‘liq bo‘lgan “*flip*” so‘zining birinchi nashr etilgan eslatmasi bo‘lishi mumkin [5]. Shu kabi, ya’ni 2000-yilda *Lage, Platt* va *Treglia* kollejning ikkita iqtisod kursiga qaratilgan tadqiqotlarida, sinfning inversiyasidan (ma’lumot taqdimotini ma’ruza orqali kompyuter yoki videomagnitafon kabi ommaviy axborot vositalariga ko‘chirish) foydalanish mumkin, deb ta’kidlaydilar. Bunda turli xil ta’lim uslublari bilan talabalarning ehtiyojlarini qondirishni ilgari suradi [6].

Bundan so‘ng, “Kaw va Hess 2007-yilda ATEM kursining bitta mavzusi ushun to‘rtta o‘qitish usullarining samaradorligi solishtirilgan maqola shop etishdi – (I) an’anaviy ma’ruza, (II) aralash (“Veb-takomillashtirilgan ma’ruza” deb atashgan), (III) Internetga asoslangan mustaqil ta’lim va (IV) teskari (ular buni “Veb-asosidagi mustaqil ta’lim va sinfda muhokama” deb atashgan)” [7]. *A.Kaw, M.Hesslarning fikriga ko‘ra,* yuzma-yuz ma’ruza o‘qitish ushun vebga asoslangan modullardan foydalanilgan ikkinchi modallik talabalar samaradorligi va qoniqish darajasining yuqori bo‘lishiga olib keladi.

2008-yilda esa Jonatan Bergman va Aaron Samslar tomonidan “Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanish g‘oyalarini ilgari surgan. Ularning tadqiqotlarida o‘rta maktabda birinchi navbatda dars qoldirgan o‘quvchilarga, so‘ngra uyda mavzu materiallarini ko‘rish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini qadrlagan sinfdagi barcha o‘quvchilarga yordam berish ushun ishlatilgan. Bu o‘qituvchilarga o‘z ta’lim usullarini va butun tizimni qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini berdi. Dastlab D.Bergman va A.Sams o‘zlarining dars materiallarini *Power Point* dasturidan foydalanib taqdim etgan. Keyin taqdimotlar o‘rnini videodarslar va videolavhalar yegallagan [8].

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilgari surgan nazariyalari asosida bugungi kunda ta’lim tizimida, jumladan oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitishda foydalanilib kelinmoqda. Shu bois, ayni paytda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida fanlarni, jumladan geografiya fanlaridan mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda “Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb yetadi. Bunda mashg‘ulotlarga oid mavzularni samarali o‘zlashtirish va muammoli masalalarni yechish qobiliyatini oshirishga hamda hamkorlikda va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘rganishni amalga oshirish imkoniyatiga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Flipped Slassroom” texnologiyasini asosiy vazifasi mashg‘ulot mavzularini talabalarga oldindan ilmiy-metodik manbalardan, elektron ta’lim resurslardan, jumladan ta’limga oid videolardan foydalanib o‘rganishni nazarda tutadi. Mashg‘ulot vaqtida yesa professor-o‘qituvchi bilan talabalar mavzuga oid muammoli masalalarni birgalikda muhokoma qilish orqali yechimini topishga yo‘naltiradi. Bu yesa fanlarni, shu jumladan geografiya fanlarini o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda geografiya fanlaridan mashg‘ulot mavzulari mustaqil o‘rganishga o‘tkaziladi. Ya’ni, talaba ma’lum bir mashg‘ulot mavzusini oldindan mustaqil ravishda elektron o‘quv vositalardan, jumladan videoma’ruzalardan va videolavhalardan foydalanib o‘rganadi, mashg‘ulot vaqtida yesa talabalar tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlashtirishlari, olgan bilimlarini amalda qo‘llashlari, shuningdek, bir-birlari bilan fikr almashishlariga erishiladi. Mashg‘ulot davomida professor-o‘qituvchi instruktor, maslahatchi vazifasiga o‘tadi. Buning natijasida geografiya fanlariga oid mashg‘ulotlar bahs-munozarali tashkil etishga va talabalarning mantiqiy, kreativ fikrlashga yo‘naltiradi.

“Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanish orqali nafaqat talabalarga ma’lumotlarni samarali yetkazishni, balki professor-o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar yordamida mashg‘ulotlarni loyihalash kompetentligini rivojlantirishga erishiladi [9]. Ushbu texnologiya talabalar va professor-o‘qituvchilar ushun samarali bo‘lishi mumkin, bu muammoli masalalarni chuqurroq o‘rganishni, mashg‘ulotlarni samarali tashkil

https://buxdu.uz

etishni ta’minlaydi. Shu bilan birga qisqa, ammo keng qamrovli videolar orqali o‘qitiladigan material sifatini oshirishga imkon beradi.

“Flipped Slassroom” texnologiyasi aralash ta’lim turi bo‘lib, u talabalarni auditoriyadan tashqarida mavzularni o‘rganishni, mashg‘ulot vaqtida jonli muammolarni yechish ustida ishlash orqali talabalarning faolligi va o‘rganishini oshirishga qaratiladi [10]. Ushbu pedagogik uslub mashg‘ulotlarni, shu jumladan an’anaviy ravishda mustaqil topshiriq vazifasiga o‘tkazadi. Bunda talabalar onlayn ma’ruzalarni tomosha qiladilar, onlayn munozaralarda hamkorlik qiladilar yoki uyda tadqiqot olib boradilar.

An’anaviy auditoriyada o‘qitish professor-o‘qituvchi odatda mashg‘ulotni yetakchisi, diqqat markazida va mashg‘ulot davrida asosiy ma’lumot tarqatuvshi hisoblanadi. Bunda professor-o‘qituvchi savollarga javob beradi, talabalar yesa fikr-mulohazalar ushun bevosita murojaat qiladilar. Ko‘pgina an’anaviy o‘qitish modellari individual darslarning ma’ruza uslubidagi taqdimotlariga tayanadi, talabalarning faolligini, ular mustaqil ravishda yoki kishik guruhlarda professor-o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan amaliy topshiriqlar bo‘yisha faoliyat bilan cheklaydi. Professor-o‘qituvchi odatda auditoriya muhokamalarida markaziy o‘rinni egallaydi va suhbatning borishini nazorat qiladi [8]. Odatda, bu o‘qitish uslubi talabalarga auditoriyadan tashqarida darsliklardan o‘qish yoki tushunshalarni, masalalar to‘plami ustida ishlash orqali mashq qilish kabilarni ham o‘z ichiga oladi [11].

“Flipped Slassroom” texnologiyasini farqli jihatlari mavjud bo‘lib, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan modelga o‘tkazadi, bunda talabalar ko‘pinsha auditoriyadan tashqarida yangi mavzular bilan tanishadilar, mavzularni shuqurroq, mazmunli o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. “Flipped Slassroom” texnologiyasi turli shakllarda bo‘lishi mumkin, ko‘pincha professor-o‘qituvchi yoki ushinshi tomonlar tomonidan tayyorlangan videoma’ruzalarni, videodarslarni, videolavhalardan foydalanib, garchi muqobil ravishda onlayn hamkorlikdagi munozaralar, raqamli tadqiqotlar va matn o‘qishlari ishlatilishi mumkin [12].

“Flipped Slassroom” texnologiyasi faoliyatni ham qayta belgilaydi. Auditoriya bilan birga olib boriladigan mashg‘ulotlar professor-o‘quvchilarni tarkibga jalb qilish ushun boshqa amaliyotlar qatorida faollik o‘rganish yoki mustaqil ta’lim topshiriqlari ko‘proq an’anaviy muammolarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunda auditoriya faoliyati turlisha bo‘lishi mumkin, lekin quyidagilarni o‘z ishiga oladi:

- zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- turli tajribalar o‘tkazish;
- manbalarning asl tahlili, bahs yoki nutq taqdimoti;
- joriy voqealarni muhokama qilish;
- loyiha ishlarini bajarish.

Faol ta’limning bunday turlari yuqori darajada tabaqalashtirilgan ta’lim berishga imkon berganligi sababli, talabalar murakkab topshiriqlarni bajarish, muammoni yechimini topish, hamkorlik qilish, loyihalash va muammolarni hal qilish kabi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlariga auditoriyada ko‘proq vaqt sarflashi mumkin. Shuningdek, professor-o‘qituvchi va tengdoshlari yordamida guruhlarda ishlash, tadqiqot ishlarini olib borish va kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Bu borada B.Tusker [13], M.Fitzpatrisk [14], D.Berrett [15], *F.Strayer Jeremy [16]* larning fikriga ko‘ra, “Flipped Slassroom” texnologiyasi yordamida professor-o‘qituvchining talabalar bilan o‘zaro munosabati o‘zgaruvchan sinfda ko‘proq shaxsiylashtirilgan va kamroq didaktik bo‘lishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Bizning fikrimizsha, “Flipped Slassroom” texnologiyasi zamonaviy aralash ta’lim (“Blended Learning”) texnologiyasining tarkibiy qismlaridan biri sifatida talabalarni fandan, shu jumladan tabiiy geografiya fanidan rejalashtirilgan mavzularni o‘zlashtirishi yoki qo‘shimcha ta’lim olishda qo‘llaniladi. Shuning ushun “Flipped Slassroom” texnologiyasini an’anaviy o‘qitish bilan qiyosiy tahlilini keltirdik (1-jadval).

1-jadval.

An’anaviy o‘qitish va “Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanib o‘qitishning qiyosiy tahlili

Ta’lim jarayoni	**An’anaviy o‘qitish**	**“Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanib o‘qitish**
Professor-o‘qituvchining mashg‘ulotga tayyorlanishi	Mashg‘ulotga tayyorlanib beriladigan vazifalarni ishlab shiqish	Talabalarga topshiriq beradi: test javoblarini ko‘ring; qiyin savollarni aniqlang; o‘qitish va rivojlantirish vazifalarini tanlang.
Mashg‘ulotlarni borishi	Professor-o‘qituvchi yangi materialni tushuntiradi, talabalar olgan bilim, ko‘nikma va	Professor-o‘qituvchi talabalarni muammoli masalalarni yechishga va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltiradi

https://buxdu.uz

	malakalarga ega bo‘ladi	
Mavzularni bayon etish	Professor-o‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi, talabalar egallagan bilimlarini mustahkamlaydi, mustaqil ta’lim topshiriqlarini mustaqil bajaradi	Talabalar mustaqil ravishda videorolikni tomosha qiladilar va savollar tayyorlaydilar. Professor-o‘qituvchi talabalarni muammoli masalalarni yechishga oid ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi
Bilimlarni uzatish	O‘quv materiali professor-o‘qituvchidan talabaga passiv shaklda o‘tadi	Bilimlar interaktiv o‘zaro ta’sir elementlari bilan mustaqil ravishda olinadi
Usullari, texnologiyalari	Interaktiv texnologiyalar	Interaktiv texnologiyalar, muloqot, hamkorlik
Yondashuvlar	Differensiallashgan	Shaxsga yo‘naltirilgan
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	Multimedia va veb- texnologiyalar	Offise 365 xizmatlari, Google, Veb 2, Moodle va boshqalar
Talabalar faoliyati	Passiv	Faol
Talaba	Faoliyat sxemasiga muvofiq o‘rganadi. Auditoriyada intizomni saqlaydi, savollarga javob beradi va tushunmagan savollarni so‘raydi	Mavzuni mustaqil o‘rganadi va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi. Bahs-munozarada ishtirok etadi, o‘z fikrini bayon etadi, muammoni yechish ushun o‘z variantini taqdim etadi
Professor-o‘qituvchi	Diktorlik vazifasini bajaradi, bilimlarni uzatish va nazorat qilishni amalga oshiradi hamda auditoriyani boshqaradi	Yo‘naltiruvshi va maslahatshi vazifasini bajaradi, o‘quv faoliyatini loyihalashni amalga oshiradi

Jadvalga ko‘ra, “Flipped Slassroom” texnologiyasi shaxsiy yondashuvni amalga oshirish ushun asos bo‘lib xizmat qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- faol ta’lim olish imkoniyatini taqdim etadi;
- o‘quv jarayoniga muammoli ta’lim va axborot texnologiyalari vositalarini integratsiyasini ta’minlaydi;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni taqdim etadi;
- jamoada ishlash ushun sharoit yaratadi;
- o‘quv fanlari doirasida talabalarning yetakchilik fazilatlarini rivojlantiradi.

“Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanadigan professor-o‘qituvchilar videolar o‘quv jarayoniga integratsiya qilishga oid malakalarga ega bo‘ladi. Bu borada B.Takerning ta’kidlashisha, “Flipped Slassroom” texnologiyasini o‘quv jarayonida foydalanilganda talabalar bilan individual suhbat o‘tkazish, ayrim ilmiy tushunshalarga aniqlik kiritish, shuningdek, ba’zi bir hodisalar haqidagi mulohazali fikrlarga talqin qilishga erishiladi. Shu bilan birga mavzular ustida har bir talaba bilan individual ishlash imkonini beradi. Bu tabiiy geografiyaga oid fanlarni samarali o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb yetadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Flipped Slassroom” texnologiyasidan foydalanishni tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu o‘qitish texnologiyasi Davlat ta’lim standarti talablariga javob beradi, talabalarda meta-mavzu ko‘nikmalarini rivojlantiradi, auditoriyadan tashqarida tabiiy geografiyaga oid materialni mustaqil o‘rganish, talabalarning geografiya fanini o‘zlashtirishga oid motivatsiyani oshiradi, turli xil haqiqiy videodarslar tufayli geografik tassavuri shakllanadi, o‘rganishni shaxsiylashtiradi va o‘quv materiallarini tushuntirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Nechkina Militsa (1984). "Increasing the effectiveness of a lesson". Communist (2): 51.
2. King, Alison (1993). "From sage on the stage to guide on the side". College Teaching. 41 (1): 30–35. doi:10.1080/87567555.1993.9926781.
3. Crouch & E. Mazur (2001). Peer Instruction: Ten Years of Experience and Results, Am. J. Phys., v69, 970–977.

https://buxdu.uz

4. Foertsch, Julie; et al. (2002). "Reversing the Lecture/Homework Paradigm Using eTEACH® Web-based Streaming Video Software". Journal of Engineering Education. 91 (3): 267–274. doi:10.1002/j.2168-9830.2002.tb00703.x. S2CID 110788356

5. Baker J.W. “The 'Classroom Flip”: Using Web course management tools to become the Guide by the Side." In J. A. Chambers (Ed.), Selected papers from the 11th International Conference on College Teaching and Learning (2000), pp. 9–17. Jacksonville, FL: Florida Community College at Jacksonville.

6. Maureen Lage, Glenn Platt, Michael Treglia (2000), Inverting the Classroom: A gateway to Creating an Inclusive Learning Environment, Journal of Economic Education.

7. Kaw A., Hess M. (2007). "Comparing Effectiveness of Instructional Delivery Modalities in an Engineering Course". // International Journal of Engineering Education. 23 (3): 508-516.

8. Bergmann J. & Sams A. Flip your classroom: reach every student in every class every day. Eugene, OR.; Alexandria, VA.: ISTE ; ASCD, 2012.

9. Things You Should Know About Flipped Classrooms. // [Электронный ресурс] URL: http://www.educause.edu/library/resources/7-things-you-should-know-about-flipped-classrooms. (дата обращения 13.03.18)

10. Iacopo Falciani (2020). "Flipped classroom". Europass Teacher Academy. Retrieved 2022-12-16

11. Berrett D. How ‘flipping‘ the classroom can improve the traditional lecture // The Chronicle of Higher Education, Feb. 19, 2012.

12. Fitzpatrick M. Classroom lectures go digital. The New York Times, June 24, 2012. 9.

13. Tucker B. The Flipped Classroom // Education Next, Winter, vol. 12, No. 1, 2012.

14. Fitzpatrick M. Classroom lectures go digital. The New York Times, June 24, 2012. 9.

15. Berrett D. How ‘flipping‘ the classroom can improve the traditional lecture // The Chronicle of Higher Education, Feb. 19, 2012.

16. Strayer, Jeremy F. (2012). "How learning in an inverted classroom influences cooperation, innovation and task orientation". // Learning Environments Research. 15 (2): 171–193. doi:10.1007/s10984-012-9108-4. S2CID 43993532.

https://buxdu.uz

MATEMATIKANI O‘QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING O‘RNI

Raximov Nasriddin Nomozovich,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Matematika kafedrasi mudiri, dotsent
nasriddin.raximov@inbox.ru
Teshayeva Madina G‘ofur qizi,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 4-kurs talabasi

O‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda fanlararo bog‘lanish, ya’ni uzviylikni ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o‘quvchilarda fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Matematika fanini o‘qitishda nafaqat uning bo‘limlar orasidagi o‘zaro ichki, balki tashqi, ya’ni turdosh blok - modullar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Maqolada matematikani o‘qitishda fanlararo integratsiyaning o‘rni va ahamiyati haqida bir nechta uslubiy tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *matematikaning ichki va tashqi integratsiyasi, funksiya, grafik, yuza, tezlik, vaqt, yo‘l, masala va yechim.*

РОЛЬ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ

Обеспечение междисциплинарных связей, то есть преемственности в формировании мировоззрения учащихся, является одним из актуальных вопросов современности. В результате систематической реализации межпредметных связей у учащихся развиваются навыки мышления. В преподавании математики большое значение имеет не только внутренняя интеграция между её разделами, но и внешняя, то есть интеграция с предметами, входящими в состав смежных блоков-модулей. В статье приведены несколько методических рекомендаций о роли и значении междисциплинарной интеграции в преподавании математики.

Ключевые слова: *внутренняя и внешняя интеграция математики, функция, график, площадь, скорость, время, путь, задача и решение.*

THE ROLE OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN MATHEMATICS TEACHING

Ensuring interdisciplinary connections, namely continuity in shaping students' worldview, is one of the pressing issues of today. As a result of systematically implementing interdisciplinary connections, students develop critical thinking skills. In teaching mathematics, not only its internal integration between sections but also its external integration with subjects included in related block-modules is of great importance. The article presents several methodological recommendations on the role and significance of interdisciplinary integration in teaching mathematics.

Keywords: *internal and external integration of mathematics, function, graph, area, velocity, time, distance, problem and solution.*

Kirish. Ilm - fan taraqqiyoti ko‘z ilg‘amas darajada tezlashgan bir davrda fanlararo bog‘lanish, integratsiya uzluksiz ta’limni yo‘lga qo‘yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Integratsiya - juda keng ma’nodagi tushuncha. Integratsiya nima? «Integratsiya» - lotincha «integration» so‘zidan olingan bo‘lib, «integr» to‘liq yaxlit, bir butun degan ma’nolarni anglatadi. Integratsiya - o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. Hozirgi vaqtda talab qilinadigan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi kundan kunga ortib bormoqda. Bilimlar miqdori va ularni o‘zlashtirish uchun taqdim etilayotgan vaqt me’yori orasidagi tafovut kattalashib bormoqda. Ushbu muammoning eng yaxshi yechimi fanlararo integratsiyadan unumli foydalanish hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Integratsiyaning ilmiy asoslarini dastlab fiziologik olimlar I.P.Pavlov va I.M.Sechenovlarning asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, psixologlar fikrlash va xotira xususiyatlarini tahlil qilib, o‘qitishni shunday tashkil etish kerakki, yangi materialni yaxshiroq eslab qolish uchun o‘quvchilarda ilgari olingan bilimlarni takrorlash qobiliyatini shakllantirish kerak. Predmetlararo aloqalar obyektga turli tomondan qarash va tizimlararo assotsiatsiyalar asosida voqelikning butun obyekti yoki hodisasini yanada mustahkamroq eslab qolish imkonini beradi.

https://buxdu.uz

Integratsiya - bu nafaqat o‘quv materialining maxsus kombinatsiyasi, balki o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli bo‘lib, o‘quv materialini turli xil pozitsiyalardan tahlil qilish, asosiy narsani ajratib olish, ma’lum bo‘lganlar bilan yangi aspektda operatsiyalarni bajarish, o‘quv muammolarini hal etish va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Integratsiya darsni hamkorlik yo‘nalishiga yo‘naltirishga imkon beradi. Bu eng qimmatli fazilatlardan birini rivojlantirishga yordam beradi: boshqasini tinglash, uning dalillarini o‘rganish, birovning nuqtayi nazarini o‘z nuqtayi nazari bilan taqqoslash qobiliyati. “Darsda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha fikr yuritadiganlarga tegishlilik hissi darsning motivatsion sohasining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bu tuyg‘u barcha ehtiroslarning eng insoniyligini - bilimga bo‘lgan ishtiyoqni rivojlantirishga qodir” (V.A. Suxomlinskiy). O‘quv materialini taqdim etishning murakkabligi dars ko‘lamini kengaytiradi, integratsiyalashgan o‘qitish, ta’lim va rivojlanishni birlashtirgan jarayonga aylantiradi. Har qanday shakldagi va har qanday turdagi dars integratsiyalashgan dars sifatida tuzilishi mumkin, bunda integratsiya o‘quv muammosini hal qilish usuli, fanga barqaror qiziqishni shakllantirish uchun darsda harakat qilish usuli sifatida tushuniladi.

Materiallar va metodlar. Matematikani hayot bilan bog‘lash: Integratsiya orqali matematika abstrakt tushuncha bo‘lib qolmaydi, balki kundalik hayotda, boshqa fanlarda keng qo‘llanilishi ko‘rsatiladi. Misol uchun, fizika, kimyo, biologiya fanlarida matematik formulalar, grafiklar, statistik ma’lumotlar kabi vositalardan foydalanish orqali matematikaning bugungi kundagi roli ochiqlanadi. Shuningdek, iqtisod, geografiya, hatto san’at va musiqa kabi sohalarda matematikadan foydalanishni ko‘rsatish orqali, o‘quvchilar matematikaning ko‘p qirrali ekanligini anglab yetadilar.

Matematika fanini o‘qitishda nafaqat uning bo‘limlari orasidagi o‘zaro ichki, balki tashqi, ya’ni turdosh blok - modullar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, quyidagi fan yo‘nalishlari bilan o‘zaro chambarchas aloqalar muhim hisoblanadi:

Informatika va axborot texnologiyalari fani yordamida matematika fanini o‘qitish jarayonining samaradorligini turli ko‘rinishdagi axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish dars samaradorligini oshirishga ulkan imkoniyatlarni yaratadi.

O‘quvchilarga turli funksiyalar (chiziqli, kvadratik, kubik, trigonometrik va boshqa) xususiyatlarini o‘rgatish va ularning grafiklarini vizualizatsiya qilish orqali funksiyalarning o‘zgarishini tasavvur qilish imkoniyatini yaratish. Masalan, o‘quvchilar $y = x^2 - 4x + 3$ ko‘rinishdagi kvadratik funksiyaning grafigini chizish va xususiyatlarini (o‘sishi, kamayishi, ekstrimum nuqtalari kabi) aniqlashda muommolarga duch kelishi mumkin.

Dasturiy ta’minotlardan foydalanish: O‘quvchilar Geogebra, Desmos kabi grafik chizish dasturlari yordamida funksiyalarning grafiklarini tez va aniq chizishlari mumkin. Bu dasturlarda funksiya parametrlarini o‘zgartirib, grafik qanday o‘zgarishini kuzatish imkoniyati mavjud.



1-rasm. $y = x^2 - 4x + 3$ **funksiya grafigini dastur yordamidagi shakli**

Bunda chizmalarni animatsiyalar orqali 3D modelda harakatlantirish mumkin (turli dasturiy vositalar yordamida). Grafiklar animatsiya yordamida namoyish etilganda, funksiyaning o‘zgarishini dinamik ravishda ko‘rish imkoniyati paydo bo‘ladi, bu o‘quvchilarga funksiyalar haqida batafsil tushunchalarga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Masalan, funksiyaning koeffitsientlari o‘zgartirilganda ularning grafiklari qanday o‘zgarishi animatsiyon tarzida ko‘rsatilishi mumkin.

https://buxdu.uz

O‘quvchilar interaktiv modellar yordamida funksiya grafiklarining xususiyatlarini o‘zlari mustaqil o‘rganishlari mumkin. Masalan, harakatlanuvchi nuqta yordamida grafikning o‘sish yoki kamayish oraliqlarini o‘rganishlari mumkin.

O‘quvchilar o‘zlari mustaqil sodda dasturlar tuzib, berilgan funksiyalarning grafiklarini yasashlari mumkin. Bu ularning nafaqat funksiyalarni tushunishlarini, balki dasturlash vositalaridan unumli foydalana olish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Kimyo fani o‘quvchilarda organik, anorganik moddalar va tuzilmalarni tabiatning obyekti sifatida his etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Matematika darslarida moddalar va ularning tuzilishiga oid geometrik, sifat va miqdoriy kattaliklarni tahlil qilish orqali ularning kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish, tadqiq qilish hamda xulosa chiqarish orqali bu ikki fan orasidagi uzviy aloqadorlikni ta’minlaydi. Kimyo fani bilan matematikaning integratsiyasi juda muhim va bu orqali kimyoviy jarayonlar va tushunchalar chuqurroq anglanadi.

Geografiya fani o‘quvchilarda tabiat in’omlari va insonning iqtisodiy faoliyati natijasida yaratilgan obyektlarni tizimli ravishda, birgalikda his etishni shakllantiradi. Matematika darslarida geografik obyektlarga doir hayotiy masalalarni yechish va tahlil qilish orqali bu ikki fan orasidagi aloqadorliklar aniqlanadi. Geografiya va matematika fanlari integratsiyasi o‘quvchilarga xaritalar bilan ishlash, masofalarni hisoblash va geografik ma’lumotlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilar tabiat hodisalarini va asosiy fizik jarayonlarni anglash bilan bir qatorga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda matematik formulalarni o‘z o‘rnida qo‘llay bilishni o‘rganadilar. Ko‘pgina fizik masalalar tenglama yoki tenglamalar sistemasini tuzish va ular bilan ishlash ko‘nikmasining shakllangan bo‘lishini taqozo etadi. Fizika fanini o‘qitishda matematika fani nafaqat yordamchi hisoblash apparati sifatida, balki matematik mulohazalar yordamida voqelik, hodisalarning xarakteri haqida fizik xulosalar chiqarishga hamda mazkur jarayonlar tadqiq qilish, matematik tenglamalarni yechish orqali fizik hodisalar haqida fikr yuritish imkonini beradi. Fizik masalalarni matematika darslarida tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan hayotiy muammolarni hal qilish, kundalik faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Tahlil va natijalar. Fizikada bosib o‘tilgan yo‘lni topishga oid masalalarni geometrik shakllarning yuzalari yordamida osongina hal etish mumkin. Bu usul, ayniqsa, tezlik va vaqt grafiklaridan foydalangan holda qo‘llaniladi.

Agar jismning tezligi vaqt bo‘yicha o‘zgarmas bo‘lsa, tezlik vaqt grafigi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘ladi. Bunda bosib o‘tilgan yo‘l to‘g‘ri to‘rtburchak yuzasiga teng bo‘ladi.

Masala.

- Tezlik: v=10m/s
- Vaqt oralig‘i: t=0 dan t=5 sekundgacha
- Topish kerak: Bosib o‘tilgan yo‘lni, S=*?*

Chizma:



2-rasm. Masala shartiga mos shakl

$S = v \cdot t = 10 \cdot 5 = 50m$. **Javob:** Bosib o‘tilgan yo‘l $S = 50m$ ga teng.

Iqtisodiy bilim asoslari fanini o‘rganish jarayonida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, bugungi global muommolardan hisoblangan oziq-ovqat xavfsizligi muommosini hal etish kabi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatishdan iborat. O‘quvchilarda iqtisodiy masalalarning matematik modelini qurish hamda matematik usullar yordamida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, u asosida kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni statistik tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat

https://buxdu.uz

kasb etadi. Iqtisodiy bilim asoslari fanini o‘rganishda matematika bilan integratsiya muhim o‘rin tutadi. Matematik vositalar iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, modellashtirish va prognozlash uchun zarurdir.

Natijalar. O‘quvchilar matematik bilimlarni vizual ravishda o‘rganish orqali abstrakt tushuncha sifatida emas, balki hayotimizda keng qo‘llaniluvchi bir amaliy fan o‘laroq tushuna boshlaydilar.

Matematika fizik, kimyoviy, biologik kabi fanlarda uchraydigan masalalardagi hisoblashlarni soddalashtiradi, aniqlikni ta’minlaydi va bu fanlardagi tushunchalarni chuqurroq, teranroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, bu kabi misollar orqali o‘quvchilar nafaqat kimyoviy jarayonlarni, balki matematik amallarni ham mustahkamlab olishlari mumkin bo‘ladi.

Bilimlar miqdori va ularni o‘zlashtirish uchun taqdim etilayotgan vaqt me’yori orasidagi tafovut kattalashib bormoqda. Ushbu muammoning eng yaxshi yechimi fanlararo integratsiyadan unumli foydalanish hisoblanadi.

Xulosa. Fanlararo integratsiya - boshqa fanni o‘rganishda bir o‘quv fanining qonunlari, nazariyalari, usullaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Bu darajada amalga oshirilayotgan mazmunni tizimlashtirish o‘quvchilar ongida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish kabi kognitiv natijaga olib keladi, bu esa, o‘z navbatida, bilimning sifat jihatidan yangi shaklining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Matematika barcha fanlar uchun universal til bo‘lib, u orqali tabiat va jamiyatdagi murakkab jarayonlarni tushunish, modellashtirish va bashorat qilish mumkin. Matematika boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda ularni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Rakhimov N.N., Begmatov A.H., Pulatov O.U. Methods of teaching some algebraic equations and inequalities using surface formulas of geometric shapes. // Pedagogical skills. Scientific-theoretical and methodical journal. 2023 y, №1, ISSN 2181-6883.

2. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi: 5460100 – Matematika bakalavr ta’lim yo'nalishi lalabalari uchun darslik / S. Alixonov. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 304 b.

3. Безрукова В.С. Педагогик назария ва амалиётда интеграция жараёнлари. Екатеринбург, 2004 йил.

4. Ismailov A.A. va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019 y.

5. Капкаева Л.С. Теория и методика обучения математике: частная методика. В 2 ч. Часть 1: учеб. пособие для вузов. М.: Издательство Юрайт, 2017. 264 с.

6. Мавлонова Р., Рахмонкулова Н. Бошланғич таълимнинг интеграциялашган педагогикаси. Toshkent: Ўқитувчи нашриёти, 2006 йил.

7. Методика и технология обучения математике. Курс лекций: пособие для вузов/ под научн. ред. Стефановой Н.Л., Подходовой Н.С. – М.: Дрофа, 2005г.

8. Laudano F., Bitonti V. A collection of visual trigonometric proofs. // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education No.02_2023.

https://buxdu.uz

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ РАЗДЕЛА ФИЗИКИ «ЭЛЕКТРИЧЕСТВО» В ШКОЛАХ

Кайпназаров Сражатдин Гайратдинович,
соискатель Нукусского государственного педагогического института

В статье рассматривается внедрение цифровой образовательной среды (ЦОС) в процесс преподавания раздела физики «Электричество». Анализируются ключевые аспекты цифровой трансформации образования, включая использование виртуальных лабораторий, интерактивных симуляций, мультимедийного контента и автоматизированных систем оценки. Особое внимание уделяется изменению роли учителя, который становится модератором образовательного процесса, а также методикам проектирования и организации занятий в цифровой среде. Приводятся примеры эффективных цифровых инструментов и методических рекомендаций для преподавателей.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, преподавание раздела физики «Электричество», цифровая трансформация, виртуальные лаборатории, интерактивные симуляции, мультимедийные технологии, цифровая грамотность, педагогические технологии.*

MAKTABLARDA FIZIKANING «ELEKTR» BO‘LIMINI O‘QITISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI

Maqolada elektr bo’limini o'qitish jarayoniga raqamli ta'lim muhitini (RTM) joriy etish masalasi ko'rib chiqiladi. Ta'limni raqamlashtirish jarayonining asosiy jihatlari, jumladan virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar, multimedia kontenti va avtomatlashtirilgan baholash tizimlaridan foydalanish tahlil qilinadi. O'qituvchining roli o'zgarishiga, ya'ni u ta'lim jarayonining moderatoriga aylanishiga, shuningdek raqamli muhitda darslarni loyihalash va tashkil etish uslublariga alohida e'tibor qaratiladi. O'qituvchilar uchun samarali raqamli vositalar va uslubiy tavsiyalar namunalari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim muhiti, elektr bo’limini o‘qitish, raqamli transformatsiya, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar, multimedia texnologiyalari, raqamli savodxonlik, pedagogik texnologiyalar.*

DIGITAL TRANSFORMATION OF TEACHING THE ELECTRICITY SECTION IN SCHOOLS

The article examines the implementation of a digital educational environment (DEE) in the process of teaching the electricity section. It analyzes key aspects of the digital transformation of education, including the use of virtual laboratories, interactive simulations, multimedia content, and automated assessment systems. Special attention is given to the changing role of the teacher, who becomes a moderator of the educational process, as well as methods for designing and organizing lessons in a digital environment. Examples of effective digital tools and methodological recommendations for teachers are provided.

Keywords: *digital educational environment, physics teaching, digital transformation, virtual laboratories, interactive simulations, multimedia technologies, digital literacy, pedagogical technologies.*

Ключевые слова: *физическое образование, лабораторные занятия, цифровые технологии, виртуальная лаборатория, симуляционные программы, программа Macromedia Flash, активность учащегося, эксперименты.*

METHODOLOGY FOR ORGANIZING PHYSICS LABORATORY CLASSES IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS USING DIGITAL TECHNOLOGIES

This article addresses the development of students' ability to perform experiments quickly, accurately, qualitatively, with minimal errors, and clearly in physics laboratory classes at general education schools through the application of digital technologies. It also explores how these technologies contribute to deep assimilation and long-term retention of knowledge. Virtual laboratories, simulations, interactive programs, mobile applications, and digital platforms are widely employed in lessons to enhance students' interest in the subject and foster their creative abilities. These tools help students develop skills in independent thinking, observation, analysis, and drawing conclusions. The article examines practical examples, effective methods, advantages of technological tools, and modern approaches. It also substantiates the positive impact of this methodology on the quality of students' knowledge, learning motivation, and the development of physics-related competencies.

Keywords: *physics education, laboratory classes, digital technologies, virtual laboratory, simulation software, Macromedia Flash program, student engagement, experiments.*

https://buxdu.uz

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda hamda barcha sohalarda zamonaviy taraqqiyot bilan hamqadam bo‘lishni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini va samaradorligini oshirish, ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamyatga ega. Xususan, fizika fanini o‘qitishda eksperimental tajribalarni samarali o‘tkazish va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash muhim ahamiyat kasb etadi. Frontal shakldagi laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilarda fizik hodisa va jarayonlar mohiyatini tushunishga xizmat qiluvchi o‘quv jarayonining asosiy shakllaridan biri sanaladi. Biroq, ushbu mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda vaqt chegaralanganligi, moddiy-texnik baza yetishmovchiligi hamda texnologik resurslarning cheklanganligi kabi qator muammolar yuzaga keladi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash ushbu muammolarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi innovatsion-pedagogik yondashuvlarni shakllantirishga zamin yaratmoqda[1].

Fizika - eksperimental xarakterga ega bo‘lgan tabiiy fanlardan biri bo‘lib, uning nazariy asoslarini chuqur o‘zlashtirish, fizik qonuniyatlar va hodisalarni har tomonlama anglashda amaliy tajribalarning o‘rni beqiyosdir. Eksperimental faoliyat o‘quvchilarda kuzatish, tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, hamda ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy tajribalar fizika ta’limining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Frontal laboratoriya ishlari orqali o‘quvchilar fizik hodisalarni bevosita kuzatish, o‘lchashlar o‘tkazish va ilmiy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shu maqsadda maqolada tasavvur qilish murakkab bo‘lgan fizik jarayonlarni, jumladan, issiqlik hodisalarini tushuntirishda raqamli texnologiyalar yordamida frontal laboratoriya ishlarini kompyuterda modellashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, Adobe Animate (sobiq Macromedia Flash) Macromedia Flash dasturidan foydalangan holda, atom-molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan issiqlik hodisalarini animatsion va ko‘rgazmali tarzda ifodalashga mo‘ljallangan dars-mashg‘ulot bayon etiladi. Bu yerdagi yondashuvning yangiligi shundaki, unda issiqlik almashinish jarayonining molekulyar tasviri, shuningdek, temperatura va ichki energiya tushunchalaridan keng foydalanishga asoslanadi. Shu bilan birga, issiqlik almashinuvi, issiqlik uzatish turlari hamda issiqlik miqdorini hisoblash masalalari ilmiy asosda yanada chuqur tahlil qilinadi.

Ma’lumki, issiqlik miqdori issiqlik almashinish vaqtida jism olgan yoki yo‘qotgan energiyasi bo‘lib uni hisoblash formulasi

$$Q = cm(t_2 - t_1) = cm\Delta t\,.$$

Bunda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratiladi;

✓ oxirgi t_2 temperaturadan dastlabki boshlang‘ich t_1 temperatura qiymatini ayirishda Δt ni aniqlashga;

✓ solishtirma issiqlik sig‘imi c faqat moddaning xossasigagina emas, balki issiqlik uzatilish sharoitiga ham bog‘liq ekanligiga. Chunki, jarayonning amalga oshishiga qarab $c = \frac{dQ}{dT}$ issiqlik sig‘imi adiabatik jarayodan izotermik jarayongacha oraliqda o‘zgarishi mumkin.

Yoki bo‘lmasa, suyuqlikdan bug‘ hosil bo‘lish $(Q_{bug'} = r \cdot m)$, shuningdek, qattiq jismlarning erish $(Q_{erish} = \lambda \cdot m)$ formulalaridagi $Q_{bug'}$ va Q_{erish} issiqliq miqdorlarini hisoblash uchun quyidagi asosiy masalalarga e’tiborni qaratamiz:

✓ agregat holatda jismlarning faqat issiqlik yutganda yoki issiqlik chiqarganda o‘zgarishiga;

✓ agregat holat o‘zgarganda jismlarning temperaturasi o‘zgarmasligiga;

✓ kristall jismlarning erish temperaturasi o‘zgarmasligiga;

✓ jism issiqlik yutganda yoki chiqarganda jismni tashkil qilgan molekulalarning faqat potentsial energiyasi o‘zgarisiga.

✓ temperatura o‘zgarmas bo‘lganda $\frac{m\overline{\vartheta^2}}{2} \sim T$ munosabatga muvofiq jismni tashkil qilgan molekulalarning o‘rtacha kinetik energiyasi o‘zgarmasligiga [2].

Bunday tushunchalarni mustahkamlash uchun quyidagi tajriba otkaziladi. Ammo shu o‘rinda fizik tajribani bajarishdan oldin, dastlab o‘quvchilar bilan temperatura va ichki energiya to‘g‘risidagi tushunchalardan atroflicha suhbat, bahs - munozara o‘tkazilsa, albatta o‘quvchilarda tashabbuskorlik va kreativlik ko‘nikmalar rivojlanadi.

Ma’lumki, temperatura jismning qiziganlik (isiganlik) darajasini ifodalovchi asosiy termodinamik kattaliklardan biridir. Termodinamikaning ikkinchi qonuniga ko‘ra, issiqlik har doim temperaturasi yuqoriroq bo‘lgan jismdan temperaturasi pastroq bo‘lgan jismga o‘z-o‘zidan o‘tadi. Issiqlik muvozanati holatida esa har qanday murakkab tizimning barcha qismlarida temperatura tenglashadi.

https://buxdu.uz

Jism temperaturasining o‘zgarishini o‘lchash (aniqlash) uchun unga bog‘liq bo‘lgan turli fizikaviy xossalar, masalan, hajm, bosim yoki elektr qarshiligi kabi kattaliklarning o‘zgarishidan foydalanish mumkin. Amaliyotda esa ko‘pincha hajm o‘zgarishlariga asoslangan usul qo‘llaniladi. Temperaturani o‘lchovchi asbob - termometr aynan shu prinsip asosida ishlaydi. Jism temperaturasini aniqlash uchun termometr unga tegiziladi va issiqlik muvozanati o‘rnatilgach, termometr jism temperaturasiga mos ko‘rsatkichni namoyon etadi. Shunday qilib, o‘quvchilar temperatura tushunchasining issiqlik hodisalarini o‘rganishdagi fundamental ahamiyatga ega ekanligini anglab yetadilar. Shu sababli, bu tushuncha umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘rganish jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi.

Agar jismning ichki energiyasi haqida zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida tushuntirish berilsa, ushbu tushuncha yanada aniq va vizual ravishda ifodalash mumkin. Ma’lumki, temperatura oshgan sari jismning ichki energiyasi ham ortadi, chunki uni tashkil etuvchi molekulalarning o‘rtacha kinetik energiyasi ko‘payadi. Aksincha, temperatura pasayganda esa molekulalarning harakat faolligi kamayib, jismning ichki energiyasi pasayadi.

Raqamli texnologiyalar, xususan, kompyuter modellashtirish va animatsiyalar yordamida ushbu jarayonni dinamik tarzda ko‘rsatish mumkin. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar molekulalarning harakati, ularning o‘zaro ta’siri hamda temperatura o‘zgarishiga bog‘liq energiya almashinuvini aniq kuzatishlari mumkin. Bunday yondashuv jismning ichki energiyasi tushunchasini chuqurroq anglashga va mavzuni interaktiv tarzda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida jismning ichki energiyasini chuqurroq tushuntirish imkoniyati yanada kengayadi. Jism bir agregat holatidan boshqasiga o‘tganda, deformatsiyalanganda yoki mayda bo‘laklarga parchalanganda uning ichki energiyasi o‘zgaradi. Bunday jarayonlarda jismni tashkil qiluvchi zarralarning bir-biriga nisbatan joylashuvi o‘zgarishi natijasida ularning potentsial energiyasi ham o‘zgaradi.

Interaktiv simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilar ushbu jarayonlarni real vaqtda vizual tarzda kuzatishlari mumkin. Masalan, kompyuter modellari yordamida suyuqlikning gazga aylanishi yoki qattiq jismning deformatsiyalanishida molekulalarning qanday harakatlanishi va potentsial energiya qanday o‘zgarishi aniq aks ettiriladi. Shunday qilib, o‘quvchilar jismning ichki energiyasi statik emas, balki tashqi sharoit va fizik o‘zgarishlarga bog‘liq holda doimiy ravishda o‘zgarib turishini tushunishlari osonlashadi. Raqamli texnologiyalarning bunday qo‘llanilishi mavzuni yanada tushunarli va qiziqarli tarzda o‘zlashtirishga xizmat qiladi[3].

Shuningdek, jism bir agregat holatidan boshqasiga o‘tganda, deformatsiyalanganda yoki mayda bo‘laklarga parchalanganda uning ichki energiyasi muqarrar ravishda o‘zgaradi. Buning sababi shundaki, bu jarayonlarning har biri jismni tashkil etuvchi zarralarning o‘zaro joylashuviga ta’sir qiladi. Natijada, zarralar orasidagi masofa va ular orasidagi ta’sir kuchlari o‘zgarishi natijasida jismning potentsial energiyasi ham o‘zgaradi. Shu bilan birga, zarralarning harakat xarakteristikalaridagi o‘zgarishlar ularning kinetik energiyasiga ta’sir qiladi. Demak, jismning ichki energiyasi doimiy kattalik emas, balki tashqi ta’sirlarga bog‘liq holda doimiy ravishda o‘zgarib turadigan fizikaviy xususiyatdir. Bu tushuncha o‘quvchilarga jismning ichki energiyasi dinamik jarayon ekanligini va u turli fizik o‘zgarishlar natijasida doimiy ravishda o‘zgarishi mumkinligini tushunishga yordam beradi.

O‘quvchilarning tashabbuskorligi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida temperatura va ichki energiya tushunchalari bo‘yicha interaktiv suhbat va bahs-munozaralar tashkil etiladi. Ushbu jarayonda o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashlari uchun fizik tajribalarni kompyuter yordamida modellashtirish samarali usul sifatida qo‘llaniladi. Buning uchun animatsiyali vizualizatsiya yaratish imkoniyatiga ega dasturlar, jumladan, Adobe Animate (sobiq Macromedia Flash) yoki zamonaviy simulyatsiya dasturlari qo‘llanadi. Ushbu yondashuv matn, animatsiya, videotasvir va ovozni uyg‘unlashtirgan holda, murakkab fizik jarayonlarni tushunarli va jonli tarzda namoyish etish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda interaktiv ta’lim muhitini shakllantirish natijasida o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishi ortib, ularning mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalari yanada rivojlanadi.

Ushbu maqolada o‘quvchilarning tasavvur qilishi qiyin bo‘lgan murakkab fizik jarayonlarni, frontal laboratoriya ishlari va fizik praktikum mashg‘ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida kompyuterda modullashtirish yordamida issiqlik hodisalarini tushuntirish bo‘yicha Macromedia Flash dasturining imkoniyatlaridan foydalanib, atom-molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tushinchalaridan biri - issiqlik hodisalarini animatsiyali va ko‘rgazmali bajarish tarzda tayorlangan dars-mashg‘ulotini bayon etamiz. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli laboratoriyalarni joriy etish orqali ta’lim sifati va o‘quvchilarning eksperimental ko‘nikmalarini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

https://buxdu.uz

Tajriba: Uzun va ingichka nay o‘tkazilgan tiqin bilan berkitilgan shisha kolba olinadi (1a-rasm). Kolba va nayga suv quyiladi. Dastlab kolba muz solingan suvli idishga joylashtiriladi (1b-rasm) va tajriba boshlanishidan oldin, ingichka naydagi suv ustunining boshlang‘ich balandligi belgilab olinadi. So‘ngra kolba issiq suvli idishga solinadi (1v-rasm). Natijada naydagi suv ustunining ko‘tarilishi kuzatiladi, bu esa temperatura oshishi natijasida suyuqlik hajmining kengayishini namoyish etadi.



1-rasm. Suyuqliklarni kengayishi

Ushbu tajribani yanada tushunarli va interaktiv tarzda o‘rganish uchun PhET Interactive Simulations (https://phet.colorado.edu) platformasidan foydalanish mumkin. Platformadagi “States of Matter” yoki “Energy Forms and Changes” kabi simulyatsiyalar yordamida temperatura va ichki energiya o‘zgarishlarini vizualizatsiya qilish va tajribalarni virtual muhitda o‘tkazish mumkin. Bu usul fizik jarayonlarni real tajribaga yaqin interaktiv modellar orqali tushunishni osonlashtiradi. (2-rasm).

2-rasm. Suyuqliklarni temperatura va ichki energiyasi

https://buxdu.uz

Bunday frontal laboratoriya ishlari va praktikum mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida, o‘quvchilarning ko‘rish va eshitish imkoniyatlari bir vaqtning o‘zida faollashadi va o‘zaro uyg‘unlashadi. Interaktiv vizual materiallar, virtual laboratoriyalar va multimediya vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasi oshadi. Shu bilan birga, eksperimentlarni haqiqiy vaqt rejimida kuzatish va raqamli vositalar yordamida natijalarni tahlil qilish ularga fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bu usul mavzuni yanada samarali o‘zlashtirishga yordam berib, olingan bilimlarning uzoq vaqt esda saqlanib qolishini ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini tashkil etish nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

An’anaviy dars shaklini saqlagan holda o‘quvchilarning olgan bilimlariga bo‘lgan ishonchini oshirish va ularning ta’lim olish faoliyatini yanada faollashtirish maqsadida raqamli texnologiyalar hamda amaliy tajribalarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kompyuterda modellashtirilgan tajribalarni fizik laboratoriya sharoitida sodda uskunalar (shishali kolba, ingichka nay, suv, muz va boshqalar) yordamida qisqa vaqt ichida bajarish orqali o‘quvchilarning eksperimental ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarga ilmiy tadqiqot metodlarini o‘zlashtirishga, mustaqil eksperimentlarni bajarish malakasini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, energiyaning saqlanish va aylanish qonuni bo‘yicha kompyuter modelini tahlil qilish va so‘ngra ushbu qonunni tajriba orqali tasdiqlash o‘quvchilarning mavzuni yanada chuqur tushunishlariga imkon yaratadi. O‘zlari mustaqil ravishda tajriba o‘tkazish orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarning amaliy qo‘llanilishini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishadi va amaliy hayotda qo‘llash bo‘yicha xulosa chiqarishadi. Raqamli texnologiyalar asosida bunday laboratoriya ishlarini tashkil etish fizika ta’limining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu sababli, raqamli modellashtirish va an’anaviy eksperimental yondashuvni uyg‘unlashtirish fizika ta’limida innovatsion metod sifatida muhim o‘rin tutadi.

Bunday takomillashtirilgan an’anaviy dars jarayonida sinfda ijobiy o‘quv muhitini shakllantirishga erishiladi. Natijada, o‘quvchilar ta’lim jarayonida faol ishtirok etib, passiv tinglovchidan mustaqil fikrlovchi va faol ta’lim oluvchiga aylanishadi.

Xulosa. Fizik jarayonlarni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirib o‘qitish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish natijasida o‘quvchilarning malakasini shakllantirish vaqti qisqargan, shu bilan birga mustaqil bajariladigan topshiriqlar soni ortgan. Bu esa o‘quvchilarning ilmiy izlanish olib borish, tajriba natijalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, virtual laboratoriyalar va kompyuter modellashtirish vositalari bilan ishlash ta’lim jarayoniga interaktivlik olib kirib, didaktik o‘yin xarakteriga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning faolligini kuchaytiradi. Natijada, an’anaviy va innovatsion ta’lim usullarining uyg‘unlashuvi o‘quvchilarning fizik qonuniyatlarni tushunish darajasini oshirish bilan birga, ularni hayotiy vaziyatlarda amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar asosida frontal laboratoriya ishlarini tashkil etish metodikasi o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, ularni tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish va fizik qonuniyatlarni chuqur o‘zlashtirishga zamin yaratish imkonini beradi. Shuningdek ayrim murakkab jihozlarni talab qiluvchi laborotoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda vertual laborotoriyaladan foydalanish orqali o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda imkoniyati cheklangan maxsus maktab o‘quvchilarida fizika fanidan laborotoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish orqali, ularni yangi bilimlarni o‘zlshtirishlarini osonlashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Karimova O.A. Dars jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish // Fizika,matematika va informatika ilmiy-uslibiy jurnal.-2021/5. 32-37b.

2. Orexov V.P., Korj E.D. O‘rta martabning 9-sinfida fizika o‘qitish. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. T. 1989y

3. Каримова Н.А., Каримов А.М. Компьютерное моделирование физических процессов //Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога. – 2021. – С. 223-226.

4. Tursunmetov K. maxsus muharrirlikda. Fizika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. T.2019. 13, 22-24 bb.

https://buxdu.uz

5. Каримова О.А., Холов Д.М. “Физикани ўқитишда ахборот-комуникацион технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти”, Физика ва замонавий астрономия: инновацион ўқитишнинг янги моделларини яратиш koferinsiya T.-2019y. 313-315b.

6. Qahhorov S.Q., Karimova O.A., Karimova N.A. Pedagogik-psixologik yondashuv orqali o‘quvchilarning kreativ tafakkurini faollashtirish //Psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 2. – С. 26-31.

https://buxdu.uz

UO’K 378.091.33:539.1

OLIY TA’LIMDA “URAN YEMIRILISH ZANJIRI” MAVZUSINI O‘QITISHNING ISHLAB CHIQARISH BILAN INTEGRATSIYASI MASALASI

Soliyev Tursunboy Izzatillo o‘g‘li,
Navoiy davlat universiteti “Fizika va astronomiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD)
tursunboy.soliyev@bk.ru

Ushbu maqola oliy ta’limda “Uran yemirilish zanjiri” mavzusini o‘qitishning ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan yondashuvlarini tahlil qiladi. Maqolada, yadro fizikasi va atom energetikasi sohalarida tahsil olayotgan talabalar uchun uran yemirilish zanjirining nazariy va amaliy jihatlari, bo‘linish jarayonlari, neytronlarning dinamikasi va energiya ajralishining texnologik ahamiyati batafsil ko‘rsatilgan. Shuningdek, oliy ta’limda bu mavzuni o‘rgatish jarayonida ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikning ahamiyati va amaliyotlar orqali talabalarga ishlab chiqarish tizimlarining ishlashini tushunishga yordam berish zarurligi ko‘rsatiladi. AESlarga ekskursiyalar, soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar, amaliyot dasturlari va kompyuter simulyatsiyalari orqali bilimlarni mustahkamlash mumkinligi ta’kidlanadi. Ushbu integratsiya, o‘quvchilarga ilmiy bilimlarni amaliy tajribalar bilan boyitish va ularni soha talablariga mos kadrlar sifatida tayyorlashga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: *uran yemirilish zanjiri, bo‘linish reaksiyasi, yadro energetikasi, neytronlar oqimi, atom elektr stansiyasi, ishlab chiqarish, integratsiya, innovatsiya, oliy ta’lim.*

ВОПРОС ИНТЕГРАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ «ЦЕПЬ РАЗРУШЕНИЯ УРАНА» С ПРОИЗВОДСТВОМ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

Данная статья анализирует подходы к обучению теме «Цепочка деления урана» в высшем образовании с интеграцией в производственные процессы. В статье подробно рассматриваются теоретические и практические аспекты цепочки деления урана, процессы деления, динамика нейтронов и технологическое значение выделения энергии для студентов, обучающихся в области ядерной физики и атомной энергетики. Также подчеркивается важность сотрудничества с производственными предприятиями в процессе обучения этой теме в высшем образовании, а также необходимость использования практических занятий для углубленного понимания работы производственных систем. Упоминаются экскурсии на АЭС, встречи с отраслевыми специалистами, программы стажировок и компьютерные симуляции, которые помогают закрепить теоретические знания. Такая интеграция дает студентам возможность обогатить научные знания практическим опытом и готовит их к профессиональной деятельности в соответствии с требованиями отрасли.

Ключевые слова: *цепочка распада урана, реакция деления, ядерная энергетика, поток нейтронов, атомная электростанция, производство, интеграция, инновации, высшее образование.*

THE ISSUE OF INTEGRATION OF TEACHING THE TOPIC OF "URANUM DESTRUCTION CHAIN" WITH PRODUCTION IN HIGHER EDUCATION

This article analyzes the approaches to teaching the topic "Uranium Fission Chain" in higher education with integration into production processes. The article discusses in detail the theoretical and practical aspects of the uranium fission chain, the fission processes, the dynamics of neutrons, and the technological significance of energy release for students studying nuclear physics and atomic energy. It also emphasizes the importance of cooperation with industrial enterprises in the process of teaching this topic in higher education, as well as the necessity of using practical sessions to deepen the understanding of the operation of production systems. The article mentions excursions to nuclear power plants (NPPs), meetings with industry specialists, internship programs, and computer simulations that help reinforce theoretical knowledge. Such integration provides students with the opportunity to enrich their scientific knowledge with practical experience and prepares them for professional activities in line with industry requirements.

Keywords: *uranium decay chain, fission reaction, nuclear energy, neutron flux, nuclear power plant, production, integration, innovation, higher education.*

https://buxdu.uz

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlash, talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, yadro energetika sohasi va uran yemirilish zanjiri bilan bog‘liq jarayonlar nafaqat fizik fanining muhim mavzusi, balki sanoatda keng qo‘llaniladigan amaliy yo‘nalishlardan biridir. Ushbu mavzuni chuqur o‘rgatish va uni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, talabalarda ilmiy fikrlash, texnologik jarayonlarni tahlil qilish hamda innovatsion yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

Asosiy qism. Bugungi kunda energetika xavfsizligi, muqobil energiya manbalarini izlash va ulardan samarali foydalanish masalalari global miqyosda kun tartibiga chiqmoqda. Shunday sharoitda, uran yemirilishi va undan olinadigan energiya manbalarini chuqur o‘rgatish nafaqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi, balki amaliy ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalashuvi orqali samaradorligi yuqori bo‘ladi. Ushbu maqolada mazkur integratsiyaning ilmiy-metodik asoslari, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan samarali usullar hamda ishlab chiqarish bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Uran yemirilish zanjiri – bu og‘ir atom yadrosining bo‘linishi natijasida hosil bo‘lgan zarralar boshqa yadrolarni ham bo‘linishga undashi orqali yuzaga keladigan zanjirli yadroviy reaksiyalar majmuasidir. 1 kg U-235 parchalanishidan hosil bo’ladigan energiya miqdori taxminan $2{,}3 \cdot 10^7$ kvt·soat ga teng. Hosil bo’lgan enrgiya miqdori 2000000 kg benzin yoki 2500000 kg toshko’mir yonganda hosil bo’ladigan energiyaga ekvivalent hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, Uran-235 (U-235) izotopi bilan bog‘liq bo‘linish reaksiyalari zamonaviy yadroviy energetikaning ilmiy asosini tashkil etadi.



1-rasm. U-235 radionuklidining bo‘linish reaksiyasi sxematik ko‘rinishi

Ushbu jarayon quyidagi yadro reaksiyasi bilan ifodalanadi:

$$^{235}_{92}U + {}^{1}_{0}n \rightarrow {}^{141}_{56}Ba + {}^{92}_{36}Kr + 3\,{}^{1}_{0}n + \Delta E$$

bu yerda, $^{235}_{92}U$ — uran yadrosi, $^{1}_{0}n$ — termal neytron, $^{141}_{56}Ba$ va $^{92}_{36}Kr$ — bo‘linish natijasida hosil bo‘lgan yengil yadrolar, $3\,^{1}_{0}n$ — yangi hosil bo‘lgan neytronlar, ΔE — ajralib chiqqan energiya (taxminan 200 MeV).

- Ushbu energiya quyidagicha taqsimlanadi:
- Bo‘linish mahsulotlari kinetik energiyasi: ~165 MeV
- Neytronlar kinetik energiyasi: ~5 MeV
- Gamma-nurlanish energiyasi: ~7 MeV
- Beta-parchalanish orqali: ~13 MeV
- Boshqa (neytrino, issiqlik yo‘qotishlar va b.q.): ~10 MeV.

Yuqoridagi reaksiya zanjirli xarakterga ega bo‘lib, har bir bo‘linish yangi neytronlarni hosil qiladi. Bu neytronlar o‘z navbatida boshqa $^{235}_{92}U$ yadrolari bilan to‘qnashib, ularda bo‘linish boshlanadi. Buni quyidagicha soddalashtirib umumiy shaklda yoziladi:

$$^{235}_{92}U + n \rightarrow \text{bo‘linish mahsulotlari} + 2 \sim 3\ \text{neytron} + \Delta E$$

Agar har bir bo‘linish natijasida o‘rtacha 2.5 neytron hosil bo‘lsa va ulardan kamida bittasi boshqa uran yadrosini bo‘lishga majbur qilsa, zanjirli reaksiya davom etadi. Bu reaktorning kritik holatini ta’minlaydi. Reaksiyaning davom etish sharti neytronlarning ko’payish koeffitsienti k bilan aniqlanadi:

- $k < 1$: subkritik holat (reaksiya so‘nadi),
- $k = 1$: kritik holat (reaksiya barqaror davom etadi),
- $k > 1$: superkritik holat (reaksiya tezlashadi – bu holat nazorat talab qiladi).

https://buxdu.uz

Ajralgan energiya issiqlik shaklida bo‘lib, u suv yoki boshqa issiqlik tashuvchilar orqali olib chiqiladi va elektr generatorlar yordamida elektr energiyasiga aylantiriladi. Shunday qilib, uran yemirilish zanjiri asosida ishlaydigan atom elektr stansiyalari (AES) yuqori quvvatli va ekologik nisbatan toza energiya manbai sifatida xizmat qiladi.

Oliy ta’limda “Uran yemirilish zanjiri” mavzusini o‘rgatishning asosiy maqsadi – talabalarga yadroviy fizikadagi asosiy tushunchalar, jumladan, uran izotoplarining fizik xossalari, zanjirli yadroviy reaksiyalar, bo‘linish mahsulotlari va ushbu jarayonlarni boshqarish texnologiyalari haqida chuqur nazariy bilimlar hamda amaliy ko‘nikmalar berishdan iboratdir. Mazkur mavzu zamonaviy fizik ta’limning fundamental ilmiy asoslaridan biri bo‘lib, u ayniqsa energetika, muhandislik fizikasi, atom texnologiyalari, yadro xavfsizligi kabi muhim yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun alohida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida bu mavzuni o‘rganish orqali talabalar:

- Uran 235 va boshqa og‘ir yadrolarning yadro bo‘linish mexanizmi,
- Zanjirli reaksiyalarni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar,
- Energiya ajralishi va uning modellashtirilgan taqsimoti,
- Reaktor ichida sodir bo‘ladigan fizikaviy jarayonlarning nazorat usullari haqida kompleks tushunchaga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, mazkur mavzuni o‘rgatish talabalarda:

- Tahliliy va kritik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish,
- Nazariy bilimni amaliyotda qo‘llashga tayyor bo‘lish,
- Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarining fizik asoslarini tushunish,
- Energetika xavfsizligi va ekologik barqarorlik masalalarini ilmiy nuqtai nazardan baholay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Oliy ta’limda bu mavzuni o’qitishda ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyani ta’minlash, nazariy bilimlarni amaliy muhitda mustahkamlash imkonini beradi. Bu jarayonni yo‘lga qo‘yishda quyidagi ilmiy-metodik yondashuvlarni keltirib o’tamiz:

- **birinchidan:** *ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish* –zamonaviy ta’lim tizimida ishlab chiqarish bilan samarali hamkorlik o‘rnatish, ayniqsa, texnik va tabiiy fanlar yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, atom elektr stansiyalari (AES), ilmiy-tadqiqot institutlari hamda texnologik markazlar kabi yirik va ilg‘or tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish ta’lim jarayonining amaliy asosini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Ta’lim muassasalari bilan bu kabi tashkilotlar o‘rtasida shartnomaviy asosda loyihalar ishlab chiqilishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik mexanizmlarining shakllanishiga olib keladi. Bu esa talabalar uchun nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish muhitida sinab ko‘rish, tajriba orttirish, kasbiy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish imkonini yaratadi. Mazkur hamkorlikning mohiyati shundaki, u o‘quvchilarning kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yirik sanoat obyektlarida amaliyot o‘tash jarayonida talabalar texnologik jarayonlarni, xavfsizlik qoidalarini, muhandislik yechimlarini bevosita ko‘rib, ularni amalda qo‘llashni o‘rganadilar. Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan aloqalar esa talabalarni izlanishga, ilmiy fikrlashga va muammo yechishga yo‘naltiradi. Texnologik markazlar esa innovatsion muhitda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish hamda startap loyihalarda ishtirok etish imkonini beradi. Bu kabi yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki fan, texnika va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, o‘quvchi va talabalarni zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or tajribalar va real ishlab chiqarish muhitiga olib kirish orqali ularning kasbiy shakllanishini tezlashtiradi. Shu tarzda tashkil etilgan ta’lim jarayoni bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirish, ularni zamon talablari asosida tayyorlash va milliy iqtisodiyotga malakali kadrlar yetkazib berish kabi ustuvor vazifalarni hal etishga xizmat qiladi.
- **ikkinchidan:** *AES larga ekskursiyalar tashkil etish* –talabalarni yirik energetik inshootlar, xususan, atom elektr stansiyalariga (AES) ekskursiya tarzida olib borish zamonaviy ta’lim jarayonida muhim amaliy metodlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu kabi tashriflar, ayniqsa, fizika, muhandislik, energetika yo‘nalishlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun o‘zlari nazariy jihatdan o‘rganayotgan fizikaviy jarayonlarning real hayotdagi, amaliy ko‘rinishini bevosita kuzatish imkoniyatini yaratadi. Nazariy darslarda reaktorlar ishi, issiqlik almashinuvi, yadro bo‘linish reaktsiyalari, sovitish tizimlari yoki xavfsizlik protokollari haqida ta’riflar va sxemalar orqali ma’lumot beriladi. Ammo bu jarayonlarning haqiqiy muhitda qanday ishlashini ko‘z bilan ko‘rish va ularni muhandislar, operatorlar ishi orqali idrok etish talabalarda bilimlarni mustahkamlashda juda katta rol o‘ynaydi. AES tarkibiga kiruvchi reaktor bloklari, sovitish tizimlari, avtomatlashtirilgan nazorat-uskunalar, favqulodda holatlarda xavfsizlikni ta’minlash tizimlari kabi murakkab texnologik elementlar o‘zaro qanday uyg‘unlikda ishlashi, qanday fizik qonunlarga asoslangani, qanday muhandislik yondashuvlari qo‘llanilishi kabi savollarga talaba real tajriba asosida javob topa boshlaydi. Bu holat, avvalo, abstrakt tushunchalarni konkret bilimlarga aylantiradi. Ya’ni, nazariy bilimlar

https://buxdu.uz

“hayotiy tajriba” bilan boyitiladi. Bundan tashqari, bunday ekskursiyalar o‘zida tarbiyaviy va motivatsion vazifani ham mujassam etadi. Talaba sohaga nisbatan chuqurroq qiziqa boshlaydi, o‘z kasbiy kelajagini aniqroq tasavvur qiladi, bu sohada ishlash uchun qanday bilim va ko‘nikmalar kerakligini anglaydi. Shuningdek, stansiya mutaxassislari bilan suhbatlar, joyida ko‘rsatiladigan texnologik jarayonlar yoki xavfsizlik bo‘yicha ma’ruzalar talabaning fikrlash doirasini kengaytiradi, professional muhitga nisbatan hurmat, mas’uliyat va qiziqishni oshiradi. Yana bir muhim jihati shundaki, AESga ekskursiyalar nafaqat alohida individual o‘rganishni kuchaytiradi, balki guruhiy muhokama, tahlil va fikr almashish uchun ham zamin yaratadi. O‘qituvchilar ushbu ekskursiyalarni o‘quv dasturining amaliy davomi sifatida tashkil etsa, undan keyingi mashg‘ulotlarda olingan taassurotlar va kuzatuvlar asosida laboratoriya ishlari, loyiha topshiriqlari yoki tahliliy yozma ishlarni ham bajarishga yo‘naltirish mumkin.

- **uchinchidan:** ***s****oha mutaxassislari bilan uchrashuvlar va seminarlar tashkil etish* - zamonaviy ta’limning samaradorligini oshirishga qaratilgan eng muhim vositalardan biridir. Ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda, o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni real ishlab chiqarish jarayonlari, ilmiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, atom elektr stansiyalari (AES) yoki boshqa ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat yuritayotgan yetuk olimlar, muhandislar va mutaxassislarni ta’lim jarayoniga jalb etish, ular bilan uchrashuvlar, seminar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday tadbirlar o‘quvchilarning kasbiy tafakkurini shakllantirishda, ularning fan va texnikaga bo‘lgan qiziqishini oshirishda beqiyos ta’sir ko‘rsatadi. Soha mutaxassislarining real tajribasi, o‘z ish faoliyatida duch kelgan muammolar va ularni hal etish yo‘llari, shuningdek, ilg‘or ishlanmalarga asoslangan amaliy misollar orqali o‘quvchilar ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tushuna boshlaydilar. Bu esa ularning o‘z kasbiy yo‘nalishini tanlashda aniqroq va ongli qaror qabul qilishiga yordam beradi. Shuningdek, bunday uchrashuvlar o‘quvchilarga kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mutaxassislar bilan savol-javob shaklida o‘tadigan suhbatlar, interaktiv seminarlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazish, yangiliklarga nisbatan fikr bildirish va mustaqil xulosa chiqarish malakasini oshiradilar. Ushbu yondashuv - ta’lim jarayonini faqat sinf xonalarida emas, balki hayotiy voqelik bilan uyg‘unlashgan holda tashkil qilish deganidir. Bu orqali maktab va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari kelajakda o‘z sohasining puxta bilimdonlari, tashabbuskor va zamonaviy muammolarni hal eta oladigan yetuk mutaxassislar bo‘lib yetishishiga zamin yaratiladi.
- **to'rtinchidan:** *stajirovka va amaliyot dasturlarini tuzish hamda samarali tashkil etish* – ta’lim tizimini real ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiyalashning muhim bosqichidir. Bugungi kunda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda, chunki zamonaviy mutaxassis nafaqat darsliklarda yozilgan formulalarni bilishi, balki ularni real sharoitda qo‘llay olishi, ishlab chiqarish muhitida to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi va muammolarga ilmiy asoslangan yondashuvi bilan ajralib turishi kerak. Shu nuqtai nazardan, ta’lim muassasalari va yirik sanoat korxonalari, xususan atom elektr stansiyalari (AES), ilmiy-texnik markazlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik asosida ishlab chiqiladigan amaliyot va stajirovka dasturlari talabalarning kasbiy jihatdan shakllanishida katta o‘rin tutadi. Mazkur dasturlar orqali talabalar reaktorlar, nazorat tizimlari, sovitish va xavfsizlik qurilmalari kabi murakkab texnologik tizimlar bilan bevosita tanishadilar. Ular nazariy jihatdan o‘rgangan fizikaviy jarayonlarning amaliy muhitda qanday amalga oshirilishini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar, ularning fizik mohiyatini chuqurroq anglay boshlaydilar. Reaktorlar faoliyati, issiqlik almashinuvi, yadro bo‘linishi, energiyani uzatish kabi jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish orqali talabalar o‘zlaridagi nazariy bilimlarni mustahkamlab boradilar. Bundan tashqari, amaliyotlar davomida xavfsizlik me’yorlari va texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilish, ishlab chiqarishdagi intizom va professional muomala madaniyati kabi muhim jihatlar ham o‘rgatiladi. Bu jarayonlar talabalarni nafaqat bilimli, balki mas’uliyatli, jamoada ishlay oladigan va real sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassis sifatida shakllantiradi. Amaliyot dasturlarining yana bir muhim jihati – ularning bosqichma-bosqich, tizimli tarzda tashkil etilishi va har bir bosqichda talabaning qanday kompetensiyalarni egallashi aniq belgilab qo‘yilishidir. Shuningdek, ushbu jarayonda ilmiy rahbarlar, ishlab chiqarishdagi mentorlar va ta’lim muassasasi vakillarining hamkorlikda faol ishlashi talabalarni sifatli tayyorlashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, stajirovka va amaliyot dasturlari - nazariy bilimlarning amaliyotda mustahkamlanishi, talabalar kasbiy tayyorgarligining chuqurlashuvi, ularning fizika fanini real hayotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiruvchi samarali pedagogik vositadir. Bu jarayonlar orqaligina haqiqiy sohaga tayyor, raqobatbardosh va malakali kadrlar yetishib chiqadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan faoliyat turlari - ishlab chiqarish korxonalari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, atom elektr stansiyalariga (AES) ekskursiyalar tashkil etish, yetuk soha mutaxassislari bilan uchrashuv va seminarlar o‘tkazish, shuningdek, amaliyot va stajirovka dasturlarini puxta rejalashtirib tashkil

https://buxdu.uz

etish - barchasi zamonaviy oliy ta’lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ta’lim mazmunini tubdan boyitish, uning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi global raqobat sharoitida yuqori malakali, amaliy ko‘nikmaga ega, har tomonlama tayyorlangan kadrlar nafaqat biror tashkilot, balki butun mamlakat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yuqoridagi faoliyatlar ta’lim tizimi va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlovchi muhim ko‘prik vazifasini bajaradi.

Avvalo, ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va texnologik markazlar bilan tuzilgan hamkorlik aloqalari ta’lim jarayonini “qog‘ozdagi” nazariyaga qamab qo‘yilmasdan, uni real hayotga yaqinlashtiradi. Talabalar nazariy jihatdan o‘rganayotgan fizikaviy jarayonlar, texnologik tizimlar va muhandislik yechimlarini bevosita amalda kuzatib, ularning qanday ishlashini, qanday muammolar paydo bo‘lishini va ularni qanday hal qilish mumkinligini amaliy tajriba orqali o‘rganadilar. Bu esa bilimlarning mustahkamlanishiga, kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga va o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, ixtisoslikka bo‘lgan qiziqishning ortishiga olib keladi.

AESlarga uyushtiriladigan ekskursiyalar esa ayniqsa fizika, muhandislik va energetika yo‘nalishidagi ta’lim oluvchilar uchun beqiyos ahamiyatga ega. Reaktor bloklari, sovitish tizimlari, avtomatlashtirilgan nazorat-uskunalar, xavfsizlik tizimlari kabi murakkab texnologik elementlarni joyida ko‘rish, ularning o‘zaro integratsiyalashgan ishlash mexanizmini tushunish, o‘zida nafaqat nazariy bilimni amaliy ko‘nikmaga aylantiradi, balki talabalarda professional motivatsiyani kuchaytiradi. Talaba o‘z kasbiy kelajagini aniqroq ko‘z oldiga keltira boshlaydi va bu sohada faoliyat yuritish uchun qanday salohiyatga ega bo‘lishi kerakligini tushunadi.

Soha mutaxassislari ishtirokida o‘tkaziladigan seminar va ma’ruzalar esa o‘quvchilarda chuqurroq kasbiy tafakkur, zamonaviy ilmiy-texnik muammolarni tushunish, yangi texnologiyalarga nisbatan ongli munosabat va innovatsion qarashlarni shakllantiradi. Mutaxassislarning haqiqiy tajribasi, real misollar orqali berilgan bilimlar o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida nihoyatda muhim hisoblanadi. Stajirovka va amaliyot dasturlarining tashkil etilishi, ayniqsa, texnik va tabiiy fanlar sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun o‘zini o‘zi namoyon qilish, kasbiy kompetensiyalarni chuqurlashtirish, reallik bilan to‘qnashish va ilmiy asoslangan muammolarni hal etishda malaka orttirish imkonini beradi. Amaliyot davomida talabalar texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish intizomi, kasbiy madaniyat, mehnat etikasi kabi qator amaliy jihatlarni bevosita o‘zlashtiradilar. Bu esa nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki to‘laqonli mutaxassis sifatida shakllanish uchun zarur bo‘lgan kompleks tayyorgarlik bosqichidir.

Shu bilan birga, ushbu faoliyatlar orqali oliy ta’lim muassasalarida “ilm + ishlab chiqarish + innovatsiya” tamoyiliga asoslangan integratsion model shakllanadi. Bu modelda ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘zaro uyg‘unlashgan holda ishlaydi, ya’ni o‘qitish faqat nazariy darajada emas, balki real iqtisodiy-texnologik ehtiyojlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida, nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh, puxta tayyorgarlikka ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish, bilimning amaliyot bilan uyg‘unlashgan shaklini yaratish, yosh avlodni real muammolarni hal qila oladigan yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu faoliyat - zamonaviy oliy ta’limning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularning izchil va tizimli amalga oshirilishi ta’limning sifati, mazmuni va natijasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida, milliy iqtisodiyot ehtiyojlariga javob beruvchi, amaliy bilimga ega, sohaga tayyor, zamonaviy fikrlaydigan raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Mirzaev A.N., Rasulov M.K. *Yadroviy fizikadagi yangi yondashuvlar*. Fan va texnologiya. Tashkent. 2017-y.
2. Jumaniyozov R.A. *Atom energetikasi asoslari*. Mirzo Ulug‘bek nomidagi NUK. Tashkent. 2003-y.
3. Kuhn T.S. *The Structure of Scientific Revolutions*. University of Chicago Press. 1996-y.
4. Sultanov N.A. Fizika kursi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent. “Fan va texnologiya”, 2007-y. 304 b.
5. Mo‘minov T.M., Xoliqulov A.B., Xushmurodov Sh.X. Atom yadrosi va zarralar fizikasi, O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent. 2009-y. 288 b.
6. Quvvatov Q.D. Yer osti suvlarida 234U/238U radionuklidlari orasidagi radioaktiv muvozanat buzulishlari tadqiqoti //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 23. 211-214 b.

https://buxdu.uz

KIMYO O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Sarimova Dildora Soataliyevna,
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi direktori o‘rinbosari,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mazkur maqolada kimyo o‘qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Kimyo fanining samarali o‘qitilishi, ilmiy bilimlarni talab etish bilan bir qatorda, metodik yondashuvlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi orqali ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda o‘qituvchilarning metodik kompetentligi talablariga javob berish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning faolligini oshirish maqsadida innovatsion metodlardan foydalanish juda muhimdir.

Innovatsion yondashuvlar, birinchi navbatda, o‘qitish jarayonini interaktiv qilishni nazarda tutish bilan birgalikda o‘qituvchilar uchun yangi metodik kompetensiyalarni o‘zlashtirish, ularning pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llay olish imkoniyatlarini yaratadi. Kimyo o‘qituvchilari o‘quv jarayonida yangi metodologik yondashuvlarni tatbiq etish orqali, o‘quvchilarning analitik fikrlash, kreativlik va ilmiy qiziqishlarini rivojlantirishga erishadilar.

Kalit so‘zlar: *kimyo, metodik kompetentlik, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, interaktiv o‘qitish, malaka oshirish.*

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ПОВЫШЕНИЮ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ

В статье рассматривается важность инновационных подходов в повышении методической компетентности учителей химии. Эффективное преподавание химии требует научных знаний, а также правильного применения методических подходов. Сегодня очень важно соответствовать требованиям к методической компетентности учителей, внедрять современные педагогические технологии, использовать инновационные методы повышения вовлеченности учащихся.

Инновационные подходы, прежде всего, предусматривают интерактивность процессов обучения, а также формирование новых методических компетенций у педагогов, создание им возможностей для освоения и применения педагогических инноваций на практике. Преподаватели химии развивают аналитическое мышление, креативность и научное любопытство учащихся, внедряя новые методические подходы в процесс обучения.

Ключевые слова: *химия, методическая компетентность, инновационные подходы, педагогические технологии, интерактивное обучение, повышение квалификации.*

INNOVATIVE APPROACH TO IMPROVING METHODOLOGICAL COMPETENCE OF CHEMISTRY TEACHERS

Effective teaching of chemistry, in addition to requiring scientific knowledge, is also carried out through the correct application of methodological approaches. Today, it is very important to meet the requirements of teachers' methodological competence, introduce modern pedagogical technologies and increase student activity using innovative methods.

Innovative approaches, first of all, provide for the interactive nature of the teaching process, and create opportunities for teachers to master new methodological competencies, master and apply pedagogical innovations in practice. By implementing new methodological approaches in the teaching process, chemistry teachers achieve the development of analytical thinking, creativity and scientific interest of students.

Keywords: *chemistry, methodological competence, innovative approaches, pedagogical technologies, interactive teaching, advanced training.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlar va ta’lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish mutaxassislar tayyorlash tizimida kompetentlik mutaxassis tayyorlash yondashuvi asosida tashkil etish va ta’lim standartlarida belgilangan kompetensiyaviy talablarni uzluksiz takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha

https://buxdu.uz

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta’minlash, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish vazifasi belgilangan.

Xorijiy tajribaga ko‘ra, ta’lim beruvchilarning metodik kompetentligi, jumladan, ta’lim jarayonini amalga oshirishning eng maqbul metodlarini, samarali modellarini ishlab chiqish, innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning metodik ta’minotini takomillashtirishga alohida ehtiyoj tug‘ilmoqda. Mazkur jihat pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi. Metodik kompetentlikni shakllantirishda ta’lim jarayonini tashkil etishda shakllar va metodlarni zamonaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘qitish usullarini, ilmiy asoslarini ishlab chiqish, belgilash, o‘quv materiallarini mazmunan takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Pedagoglarning metodik kompetentligini shakllantirishning zamonaviy metodik tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari joriy etish, kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan fanlarni o‘qitish metodikasi va didaktik vositalarini ishlab chiqish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorida pedagoglarning kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o‘sib borishini, ularning ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o‘qitishning interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta’minlash maqsad qilingan.

O‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtrish murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Metodik kompetentlik – ta’lim berish jarayonini modellashtirish jarayoni deb qaraydigan bo‘lsak, o‘quv mashg‘ulotlariga zamonaviy o‘qitish metodlarini taklif etamiz. Bunda gamifikatsiya samarali yordam beradi.

Asosiy qism. Gamifikatsiya - o‘qitish jarayonini o‘yinlashtiriladi hamda o‘qituvchini metodik tayyorlashda yangi, innovatsion yondashuv hisoblanadi. Bunda o‘qituvchilarni darsda didaktik-o‘yin elementlarini qo‘llashga o‘rgatish, o‘quvchilarga motivatsiya berish, ijodkorligini, kollaborativ qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni ta'lim jarayoniga jalb etish uchun o‘yin asosida ta'lim metodlarini ishlab chiqish, o‘qituvchilarga o‘quvchilarni o‘yin orqali o‘rgatish va yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yaratishga erishiladi.

Bu usul o‘qituvchilarning dars jarayonlarini yanada interfaol va qiziqarli qilishga zamin yaratadi. **Gamifikatsiya** (Inglizcha "Gamification" so‘zidan olingan) – bu o‘yin elementlarini va o‘yinlashtirilgan metodlarni o‘yin bo‘lmagan sohalarda, jumladan ta'limda, ish joylarida yoki kundalik hayotda qo‘llash jarayonidir. Gamifikatsiyani qo‘llashdan maqsad – o‘quvchilar, xodimlar yoki foydalanuvchilarni qiziqtirish, ularni motivatsiya qilish va faoliyatlarini samarali tarzda rivojlantirishdir.

Gamifikatsiya o‘yinlar uchun xos bo‘lgan turli mexanizmlarni o‘qitish yoki boshqa jarayonlarga kiritish orqali amalga oshiriladi. Topshiriqlar davomida o‘quvchilar rag‘batlantirib boriladi. Jumladan:

- Ballar tizimini tatbiq etish orqali o‘quvchilar muvaffaqiyatli bajarilgan vazifalar uchun ball olishadi.
- Rangli medal yoki belgilarini taqdim etish orqali o‘quvchilarga muayyan maqsadga erishganliklari uchun medal yoki boshqa taqdirlash belgisi beriladi.
- Liderlar ro‘yxatini shakllantiriladi. Muvaffaqiyatli o‘quvchilarni ko‘rsatuvchi ro‘yxatlar yaratiladi, bu esa sog‘lom raqobatni oshiradi.
- Vazifalar va missiyalar belgilash orqali o‘quvchilarga turli vazifalar yoki missiyalar berilib, ularni bajarishga undaydi.
- Darajalar aniqlanadi. O‘quvchilar ma'lum darajaga erishib, yangi imkoniyatlar ochishadi.

Dars mashg‘ulotlarida gamifikatsiya ta'lim jarayonida o‘quvchilarga o‘rganishni yanada qiziqarli, samarali va interfaol tashkil etishga yordam beradi. Bunda o‘quvchilar:

1. Motivatsiya olishadi: Ball va mukofotlar orqali o‘quvchilar o‘z faoliyatlariga rag‘batlantiriladi.
2. O‘rganish jarayoniga jalb qilinadi: O‘quvchilar o‘yin o‘ynash orqali o‘rganishni osonroq qabul qilishadi. Chunki har qanday yoshda yangi ma’lumotni o‘rganishda o‘yin texnologiyalari dominanatlik qiladi.
3. Kollaboratsiya ko‘nikmalarini rivojlantiriladi: Ko‘plab gamifikatsiya usullarida guruh ishlari va jamoaviy yondashuv qo‘llaniladi.
4. O‘z-o‘zini baholash(refleksiya) imkoniyatiga ega bo‘ladilar: O‘quvchilar o‘z yutuqlarini ko‘rib, natijalarni o‘zlari baholay olishadi.

Masalan, bosh miya yarim sharlarini ikki tomonini ham ishlatish insonda mavjud qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bunda quyidagi topshiriq orqali o‘quvchilarga kimyoviy elementlar belgisi

https://buxdu.uz

va nomlanishini yodlashga yordam berish barobarida, ikkita qo‘l harakatlari tezkor fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘quvchilar diqqatini yig‘ish, tezkor xotirani rivojlantirish maqsadida **“Sening reaksiya tezliging”** nomli mashqdan foydalanish mumkin.

Bunda o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi va guruhlardan bir nafardan o‘quvchi chiqariladi. O‘qituvchi tomonidan elementlar nomi tezlik bilan aytiladi. Guruh nomidan chiqqan ishtirokchilar hushyor holda aytilgan elementlarni ketma-ketlikda ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi. Qolgan o‘quvchilar ularni diqqat bilan kuzatishdi. Elementlarni belgisini ko‘rsatishda xatolik ketsa, ishtirokchilar safidan chiqariladi.



Ushbu mashg‘ulot dars jarayonini boshlashdan oldin yoki, dars jarayonini mustahkamlash bosqichida o‘tkazilishi mumkin. Mavzu mazmunidan kelib chiqib, o‘tilayotgan mavzu doirasida kimyoviy formula yoki belgilarga o‘zgartirilishi mumkin.

Bu mashg‘ulot o**‘quvchiga nima beradi?**

- O‘quvchilarni dars jarayonilarida diqqatini oshiradi.O‘tilgan mavzu yuzasidan bilimini oshiradi. O‘quvchi xotirasini charxlaydi. Mavzuni oson o‘zlashtirishga yordam beradi O‘quvchilarning darsga qiziqishlarini orttiradi. O‘rgangan ma’lumotlarni takrorlash orqali yanada yaxshiroq eslab qoladi.

Mahoratli pedagog, o‘z kasbining ustasi bo‘lishi, avvalo bola qalbiga yo‘l topishidan boshlanadi. O‘z darsini samarali o‘tish uchun, o‘quvchi bilimli va barkamol bo‘lib kamolga yetishi uchun darslarda yangicha yondoshuvlar, yangicha metodlar va o‘yinlardan foydalanib tashkil etish zarur.

Bu mashg‘ulot o**‘qituvchiga nima beradi?**

- *o‘quvchini boshqalarni eshitishga o‘rgatadi;*
- *O‘quvchilarni faollashtiradi;*
- *barcha fan o‘qituvchilari foydalansa bo‘ladi va hokazo.*

Fe	K
Ca	Mg
K	Mg
Fe	Ca

SUDOKU – boshqotirmasi

Yaponiya ta’lim tizimida keng va samarali qo‘llanilib kelinayotgan ushbu boshqotirmalar o‘quvchilarning zehnini rivojlantirishga hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Sudoku topshiriq – 1. Ustuniga va qatoriga metallarning kimyoviy belgisini takrorlamasdan sudokuni yeching.

	Ca		Mg
Fe		K	
Ca			Fe
Mg			K

Sarflanadigan vaqt: _____

Sudoku topshiriq – 2. Ustuniga va qatoriga metallmaslarning kimyoviy belgisini takrorlamasdan sudokuni yeching.

		C	N_2
S	N_2		
			P

https://buxdu.uz

P	S		

Sarflanadigan vaqt: _____

Sudoku topshiriq – 3. Ustuniga va qatoriga metallmaslarning kimyoviy belgisini takrorlamasdan sudokuni yeching.

Tadqiqotimiz jarayonida **Shul’te jadvali** bolalar uchun ko’p foyda keltiradigan o’quv vositalaridan biri sifatida tatbiq etdik. Shul’te jadvali o‘quvchilarga nima beradi?

1. Diqqatni rivojlantiradi: Shul’te jadvali orqali bolalar qatorlarga qarab raqamlarni topishga harakat qilishadi. Bu esa ularning diqqatini jamlashga yordam beradi.

2. Tez o’qish qobiliyatini oshiradi: Bu jadval orqali bola ko’zlarini tez harakatlantirish va bir vaqtning o’zida ko’plab ma’lumotlarni qabul qilishni o’rganadi, bu esa tez o’qishni rivojlantiradi.

3. Xotirani mustahkamlaydi: Bolalar jadvaldagi raqamlarni eslab qolishga harakat qilganda, xotirasi kuchayadi.

4. Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi: Raqamlar yoki belgilarni aniqlash va ular orasidagi bog’liqlikni topish bola mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Ko’z koordinatsiyasini yaxshilaydi: Jadval bilan ishlash ko’zning chaqqonligini, aniq qidiruv va diqqat qaratish qobiliyatini oshiradi.

6. Chidamlilik va sabr-toqatni oshiradi: Shul’te jadvali bilan ishlash dastlab bolaga qiyin ko’rinishi mumkin, lekin bu faoliyatni davom ettirish bolani o’z ishiga sabr-toqatli bo’lishga o’rgatadi.

Bunda taklif etilayotgan jadval yoki elementlar davriy sistemadan foydalansa bo‘ladi.

Topshiriq davomida o‘quvchi ko‘zni berilgan jadval yoki rasmning markaziga qaratadi. Nigohini markazdan uzmagan holda elementlarni 1 dan boshlab tartib bilan topishi so‘raladi.

Ar	Ca	Au	Mg
Fe	P	K	Mn
Co	Ag	N	Fr
Mo	Li	S	Rb

Shul’te jadvali maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun juda foydali, chunki u ko’plab kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. O‘qituvchilarning metodik tayyorlanishini yangi usullar orqali takomillashtirish ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu usullar o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni, texnologiyalarni qo‘llashni va o‘quvchilar bilan samarali ishlashni o‘rgatishga yordam beradi. Yangi metodik yondashuvlar o‘qituvchilarni zamon talablariga javob beradigan ta'lim tizimiga tayyorlashga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, gamifikatsiya o‘qitish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishga yordam berish bilan bir qatorda, ma’lumotlarni nazariy o‘rganibgina qolmasdan, ko‘proq tajriba orqali o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Ta’lim oluvchilarning faolligini va motivatsiyasini oshirishga, o‘quvchilarda o‘rganish jarayoniga nisbatan qiziqish uyg‘otishga, o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini taqdirlash va ularni yanada yaxshilanishga undashga yordam beradi. Taklif etiladigan o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini kreativ tarzda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishi ko‘plab o‘yinlar vazifalarni turli usullar bilan hal qilishga, ularni yangicha fikrlashga undaydi.

Gamifikatsiya ta'limda o‘quvchilarga nafaqat ma'lumotlarni o‘rgatish, balki ularni o‘rganish jarayonida faollashtirish va yaxshilanishga undashga xizmat qiladi.

Tavsiya. Malaka oshirish tizimida o‘quv mahg‘ulotlarini tashkil etishda, umumta’lim maktablarida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi qiyin mavzularni o‘qitish jarayonida gamifikatsiyadan foydalanish o‘qitish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, o`quv maqsadlari ehtiyojlarga qanchalik mos bo’lsa shunda ijobiy natija olinadi. Gamifikatsiya ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo`lganligini inobatga olsak, O`zbekistonda ham uzluksiz ta’limning tegishli bosqichlarida, jumladan, malaka oshirish tizimida ham qo’llash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”Qarori.

https://buxdu.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”Qarori.

3. Abduvaliyeva M.A. O‘quv jarayonida gamifikatsiyadan foydalanish imkoniyatlari. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. 2021. 306 b.

4. Alberto M., Riera D., Gonzalez C., and Moreno J. A., “Gamification: a systematic review of design frameworks”. Journal of Computing in Higher Education, vol. 29 no. 3, pp. 516–548, 2017.

5. Hasan F., Nat M. and Vanduhe V. Z., “Gamified Collaborative Environment in Moodle”. IEEEACCESS, 2019.

https://buxdu.uz

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

VOLEYBOLCHI QIZLARNING JISMONIY TAYYORGARLIK KO‘RSATKICHLARI DINAMIKASI

Abdullayev Mehriddin Junaydullayevich,
Buxoro davlat universiteti
Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), professor
Raxmonova Rushana Akmalovna,
Buxoro davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport fakulteti talabasi

Ushbu maqolada maktab yoshidagi voleybolchi qizlar bilan olib borilgan mashg‘lotlarda jismoniy tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish, ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rsatib o‘tilgan. Mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etish bosqichlarga bo‘lib tayyorlov jarayonlarini tashkil etish, yosh voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarlik oshirishda mashgu’lot yuklamalari me’yorlaridan kelib chiqqan holda jismoniy sifatlarni bir xillikda rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *yosh voleybolchilar, tezlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik, voleybol, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat.*

ДИНАМИКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ДЕВОЧЕК-ВОЛЕЙБОЛИСТОК

В данной статье рассматриваются современные подходы к планированию и управлению процессами физической подготовки на занятиях с девочками-волейболистками школьного возраста, а также планированию на этапах многолетней подготовки. Представлена информация об организации тренировочного процесса по этапам, включая организацию подготовительных процессов. Описывается организация тренировочных занятий, направленных на равномерное развитие физических качеств, исходя из норм тренировочных нагрузок при повышении физической подготовленности юных волейболисток.

Ключевые слова: *юные волейболистки, скорость, ловкость, гибкость, выносливость, волейбол, физическая подготовка, физические качества.*

DYNAMICS OF PHYSICAL FITNESS INDICATORS OF VOLEYBALL GIRLS

This article outlines modern approaches to planning and managing physical training processes in sessions with school-age female volleyball players, as well as planning strategies across long-term preparation stages. The organization of the training process is divided into phases, providing information on structuring training processes aimed at the balanced development of physical qualities. These processes are based on appropriate training load standards for improving the physical fitness of young female volleyball players.

Keywords: *young volleyball players, speed, agility, flexibility, endurance, volleyball, physical fitness, physical qualities.*

Kirish. Bugungi kunda jahon davlatlarida sportning barcha turlariga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Sport sohasidagi yetakchi olim va mutaxassislar iste’dodli yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligidan kelib chiqib, harakat samaradorligini inobatga olgan holda mashg‘ulot o‘tkazish lozimligini ta’kidlaydi. Samarali foydalangan holda voleybolchilarni jismoniy sifatlari va tug‘ma iqtidorlilarni izlab topish asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Maqolaning dolzarbligi va zaruriyati. Jahoning yetakchi olimlari tomonidan har bir voleybolchining o‘z ampluasi bo‘yicha yo‘naltirilgan jismoniy tayyorgarligiga oid ilmiy-tadqiqod ishlarini olib borilmoqda. Shunga qaramay yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan ko‘p turdagi ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, lekin voleybol sport turida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida jismoniy sifatlarni rivojlantirishga oid hal etilmagan muammolar hali ham mavjudligicha qolmoqda.

https://buxdu.uz

Mamlakatimizda hozirgi kunga kelib sport sohasiga juda ham yuqori darajada e’tibor qaratilmoqda. Ta’kidlash joizki, sportning voleybol turi yurtimizning barcha hududlarida rivojlanib bormoqda. Ammo voleybol sport turi bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli voleybolchi qizlarni tayyorlash, yuqori saviyadagi ayol mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning eng dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu muammolarni oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ-274-son “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida bo‘yicha bir qancha islohotlar va yangilanishlar kiritildi. 2024-2026-yillarda voleybol sport turini yanada kuchaytirish to‘g‘risidagi dastur tuzildi. Bunga ko‘ra voleybol sport turini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, xalqaro tashkilotlar tasdiqlagan qoidalariga asosan musobaqalar o‘tkazish, O‘zbekiston federatsiyasi yo‘lanmasi asosida trenerlarni tajriba almashish maqsadida turli viloyat trenerlari bilan seminarlar o‘tkazish, voleybolchilarning sport tibbiyoti bo‘yicha bilim darajasini oshirib borish kabi masalalar ko‘zda tutilgan. Bundan asosiy maqsad yoshlarni voleybol sport turi bilan muntazam shug‘ullanib Osiyo, Jahon va Olimpiyada o‘yinlarida O‘zbekiston bayrog‘ini yuqorilarga ko‘tarib mamlakat obro‘si va nufuzini yuksaltirish ko‘zda tutilgan. O‘zbekistonda voleybol sport turi bo‘yicha ayol va yosh mutaxasislarni tayyorlash, yoshlarni voleybol sportiga qiziqishini oshirish eng muhim ishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu borada eng asosiy maqsad voleybol sportni yuksalishi uchun avvalo yuqori ko‘nikmadagi hakamlarni saralab olish lozim.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullaninuvchi yosh voleybolchilarning jismoniy sifatlarini oshirish.

Voleybol sport turini rivojlantirish avvalo maktab yoshidagi bolalarda ilk ko‘nikmalarni tasavvuri shakllantiriladi. Avvalo voleybol sport turi bo‘yicha boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarni berish, ularni viloyat terma jamoasi va undan so‘ng respublika terma jamoasiga a’zo bo‘lishi uchun jismoniy tayyorgarlik muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar bugungi kunda voleybol sport turi bilan muntazam shug‘ullanishi o‘zining jismoniy sifatlarini oshirish uchun zamonaviy va har tomonlama mukammal mashqlardan foydalanishi zarur.

Voleybol sport turi tezkor reaksiyalarni talab qiladigan sport turidir. Bu sport turida kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik kabi sifatlar muhim rol o‘ynaydi.

Voleybol sport turida kuchning ikki turi ham muhimdir:maksimal kuch va kuch-barqarorlik. Voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligida oyoq va qo‘l mushaklari kuchini oshirishga katta e’tibor qaratiladi. Bu borada voleybolchilarning mushak kuchini kuchaytirishda turli xildagi trenajyorlardan foydalanish muhimdir.

Tezlik voleybolchilarga o‘yin davomida raqibning zarbalariga tez javob berishi uchun kerak bo‘ladigan jismoniy sifatlardan biri hisoblanadi. Voleybolchilarda boshlang‘ich tezlikni oshirish uchun turli xil maxsus testlar o‘tkazib, sportchilarning shaxsiy ko‘nikmalarini o‘zgartirish o‘rinlidir.

Chidamlilik-uzoq vaqt davomida yuqori faollikni davom ettirish imkonini beradigan jismoniy sifatlardan biri. Voleybol o‘yini ko‘p setlardan iborat bo‘lib, har bir setda sportchilarda yuqori darajada jadal va tez harakatlarni amalga oshirishi uchun chidamliligi muhim. Chidamlilikni oshirish uchun uzoq masofaga yugurish eng samarali usullardan biri.

Chaqqonlik bu murakkab texnik elementlarni yengil, aniq bajarish. Voleybolchilarda chaqqonlik maydonda murakkab texnik elementlarni oson va tez bajarishi uchun kerak. Chaqqonlikni oshirish uchun ko‘proq qisqa masofaga yugurish talab qilinadi.

Tadqiqotimiz boshida yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba natijalari jadvalda 1-jadvalda keltirilgan.

Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligi rivojlanishining yoshga xos dinamikasini aniqlash yuzasidan dastlabki o‘tkazilgan pedagogik testlar natijasi quyidagicha bo‘ldi.

Metodologiya. Yosh voleybolchilarda tezkor-kuch sifatini aniqlovchi turgan joydan uzunlikka sakrash nazorat testi bo‘yicha tajriba boshi nazorat guruhi voleybolchilari natijalari o‘rtacha 160,25±16,42 sm.ni tashkil etdi, turgan joydan uzunlikka sakrash nazorat testi bo‘yicha tajriba guruhi natijalari o‘rtacha 154,56±16,59 sm natijani ko‘rishimiz mumkin, orasida o‘rtacha t=1,09 farq qildi.Olingan natijalar voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligi orasida sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatadi. Turgan joydan uzunlikka sakrash bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarining natijalari orasidagi farq statik jihatdan ahamiyatli emas (p>00,5).Tahlil keyinchi tadqiqot va tajriba uchun asosdir.

Maktab yoshidagi voleybol bilan shug‘ullanuvchilarning portlovchi kuch sifatini aniqlovchi turgan joydan balandlikka sakarash bo‘yicha tajriba boshi nazorat guruhi voleybolchilari natijalari o‘rtacha 48,47±6,13 sm.ni tashkil etdi,turgan joydan balandlikka sakrash bo‘yicha tajriba guruhi natijalari o‘rtacha 45,23±6,48 sm natijani ko‘rishimiz mumkin,orasida o‘rtacha t=1,62 farq qildi. Bu esa ichonchlilik darajasi p>00,5 ni ko‘rsatdi, bu esa bizga tajriba o‘tkazishimiz uchun asos bo‘ladi.

https://buxdu.uz

15-16 yoshli voleybol bilan shug‘ullanuvchilarning epchillik va chaqqonlik sifatini aniqlovchi 4x10 moksimon yugurish bo‘yicha tajriba boshi nazorat guruhi natijalari o‘rtacha 9,89±1,09 s.ni ko‘rishimiz mumkin,4x10 moksimon yugurish bo‘yicha tajriba guruhi natijalari 9,93±1,09 s.ni ko‘rsatdi,orasida o‘rtacha t=1,14 farq qildi. Bu esa ichonchlilik darajasi p>00,5,bu esa tajriba o‘tkazishimizga zamin bo‘ldi.

1-jadval.

Yosh voleybolchilarning tadqiqot boshidagi jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi n=20	V%	Nazorat guruhi n=20	V%	t	p
1	Tur.joy.uzun.sak (sm.)	154,56±16,59	10,7	160,25±16,42	10,2	1,09	p>0,05
2	Tur.joy. baland.sak (sm.)	45,23±6,48	14,3	48,47±6,13	12,6	1,62	p>0,05
3	4x10 moksimon yugurish(s.)	9,93±1,09	10,7	9,89±1,09	10,9	1,14	p>0,05
4	30m yugurish(s.)	5,32±0,51	9,4	5,22±0,49	9,3	1,26	p>0,05
5	Gimnastik. skameyka. oldinga egilish(sm.)	20,06±2,49	12,4	19,01±2,40	12,6	1,35	p>0,05
6	6 daq yugurish(m.)	928,95±100,26	10,7	972,53±100,21	10,3	1,37	p>0,05

Izoh: *m-metr, sm-santimetr, s-soniya*

Tahlil va natijalar. 15-16 yoshli voleybolchilarning tezligini aniqlash uchun 30 metrga yugurish bo‘yicha tajriba boshi nazorat guruhi natijalari o‘rtacha 5,22±0,49 s.ni tashkil etdi,30 m.ga yugurish bo‘yicha tajriba guruhi natijalari o‘rtacha 5,32±0,51 s.ni ko‘rsatdi,orasida o‘rtacha t=1,26 farq qildi.Ishonchlilik darajasi p>00,5, bu esa qayta tajriba o‘tkazishimiz uchun zamin.

Yosh voleybolchilarning egiluvchanlik sifatini aniqlash maqsadida gimnastik skameykadan oldinga egilish testi o‘tkazildi.Bunda tajriba boshi nazorat guruhi natijalari o‘rtacha 19,01±2,40 sm.ni tashkil etdi,gimnastik skameykadan oldinga egilishda tajriba guruhi natijalari o‘rtacha 20,06±2,49 sm.ni tashkil etdi,orasidagi o‘rtacha t=1,35 farq qildi. Ishonchlilik darajasi p>00,5,bu esa dastlabki farqning statistik jihatdan ahamiyatli emasligini ko‘rsatdi.



1-rasm. Yosh voleybolchilarning tadqiqot boshidagi jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha diagrammasi

https://buxdu.uz

Maktab yoshidagi voleybolchilarning chidamlilik sifatini aniqlash uchun 6 daqiqalik yugurish bo‘yicha nazorat guruhi natijalari o‘rtacha 972,53±100,21 m.ni tashkil etdi,6 daqiqalik yugurish bo‘yicha tajriba guruhi natijalari o‘rtacha 928,95±100,26 m.ni ko‘rishimiz mumkin.O‘rtacha t=1,37 farq bo‘lib,ishonchlilik darajasi p>00,5,bu esa dastlabki farqning statistik jihatdan ahamiyatli emasligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Yosh voleybolchi qizlarning jismoniy tayyorgarligi yoshga xos dinamikasini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan pedagogik testlash natijalariga ko‘ra kuch, tezkor-kuch, chaqqonlik, tezlik, chidamlilik va boshqa sifatlarning rivojlanishi qiyosiy solishtirilganda, ko‘rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi p>0,05 ga teng ekanligi aniqlandi.

Yosh voleybolchi qizlarning o‘tkazilgan pedagogik tajribadan oldin olingan natijalarni hisobga olgan holda voleybolchi qizlarning mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda zamonaviy talablariga mos keladigan o‘quv-mashg‘ulot metodlarini ishlab chiqish zarurati borligi o‘tkazilgan pedagogik testlash natijalari ko‘rsatib berdi.

Adabiyotlar:

1. Jiang, Wenmei & He, Juncong. (2023). Physical fitness improvements in female volleyball players. Revista Brasileira de Medicina do Esporte. 29. 10.1590/1517-8692202329012022_0612.
2. Cheng X, Li Z, Du S, Ikenaga T. Body part connection, categorization and occlusion based tracking with correction by temporal positions for volleyball spike height analysis. IEICE Trans. Fundamentals. 2020;103(12):1503-11.
3. Zwierzchowska A, Gawel E, Celebanska D, Mostowik A, Krzysztofik M. The Impact of Internal Compensatory Mechanisms on Musculoskeletal Pain in Elite Polish Sitting Volleyball Players – A Preliminary Study. J Hum Kinet. 2022;81(1):277-88.
4. Mota T, Afonso J, Sá M, Clemente FM. An agility training continuum for team sports: from cones and ladders to small-sided games. Strength Cond J. 2022;44(1):46-56.
5. Pandarinath C, Bensmaia SJ. The science and engineering behind sensitized brain-controlled bionic hands. Physiol Rev. 2022;102(2):551-604.
6. Konokh A, Vorontsov A. Differential gender approach for girls of the age of 12-15 in the process of boxing training. // Scientific Journal of Polonia University. 2021;44(1):60-70.
7. Franco MF, Madaleno FO, de Paula TM, Ferreira TV, Pinto RZ, Resende RA. Prevalence of overuse injuries in athletes from individual and team sports: A systematic review with meta-analysis and GRADE recommendations. // Braz J Phys Ther. 2021;25(5):500-13.
8. Tianyu L. On the Core Elements of Volleyball Players’ Special Physical Training. // Applied & Educational Psychology. 2021;2(1):92-5.

https://buxdu.uz

12-13 YOSHLI QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI YENGIL ATLETIKACHILARNING MASHG‘ULOT JARAYONLARINI PEDAGOGIK BAHOLASH TEXNOLOGIYASI

Fatullayeva Muazzam Azimovna,
Buxoro davlat universiteti
Sport faoliyati kafedrasi dotsenti v.b.
orcid 0000-0002-9369-8940,
muazzam.fatullaeva@mail.ru m.a.fatullayeva@buxdu.uz
Saidmurodova O‘g‘iloy Navro‘z qizi,
Buxoro davlat universiteti
Sport faoliytai kafedrasi 1-kurs magistranti

Mazkur maqolada 12-13 yoshli qisqa masofaga yuguruvchi yengil atletikachilarning mashg‘ulot jarayonlarini pedagogik baholash masalalari ko‘rib chiqilgan. Pedagogik baholashning ahamiyati, asosiy mezonlari va usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh sportchilarni samarali tayyorlash uchun muhim bo‘lgan jismoniy va psixologik omillar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *yengil atletika, qisqa masofa, pedagogik baholash, mashg‘ulot jarayoni, yosh sportchilar.*

ТЕХНОЛОГИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА БЕГУНОВ-ЛЕГКОАТЛЕТОВ В ВОЗРАСТЕ 12–13 ЛЕТ

В статье рассматриваются вопросы педагогической оценки тренировочного процесса бегунов на короткие дистанции 12–13 лет. Анализируются значение, основные критерии и методы педагогической оценки. В ней также подчёркиваются физические и психологические факторы, важные для эффективной подготовки молодых спортсменов.

Ключевые слова: *лёгкая атлетика, бег на короткие дистанции, педагогическая оценка, тренировочный процесс, юные спортсмены.*

TECHNOLOGY OF PEDAGOGICAL EVALUATION OF THE TRAINING PROCESS OF SPRINTER-ATHLETES AGED 12–13

This article examines the issues of pedagogical assessment in the training process of short-distance runners aged 12-13 in track and field athletics. The importance, main criteria, and methods of pedagogical assessment are analyzed. Additionally, physical and psychological factors crucial for the effective preparation of young athletes are highlighted.

Keywords: *track and field athletics, short distances, pedagogical assessment, training process, young athletes.*

Kirish. Yengil atletikaning qisqa masofaga yugurish yo‘nalishi sportchilardan yuqori tezlik, chidamlilik va texnik mahorat talab qiladi. 12-13 yosh davrida bolalar organizmi jadal rivojlanib, jismoniy imkoniyatlari ortadi. Ushbu bosqichda to‘g‘ri baholash va nazorat mashg‘ulot samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik baholash sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik mahorati va psixologik holatini tahlil qilish imkonini beradi.

Pedagogik baholashning mohiyati va ahamiyati.

Pedagogik baholash tushunchasi

Pedagogik baholash – bu sport mashg‘ulotlari jarayonida sportchilarni o‘qitish va tarbiyalash samaradorligini tahlil qilish, ularning rivojlanishini kuzatish va mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda takomillashtirish uchun qo‘llaniladigan muhim usuldir. Baholash natijalari murabbiy va pedagoglarga sportchilar jismoniy va psixologik jihatdan qay darajada rivojlanganini aniqlash va mashg‘ulot rejalarini mos ravishda tuzishga yordam beradi.

Metodologiya. *Pedagogik baholashning asosiy vazifalari*

1. Sportchilarning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish – har bir sportchining jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini o‘z vaqtida aniqlash va shunga mos mashg‘ulot rejalarini ishlab chiqish.

https://buxdu.uz

2. Jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash – sportchilarning tezkorlik, chidamlilik, kuch, chaqqonlik va koordinatsiya kabi muhim xususiyatlarini o‘lchash.

3. Texnik mahoratni tahlil qilish – yugurish texnikasi, start usullari, marraga yetib kelish usullari va umumiy yugurish biomekhanikasini baholash.

4. Psixologik holat va motivatsiyani o‘rganish – sportchilarning stressga chidamliligi, musobaqaga tayyorgarligi va motivatsiya darajasini aniqlash.

5. Mashg‘ulot jarayonining samaradorligini oshirish – baholash natijalariga asoslanib, mashg‘ulotlar jarayonini yanada samarali tashkil etish va sportchilarning rivojlanishiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish.

Pedagogik baholashning asosiy mezonlari

Pedagogik baholashni samarali tashkil etish uchun quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

Obyektivlik – natijalar shaxsiy qarashlardan emas, aniq va ishonchli ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak.

Davomiylik – baholash jarayoni doimiy ravishda amalga oshirilishi va natijalar tahlil qilinishi lozim.

Individuallik – har bir sportchining individual xususiyatlari inobatga olinishi kerak.

Kompleks yondashuv – faqat jismoniy ko‘rsatkichlar emas, balki psixologik va texnik tayyorgarlik ham baholanadi.

Pedagogik baholash usullari.

Pedagogik baholash turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Eng asosiylari quyidagilardir:

1. Test sinovlari

30 m va 60 m yugurish testlari – tezkorlikni baholash uchun.

Start tezligini baholash – chaqqonlik va reaksiya vaqtini aniqlash uchun.

Chidamlilik testlari – 300 m yugurish yoki shuttlerun testi yordamida baholanadi.

Bu testlar jismoniy tayyorgarlikni baholashda juda muhim ahamiyatga ega. Keling, ularni batafsil ko‘rib chiqamiz:

- *Tezkorlik testlari*

30 m va 60 m yugurish – qisqa masofaga yugurish orqali sportchining maksimal tezligini aniqlashga yordam beradi.

Start tezligini baholash – chaqqonlik va reaksiya vaqtini o‘lchash uchun sportchi start chizig‘idan harakat boshlagan vaqtdan boshlab o‘lchanadi.

- *Chidamlilik testlari*

300 m yugurish – o‘rta masofaga yugurish orqali jismoniy chidamlilik va anaerob quvvat baholanadi.

Shuttle-run testi – qisqa masofalarda oldinga va orqaga harakat qilish orqali sportchining chidamliligi va tezlikda qayta tiklanish qobiliyati tekshiriladi.

Bu testlar sportchilarning umumiy jismoniy holatini tahlil qilish va ularning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Quyida qo‘shimcha testlar va ularning baholash mezonlarini keltirib o‘tamiz:

1. Tezkorlikni baholash

Bu testlar sportchining tez harakatlanish vaqti va reaksiya tezligini o‘lchash uchun ishlatiladi.

30 m va 60 m yugurish testi

Maqsad: Maksimal tezlikni baholash.

O‘lchov: Sekundlarda o‘lchanadi.

Mezonlar (taxminiy):

Juda yaxshi: 30 m < 4.2 s, 60 m < 7.5 s

O‘rtacha: 30 m ~ 5 s, 60 m ~ 9 s

Zaif: 30 m > 5.5 s, 60 m > 10 s

Start tezligi va reaksiya testi

Maqsad: Sportchining chaqqonligi va harakatga tez javob berishini aniqlash.

O‘lchov: Start signalidan keyin sportchi harakatga kelgan vaqtdan boshlab o‘lchanadi.

Mezonlar:

Yaxshi: 0.15–0.20 sekund

O‘rtacha: 0.21–0.30 sekund

Zaif: 0.31 sekund va undan yuqori

2. Chidamlilikni baholash

Bu testlar sportchining uzoq vaqt davomida jismoniy harakatlarni bajara olish qobiliyatini o‘lchash uchun ishlatiladi.

300 m yugurish testi

Maqsad: O‘rta masofaga yugurish qobiliyatini aniqlash.

https://buxdu.uz

O‘lchov: Sekundlarda o‘lchanadi.
Mezonlar (taxminiy):
Juda yaxshi: < 45 sekund
O‘rtacha: 46–55 sekund
Zaif: > 56 sekund
Shuttle-run (10×10 m yoki 4×9 m yugurish)
Maqsad: Tezlik, chaqqonlik va chidamlilikni aniqlash.
O‘lchov: Sekundlarda o‘lchanadi.
Mezonlar:
Yaxshi: < 20 sekund
O‘rtacha: 21–23 sekund
Zaif: > 24 sekund

2. Kuzatish va videodiagnostika

Murabbiylar tomonidan bevosita kuzatish orqali texnik harakatlarni tahlil qilish.

Yugurish biomekhanikasini tahlil qilish uchun videotasvirlardan foydalanish.

Tahlil va natijalar. Sportchilar harakatlarini chuqur o‘rganish va texnik xatolarni aniqlash uchun kuzatish hamda videodiagnostika usullari ishlatiladi. Quyida bu usullarning afzalliklari va qo‘llanilishi keltirilgan.

Bevosita kuzatish

Murabbiylar tomonidan sportchilarning yugurish, sakrash yoki boshqa harakatlarini jonli ravishda kuzatish orqali baholanadi.

Afzalliklari:

✓ Tezkor tahlil qilish imkoniyati.
✓ Harakat texnikasini real vaqtda tahlil qilish.
✓ Sportchining xatosini darhol tuzatish imkoni.

Qo‘llanilishi:

- Yugurish texnikasi (qadam uzunligi, qo‘l harakati, tana egilishi).
- Sprinterlarning start texnikasi.
- Sakrash va burilish harakatlari.

Videodiagnostika (Harakatlarni videotasvir orqali tahlil qilish)

Sportchilarning yugurish biomekhanikasini chuqur o‘rganish uchun yuqori tezlikda ishlovchi kameralar yoki maxsus sport analiz dasturlaridan foydalaniladi.

Afzalliklari:

✓ Harakatlarni qayta-qayta tahlil qilish imkoniyati.
✓ Sekinlashtirilgan tasvir orqali texnik xatolarni aniqlash.
✓ Tahlil natijalarini sportchiga vizual ko‘rsatish.

Qo‘llanilishi:

- **Yugurish biomekhanikasi:** qadam uzunligi, qadam chastotasi, oyoqning yerga tegish burchagi.
- **Start texnikasi:** reaktsiya vaqti, tananing start holati.
- **Sakrash va burilish harakatlari:** oyoq va qo‘l koordinatsiyasi, muvozanat.

Foydalanish uchun vositalar:

Dartfish, Kinovea, Coach’s Eye kabi videodiagnostika dasturlari texnik tahlil uchun ishlatiladi.

Murabbiylar ushbu usullar orqali sportchilar harakatlaridagi kamchiliklarni aniqlab, ularni yaxshilash uchun individual tavsiyalar bera oladilar.

3. Anketalar va so‘rovnomalar

Sportchilarning psixologik tayyorgarligini baholash uchun turli testlar va so‘rovnomalar qo‘llaniladi.

Sportchilarning psixologik tayyorgarligini baholash uchun maxsus test va so‘rovnomalar qo‘llaniladi. Bu usullar sportchilarning ruhiy holati, motivatsiyasi, stressga chidamliligi va musobaqaga tayyorgarlik darajasini aniqlashga yordam beradi.

Asosiy psixologik testlar va so‘rovnomalar

1. Sport motivatsiyasi testi

Maqsad: Sportchining ichki va tashqi motivatsiyasini aniqlash.

Savollar misoli:

"Mening asosiy maqsadim – o‘z natijalarimni yaxshilash." ✅ Ha / ❌ Yo‘q

"Men faqat yutish uchun sport bilan shug‘ullanaman." ✅ Ha / ❌ Yo‘q

https://buxdu.uz

Natija: Sportchi motivatsiyasi ichki (shaxsiy o‘sish uchun) yoki tashqi (medal va mukofotlar uchun) ekanligi aniqlanadi.

2. Stress va musobaqa oldidan qo‘rquv darajasini baholash

Maqsad: Sportchining musobaqa oldidan qanday ruhiy bosim his qilishini aniqlash.

Test misoli:

"Men musobaqadan oldin asabiylashaman." (✅ Ha / ❌ Yo‘q)

"Menda start oldidan yuragim tez uradi." (✅ Ha / ❌ Yo‘q)

Natija: Agar sportchi yuqori stress holatida bo‘lsa, unga relaksatsiya usullari, nafas mashqlari va psixologik tayyorgarlik tavsiya etiladi.

3. Sportda irodaviy sifatlarni baholash testi

Maqsad: Sportchining chidamlilik, sabot, o‘zini boshqarish qobiliyatlarini o‘lchash.

Test misoli:

"Agar mashg‘ulot juda qiyin bo‘lsa, men baribir oxirigacha davom ettiraman." ✅ Ha / ❌ Yo‘q

"Muvaffaqiyatsizlikdan so‘ng o‘zimni tezda tiklay olaman." ✅ Ha / ❌ Yo‘q

Natija: Sportchining irodasi mustahkam yoki zaif ekani aniqlanadi.

4. Jamoaviy ishga moslik testi

Maqsad: Jamoaviy sportchilar uchun muhim bo‘lgan hamkorlik va kommunikatsiya qobiliyatlarini baholash.

Test misoli:

"Jamoa uchun o‘ynash menga zavq bag‘ishlaydi." ✅ Ha / ❌ Yo‘q

"Jamoamdagi hamkasblarim bilan kelishmovchiliklar bo‘lsa, tez hal qilaman." ✅ Ha / ❌ Yo‘q

Natija: Jamoaviy ishlash qobiliyati baholanadi.

Anketalar va test natijalaridan foydalanish

✓ Shaxsiy psixologik yondashuv: Har bir sportchiga individual maslahat berish.

✓ Mashg‘ulot rejasiga moslashuv: Sportchilarning ruhiy holatiga qarab mashg‘ulot yuklamasini o‘zgartirish.

✓ Psixologik tayyorgarlik dasturlari: Sportchilar uchun maxsus motivatsion treninglar va stressni kamaytirish usullari joriy etish.

4. Jismoniy tayyorgarlik testlari

Oyoq kuchini baholash (vertikal va gorizontal sakrash testlari).

Tanadagi asosiy mushak guruhlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun maxsus mashqlar.

Jismoniy tayyorgarlik testlari sportchilarning mushak kuchi, chidamliligi va umumiy jismoniy imkoniyatlarini baholash uchun ishlatiladi. Quyida oyoq kuchi va tanadagi asosiy mushak guruhlarini baholash uchun testlar keltirilgan.

Oyoq kuchini baholash testlari

Oyoq mushaklarining kuchi va portlovchi quvvatini aniqlash uchun quyidagi testlar qo‘llaniladi:

1. Vertikal sakrash testi (Squat Jump, Countermovement Jump)

Maqsad: Oyoq mushaklarining portlovchi kuchini baholash.

Usul:

Sportchi tekis joyda turgan holatda maksimal balandlikka sakraydi.

O‘lchov maxsus sensorli platforma yoki devordagi belgilar yordamida aniqlanadi.

Natija mezonlari:

Juda yaxshi: > 60 sm

O‘rtacha: 40–59 sm

Zaif: < 39 sm

2. Gorizontal sakrash testi (Standing Long Jump, Broad Jump)

Maqsad: Oyoq mushaklarining kuchini va portlovchi quvvatini baholash.

Usul:

Sportchi joyidan ikki oyoq bilan oldinga sakraydi.

Masofa metrda o‘lchanadi.

Natija mezonlari:

Juda yaxshi: > 2.5 m

O‘rtacha: 1.8–2.4 m

Zaif: < 1.7 m

Asosiy mushak guruhlarini baholash

Quyidagi mashqlar orqali sportchilarning mushak kuchi va rivojlanish darajasi baholanadi:

https://buxdu.uz

1. Plank testi (statik kuchni baholash)
Maqsad: Tana markazidagi mushaklarning (core) chidamliligini baholash.
Usul: Sportchi plank holatida maksimal vaqt turishi kerak.
Natija mezonlari:
Juda yaxshi: > 90 sekund
O‘rtacha: 60–89 sekund
Zaif: < 59 sekund
2. Dast tortish (Pull-up)
Maqsad: Bilak va yelka mushaklarining kuchini baholash.
Usul: Sportchi turnikda to‘liq ko‘tarilib, iyagini turnik ustiga chiqarishi va yana pastga tushishi kerak.
Natija mezonlari (erkaklar uchun):
Juda yaxshi: > 15 marta
O‘rtacha: 8–14 marta
Zaif: < 7 marta
Natija mezonlari (ayollar uchun):
Juda yaxshi: > 7 marta
O‘rtacha: 3–6 marta
Zaif: < 2 marta
3. O‘tirib-turish (Squat Test)
Maqsad: Oyoq va dumba mushaklarini baholash.
Usul: 60 soniya ichida bajarilgan o‘tirib-turish harakatlari soni hisoblanadi.
Natija mezonlari:
Juda yaxshi: > 50 marta
O‘rtacha: 30–49 marta
Zaif: < 29 marta
Umumiy natijalarni baholash

Bu testlar yordamida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi tahlil qilinib, ularga individual mashg‘ulot dasturlari tavsiya etiladi.

Pedagogik baholashning ahamiyati

Pedagogik baholash sport mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. U sportchilarning o‘z ustida ishlashiga turtki beradi, murabbiylar va pedagoglarga esa sportchilarni yanada yaxshiroq tayyorlashga imkon yaratadi. Pedagogik baholashning asosiy ahamiyatli jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish

Mashg‘ulot rejasini individual xususiyatlarga moslashtirish imkonini beradi.

Kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

2. Sport natijalarini oshirish

Sportchilarning o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniq tushunishiga yordam beradi.

Ular o‘z natijalarini doimiy ravishda kuzatib, takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Psixologik tayyorgarlikni yaxshilash

Sportchilarning motivatsiyasini oshirish va ularning musobaqalarga tayyorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Stress va musobaqa oldi asabiylikni kamaytirish orqali natijalarni yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa. 12-13 yoshli qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarni pedagogik baholash ularning sport mahoratini oshirish va mashg‘ulot jarayonining samaradorligini ta’minlash uchun muhim omildir. Baholashning ilmiy va tizimli asosda olib borilishi natijalarning yaxshilanishiga xizmat qiladi. Murabbiylar va pedagoglar sportchilarning rivojlanishini muntazam kuzatib borishi va mashg‘ulot dasturlarini tegishli ravishda moslashtirishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев А., Ахмедов У. Ёш спортчиларни тайёрлаш методикаси. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
2. Жураев И., Ҳамидов Ш. Ёшлар спортида югуриш машғулотлари. – Тошкент: Фан, 2021.
3. Bompa, T. Theory and Methodology of Training: The Key to Athletic Performance. – Human Kinetics, 2009.

https://buxdu.uz

4. Djuraevich, Muratov Djakhongir, Fatullaeva Muazzam Azimovna, and Sattorov Anvar Ergashevich. "The results of the experiment conducted with students and parents in conducting physical education work in schools and neighborhoods." // BIO Web of Conferences. Vol. 120. EDP Sciences, 2024.

5. Fatullayeva, Muazzam. "Особенности эстетического воспитания студентов средствами физической культуры и спорта." // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 43.43 (2023).

6. World Athletics. Coaching Guidelines for Young Sprinters. – www.worldathletics.org

7. Безносюк, Александр Алексеевич, and Муаззам Азимовна Фатуллаева. "Современные методы формирования скорости движения юных волейболистов по полю и точности передачи мяча." // International journal of advanced research in education, technology and management 2.8 (2023).

8. Nematovich, K. S., F. M. Azimovna, and K. S. Kuldoshevich. "Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features." // Journal of Critical Reviews 7.6 (2020): 470-471.

9. Azimovna, Fatullayeva Muazzam. "Peculiarities of aesthetic education of students by means of physical culture and sports." // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal 1.6 (2022): 212-215.

https://buxdu.uz

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA MAKTAB O‘QUVCHILARI FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH

Mirzayev Ibroxim Ilhomovich,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarida maktab o‘quvchilari faoliyatini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Jismoniy tarbiya nafaqat o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga, balki ularning intellektual, psixologik va ijtimoiy jihatdan yetuk bo‘lishiga ham xizmat qiladi. Dars jarayonida samarali metodlarni qo‘llash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va individual yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etishning ahamiyati ta’kidlanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, faol ishtirokini ta’minlash hamda ularning sportga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Jismoniy tarbiya darslarini to‘g‘ri tashkil etish va o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishni tadqiqot asosida isbotlab berish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, maktab o‘quvchilari, dars jarayoni, faoliyatni tashkil etish, sport, motivatsiya, sog‘lom turmush tarzi, harakatli o‘yinlar.*

ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации деятельности школьников на уроках физической культуры. Физическое воспитание способствует не только физическому развитию учащихся, но и их интеллектуальному, психологическому и социальному становлению. Подчёркивается важность применения эффективных методов в процессе урока, использования современных технологий и организации занятий на основе индивидуального подхода. Также даются рекомендации по повышению мотивации учащихся, обеспечению их активного участия и усилению их интереса к спорту. Правильная организация уроков физической культуры и экспериментальное подтверждение развития физических качеств учащихся являются одними из актуальных вопросов исследования.

Ключевые слова: *физическое воспитание, школьники, учебный процесс, организация деятельности, спорт, мотивация, здоровый образ жизни, подвижные игры.*

ORGANIZING THE ACTIVITIES OF SCHOOL STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS

This article addresses the issues of effectively organizing schoolchildren's activities in physical education lessons. Physical education not only contributes to students' physical development but also serves their intellectual, psychological, and social maturation. The importance of employing effective methods in the lesson process, utilizing modern technologies, and organizing classes based on an individualized approach is emphasized. Additionally, recommendations are provided to enhance students' motivation, ensure their active participation, and strengthen their interest in sports. Properly organizing physical education lessons and demonstrating the development of students' physical qualities through research-based evidence is considered one of the pressing issues in this field.

Keywords: *physical education, schoolchildren, lesson process, activity organization, sports, motivation, healthy lifestyle, active games.*

Kirish. Jismoniy tarbiya – bu nafaqat o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, balki ularning aqliy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim ta’lim yo‘nalishidir. Zamonaviy ta’lim jarayonida jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarini yanada samarali o‘tkazish va o‘quvchilarning faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish masalalari ko‘rib chiqiladi [1].

Mamlakatimizda zamonaviy ta’lim tizimini amaliyotga tatbiq etish asosida bilim berish jarayonining potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bosqichi davom etmoqda. Pedagoglar ayni paytda innovatsion texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga kiritish orqali o‘quv samaradorligi va sifatini oshirishni ko‘zlamoqdalar.

https://buxdu.uz

Respublikamizda ta’lim sohasida butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma’noda o‘tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884 son “Ta’lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori takomillashgan davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, davlat talablari, yangi o‘quv darsliklarini har tomonlama zamon talablariga mos jihozlangan o‘quv muassasalarida, zamonaviy o‘quv xonalarida amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini keng ochib berdi [1,2,3].

Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish hamda jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta’lim tizimining eng asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirishda muhimdir.

O‘quvchilarni jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish yo‘llari va shartsharoitlari tadqiq etish muammosini o‘rganilishi milliy tarbiya muamosiga yanada chuqurroq kirib borishga va bu muammoga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo‘la oladi. Jismoniy tarbiya darslarini to‘g‘ri tashkil etish va o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishni tadqiqot asosida isbotlab berish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bu yo‘nalishda O‘zbekiston va xalqaro tadqiqotchilarning ilmiy ishlari mavjud. Jismoniy tarbiyaning asosiy tamoyillari, metodikasi va rivojlanish bosqichlari haqida quyidagi manbalarda bayon etilgan:

N.A. Nazarov, I.P. Matveevlarning – “Sport pedagogikasi va nazariyasi” kitobida jismoniy tarbiyaning asosiy tamoyillari, sport pedagogikasi va mashg‘ulotlarni tashkil etish metodlari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda mashg‘ulotlarni rejalashtirish haqida ham fikr yuritilgan. T. Islomovning – “Jismoniy tarbiya va sport” qo‘llanmasida jismoniy tarbiyaning nazariy asoslari, pedagogik yondashuvlar hamda dars jarayonida qo‘llaniladigan usullarni batafsil tahlil qiladi. M. Zokirov – “Jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi” Kitobda jismoniy tarbiyaning sog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liqligi va uni yosh avlod orasida targ‘ib qilishning dolzarbligi yoritilgan. V.K. Balsevich – “Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlar” ilmiy ishida jismoniy tarbiya darslarida interaktiv va o‘yin metodlaridan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Ayniqsa, zamonaviy sport texnologiyalaridan foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. A. Rajabov – “Maktabda jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish” qo‘llanmasi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini rag‘batlantirish, mashg‘ulotlarni o‘yin shaklida o‘tkazish va ularni sportga qiziqtirishga oid ilmiy-tahliliy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. G.K. Makarova – “Bolalar sporti va jismoniy rivojlanish” kitobida turli yosh toifalarida jismoniy rivojlanish mezonlari va baholash usullari ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar uchun optimal mashg‘ulot dasturlari haqida ma’lumot berilgan. A. Qosimov – “Jismoniy tarbiya darslarida diagnostika va baholash” tadqiqotida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini aniqlash va dars samaradorligini baholash metodlari tahlil qilingan.

Jismoniy tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan usullarning aksariyati “jismoniy rivojlanishning ortda qolishi” (Kadetova AB, 1989; Nikitin IV va boshqalar) yoki murakkab rivojlanish (Dyakonov Vv Travin Yug, 1979, 1982; Lyakh VI, Mason G. B., Kofman lb, 1992) o‘rganilgan. Keyinchalik olib borilgan tadqiqotlarda (Balsevich V.K, Bolshenkov Vg, Ryabintsev FP, Gurevich Ia, 1996) jismoniy tarbiya muammolarini hal qilish samaradorligi uchun musobaqa-o‘yin vazifalari, obrazli-rolli o‘yinlari (Germanova AA, 1998) qo‘llanilgan.

Mamlakatimizda yaxlit tushuncha holatida uning ayrim tomonlari mustaqil mavzu sifatida, ilmiy-nazariy fundamental tarzda muayyan darajada tadqiq qilinmoqda. Туленова Х.Б. Моргунова М. Станкявичус Л.А., 1984; Сулейманов И.И., 1995; Шиянов Г.П., 1998, Гимнастика и методика ее преподавания Под ред. Меншикова Н.К. -СПб.: Издателство РГПУ им. А.И. Герсена, 1998.-463 с. Автореф. . 2002. - №4. - С. 50-53.Горская И.Ю. Теоретические и методические основы совершенствования базовых способностей школников с различным состоянием здоровя: Дис. .д-ра пед. наук. Омск, 2001.- 455 с.Гужаловский А.А. Развитие двигателных способностей детей. М.: 1976.- 47 с.Гужаловский А.А. Этапност развития физических (двигателных) качеств и проблема оптимизасии физической подготовки детей школного возраста: Дисс.пед. наук. Минск-Челябинск, 1978.-312 sportni rivojlantirishning asosiy omillari L.P.Matveyev, L.I.Penzulayeva, V.I.Lyax va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlarning nazariy tahlili, anketa so‘rovi, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik tajriba, matematik statistika uslublari foydalanildi.

F.A.Kerimov, M.N.Umarovlarning (2005), fikriga ko‘ra sportdagi yuklamalar ta’siridagi o‘zgarishlar inson skeletida, mushaklarida, ichki organlarida va umumiy morfologik maqomida yuzaga keladi. Shuning uchun shug‘ul-lanuvchilarning morfologik xususiyatlarini, shuningdek, yo‘naltirilgan mashg‘ulot yuklamalari ta’sirida ularning dinamikasini o‘rganish hamda hisobga olish zarurati muhim ahamiyatga ega.

https://buxdu.uz

Jismoniy tarbiya ta’limi sifatini oshirish. “Jismoniy tarbiya” maktab kursi maktabning o‘quvchilar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish, hayotiy zarur harakatlar malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z-o‘zini jismoniy takomillashtirish istak va ehtiyojlarini shakllantirish, jismoniy madaniyat sohasida ijobiy qiziqishlarni o‘stirish faoliyatida asosiy bo‘g‘in hisoblanadi.

Mashg‘ulotlarning barcha shakllari va turlari haftasiga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun 8-10 soat, 5-11-sinf o‘quvchilari uchun 10-12 soat harakat rejimini ta’minlab berishi kerak.

A.Abdullaev, Sh.Xonkeldievlarning (2005), fikricha belgilangan hajm o‘quvchilarning ko‘rsatilgan guruhlari uchun yetarli darajada zarur va minimal darajada majburiydir. Nosog‘lom, jismoniy rivojlanish va tayyorgarligi past darajali o‘quvchilar uchun maxsus (individual-differentsial) rejim o‘rnatiladi.

O‘quvchi yoshlarni jismoniy tarbiyalash muammosini o‘rganadigan tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ularning o‘qishi va kasb tayyorgarligida jismoniy tarbiya munosib o‘rin egallashi lozim [5]. Bolalar sportida yuqorida qayd qilingan ikkala belgi shunday ifodalanganki, o‘quvchilarning sport faoliyati darsdan tashqari hisoblanib, o‘quv fani sifatida umumta’lim maktablari o‘quv rejalari va dasturlariga qisman kiritilgan va sinfdan tashqari ishlar, maktabdan tashqari muassasalaridagi mashg‘ulotlar shaklida alohida ahamiyat, e’tibor bilan ko‘ngilli tarzda yo‘lga qo‘yiladi [6,7].

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayoni pedagoglardan maktabda ishlash uchun jismoniy tarbiyaning asosinimalardan iboratligi, uning mazmuni, tashkil qilinishini, bolalarni harakatga o‘rgatish metodikasini bilishni talab qiladi. Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayonining maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi.

Tahlil va natijalar. Maktab yoshi harakatga o‘rgatish uchun eng qulay yoshdir. Xuddi mana shu yillarda bolalar yuqori egiluvchanlikga, kuchli va tez nerv qo‘zg‘olishiga ega bo‘ladilar va shunga ko‘ra harakatlarning shartli reflekslarini yengil hosil bo‘lishi bilan ajralib turadilar. 14-15 yoshda harakat analizatorlarining rivojlanganligi me’yoriga etadi. Maktabni tugallash davriga kelib o‘quvchilar xilma-xil darajadagi harakat malakalariga ega bo‘ladilar. Bu o‘z navbatida jismoniy mashqlarni, mehnat faoliyatida va ijtimoiy hayotda turmushda, o‘zlarining sog‘ligini mustahkamlashga, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qo‘llay oladilar.

Darsni yuqori saviyada o‘tkazish, dars davomida o‘quvchilar faolligini ta’minlash, beriladigan vazifa, ko‘rsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondoshishlariga erishish, jismoniy tarbiya darsiga mehr va hurmat uyg‘otish o‘qituvchining nafaqat kasbiy mahorati va sifatli ishlab chiqilgan dars bayonnomasiga, balki uning shaxsi va insoniy fazilatlariga ham bevosita bog‘liqdir.

Maxsus jismoniy tayyorgalikka umumiy vaqtning 10% ajaratilib, u asosan umumiy mashqlanaganlikni saqlab turish va maxsus mashqlanganlik va ish qobiliyatini o‘stirishga erishish bilan uzviy bog‘liqdir. Bunda asosiy e’tiborni ish qobiliyatini tez va to‘liq tiklab olishga yordam beruvchi vositalarga qaratish lozim. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda asosan e’tibor tezkorlik, tezkor-kuchlilik va maxsus chidamkorlikni (ayniqsa sakrashda va zarbali harakatlarda) sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak [8,9].

O‘rgatish uslublari yordamida, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, harakat qobiliyatlrini, irodaviy va ahloqiy sifatlarni rivojlantirish vazifalari amalga oshiriladi. Murabbiy mashg‘ulotlarda u yoki bu harakat faoliyatini o‘rgatadi, tushuntiradi va ko‘rsatadi, shug‘ullanuvchilar esa uni egallab oladilar. Mashg‘ulotlarda o‘rgatish uslublarini tanlashda, pedagogik vazifa, material mazmuni va o‘quvchilar tayyorgarligini e’tiborga olish lozim. Jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlari jaryonida asosan uchta o‘rgatish uslublari mavjud bular: so‘z uslubi, ko‘rgazmali uslub va amaliy uslublar. So‘z va ko‘rgazmalilk uslublari bevosita harakatlarni amalda qo‘llash, ya’ni mashqlarni bajarish uchun zamin yaratadi. Barcha uslublar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq holda kompleks qo‘llaniladi [4,7].

Jismoniy mashqlarni to‘g‘ri qo‘llash, ularni bolalar qanday o‘zlashtirayotganligini nazorat qilib borish, shu bolalardagi jismoniy sifatlarni, uning qaddiqomati, jismoniy va funksional taraqqiyoti to‘g‘ri yo‘nalishda tarbiyalanib borishiga imkon yaratadi [10].

Ma’lumki, insonning jismoniy sifatlari uning tug‘ilishidan boshlab shakllana boradi. Lekin, uning bolaligida shu sifatlar qanday darajada shakllanishi, oddiy yoki murakkab harakatlarni o‘zlashtirib olishi nafaqat uni o‘sib, yashab kelayotgan muhitga bog‘liq, balki bolaning muayyan sifatini qanday vositalar yordamida rivojlantirilishi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda harakatni turi, yo‘nalishi va qanday maqsadga qaratilganligiga (kasb, ro‘zg‘or ishi, sport, harbiy faoliyat va h.k.) qarab, har bir jismoniy sifatni shu harakat ijrosidagi o‘rni turlicha bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, turli kasb faoliyatlarida yoki sport turlarida shu jismoniy sifatlarning integral ahamiyati o‘ziga xos ulushga ega bo‘ladi. Ammo qanday bo‘lmasin, ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, barcha harakat faoliyatida ayrim jismoniy sifatlarning ustuvorligi darhol ko‘zga tashlanadi.

https://buxdu.uz

Xulosa va takliflar. Tadqiqot bo‘yicha adabiyotlar tahlili hamda savolnoma natijalari shundan dalolat berdiki, o‘rta umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darsini to‘g‘ri rejalashtirish, tashkil qilish, ayniqsa dars mazmuniga jiddiy e’tibor qaratish o‘quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqtirish, ularni muntazam mashg‘ulotlarga jalb qilish borasida muhim ahamiyatga ega. Lekin, so‘rovnoma natijalari maktablarda jismoniy tarbiya darslarini maqsadga muvofiq tarzda o‘tkazish yo‘lga qo‘yilmagan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 5-6-sinf o‘quvchilaridan iborat nazorat va tajriba guruhlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya darslarida qo‘llaniladigan mashqlar (nazorat guruhida) o‘quvchilar faolligi susaytirish, befarqlik, qolaversa jismoniy qobiliyatlarini yetarli darajada rivojlantira olmas ekan. Aksincha, dars jarayonida qo‘llanilgan uslublar va har xil mashqlar nafaqat yuqorida qayd etilgan usullarni tajriba guruhidagi o‘quvchilarda samarali rivojlantirish ega ekanligi isbot qilindi, balki shu o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi, faolligi va kayfiyatlariga ijobiy ta’sir etganligi kuzatildi.

Tadqiqot asosida samaradorligi o‘rganilgan kompleks mashqlarni har bir darsda va darsdan tashqari sharoitlarda muntazam qo‘llash o‘quvchilar o‘rtasida jismoniy tarbiya jarayonini faol pog‘onaga ko‘tarish, ularning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishi ortishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. http://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 5-sentabrdagi O’RQ-174-son ““Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi‘ O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni (yangi tahriri). “Xalq so‘zi” gazetasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori. http://lex.uz

4. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent, O‘z DJTI, 2005 yil - 300 b.

5. Axmatov M.S. Monografiya. Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sportsog‘lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – T.: 2005 y. – 235 b.

6. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. O‘zDJTI, T.: 2005, 171 b.

7. Юнусова Ю.М. Организация и методика физической культуры в общеобразовательных школах Республики Узбекистан. -Т.:2002. С. 120.

8. Шолих, М. Круговая тренировка (Теоретические, методические и организационные основы одной из современных форм использования физических упражнений в школе и спортивной тренировке). - 2-е изд., стер. - Москва: Спорт, 2021 .- 217 с.

9. Медведев, В. В. Метод круговой тренировки как форма физической подготовки студентов. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2019. – № 44 (282). – С. 312-313.

10. Kerimov F.A., Umarov M.N. Sportda prognozlashtirsh va modellashtirsh. Darslik. O‘zDJTI. T.: 2005, - 280 b.

https://buxdu.uz

TALABALARNI MA’NAVIY TARBIYALASHDA JISMONIY TARBIYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamanova Aziza Abduxaliq qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti o‘qituvchisi
Shukurov Abduvosit Akmal o‘g‘li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

Mazkur maqolada jismoniy madaniyat va sport tadbirlarining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil etilgan bo‘lib, jismoniy madaniyat va sport tadbirlari vositasida yoshlarni har tomonlama tarbiyalash masalasi alohida ahamiyat kasb etgan. Ta’lim va tarbiya qonuniyatlarini ifodalovchi eng muhim boshlang‘ich qoidalar tarbiya tamoyillari hamda jismoniy tarbiyaning o ‘ziga xos xususiyatlari haqida qayd etilgan. Ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Kalit so‘zlar: s*port, musobaqa, ma’naviyat, madaniyat tarbiya, vosita, ijtimoiy ahamiyat, onglilik, faollik, ko‘rsatmalilik.*

ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ

В данной статье анализируется социально-педагогическое значение физкультурно-спортивных мероприятий, при этом особое внимание уделяется вопросу всестороннего воспитания молодёжи посредством таких мероприятий. Отмечены наиболее важные исходные положения, выражающие закономерности обучения и воспитания, принципы воспитания, а также особенности физического воспитания. Вопрос воспитания духовно и физически развитого поколения является актуальной проблемой сегодняшнего дня.

Ключевые слова: *спорт, соревнование, духовность, культура, воспитание, средство, социальная значимость, сознательность, активность, наглядность.*

SPECIFIC FEATURES OF PHYSICAL EDUCATION IN SPIRITUAL UPBRINGING OF STUDENTS

This article analyzes the socio-pedagogical significance of physical culture and sports events, with particular emphasis on the comprehensive education of youth through these activities. The most fundamental principles expressing the laws of education and upbringing are noted, along with the specific features of physical education. The issue of raising a spiritually and physically well-rounded generation is a pressing challenge of our time.

Keywords: *sport, competition, spirituality, culture, upbringing, means, social significance, consciousness, activity, demonstration.*

Kirish. Jahonda inson faoliyatining jismoniy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lmagan sohasini topish mumkin emas, chunki jismoniy tarbiya va sport jamiyatdagi har bir shaxsning alohida e’tirof etilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlaridir. So‘nggi yillarda jismoniy madaniyat haqida nafaqat mustaqil ijtimoiy hodisa, balki shaxsning barqarorligi sifatida ham ko‘proq gapirilayotgani bejiz emas. Tarixan jismoniy madaniyat, birinchi navbatda, jamiyatning yosh avlodni mehnatga har tomonlama jismonan tayyorlashdagi amaliy ehtiyojlari ta’sirida rivojlangan. Shu bilan birga, ta’lim va tarbiya tizimlarining rivojlanishi bilan jismoniy madaniyat harakat ko‘nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy omiliga aylandi.

Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari aholisining sog‘ligi, jismonan salomatligi, sog‘lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini namoyon qildi. COVID-19 koronavirus infeksiyasi avvalo yurak-qon tomir va nafas olish yo‘llari hamda semizlik (ortiqcha vazn) kasalligiga chalingan insonlarning sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Aholining salomatligini yaxshilash, yoshlarni jismoniy barkamolligini tarbiyalash, shuningdek, ish qobiliyatlarini va mehnat unumdorligini oshirish, eng muhimi, sog‘lom turmush tarzi orqali umrni uzaytirishga, sog‘lom avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish zarurligini taqazo etdi.[3, 24]

https://buxdu.uz

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash.

Ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish.

Maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. «Yoshlar - yangi O‘zbekiston bunyodkorlari» shiori ostida «Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans» g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash kabi g‘oyalar ilgari surilgan.[2]

Shu bois ota - bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilm-u ma’rifat, ta’lim- tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar.

Har qanday ma’naviy tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki, ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ma’naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi.

Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan chuqur ma’noli so‘zlarini eslasak. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘qitishda sog‘lomlashtirishning muvaffaqiyati, uning maqsadlari va mazmunini, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish vositalari ya’ni, o‘qitish usullarini to‘g‘ri belgilab olishga bog‘liq. O‘qitish usullari deganda o‘qitish sog‘lomlashtirishning pedagogik maqsadlarini amalga oshirishni ta’minlovchi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muayyan tartibli, maqsadli munosabatlar tizimini tushuniladi. Jismoniy tarbiya jarayoni ko‘p qirralidir. Bu jarayonda ta’lim ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta’lim berish harakat ko‘nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, shug‘ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatiladi. Tarbiyaning hamma turlarining birligi, ularning o‘zaro bir-biriga ta’sir o‘tkazishi tub pedagogik qonuniyatlaridan biridir. Aqliy, ahloqiy va estetik tarbiyaning ma’lum tomonlari jismoniy tarbiya jarayoniga uzviy qo‘shilib ketgan. Jismoniy tarbiyaning insonni mehnat va harbiy tayyorgarlik, sog‘lomlashtirish hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillari jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari hisoblanadi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya jarayoninig ta’lim va tarbiya tamoyillari ham qabul qilingan. Jismoniy tarbiyada harakatlarni birlashtirish va ularni mashq uslublari bilan yaxlit tartibda qo‘llash hollari bo‘ladi.

Ta’lim va tarbiya qonuniyatlarini ifodalovchi eng muhim boshlang‘ich qoidalar tarbiya tamoyillari deb ataladi. Jismoniy tarbiya jarayonida umumiy pedagogik tamoyillar tadbiq qilinishi mumkin, chunki bu jarayon ta’lim va tarbiyaning xususiy hodisasidir. Jismoniy tarbiya sohasida xususiyatini aks ettirib, alohida ahamiyat kasb etadi.

Onglilik va faollilik tamoyili Har qanday ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati, tarbiyalanuvchilarning o‘zining bu ishga qanchalik ongli va faol munosabatda bo‘lishlariga ham bog‘liqdir. Jismoniy tarbiya jarayoni vazifalarini to‘g‘ri tushunish, ularni qiziqish bilan faol bajarish tarbiyaning borishini tezlashtiradi, hosil qilingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni chuqur takomillashtirish va ulardan hayotga ijodiy ravishda foydalanishga imkon beradi. Bu qonuniyatlar eng avvalo onglilik va faollilik tamoyilining asosini tashkil etadi. Jismoniy tarbiya jarayonida onglilik va faolilik tamoyili quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘llaniladi. Mashg‘ulotlarning umumiy maqsadi va konkret vazifalariga nisbatan tushungan holda munosabatda bo‘lishni va muhim qiziqishni tarkib toptirish. Onglililk va faollilik tamoyili jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining maqsadini tushunish va jismoniy barkamollikning istiqbolini anglash va unga etishni maqsad qilib belgilash bilan ifodalanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida beriladigan vazifalar ma’lum jismoniy mashqlar tarzida bajariladi. Maqsad va vazifalarni qanchalik tushunib olish shug‘ullanuvchilarni yosh imkoniyatlariga va tayyorlik darajasiga bog‘liqligi o‘z-o‘zidan ravshandir. Shug‘ullanuvchilarning harakatlari bajarilishini o‘qituvchi va murabbiylar nazorat qiladilar, baholaydilar va xatolarni tuzatib boradilar. Shunga qaramay shug‘ullanuvchilarni o‘z harakatlarini o‘zlari baholashi va nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bunda harakatlarni oldindan xis qilish va sinash qo‘llaniladi. Shug‘ullanuvchilarning faollilik lari oshirishda ularning erishgan yutuqlarini muntazam ravishda baholab va rag‘batlantirib borish muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rsatmalilik tamoyili pedagogika tajribasida ko‘rsatmalilik tarbiyalanuvchilarning ko‘rish eshitish va idrok etish tuyg‘ulariga ta’sir etib tarbiya vazifalarini amalga oshirish tushuniladi.[5, 35-36]

https://buxdu.uz

Jismoniy tarbiya jarayonida ko‘rsatmalilik muhim rol o‘ynaydi, chunki shug‘ullanuvchining faoliyati asosan amaliy xarakterda bo‘ladi va sezgi organlarini har tomonlama rivojlantirishdek o‘zining maxsus vazifalaridan biriga egadir. Jismoniy tarbiya jarayonida bevosita ko‘rsatmalilik jismoniy mashqlarni namoyish qilib ko‘rsatish, shuningdek, bu mashqlarni shaxsiy tajribada "his etish" dan iboratdir. Bevosita ko‘rsatmalilikka jismoniy mashqlar va harakatlarni amalda bajarib namoyish qilishni kiritish mumkin. Bavosita ko‘rsatmalikka esa birinchidan, rasm, sxema, maketlardan, kinogramma, videofilmlar va boshqa ko‘rsatmali qurollardan, shuningdek, harakatlarning ayrim tomonlarini ko‘rsatuvchi va ularning bevosita idrok etishni osonlashtiruvchi har xil maxsus texnik vositalardan foydalanish, ikkinchidan, obrazli so‘z kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jismoniy harakatlarni o‘rganishda quyidagi uslubiyotga amal qilish kerak. Buning uchun mashq haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish va uni amalda bajarish his etish lozim. Shuning uchun mashq haqida tushunchaga ega bo‘lishda ko‘plab ko‘rgazmali vositalardan foydalanish mumkin. Harakatlarni amalda bajarishda esa murabbiy tavsiyasi va yordami bilan bajarish kerak. hamda xatolarni o‘z vaqtida to‘g‘rilab borish zarur. Jismoniy tarbiya jarayonida ko‘rgazmalilik tamoyili tarbiyaning umumiy shartlaridan hisoblanadi. Ko‘rgazmalilikning xilma-xil shakllaridan foydalanish mashg‘ulotlarga qiziqishni oshiradi, mustahkam bilim, mahorat va malaka hosil qilishga yordam beradi. Bajara bilish va individuallashtirish tamoyili. Bajara bilish va individuallashtirish tamoyili tarbiyalanuvchilarning xususiyatlarini hamda ularga berilayotgan topshiriqning qanchalik qiyin yoki engilligini ham hisobga olishni ifoda etadi. Jismoniy tarbiyada ta’lim va tarbiya jarayonini shug‘ullanuvchilarning imkoniyatlarini, yosh va jins xususiyatlarini tayyorgarlik darajasini shuningdek jismoniy va ma’naviy qobiliyatlaridagi individual farqlarni ham hisobga olgan holda tashkil qilish lozimligini bildiradi. Jismoniy mashqlarni bajara olish, bir tomondan, shug‘ullanuvchilarni imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning o‘zlari uchun xos bo‘lgan xususiyatlarga biror mashqni bajarish paytida sodir bo‘ladigan obektiv qiyinchiliklarga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi bajara olish me’yorini belgilar ekan, avvalo ilmiy ma’lumot va umumlashgan amaliy tajribalar asosida shug‘ullanuvchilarning biror bir kontingenti uchun belgilanadigan dasturlarga va normativ talablarga asoslanadi. Shug‘ullanuvchilar imkoniyatlari jismoniy tayyorgarlik mezonlari orqali sinash, tibbiy nazorat va pedagogik kuzatishlar bilan aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bugungi yangi O‘zbekiston uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo‘lib, bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik va qat’iylik bilan davom ettirish mazkur jismoniy madaniyat va sport sohadagi asosiy mezonlardan biriga aylandi. Jismoniy madaniyat va sport tadbirlari orqali yoshlarni har tomonlama tarbiyalash xususiyati to‘g‘risida gap ketar ekan, u ijtmoiy hodisa sifatida ham fan sifatida ham jamiyatda, insonlar hayotida katta ahamiyatga egaligini aytib o‘tish lozim. Sport mashg‘ulotlari nazariyasidan ma’lum bo‘lishicha sportning musobaqa vazifasi, sog‘lomlashtirish vazifasi, g‘oyaviylik vazifasi, estetik vazifasi, axloqiy-tarbiyaviy vazifasi, ijtimoiy-siyosiy vazifasi, baynalminalchilik vazifalari borki [1], ular bir-biri bilan uyg‘unlashib ketadi va natijada jismoniy madaniyat va sport tadbirlarining tushunchasi naqadar keng ma’noli ekanligini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, ayrim mutaxassislarning ta’kidlashicha, jismoniy madaniyat va sport tadbirlari vositasida vatanparvarlik, insonparvarlik tarbiyasini yosh avlodga singdirish yo‘llari va imkoniyatlari mavjud.[4, 48] Ayniqsa, so‘nggi yillarda Respublikada sohaga doir turli darajadagi anjumanlarda “jismoniy madaniyat va sport yoshlar tarbiyasi”, “jismoniy madaniyat va sport sog‘lom avlod”, “jismoniy madaniyat va sport ma’anaviyat” kabi jismoniy madaniyat va sportning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan dolzarb masalalar yoritilmoqda.

Darhaqiqat, sport bilan shug‘ullangan yoshlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chunki, sport yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ular ongida sog‘lom turmush tarziga amal qilish g‘oyalarini shakllantirish, ularning ruhiy va jismoniy bardamligini maqsadga muvofiq tarbiyalashga katta hissa qo‘shadi.[7] Zero, zamonaviy sport mashg‘ulotlarining asosiy maqsadi va vazifalaridan biri sifatida shug‘ullanuvchining har tomonlama tarbiyalanishi e’tirof etilib, jismoniy madaniyat va sport asosida o‘zligini anglash va milliy uyg‘onish, mafkuraviy hissiyotni rivojlantirish va shu asosda insonparvarlik, vatanparvarlik ruhini kuchaytirish vazifalarini amalga oshirish nazarda tutiladi. So‘rovnoma ishtirokchilari yoshlarni sportga keng jalb qilish yuzasidan o‘zlarining turli taklif va tavsiyalarini bildirishgan. Ishtirokchilarning aksariyati yoshlarni sportga keng jalb qilish va ularni sport vositasida har tomonlama tarbiyalashda oila (asosan, ota-ona), murabbiy va ta’lim muassasasi hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish lozimligini aytib o‘tishgan. Ota-onalarning shaxsiy namuna ko‘rsatishi, taniqli va mahoratli sportchilarga nisbatan farzandlarida havas uyg‘otishi katta ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, ayrim ishtirokchilar jismoniy madaniyat va sport vositasida yoshlarni har tomonlama tarbiyalashda jismoniy madaniyat o‘qituvchilari va murabbiylarga alohida vazifalar yuklatilishi lozimligini ta’kidlashgan.[6] Bu o‘z

https://buxdu.uz

navbatida sport vositasida yoshlarni turli salbiy illatlar ta’siridan asrash va ularni ham jismonan ham ma’nan tarbiyalashning takrorlanmas va o‘ziga xos usuli ekanligini e’tirof etishgan.

Xulosa. Mutaxassislar tajribasidan ma’lumki, Respublikamizning turli hududlarida yoshlarning har tomonlama tarbiya topishi, ularning ham ma’naviy ham jismoniy tarbiyalanishida o‘zini mas’ul deb biladigan o‘qituvchi va murabbiylar yetarlicha. Ular tomonidan erishilgan yutuqlar faqatgina sport natijasi bilan chegaralanib qolmay, o‘quvchilarni yetuk insonlar bo‘lib jamiyatimiz ravnaqiga hissa qo‘shayotganligi bilan ham belgilanadi. Ushbu o‘qituvchi va murabbiylar ish tajribasini o‘rganish, o‘zlashtirish va ommalashtirish foydadan holi bo‘lmaydi, albatta.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (Yangi tahriri). -T.: 2015 yil 4-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
3. Axmedov F.Q., Atamurodov Sh.O‘. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent -2019 yil. 180 b.
4. Olimov.A.I., Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi “Tafakkur” nashriyoti-2020**.**
5. Axmedov F.Q., Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi “Ruhsora servis” nashriyoti-2021.
6. http://www.google/uz/
7. http//www.ZiyoNET.uz/

https://buxdu.uz

SPORT O‘YINLARI ETNOGENEZISI VA TARIXIY TAMOYILLARI ASOSIDA O‘QITISHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Xamroyev Behruz Xalimovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti
bexruzxamroyev1107@gmail.com

Ushbu maqolada sport o‘yinlarining etnogenezisi va tarixiy tamoyillari asosida tahlil etiladi, hamda sport o‘yinlarining milliy va mintaqaviy xususiyatlari, ularning rivojlanish bosqichlari, Sport o‘yinlari turli xalqlarning milliy merosi bo‘lib, ularning shakllanishi, rivojlanishi va ta’lim tizimidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada sport o‘yinlarining jismoniy tarbiya va ma’naviy tarbiya jarayonlariga ta’siri, ularning yosh avlod tarbiyasidagi roli, shuningdek, milliy sport o‘yinlarini o‘qitishning innovatsion usullari yoritiladi. Ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi muhokama qilinadi. Shuningdek, sport o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati, jismoniy tarbiya tizimiga ta’siri va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga, o‘qitish jarayonining pedagogik samaradorligi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *AQSh, Angliya, R. Xelman, olimpiya xartiyasi, Tomas Arnold, differensiy, olimpiya, Pyer de Kuberten, sport pedagogikasi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЭТНОГЕНЕЗИСА И ИСТОРИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ СПОРТИВНЫХ ИГР

В данной статье анализируются этногенезис и исторические принципы спортивных игр, а также национальные и региональные особенности спортивных игр, этапы их развития. Спортивные игры являются национальным наследием различных народов, и особое внимание уделяется их формированию, развитию и роли в системе образования. В статье освещается влияние спортивных игр на процессы физического и духовного воспитания, их роль в воспитании подрастающего поколения, а также инновационные методы обучения национальным спортивным играм. Рассматривается интеграция спортивных игр в образовательный процесс. Также освещается воспитательное значение спортивных игр, их влияние на систему физического воспитания и их совместимость с современными педагогическими технологиями. Результаты исследования позволили разработать рекомендации по более эффективной организации учебного процесса и сформулировать мнения о педагогической эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: *США, Англия, Р. Хельман, Олимпийская хартия, Томас Арнольд, дифференциация, олимпиада, Пьер де Кубертен, спортивная педагогика.*

PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF TEACHING BASED ON ETHNOGENES AND HISTORICAL PRINCIPLES OF SPORTS GAMES

This article analyzes the ethnogenesis and historical principles of sports games, as well as their national and regional characteristics and stages of development. Sports games are considered the national heritage of various peoples, with special attention given to their formation, development, and place in the education system. The article highlights the influence of sports games on physical and spiritual education processes, their role in the upbringing of the younger generation, and innovative methods of teaching national sports games. The integration of sports games into the educational process is discussed. Additionally, the educational significance of sports games, their impact on the physical education system, and their compatibility with modern pedagogical technologies are explored. The research findings contribute to the development of recommendations for more effective organization of the educational process, offering insights into its pedagogical effectiveness.

Keywords: *USA, England, R. Helmann, Olympic Charter, Thomas Arnold, differentiation, Olympics, Pierre de Coubertin, sports pedagogy.*

Kirish. Ibtidoiy jamoaning yemirilishi va quldorlik tuzumining shakllanishi qadimiy Germaniya, Okeaniya, hindu qabilalari (astek, ink, mayya) va boshqa joylarda ham sodir bo‘lib, ularda ham o‘ziga xos jismoniy mashqlar va o‘yinlarning rivojlanishiga olib kelgan. Masalan, maya qabilasida kauchukdan yasalgan koptok bilan jamoa bo‘lib o‘yin o‘ynash an’anaga aylangan. Ya’ni uning shakli va mazmuni hozir mashhur bo‘lgan sport o‘yinlariga asos solgan bo‘lishi mumkin. Qadimgi Peru mamlakatida jismoniy

https://buxdu.uz

mashqlar yoshlardan iborat harbiy qismlarni tayyorlashda eng muhim vosita sifatida xizmat qilgan**.** Ibtidoiy jamoaning yemirilishi va quldorlik tuzumining shakllanishi qadimiy Germaniya, Okeaniya, hindu qabilalari (astek, ink, mayya) va boshqa joylarda ham sodir bo‘lib, ularda ham o‘ziga xos jismoniy mashqlar va o‘yinlarning rivojlanishiga olib kelgan. Masalan, mayya qabilasida kauchukdan yasalgan koptok bilan jamoa bo‘lib basketbolga juda o‘xshab ketadigan o‘yin o'ynash an'anaga aylangan. Ya’ni uning shakli va mazmuni hozir mashhur bo‘lgan sport o‘yiniga asos solgan bo‘lishi mumkin.

Qadimgi Peru mamlakatida jismoniy mashqlar yoshlardan iborat harbiy qismlarni tayyorlashda eng muhim vosita sifatida xizmat qilgan. O‘rta asrlar davomida madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jismoniy tarbiya va sport ham rivojlangan. Bir necha yuz yillar davomida katolik dini aqliy va jismoniy tarbiyaga salbiy ta’sir o‘tkazib kelgan. Xristian dini ta’lim va tarbiya sohasida o‘zining hukmronligini ustun qo‘yib, bunda faqat ruhiyat va oxirat haqida ta’limot xalq ongiga singdirilgan.

Dinning ta’siri natijasida maktablar va universitetlarda jismoniy tarbiyaga e’tibor berilmagan. Ritsarlik tarbiya tizimi. Cherkov feodal tuzumiga yordam berish maqsadida ritsarlik katolisizmini keng tarqatgan. Salb yurishlaridagi ritsarlik faoliyatlarida jismoniy tayyorgarlikka ehtiyoj sezilib, ularni tayyorlashga e’tibor kuchaytirilgan hamda ritsarlik jismoniy tarbiya tizimi tashkil etilgan. Ritsarlarni tarbiyalashda otda yurish, qilichbozlik, ov qilish, suzish, kamondan o‘q otish, shaxmat o‘yini, she’r aytish kabilardan foydalanilgan. Bo'lajak ritsarlar 7 yoshdan 14 yoshgacha obro‘li feodal ayollar tarbiyasini olgan. Bolalar orasidan tanlab olingan 14 yoshga to‘lganlar qurollarni ishlatish bo‘yicha tayyorlangan. 21 yoshda esa ular bevosita ritsarlikka jalb qilingan. Ular har qanday xizmatni bajarishga tayyor bo'lishi uchun kuch va chidamlilikka erishish yo'lida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanganlar. Bunda o‘yinlar va sport muhim o‘rin tutgan. O‘yinlar, harakatlar harbiy xususiyatga ega bo‘lgan sport o‘yinlari ichida fransuzcha «je de pom», inglizcha «sul», gollandcha «golf» o‘yinlari ko‘proq qo‘llanilgan[1:101-b].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Jismoniy tarbiyani tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishda A.D.Novikov, L.P.Matveev, V.A.Ashmarin, Ch.T.Ivankov, N.I.Ponomarev, V.V.Popchenko, B.M.Shiyan, A.Abdullaev, A.Akramov, F.Nasriddinov, F.Karimov, F.Xo‘jayev, va boshqa olimlar faol ishtirok etdilar. A.D.Novikov va L.P.Matveevlar jismoniy tarbiyaning nazariyasi va o‘qitish pedagogikasiga doir ko‘pgina asarlar yozgan. Ular olib borgan tadqiqotlarning asosiy mavzusi jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi muammolari bo‘lib, fan sifatida shakllanishi, jismoniy tarbiyaning maqsadi, vazifalari, vositalari, asosiy prinsiplari, jismoniy tarbiyaning boshqa tarbiya yo‘nalishlari bilan uzviy bog`liqligi va jismoniy ta’limning qonun-qoidalarini o‘rganishga qaratilgan [2:56-b.]. Jismoniy ta’limning didaktik asoslari pedagogika fani qonuniyatlariga chuqur bog`langan holda bayon etilgan. Ba’zi hollarda ayrim didaktik masalalar jismoniy tarbiya borish muammolari bilan aralash holda talqin etilgan. Masalan, jismoniy mashg`ulotlarning shakllari, sport trinirovkasi, amaliy jismoniy tayyorgarlik jismoniy ta’lim sifatida o‘rganilishi, didaktik muammo sifatida tadqiq etilsa ma’qul bo‘lar edi. O‘zbekistonlik olimlar sho‘rolar tuzumi davrida jismoniy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari va uni o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari to‘laligicha rus olimlarining g`oyalariga aynan mos kelar edi. Mustaqillikka erishgandan keyin milliy jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi muammolarini ishlab chiqishga jadallik bilan kirishildi va e’tiborga loyiq natijalarga erishildi. R.Xel`man (1975), U.Noyman (1975), X.Shvidman (1976), G. Ryors (1979), O.Grupp (1979), Y.Lange (1983) X.Xaag (1988), E.Maynberg (1995)larning ko'pdan ko'p maqolalari sport pedagogikasi fani va predmeti jamiyat ehtiyojiga aylanganligini ko'rsatadi. X. Shvidman va R. Xelmanning ta'kidlashicha, sport pedagogkasi predmeti bu sport faoliyatidir (ayniqsa, sport yutuqlariga erishish faoliyati).

Bu sportchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida qilinadigan qiyin va serqirrali jarayon bo‘lib, maktab ishlab chiqarish va oiladagi tarbiyaviy jarayonlardan farqli, u xususiyatlariga egadir. Sport pedagogikasi mana shu xususiyatlarni ko'rsatib, nazariy tomondan ifodalaydi. Jismoniy tarbiya muammolarini kompleksli hal etishda butun bir olimlar jamoalari, mutaxassislashtirilgan ilmiy va o'quv muassasalari samarali mehnat qildilar. Amaliy materiallarning mo'lligi, yangi qonuniyatlarning ochilishi, dastlabki yagona jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatining differensiyalanishiga olib keldi. Yangi maxsus fanlar "Jismoniy madaniyatni tashkillash va boshqarish", "Jismoniy mashqlar biomexanikasi", "Sport psixologiyasi", "Sport metrologiyasi", "Sport fiziologiyasi", "Davolash fizkul'turasi", "Jismoniy mashqlar gigienasi", "Valeologiya" "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi "va boshqalar ajralib chiqdi. Yuqoridagi fanlarning ayrim sohalari jismoniy tarbiya jarayonida bir necha aralash fanlarning bilimlaridan keng foydalanish lozimligini ilmiy-amaliy isbotladi[6:65-b].

Muhokama. Yurtimiz vakillarining Olimpiya o‘yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o‘yinlari va chempionatlari hamda xalqaro musobaqa larda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda O‘zbekistonning obro‘-e’tibori va sport salohiyati yanada oshayotgani, respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o‘quvchi va talaba yoshlar o‘rtasida uch bosqich dan iborat

https://buxdu.uz

«Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport o‘yinlari ommalashib borayotgani ayniqsa e’tiborlidir. smoniy madaniyatni rivojlanishidagi har bir bosqichda uni boylik (kishi talablarini qondiradigan boylikni) mazmunini kim shug‘ulla nayotgan bo‘lsa, o‘rgatishi, ishlatish bu bilan birga imkoniyati boricha keyinchalik rivojlantirishi mumkin. Bu yerda so‘z jismoniy madaniyat ning hozirgi kunda ko‘p tarqalgan shakllari: gimnastika, sport turlari, sport o‘yini turidagi o‘yinlar, jismoniy mashqlarni majmui sifatida jismoniy madaniyatni amaliy va boshqa bo‘limlariga kiritilgan. Jismoniy madaniyatning ayrim yoki ma’lum yaqin elementlarni o‘z ichiga olib metodik bilim sifa tida (gimnastika turlari, sport o‘yinlari) beriladi. Bunday predmetlar o‘z chegarasida katta bo‘lmagan aniqlikda nisbatan qisqa umum lashtiriladi. Epchillik muvofiqlash nuqtai nazari dan murakkab harakatlarni bajarish, ularni tez o‘zlashtirish, yuzaga kelgan vaziyatga qarab harakatlarni o‘zgartira olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Epchillikni rivojlantirish uchun harakatlarni faqat oqilona va tez o‘zlashtirish emas, ularni o‘zgaruvchan vaziyatlarda maqsadga muvofiq tarzda qo‘llash kabi usullar fiziologik asoslangan sanaladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda buning uchun harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari elementlari (masalan, mini-futbol), o‘yin mashqlar, estafetadan foydalaniladi.

Izokinetik usulda zamonaviy trenajerlarda bajariladigan kuch mashqlari bo‘g‘imlarning harakat tezligini 1 sekundda 0 dan 200 tagacha o‘zgartirish imkonini beradi. Shuning uchun bu usul kuch qobiliyatlarining har xil turlarini – «sust», «tez», «portlash» kuchini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Usul suzish, engil atletika, sport o‘yinlarida – oyoq va qo‘llar bilan zarbalar, koptok irg‘itish va shu kabilarda kuch tayyorgarligi jarayonida keng qo‘llaniladi. Mazkur usuldan foydalanilganda badan qizdirish mashqlari shart emas va shu bilan og‘irliklar yordamidagi mashg‘ulotlardan farqlanadi. Chidamlilik jismoniy faoliyatning hamma turida zarur. Jismoniy mashqlarning bir turida u sport natijasini ta’daqlaydi (yurish, o‘rta va uzoq masofalarga yugurish, chang‘i sporti), boshqalarda – ma’lum taktik amallarni bajarish imkonini beradi (boks, kurash, sport o‘yin lari va boshq.), uchinchilarda – qisqa muddatli ko‘plab katta yuk lamalarga bardosh berish va kuchlarning tez orada qayta tiklanishini ta’daqlaydi (sprintercha yugurish, sakrash, og‘ir atletika va boshq.)Sport o'yinlari tizimi gimnastika tizimi qatorida jahondagi juda ko‘p mamlakatlarda tashkil topgan.

Ularning tashkiliy va uslubiy shakllari o‘ziga xos tamoyillarda tarkib topdi. Uning asosida musobaqalar uchun mo‘ljallangan va yaxshi natijalaiga erishishni kozda tutgan mashqlar ifodalangan edi. Tizim turli mamlakat xalqlarining turmush sharoitida uchraydigan xilma-xil mashqlar va o‘yinlarni o‘tkaziladigan mujassamlagan. Shahar va qishloqlarda bayramlarda kurashchilar, mushtlashuvchilar, akrobatlar, qilichbozlar, yugurish va sakrash ustalari, polvonlar o‘z mahoratlarini namoyish qilganlar. Shimoliy mamlakatlarda chang’ida va konkida uchish musobaqalari o‘tkaziladigan. Shahar va qishloqlarning aholisi orasida otda yurish, qilichbozlik, golf o‘yini, kriket, kamon va to‘pponchadan o‘q otish, turli xil ovlar keng rivojlangan.

Ko‘pgina davlatlarda o‘quv yurtlari - universitetlar maktablar, kollejlar tashkil qilinib, ularda akademik sport va sport o‘yinlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. XVII asr o‘rtalarida Buyuk Britaniyada iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish yuzaga kelib, u yirik kapitalistik mamlakatga aylangan. Shu tariqa Buyuk Britaniyada boshqa mamlakatlarga nisbatan avvalroq sport o‘yinlari tizimi shakllangan edi [5:98-b.]. Buyuk Britaniya boshqa mamlakatlarni bosib olish, mustamlakachilik yo‘li bilan o‘z boyligini oshirish va davlatni mustahkamlasga erishgan. Bunda ulkan dengiz floti va harakatchan ekspeditsiya bo‘limlari muhim rol o‘ynagan edi. Ular kollejlar, universitetlar va harbiy o‘quv yurtlari bitiruvchilaridan shakllangan. Buyuk Britaniyada sport o‘yinlari tizimining asoschisi Regbi shahridagi kollej direktori pedagog Tomas Arnold (1795-1842) hisoblanadi. U o‘z faoliyatida o‘quvchilarning harakatchanligi va faolligini rivojlantiruvchi, qiyin sharoitlarga tezda mo‘ljal olish, qo‘rqmaslikni tarbiyalovchi sport turlariga katta e’tibor bergan. Sport o‘yinlari tizimiga yengil atletika, boks, eshkak eshish, suzish, regbi, futbol, kriket kabi sport turlari kiritilgan.

Tahlil va natijalar. Uning ta’limoti va tizimi mamlakat va chet ellardagi o‘quv yurtlarida keng qo‘llanildi. Sport o‘yinlari tizimi AQSHda keng rivojlangan. XIX asrning 20-30-yillarida mamlakatning turli o‘quv yurtlari, universitetlarida jismoniy tarbiya darslari kiritilgan. 1850-1870-yillarida ba’zi sport klublari tashkil etilib, musobaqalar o‘tkazilgan. AQSHning milliy aholisi - hindular orasida turli xil o‘yinlar davom etgan. Ular qilichbozlik, kamondan o‘q otish, nayza uloqtirish, uzoq masofalarga yugurish, sakrash, kurash va boshqa mashqlar bilan doimiy shug’ullanganlar[4:168-b.]. Yevropadan, ayniqsa, Angliyadan o‘tgan sport o‘yinlari tizimi AQSHga keng tarqalgan. XIX asrda aristokratlarning o‘z vaziyatlarini mustahkamlab olishlarida sport manfaat keltiruvchi omil hisoblangan. Shu tariqa, 1864 y. Buyuk Britaniyada oddiy xalqdan ajralib turish maqsadida sport ishqibozlarining nizomini ishlab chiqilgan. Bunda oddiy mehnatkashlarning musobaqalarda qatnashishi mumkin emasligi ko‘rsatilgan. XIX asr oxirlarida inqiloblarning kuchayishi sababli, yoshlar sport musobaqalarida cheklangan holda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Bir qator

https://buxdu.uz

yirik mamlakatlarda gimnastika, sport o‘yinlarining ko‘pgina turlari shakllandi va rivoj topgan. Yoshlarni tarbiyalashning muhim vazifasi sifatida sportga alohida ahamiyat berildi va sport tashkilotlari faoliyatini qattiq nazorat ostiga oldi. Ko'pgina shtatlardagi maktablarda jismoniy tayyorgarlik haqida qonunlar qabul qilishdi.

Shu qonunlar asosida moliyaviy yordam berish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash, jismoniy tarbiya darslariga ajratilgan vaqtlarni belgilash ko'zda tutildi. Shu tariqa umumiy tarbiyaning bir bo'lagi sifatida jismoniy tarbiya qonunlashtirildi. 17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar maktablar sport skaut tashkilotlarida jismoniy tarbiyani olishadi. Bunda gimnastikaga nisbatan sport o'yinlariga ko'proq e'tibor kuchaytirildi[8:123-b]. Professional sport muammosi Olimpiya xartiyasi bo‘yicha hal qilingan. 1980-yillargacha professional sportchilar Olimpiya o‘yinlariga kiritilmagan, chunki Pyer de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan tamoiyillari bo‘yicha Olimpiya o‘yinlari faqat havaskor sportini rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda sport o‘yinlari va musobaqa qoidalarida katta farqi bo‘lmagan ayrim sport turlari bo‘yicha professional sportchilar Olimpiya o‘yinlariga kiritiladi. XX asrning 90-yillarida olimpiya ta’limi muammosi paydo bolib, olimpizm g’oyalari va olimpiya tamoyillari asosida sportchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish orqali hal qilinmoqda.

O‘zbekistonlik olimlar sho‘rolar tuzumi davrida jismoniy tarbiyaning ilmiynazariy asoslari va uni o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari to‘laligicha rus olimlarining g‘oyalariga aynan mos kelar edi. Mustaqillikka erishgandan keyin milliy jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi muammolarini ishlab chiqishga jadallik bilan kirishildi va e’tiborga loyiq natijalarga erishildi. O‘zbekistonlik olimlar bu yo‘nalishda samarali ilmiy faoliyat yuritishmoqdalar. A.Akramovning “O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi”, K.Nurmuhammodovning “Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari”, F.Nasriddinov va E.Shoternikovlarning “Inson omilini dunyo miqyosida keng yoyilib boshladi. Turli xalqlarning jismoniy tarbiya va sport o‘yinlari xalqaro miqyosda tarqalib, baynalminalchilik va vatanparvarlik tuyg‘ulari kuchliroq shakllanadigan darajaga yetdi[10:156-b.].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sport o‘yinlari etnogenezisi va tarixiy tamoyillar asosida o‘qitish jismoniy tarbiya jarayonining pedagogik samaradorligini oshirib, yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning jismoniy, ma’naviy va madaniy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Sport o‘yinlari etnogenezisi va tarixiy tamoyillari asosida o‘qitish o‘quvchilarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiladigan ko‘p qirrali pedagogik vosita hisoblanadi. Bunday yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sport o‘yinlarini milliy qadriyatlar va tarixiy an’analar asosida o‘qitish o‘quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki ma’naviy-axloqiy kamolotiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Sport o‘yinlarini o‘rgatishda milliy an’analar va xalq o‘yinlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, o‘quvchilarda tarixiy ong va milliy g‘ururni shakllantiradi. O‘yinlar orqali o‘rgatish metodlari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, faol ishtirok etishiga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘yin shaklidagi darslar jismoniy mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishni orttiradi. Sport o‘yinlari orqali o‘quvchilar jamoaviy ish, liderlik va o‘zaro hurmat kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydi. Bu esa ularning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Milliy sport o‘yinlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning jismoniy sog‘lomligiga, psixologik holatiga va o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va an’anaviy o‘yinlar sintezini qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Sport o‘yinlari orqali darslarni tashkil etish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va faol ishtirokini ta’minlaydi. Shu bilan birga, musobaqalar va o‘yinlar orqali o‘quvchilarni ruhlantirish mumkin. Tabiat bilan bog‘liq sport o‘yinlari (masalan, ot o‘yinlari va milliy sport turlari) ekologik madaniyatni rivojlantirib, tabiatni muhofaza qilishga bo‘lgan mas’uliyatni oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Axatov M.S Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sport-sog’lomlashtirish ishlarini boshqarish”. Toshkent. - 2005-yil 235-bet.

2. Abdullayev. A Xonkeldiyev.Sh “Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati” darslik. Toshkent. -2005, 199-bet .

3. Salomov.R.S “Sport mashg’ulotining nazariy asoslari”. O’quv o’llanma. Toshkent. - 2005-yil, 238-bet.

4. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Вып. 1. – Сталинабад, 1957. – С.112-113.; Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки... – С.167-168.

https://buxdu.uz

5. Абдулаҳатов Н. Ғозиев Т. Бурхониддин Марғиноний: тарихий ҳақиқат ва асотирлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б.268.

6. Валихонова Г.Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент: Янги нашр, 2013. – Б.113-114.

7. Боровков А.К. Игры узбекских детей // Сб. научн. кружка при Востфаке САГУ. Вып.1. – Ташкент, 1927. – С.41.

8. Kurbanov D. I. Jismoniy tarbiya va sport tarixi [Matn]: O‘quv qo‘llanma / Dj.I.Kurbanov.- Buxoro: “Buxoro determinanti” Kamolot nashriyoti, 2022.-172 b.

10. Abdullayev M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, 1-qism, (darslik)/ Abdullayev, M- T. “Turon-iqbol“, 2020, - 204 b.

https://buxdu.uz

ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ В ВУЗАХ: ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ И ИХ РЕШЕНИЯ

Икрамов Амирбек Аминович,
проректор по научной работе и инновациям
Азиатского Международного университета
amirbekikramov@oxu.uz

Физическая активность является важным компонентом здорового образа жизни, особенно для студентов высших учебных заведений. Подвижные игры представляют собой уникальный инструмент, способствующий не только укреплению здоровья, но и развитию социальных навыков, командной работы и стрессоустойчивости. Однако внедрение подвижных игр в учебный процесс ВУЗов сталкивается с рядом серьёзных проблем, таких как недостаточное финансирование, нехватка оборудования и низкая мотивация студентов. В данном исследовании были выявлены основные факторы, мешающие эффективному внедрению подвижных игр, и предложены стратегии для их решения. Основное внимание уделялось разработке новых программ обучения, привлечению спонсоров и повышению квалификации преподавателей. Результаты исследования могут быть полезны для руководства ВУЗов и преподавателей физического воспитания, стремящихся повысить уровень физической активности студентов и улучшить качество образовательного процесса.

Ключевые слова: *подвижные игры, физическое воспитание, ВУЗы, проблемы обучения, мотивация студентов, финансирование, оборудование, методики преподавания, социальные навыки, командная работа, стрессоустойчивость, лидерские качества, геймификация, соревнования, спонсоры, культурное наследие, социальные связи, долгосрочные эффекты, академическая успеваемость, когнитивные способности.*

OUTDOOR GAMES IN UNIVERSITIES: LEARNING PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS

Physical activity is an important component of a healthy lifestyle, especially for university students. Active games are a unique tool that contributes not only to strengthening health but also to developing social skills, teamwork, and stress resilience. However, the introduction of active games into the educational process of universities faces a number of serious challenges, such as insufficient funding, lack of equipment, and low student motivation. In this study, the main factors hindering the effective implementation of active games were identified, and strategies for addressing them were proposed. The main focus was on developing new training programs, attracting sponsors, and improving teachers' qualifications. The research results can be useful for university management and physical education teachers seeking to increase students' physical activity levels and enhance the quality of the educational process.

Keywords: *active games, physical education, universities, learning challenges, student motivation, funding, equipment, teaching methods, social skills, teamwork, stress resilience, leadership qualities, gamification, competitions, sponsors, cultural heritage, social connections, long-term effects, academic performance, cognitive abilities.*

HARAKATLI O‘YINLAR: O‘QITISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Jismoniy faollik, ayniqsa oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Harakatli o‘yinlar nafaqat salomatlikni mustahkamlash, balki ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoaviy ish va stressga bardoshlilikni rivojlantirishga yordam beradigan noyob vosita sanaladi. Biroq, oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga harakatli o‘yinlarni joriy etish yetarli darajada moliyalashtirish yo‘qligi, jihozlarning yetishmasligi va talabalarning past motivatsiyasi kabi bir qator jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Ushbu tadqiqotda harakatli o‘yinlarni samarali joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar aniqlandi va ularni bartaraf etish uchun strategiyalar taklif etildi. Asosiy e’tibor yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, homiylarni jalb qilish va o‘qituvchilarning malakasini oshirishga qaratildi. Tadqiqot natijalari talabalarning jismoniy faollik darajasini oshirish va ta’lim jarayoni sifatini yaxshilashga intilayotgan oliy ta’lim muassasalari rahbariyati va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *harakatli o‘yinlar, jismoniy tarbiya, OTMlar, o‘qitish muammolari, talabalarni rag‘batlantirish, moliyalashtirish, jihozlar, o‘qitish usullari, ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoaviy ish, stressga*

https://buxdu.uz

bardoshlilik, yetakchilik fazilatlari, o‘yinlashtirish, musobaqalar, homiylar, madaniy meros, ijtimoiy aloqalar, uzoq muddatli ta’sirlar, akademik o‘zlashtirish, bilish qobiliyatlari.

Введение. Физическая активность является неотъемлемой частью здорового образа жизни, особенно для молодёжи, которая находится на этапе формирования привычек и установок, влияющих на их будущее благополучие. Современное общество сталкивается с рядом вызовов, связанных с ухудшением физического здоровья населения, что особенно заметно среди студентов высших учебных заведений. Одной из причин этого является снижение уровня физической активности, обусловленное изменениями в образе жизни, ростом популярности цифровых технологий и увеличением времени, проводимого за экранами устройств. В результате многие студенты испытывают проблемы, связанные с недостатком движения: от снижения общей физической выносливости до развития хронических заболеваний.

Подвижные игры, как одна из форм физической активности, представляют собой уникальный инструмент, способствующий не только укреплению здоровья, но и развитию социальных навыков, командной работы, стрессоустойчивости и лидерских качеств. Они позволяют студентам не только поддерживать физическую форму, но и развивать когнитивные способности, такие как быстрое принятие решений, координация и концентрация внимания. Однако, несмотря на очевидные преимущества, внедрение подвижных игр в учебный процесс высших учебных заведений сталкивается с рядом серьёзных проблем. Эти проблемы варьируются от недостатка финансирования и оборудования до низкой мотивации студентов и отсутствия современных методик преподавания.

2. **Asosiy bosqich (20-30 daqiqa)** – kuch, chidamlilik va muvozanat mashqlari;
3. **Yakuniy bosqich (5-10 daqiqa)** – bo‘shashtiruvchi mashqlar, stretching va nafas olish mashqlari.

Kelajakda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish istiqbollari. Kelajakda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, masofaviy ta'lim va zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni jismoniy faoliyatga jalb qilishda innovatsion yondashuvlar, masalan, onlayn mashg‘ulotlar va interaktiv o‘yinlar orqali jismoniy tayyorgarlikni yanada rivojlantirish mumkin. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish va ularni rag‘batlantirish uchun yangi usullarni ishlab chiqish zarur.

Ushbu metodika orqali maktab o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, ularning sog‘lom va faol hayot kechirishlariga yordam beradi.

Xulosa. Maktab qizlari uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish sog‘lom avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Yaxshi rejalashtirilgan mashg‘ulotlar qizlarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularni sportga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Bloxina A. A., Lubishev L. I. – *"Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi"*. Moskva: Pedagogika, 2018.
2. Balsevich V. K. – *"Bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanishi"*. Moskva: SportLit, 2017.
3. Matveev A. M. – *"Sport tayyorgarligi asoslari"*. Sankt-Peterburg: Sport Press, 2016.
4. Sultanova, Nargizaxon Yakubjonovna. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi: o‘quv qo‘llanma "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona , 2023.
5. Sultanova Nargizaxon Yakubjanovna Bolalar jismoniy tarbiya nazaryasi va texnologiyalari darslik Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2023. – 176 b.
6. Султанова Наргизахон Якубжановна. (2025) педагогические особенности физического развития девочек 5–7 классов
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi – *"Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya dasturi"*. Toshkent, 2020.
8. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha xalqaro tadqiqot jurnallari: *"International Journal of Physical Education and Sports Sciences", "Journal of Human Kinetics"*.
9. Popov G. I. – *"Sport pedagogikasi va psixologiyasi"*. Moskva: Nauka, 2019.
10. Urazbaev T. S. – *"Maktab o‘quvchilari uchun jismoniy mashqlar metodikasi"*. Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
11. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) – *"Bolalar va o‘smirlar uchun jismoniy faollik bo‘yicha tavsiyalar"*. 2021-yil.

https://buxdu.uz

OLIY TA’LIM MUASASSALARIDA GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA UNI O‘TKAZISH METODIKASI

DJumaniyazova Tamara Adambaevna,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Dotsent
Xojambergenova Miyassar Bakbergen qızı,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
2-kurs badiiy gimnastika yo‘nalishi talabasi
Paraxatova Aynura Tengelbay qızı,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Talaba

Rang-barang bo‘lgan gimnastika mashqlari belgilangan muskullar guruhiga, ularning tanlab ta‘sir ko‘rsatish tabiatiga, jismoniy yuklamalarni aniq me‘yorlash mavjud ekanligiga ko‘ra uni jismoniy tarbiyaning o‘z o‘rniga ega bo‘lgan vositasiga aylantiradi. Shuning uchun ham u maktabgacha tarbiya muassasalarida va o‘quv muassasalarida, davolash-profilaktika ishlarida va ishlab chiqarishda, armiya va sportda ham o‘zining keng o‘rnini topgan. Birorta sport turi yo‘qki, unda gimnastika mashqlari ishtirok etmagan bo‘lsin. Gimnastika mashqlaridan yengil atletikachi, kurashchi, basketbolchi va shu kabi sport turi vakillarini tayyorlash hamda maxsus vazifalarni hal qilishda keng foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: *tarbiya, ishtirok, jismoniy, guruhiga, vakillarini, vazifalarni, gimnastika, vositasiga, tezkorlik.*

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ ЗАНЯТИЙ ПО ГИМНАСТИКЕ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Благодаря разнообразию гимнастических упражнений, характеру избирательного воздействия на мышечную группу и точной регламентации физических нагрузок гимнастика как средство физического воспитания превращается в эффективный инструмент. По этой причине она нашла широкое место в процессе дошкольного воспитания и воспитательного потенциала, в лечебнопрофилактической работе и на производстве, в армии и в спорте. Нет такого вида спорта, в котором не было бы гимнастики. Гимнастические упражнения широко используются в тренировке легкоатлетов, борцов, баскетболистов и других видов спорта, а также при решении специальных задач.

Ключевые слова: *обучение, участие, физкультура, группа, обучение, представители, задачи, гимнастика, группа, инструмент, ловкость.*

METHODOLOGY OF ORGANIZING AND CONDUCTING GYMNASTICS TRAINING IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Various gymnastic exercises for specific muscle groups, according to the nature of their selective influence, the presence of precise regulation of physical loads, makes it a means of physical education that has its place. That is why it is used in pre-school educational institutions and educational institutions, it has found a wide place in treatment-prophylactic work and production, in the army and in sports. There is no sport that does not involve gymnastics. Gymnastic exercises are widely used in the training of athletes, wrestlers, basketball players and other sports, as well as in solving special tasks.

Keywords: *education, participation, physical, group, education, representatives, tasks, gymnastics, group, tool, agility.*

Kirish. Zamonaviy gimnastika-bu maxsus tanlangan jismoniy mashqlar va metodik usullar tizimidan iborat bo‘lib, insonning salomatligini mustahkamlashda, uning bir tomonlama jismoniy rivojlanishida hamda jismoniy sifatlar-kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va chaqqonlikni takomillashtirishda qo‘llaniladi. Gimnastika mashg‘ulotlari kishilarning umumiy jismoniy tayyorgarliklari uchun zamin yaratadi, ular barchaga yoshi, jinsi va tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lmagan holda mos kelaveradi. Gimnastika mashg‘ulotlari muskullarning bir tekis taraqqiy etishiga imkon beradi, chiroyli qaddi-qomatning shakillanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Rang-barang bo‘lgan gimnastika mashqlari belgilangan muskullar guruhiga, ularning tanlab ta‘sir ko‘rsatish tabiatiga, jismoniy yuklamalarni aniq me‘yorlash mavjud ekanligiga ko‘ra uni jismoniy tarbiyaning o‘z o‘rniga ega bo‘lgan vositasiga aylantiradi. Shuning uchun ham u maktabgacha tarbiya

https://buxdu.uz

muassasalarida va o‘quv muassasalarida, davolash-profilaktika ishlarida va ishlab chiqarishda, armiya va sportda ham o‘zining keng o‘rnini topgan. Birorta sport turi yo‘qki, unda gimnastika mashqlari ishtirok etmagan bo‘lsin. Gimnastika mashqlaridan yengil atletikachi, kurashchi, basketbolchi va shu kabi sport turi vakillarini tayyorlash hamda maxsus vazifalarni hal qilishda keng foydalaniladi. Gimnastika mashqlari oliy ta‘lim muassasalarida, talabalarning o‘quv mashg‘ulotlarida ham, sport seksiyalaridagi trenirovka mashg‘ulotlarida ham o‘z o‘rnini topgan. Gimnastika mashqlari ertalabki gigiyenik batantarbayada, mustaqil uy mashqlarida, ishlab chiqarish gimnastikasi va badantarbiya daqiqalarida ham muhim hisoblanadi. [1] Gimnastika, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari talabalarini kasbiy-amaliy jismoniy tayyorlashda ham qo‘llaniladi. Talabalar gimnastika mashg‘ulotlari davomida yurish, yugurish, tirmashib chiqish, emaklab o‘tish, muvozanat saqlash, sakrash, uloqtirish, yukni ko‘tarib yurish va olib o‘tish kabi ko‘nikma va hayotiy muhim malakalarni egallaydilar va takomillashtiradilar. Ular barcha mehnat faoliyati davomida kerak bo‘ladi. Tajriba “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus test me‘yor va talablarini bajarganda, o‘quv mashg‘ulotlariga jiddiy munosabatda bo‘lganda, uyda gimnastika mashq mashg‘ulotlarining muntazam bajargandagina ijobiy natija berishini ko‘rsatmoqda. Oliy ta‘lim muassasasining barcha talabalari, ayniqsa, bitiruvchilari, o‘z o‘rtoqlari bilan ertalabki gigiyenik yoki ishlab chiqarish gimnastikasi mashg‘ulotining tashkil etish hamda o‘tkazishni bilishi kerak. Ular bu ko‘nikma va tashkilotchilik malakalarini o‘quv mashg‘ulotlarida o‘zlashtirib oladilar. Gimnastik xafvsizlik qoidalari Gimnastika bilan shug‘ullanayotganda kuzatiladigan xafvsizlik faktorlari hisoblanadi.

A) Xafvsizlik qoidalariga doimo rioya etishga ishonch komil qiling.

1) Jihozlarning matlarga to‘g‘ri joylashtirilganiga ishonch komil qiling.

2) Jihozlarni harakatlanishda ular orasida yetarli joy bo‘lishiga ishonch komil qiling.

3) Jihozlaring balandligi, kengligini gimnastga mostligini tekshiring.

B) Kuzatuv. 1) Gimnastika o‘z mashqlarini faqatgina yetarli tajribaga ega kuzatuvchi qo‘l ostida amalga oshirishi kerak.

2) Qo‘shimcha yordamchi, ko‘tarib turuvchi jihozlarni ishlatilganda ularning mustahkamligiga e‘tibor bering.

S) Shaxsiy g‘amxo‘rlik. 1) Yuvelir mahsulotlarini taqmang. 2) Sport kiyimi bor sumkangizni yo‘qotmang. 3) Gimnastik mashqlardan oldin tanangizni qizdiring. 4) Gimnastik tayyor bo‘lmagan mashqlarni bajarishiga ruxsat bermang. 5) Tana tolliqanda gimnastikani mahoratini ko‘rsatishiga yo‘l qo‘ymang. 6) Gimnastikadan talab qilinayotgan mashqning uni qo‘lidan kelishiga ishonch hosil qiling. 7) Xafvsiz qo‘nish jarohatlanishni xafvini kamaytiradi. Gimnastikada umumiy intizom va xafvsizlik-gimnastikadagi shikastlanishlar asosan bo‘ysunmaslik va o‘zbilarmonlik ortidan kelib chiqadi. Shuning uchun mashg‘ulot paytida intizomni yuqori darajada o‘rnatish juda muhimdir. Intizomga qat‘iy rioya qilmoq kerak. Eshak mindi, har-xil o‘yinlar, zalda yugurib yurishga ruxsat bermaslik kerak. Tarbiyani yaxshi standarti, o‘z-o‘zini boshqarish gimnastikani asosiy talabidir. Jarohatlanishni oldini olish Har qanday jismoniy harakat paytida potensial shikastlanish xavfi bo‘ladi. Jismoniy tarbiyani hamma aspektlarini o‘qitish mobaynida bu yerda yana ba‘zi umumiy proseduralar borki, undan ishchilar talabalarning jarohat olish ehtimolini kamaytirishda foydalanishlari kerak.

1. Doimo atrof xavfsiz va yumshoq bo‘lishiga, shu holatda saqlanishiga etibor bering.

2. Gimnastni ehtiyotkorlik bilan tayyorlab boring va bu davomda quvvati va kuchini oshirib boring.

3. Gimnastika elementlarini o‘rgatishdan oldin umumiy qo‘nish texnikasi va xavfsiz yiqilish metodlarini o‘rgating.

4. Gimnastika mazmunini boshlashdan oldin sinfni qizitib oling.

5. Gimnastik harakatlarni o‘rgatishdan oldin xavfsiz, zamonaviy elementlarni ishlating.

6. Individual gimnastikachi qobiliyatiga mos harakat tanlang.

7. Ogoh bo‘ling charchash gimnastikachini aniqligini kamaytirib, jarohat xavfini kuchaytiradi. Birinchi yordam va tez tibbiy yordam jarayoni - Gimnastikachiga o‘rgatilganidan qat‘iy nazar tez tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonnini hamma ishtirokchilar tomonidan tushunilishlari kerak. Quyidagilar doimo tayyor turishi lozim:

A) Qo‘llanma bilan tashqi telefon liniyasiga imkoniyat yaratish.

B) Yaqin atrofdagi idoralar va ularga tegishli raqamlar.

S) To‘liq jihozlangan birinchi yordam to‘plami.

Birinchi yordam uchun tafsiyalar vakolatli birinchi yordam tomonidan olinishi kerak Baxtsiz hodisalar vaqtida tegishli o‘lchovlar sizning maktabingiz yoki mahalliy ta‘lim muassasasi tomonidan o‘rnatilishi muhimdir. Eng ko‘p uchraydigan gimnastik jarohatlar. Po‘rsildoqlar, ya‘ni oyoqqa yaxshi tushmaydigan oyoq kiyimi va qo‘lni ishqalanishi sabab bo‘ladi. Shilinishi esa mat va gimnastik jihozlar bilan ishqalanishi bilan vujudga keladi. Muskullarning shkastlanishiga esa oz miqdorda tanani qizdirish sabab bo‘ladi.

https://buxdu.uz

Muskullarning uzilishiga ortiqcha mashqlar bajarish sabab bo‘ladi. Tovon va bilaklarning pay cho‘zilishi. Pay cho‘zilishlari odatda bilak va tizza bo‘g‘imlari birlashgan joyda bo‘ladi, bunga esa mashqlarni noto‘g‘ri bajarish sabab bo‘ladi. Ko‘karishlarga esa yiqilish va ishqalanishlar sabab bo‘ladi. Yangi shug‘ullanuvchilar uchun eng yaxshi maslahat zallarda shkastlanishni oldini olish yuzasidan ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Zalda uchraydigan jiddiy jarohatlar suyak sinishi, umrtqa jarohatida esa malakali tibbiy yordam darkor. Asosiy qism. Gimnastikaning hozirgi kundagi muammolari. Sportdagi narkotiklar. Gimnastika sporti norkotik moddalarga boy bo‘lgan tekshiruvlarda aniq qatnashadi. Ayblovlar erkak gimnastlarda rivojlangan katta kuchga nisbatan tayyorlanadi. Biroq bu holat shug‘ullanish, gimnastik chiqishlar, giyohvand moddalarga bog‘lanmagan bo‘ladi. Sportchining ustunligini oshiruvchi va chiqishlarga halal beruvchi moddalar, xalqaro miqyosida taqiqlangan. Quyidagi narkotik moddalar gimnastlarni chiqishiga ta‘sir ko‘rsatadi: Stimlyatorlar. Stimlyatorlar ziyraklikni oshiradi va charchoqni kamaytiradi. Biroq ular to‘g‘ri qaror qabul qilishni yo‘qotadi. Bu esa, gimnastni chiqishidagi kritik aspektdir. Anobalitik steroitlar. Anobalitik steroitlar testesterollardek kuch va quvvatni oshiradi. Shuningdek, tana hajmini ham oshiradi. Bu esa, og‘irlikni oshishida zararlidir. Betabloker. Bular asosan qonning bosimini boshqarishda ishlatiladi. Biroq ular javob berishga ta‘sir etadi. Bu esa, yana sportchi harakatlariga xavfdir.[2]

Diyaretiklar. Og‘irlikni tezda kamaytirishda diyaretiklardan foydalaniladi. Biroq ular kuch va quvvatlarni kamayishiga sabab bo‘ladi. Bu ham gimnast uchun foyda bo‘lmaydi. Qon dopingi. Transport vazifasini bajaruvchi qizil qon hujayralari chidamlilik mashqlarida o‘sishini ta‘minlaydi. Bu esa, ko‘p kislorodni talab qilib, yetarli energiyani ajratadi va chidamlilikda ustunlik beradi. Anaerobik faoliyati uchun gimnastikada qon dopingi biror foyda berolmasligi mumkin. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, gimnastikada narkotik moddalar rol o‘ynamaydi. Shuning uchun gimnastikaga toza sport deb qaralmoqda. Ayollar gimnastikada – Ayollar gimnastlar tomonidan o‘tkaziladigan kuchli shug‘ullanishlar gimnastikachini jismoniy rivojlanishini kamaytiradi. Biroq, kuchli shug‘ullanish to‘xtatilsa, bu ayolga uzoq vaqt ta‘sirsiz rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, kuchli shug‘ullanish xayz davrini, hatto o‘spirinlik davrini oxirigacha kechiktirib yuborishi mumkin, biroq shu bilan birga shug‘ullanishni qoldirilish bilanoq bu jarayon yana boshlanadi. Ommaviy gimnastika – Dunyo manifestatsiasi ommaviy gimnastika har 4 yilda Dunyo gimnoestradasi nomi ostida nishonlanadi. Gimnoestrada gimnastlar uchun musobaqa festivali bo‘lib, Jahon boshqaruvi organi tomonidan raqs va harakat kechasi bo‘lib uyushtiriladi. Dunyoning barcha joyidan yig‘ilgan gimnastlar o‘zlarining madaniyatiga bog‘liq chiqishlarini amalga oshirishadi va ulardan bahramand bo‘lishadi. Gimnoestrada milliy festvaldan, katta, xalqaro festivalga aylandi. Gimnastika mashqlarining atamalari Gimnastika mashqlarining atamalari hayotiy ehtiyoj tufayli paydo bo‘ldi, ya‘ni insonning har xil holat va harakatini qisqa qilib aytish lozim bo‘lib qoldi. Bu esa gimnastika, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanuvchilarni o‘qituvchi, murabbiy, sport hakamlari bilan muomalada bo‘lishini yengillashtiradi. Asosiy gimnastika atamalari va ularning hosil bo‘lish qoidalari sport turida keng qo‘llaniladi. Gimnastika atamalari 1938-yilda qabul qilingan bo‘lib, shundan so‘ng u tarixiy rivojlantirildi, aniqlashtirildi, to‘ldirildi va ayrimlari qisman almashtirildi, yangilari qo‘shildi. Gimnastika atamasi deganda gavdaning alohida yoki majmui harakat holatini qisqa qilib shartli atalishi tushiniladi. Atamalar o‘z mohiyatiga ko‘ra ixtisoslashganligi bilan lug‘atda umumiy qabul qilingan so‘zdan farqlanadi. Atamalar, odatda, bir xil ma‘noli, masalan “Egilish”, “Osilish”, “Tayanish”dan iborat so‘zlardir. Gimnastika amaliyotida ba‘zan atama sifatida odatiy so‘zlar: “Ko‘prik”, “Shpagat”, “Doira” va hokazolar ishlatiladi. Ammo atamalar sifatida ayrim so‘zlarning o‘zagidan foydalaniladi “O‘tirish”, “Siltash”, “Osilish” va boshqalar. Shu tariqa atamalar ishlab chiqiladi. Atamalar tufayli o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muomalada qisqalikka erishiladi, natijada harakat, gavda holatining biror ko‘rinishi, mashqlarning o‘ziga tegishli xususiyatlari aniq so‘z bilan ifodalanadi. Gimnastika atamalari qulayligi, aniqligi, qisqaligi bilan ajralib turadi. [3] Atamaning qulayligi-bu uning tushunarliligi. Gimnastika atamasining hammabopligi uning o‘zbek tili lug‘at tarkibi asosida qurilganligidadir. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi gimnastlari, murabbiylari yangi sharoitda ham katta yutuqlarga erishishmoqda. Sportchilarimiz xalqaro sport maydonlarida o‘z kuchlarini si nab ko‘rishga puxta tayyorgarlik ko‘rishyapti. Bu hol o‘zbek sportchilariga Jahon, Olimpiada o‘yinlariga mustaqil ravishda chiqishga imkon yaratdi. O‘zbekistonlik gimnastlar O.Chusovitina, R. Galiyeva sport gimnastikasi bo‘yicha Jahon chempionatlarida ishtirok etib, oltin medalga sazovor boiishgan.1996-yilgi Olimpiada o‘yinlarida O.Chusovitina, A.Dzyundzak, E.Valiyevlar gimnastika ko‘pkurashida kuchlilar 1O ligi qatoridan o‘rin olishdi. 1993-yilda O‘ zbekistonda Sport gimnastikasi federatsiyasi tashkil topib, uni Xalqaro gimnastika federatsiyasi (FIJ-1881 yil tashkil topgan) o‘z tarkibiga qabul qildi. 1994-yilda Xirosimada o‘tkazilgan Osiyo o’yinlarida O.Chusovitina tayanib sakrash va brusslarda 2 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi. 1998-yilda Bankokda o‘tkazilgan musobaqalarda E.Gordeyeva, A.Dzyundyak, B.Boyatapova, S.Baxritdinova, O.Chusovitina kabi mahoratli sportchilar ishtirok etdi. Bugungi kunda respublikada R.G. Sarkisov, R.S. Sirkin, A. Olushev kabi malakali sport murabbiylari ishlamoqda. Olimpiya zaxiralari qatorida ayollar orasida

https://buxdu.uz

V.Ochilova, N.Almatova, F.Xo‘jayeva, A.Kambekova, R.Nasibulina, A.Habibrahmonova, erkaklardan, A.Markelov, E.Valiyev, A.Fokin, A.Karimjonov, R.Ailov, K.Hasanov, I.Rahmatov kabi sportchilar o‘sib chiqdi. O‘zbekiston gimnastika federatsiyasi vakillari XGF(FIJ) va Osiyo uyushmasi anjumanlarida ishtirok etishadi. Barcha ishlar Madaniyat va sport ishlari vazirligi, MOQ bilan hamkorlikda olib boriladi. Muntazam ravishda hay‘at yig‘ilishlari o‘tkazilib, terma jamoa a‘zolarini tasdiqlash masalalari, sportchilarni bo‘lib o‘tgan musobaqalarda erishgan yutuqlari muhokama etiladi. Yetakchi sportchilarni xalqaro musobaqalarda qatnashishlari uchun mablag‘ ajratadigan homiylar bilan ishlar olib boriladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi gimnastika federatsiyasi va ushbu go‘zal sport turini ravnaq topishiga kuchini ayamaydigan insonlar o‘z hissasini qo‘shib kelishmoqda. Mahoratli gimnastlar O.Chusovitina, N.Dzyundzyak va ularni izdoshlari mahoratini oshmshda xizmat qilayotgan S. Kuznetsova va boshqa taniqli murabbiylar o‘z ustozlari V.Vnuchkova, G.Petrov, V.Aksenov, Z.Bondarenko, V.Kurlyand va R.Sarkisovlar qoldirgan merosdan unumli foydalanib, mamlakatimiz sport shon-sharafini xalqaro musobaqalarda baland ko‘tarishmoqda. Ayrim gimnastika mashqlari hamda ular atamalarining qo‘llanishi bilan tanishing. Sizga tanish bo‘lgan holat, shuningdek, harakatlarning yozilishi va talaffuzini esda saqlang. Bular o‘quv-trenirovka va mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlarda tez-tez uchraydi. Alohida e‘tiborni erkin mashqlarning atamalariga qarating, bu sizga ertalabki gigiyenik badantarbiya mashqlar majmuyini tushinish va to‘g‘ri yozishni yengillashtiradi. Turishlar: asosiy turish (qisqartirilgan holda-a.t.); oyoqlarda ayrim-ayrim turish; o‘ng oyoqda ayrim turish (ya‘ni o‘ng oyoq oldinda); chalishtirib turish (kerakli paytda oyoqning holati ko‘rsatiladi, qaysi oldinda); o‘ng (chap) tizzada turish; kurakda turish; boshda turish; qo‘llarda turish.

O‘tirishlar-polda yoki gimnastika jihozida o‘tirish holati:

a) o‘tirish;

b) o‘tirish oyoqlar ayrim-ayrim;

d) burchakli o‘tirish; ye) egilib o‘tirish;

f) ushlab o‘tirish;

g) o‘ng (chap) tovonga o‘tirish;

x) oyoqlarda ayrim-ayrim o‘tirish;

i) sonda o‘tirish

Cho‘qqayishlar-shug‘ullanuvchining oyoqlari bukilmagan holatda bukilish: cho‘qqayish; yarim bukilish; engashib yarim cho‘qqayish (yoki suzuvchi starti); o‘ng yoki chap oyoqda yarim cho‘qqayish.

Tayanishlar-yelkalar tayanch nuqtasidan yuqori bo‘lgan holatlar:

a) cho‘qqayib tayanish;

b) o‘ng tizzaga tayanish;

d) tayanib turib chuqur egilish;

e) tirsaklarga tayanib yotish;

f) orqada tayanib yutish;

g) brusda (qo‘shpoyaga) tayanish;

x) tirsakka tayanish;

i) oyoqlarni ayrim-ayrim tashqariga qilib tayanish;

j) o‘ng, chap oyoq-qo‘lga cho‘qqayib tayanish;

k) bukik qo‘llarda yotib tayanish.

Xulosa. Qisqa, talaffuz paytida o‘ng‘ay va yengil esda saqlaydigan atamalar eng maqsadga muvofiqlari deb tan olinadi. Qisqalik uchun maxsus qisqartmalar qabul qilingan, ular gimnastika mashqlarini yozib borishni yengillashtiradi. Masalan, so‘zni tushirib qoldirish qabul qilingan: gavda-egilish, paytida, oyoq-qayta siltash paytida yoki uni oyoq uchiga qo‘yishda, ko‘tarish va “tushirish-qo‘l” yoki oyoqlar harakati paytida va boshqalar. Harakat odatiy bo‘lmagan usulda bajarilsa yoki qisqa yo‘l bilan bajarilmasa, qo‘l-oyoqlar va gavda holati alohida ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar:

1. Raximqulov K.D. «Kichik yoshdagi bolalarning qaddi qomatini rivojlantirishga mo‘ljallangan mashqlar va harakatli o‘yinlar» 2001 y

2. Arjan Egges, Arno Kamphuis, Mark Overmars ―Motion in Games‖ First International Workshop, Utrecht, MIG 2008. 236 s.

3. Active schools. Kori ki te Kura. Games sport New Zealand 2012 year.

4. Harko Brown. Traditional Maori Games. - Copyright © 2006 year.

5. Safoyev H.A. Involta Ilmiy Jurnal Uzbekiston:Vol. 1 –No.4 2022.–P.275-281.

6. Safoyev H.A Педагогик махорат илмий-назарий ва методик журнал. Бухоро, 2018. 1-сон, – Б.235-237.

https://buxdu.uz

SAN’AT

MILLIY HUNARMANDCHILIKINING SHAKLLANISH GENEZISI VA RIVOJLANISH TEXNOLOGIYASI HOLATI

Boymurodova Rayxon Azamadovna,
Shaxrisabz davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
boymurodovarayxon@gmail.com

Maqolada milliy hunarmandchilik spektral-variativ komponentlari asosida o‘quvchilarning mantiqiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirish, maqsadli ta’lim sifatini milliy hunarmandchilikning spektral-variativ komponentlarini qo‘llash asosida takomillashtirish mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘quvchi, ta’lim, tarbiya, axloq, texnologiya, kasb, yo‘nalish, milliy hunarmandchilik genezisi, rivojlanish, ijodkorlik, milliylik, tarixiylik, mahalliylik.*

ГЕНЕЗИС ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕМЁСЕЛ И СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ИХ ТЕХНОЛОГИЙ

В статье освещается содержание развития логико-научного мышления учащихся на основе спектрально-вариативных компонентов национального ремесленничества, а также совершенствования качества целевого образования путём применения спектрально-вариативных компонентов национального ремесленничества.

Ключевые слова: *учащийся, образование, воспитание, нравственность, технология, профессия, направление, генезис национального ремесленничества, развитие, творчество, национальная идентичность, историчность, локальность.*

THE GENESIS OF NATIONAL CRAFTS FORMATION AND THE STATE OF THEIR TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT

The article discusses the development of students' logical and scientific thinking based on the spectral-variative components of national craftsmanship, as well as the improvement of targeted education quality through the application of these spectral-variative components of national craftsmanship.

Keywords: *student, education, upbringing, morality, technology, profession, direction, genesis of national craftsmanship, development, creativity, national identity, historicity, locality.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ta’lim sohalarini sifat jihatdan jadal rivojlantirish, bu borada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompenentligini rivojlantirish, professional ta’limni joriy etish hamda maktab texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikni rivojlantirish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, texnologiya fanini chuqur va puxta o‘rganishga e’tiborni qaratish, Davlat ta’lim standartlari (DTS)da ko‘zda tutilgan baholash mezonlarini ishlab chiqish” [1] kabi vazifalar belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda texnologiya fani misolida o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha, jumladan, milliy hunarmandchilik yo‘nalishida hunarmandchilik namunalari turlarining integrativ xossalarini aniqlashtirish, o‘quvchilarni ma’naviy-kasbiy tarbiyalash tizimi komponentlari va tayanch kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ma’naviy-kasbiy tarbiyalash mazmuni, shakli, metodlari va vositalarini takomillashtirish hamda milliy hunarmandchilik namunalari asosida o‘quvchilarda ma’naviy-kasbiy sifatlarni rivojlantirish kabilar yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda A.Xo‘jaev, R.H.Djuraev, O‘.H. Tolipov, Sh.S., Sharipov, U. Nishonaliev, N.Shodiev, I.T. Choriev, N.S. Sayidaxmedov, Y.G‘. Maxmudov, N. Muslimov, A.Xo‘jaboev, O.A. Qo‘ysinov kabi olimlar texnologiya fanida milliy hunarmandchilikni fanlararo takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shuningdek, milliy hunarmandchilik sohalarini o‘rganishning ta’lim-tarbiyaviy asoslari S.Bulatov, C.Hasanov, I.Karimov, Q. Qosimov, O. Xudoyorova, A.Turdialiev, R.Sarsenbaeva, D.Zohidova, O.Jamoliddinova, M.X. Somirzayevlar ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

https://buxdu.uz

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2018- yil 5-sentabrdagi PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019- yil 29- apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Eng avvalo, spektral-variativ komponentlarga aniqlik kiritaylik. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –M.: “Rus tili” nashriyoti, 1981. (E.M. Ma’-rufov tahriri ostida) kitobning II qismi, 75-sahifasida spektr lotincha so‘z bo‘lib, murakkab nurning shisha prizma va sh.k. orqali o‘tib, tarkibiy qismlarga ajralishi natijasida hosil bo‘lgan rang-barang chiziqlar. Quyosh spektri. Tutash spektr. Yutilish spektri deyilgan [5].

Spektral spektrga oid. Spektral tahlil (analiz) moddalarning spektr chiziqlariga qarab ularning kimyoviy tarkibini tahlil qilish usuli deb ta’riflangan.

Milliy hunarmandchilikda spektrga o‘xshatish, qiyoslash ma’noda, masalan: do‘ppi, so‘zana, chopon, belbog‘, choyshab yoki pichoq, kosa, likob, piyola va boshqalarning 100 lab, hatto, undan ko‘proq turini misol keltirish mumkin.

Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. O‘zbek sovet ensiklopediyasi. Bosh tahririyati. 1-jild. –Toshkent, 1983. - 45 b. kitobining 99-sahifasida [6] variatsiya, variativ so‘zlari shunday izohlangan. Variativ – juz’iy o‘zgarish; shunday o‘zgarish natijasida yuzaga kelgan yangi ko‘rinish. Masalan, do‘ppi asosiy tushuncha bo‘lib, Andijon do‘ppisi, Farg‘ona do‘ppisi, Namangan do‘ppisi, Boysun do‘ppisi, Buxoro do‘ppisi, qoraqalpog‘ do‘ppisi, qozoq do‘ppisi va h.k. bir-biridan tikilishi, choki, rangi, shakli, gullari bilan farq qiladi. Shuningdek, bunday holatni kashtachilikda, naqqoshlikda, kullolchilikda va h.k. ko‘rish mumkin [2].

Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. O‘zbek sovet ensiklopediyasi. Bosh tahririyati. 1-jild. –Toshkent, 1983. kitobning 456-sahifasida [4] komponent so‘zi shunday ta’riflangan. Komponent – tarkibiy qism. Masalan, kullolchilikda biror narsa, ya’ni kosa tayyorlashda tuproq, yelim, turli xil rang, suv va h.k. ni tushunish mumkin bo‘lgani kabi kashtachilikda ham material, turli xil rangdagi iplar, turli xil shakldagi gullar va h.k. deyilishi tabiiy [3].

Ma’lumki, milliy hunarmandchilik O‘zbekistonda qadimdan rivojlangan va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish avlodlardan avlodlarga an’anaviy tarzda o‘rgatib kelingan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida bu haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, ko‘milganlar uchun alohida kiyim tikilmagan, ular kundalik ust - boshlari bilan dafn etilgan. Bunga turmushda orttirilgan dog‘lar, etiklardagi yamoqlar dalil bo‘la oladi. Kiyimlar ip va ipak matolardan tikilgan bo‘lib, ip matolardan tikilganlari u qadar saqlanmagan. Ayrim bo‘laklari qolgan, xolos. Ipak matolardan tayyorlangan kiyimlar va ipak bilan berilgan bezaklar yaxshi saqlangan.

A. A. Hakimovning “Изобразительно-орнаменталные образы и мотивы прикладного искусства” [5] nomli maqolasida IX asrda va XIII asrning boshlariga kelib, adabiyot va rassomchilik san’atida o‘zgarishlar ro‘y bergan, chunki O‘rta Osiyoda buyuk allomalar yetishib chiqqan. Bular: Forobiy, Firdavsiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy, Umar Xayyom va boshqalar. O‘rta Osiyoda musulmon dunyosining ta’siri, xalq hunarmandchiligi, xususan, to‘quvchilikning va boshqa hunarmandchilik turlarining rivojlanishiga olib keldi. Natijada, sopol buyumlarga rasm chizish kuchaygan.

Bu hol ornamentlardagi tasvirlar rivojlanishiga, turli xil belgi va ramzlar o‘rnini nafosat g‘oyalarining o‘sishi tufayli umumiy magik tasavvurlar asosidagi ornamentlar egallashiga sabab bo‘ldi. Bunda o‘simliklar, hayvonlar, geometrik shakllar uyg‘unlashib, kesishgan chiziqli naqshlar yuzaga keldi.

IX-XII asrlar, ya’ni o‘rta asrlarda arab geograflari va tarixchilari al-Muqaddasi, Narshaxiy, Ibn Haykalning ma’lumot berishicha, ichki bozor uchun jun, paxta tolasidan, kanopdan, ipakdan matolar ishlab chiqarilgan, chetdan esa aralash tolali, turli matolar, parcha (ipak va kumush tolasidan tayyorlangan) mato keltirilgan. O‘rta Osiyodan olib ketilgan tovarlar ichida al-Muqaddasi ma’lumotiga ko‘ra, kumush tolali *«simgun», «tabarzincha», «ushmuncha», «qizil marmaridjol»* matolari Misr va Vizantiyaga eksport qilingan.

Narshaxiyning ma’lumotiga ko‘ra, *oq, qizil, zangori* matolar ishlab chiqarilib, Vizantiya va Misrga eksport qilingan. Buxoro va Marv (Turkmaniston)da «bayt ul taraz» bo‘lib, halifalik xazinasiga gilamlar, paloslar, to‘qilgan matolar, gul tikilgan deraza pardalari, manzarali naqsh solingan *yostiqjildlar, yostiqlar, joynamozlar* topshirilgan. Zardana va qishloqlarda paxta tolasidan *«zandanachi», «vandanacha»* matolar ishlab chiqarilgan. A. M. Beliniskiy, I. B. Bentovich kabi rus olimlari bu matolar asosida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bunga ko‘ra, Narshaxiyning ma’lumoti va A. M. Belinskiy, I. B. Bentovich fikrlari bir-

https://buxdu.uz

biridan farq qiladi.

Berilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, arab bosqiniga qadar ipak Xitoydan keltirilgan. Arablar O‘rta Osiyoni bosib olgach, Xitoydan ipak olib kelish to‘xtatilib, O‘rta Osiyoda ipak mato ishlab chiqarish rivoj topgan. Shu sababli matolar XIII asrda paxta va ipak tolasidan to‘qilgan. Bu hol hunarmandchilikka, ayniqsa, kashtachilikka ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

O‘rta Osiyo xalqlari XIII asrga qadar kashta tikish uchun faqat «bo‘z» matosidan foydalanishgan. Shu davrga kelib, matoga gul berishda ham o‘zgarishlar bo‘lganligini A.A. Xakimov “Изобразительно-орнаменталные образы и мотивы прикладного искусства” [5] maqolasida IX-XIII asrlar ornamentlarini ikki davrga bo‘lib ko‘rsatgan.

Arablar bosqini, arab halifaligi o‘z ta’sirini o‘tkazgani tufayli ipak mato ishlab chiqarish yanada rivojlandi. Bu davrda *«olacha», «zandanachi»* kabi matolar O‘zbekistonning Termiz, Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon kabi bir nechta hududlarida ishlab chiqarilgan bo‘lsa, aynan shu matolar Xitoyda ham ishlab chiqarilgan edi. Bu haqda Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devoni lug‘otit turk» asarida, Ahmad Yugnakiy «Hibbatul haqqoyiq» asarida ko‘rsatib o‘tadi. S.M.Mahkamova “К истории ткачества в Средней Азии” [6] maqolasida ko‘rsatishicha, Xitoyda ishlab chiqarilgan matolardagi ornamentlar O‘rta Osiyoda ishlab chiqarilgan mato ornamentlariga o‘xshaydi, lekin ularning rangida farq bo‘lgan.

Markaziy Osiyoda mo‘g‘ul bosqini natijasida XIV asrning birinchi choragidan boshlab, zo‘rlik bilan kiritilgan mo‘g‘ul-xitoy an’analari barcha sohalar qatori liboslarda ham o‘z aksini topdi. XIV asrning ikkinchi choragidan boshlab, mo‘g‘ul-xitoy libos rusumi siqib chiqarilgan va mahalliy kiyimlarning yangi turlari shakllangan. Ammo erkaklar to‘ni, kiyimlarning ko‘krak qismiga tikilgan kashta bezaklari, liboslar yelkasi va bel qismi kiyim etagining beligacha yoki undan uzunroq qilish kabi mo‘g‘ul-xitoy kiyimlariga xos xususiyat saqlangan.

Xulosa. Milliy hunarmnadchilikning shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi holati tarixiy manbalar asosida, shuningdek, mamlakatimiz, MDH davlatlari va xorijiy mamlakatlar tarixchi, etnograf, arxeolog, pedagog olimlarning ilmiy - tadqiqot ishlarida, monografik asarlarida mantiqan ketma-ket, izchil yoritilganligi atroflicha tahlil qilindi va xulosalar chiqarildi.

Takliflar. 1. O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha jamoatchilik fikrini bilish maqsadida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining, ayniqsa, Shahrisabzning milliy hunarmandchilik, ayniqsa, kashtachilik rivojlangan hududlardan ota-bobosi, qarindosh-urug‘lari, oilasi ushbu soha bilan mashg‘ul bo‘lgan fuqarolardan yoki bu ishga ozgina bo‘lsa-da, aloqador shaxslardan to‘rt bo‘limdan iborat ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazildi. Bu bo‘limlardagi savollar demografiya, milliy hunarmandchilik (kashtachilik) tarixi, sho‘rolar va mustaqillik davrida milliy hunarmandchilikka bog‘liq qilib tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

2. XIX asr oxirlariga kelib migratsiya jarayonlari tufayli bolgar, tatar, rus, ukrain xalqlarining kashta tikish metodi krest chok, yarim krest chok kirib keldi. XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi xalqlari etnomadaniy aloqalar tufayli bu choklarni ham o‘zlashtirib, kashta buyumlari tikishda krest, yarim krest choklaridan foydalanra boshladi. O‘rganilayotgan davrda kashta buyumlarida kashta ornamentlari ham, kashta tikish usul va metodlari ham boyidi. Bu ta’sirlar tufayli kashta buyumlari xususiyatlarida ba’zi o‘zgarishlar bo‘lgan esa-da, ornamentlardagi naqshlar va tikilish usullarida o‘z xususiyatlarini saqlab qoladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- il 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712 /3034-son, 29.04.2019.

2. Абдуллаева Г. Нурота каштачилиги. // Мозийдан садо. - 2005. - 4-сон (28). –Б. 31-32.

3. Гюль Э. Жойнамоздаги рамзлар. // Халқ талими. –Тошкент. -1993. -5-сон. - Б.23.

4. O‘zbek sovet ensiklopediyasi. Bosh tahririyati. 1-jild. –Toshkent, 1983. - B.456.

5. Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий ҳунармандчиликнинг спектрал - вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш назарияси ва амалиёти. Монография. -Т.: Tafakkur, 2020. -164 б.

6. Шомирзаев М.Х. Ўзбек халқ миллий ҳунармандчилигининг спектрал-вариатив шаклланиш ва спектрал-вариатив ривожланишида фанлар интеграцияси. Монография. -Т.: Tafakkur, 2020. - 132 б.

https://buxdu.uz

KONTRABAS CHOLG‘U TURLARIDA ISHLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH METODLARI

Davronov Dilshodjon Doniyor o‘g‘li,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti 1- kurs magistranti

Kontrabas cholg‘u turlarining ishlash mexanizmi takomillashtirish metodlarini V. G. To‘ganov musiqa fanida birinchi marta muallif kontrabas san’atini rivojlantirishda tembrning rolini kuchaytirishning tarixiy, estetik va akustik sabablarini ochib beradi. Ovozni chiqarishning asl usullari va usullari ko‘rib chiqiladi. Kontrabas ansambllari va orkestrlarining tovush xususiyatlari ochib beriladi. Zamonaviy kontrabasistlar va kompozitorlar ijodining eksperimental yo‘nalishi yangi tembr va badiiy ma’nolarni izlash bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: *musiqa, kontrabas, akustika, ovoz, tembr, ansambl, orkestr, xor, jo‘rnavoz.*

МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ИГРЫ НА КОНТРАБАСЕ

В.Г. Туганов впервые в музыкальной науке раскрывает исторические, эстетические и акустические причины усиления роли тембра в развитии искусства игры на контрабасе. Рассматриваются оригинальные методы и способы извлечения звука. Раскрываются звуковые особенности контрабасных ансамблей и оркестров. Экспериментальная направленность творчества современных контрабасистов и композиторов связана с поиском новых тембров и художественных смыслов.

Ключевые слова: *музыка, контрабас, акустика, звук, тембр, ансамбль, оркестр, хор, аккомпанемент.*

METHODS FOR IMPROVING THE WORKING MECHANISM OF DOUBLE BASS INSTRUMENTS

V. G. Tuganov, for the first time in music scholarship, reveals the historical, aesthetic, and acoustic reasons for enhancing the role of timbre in the development of double bass artistry. The original methods and techniques of sound production are examined. The sound characteristics of double bass ensembles and orchestras are explored. The experimental direction in the work of contemporary double bassists and composers is associated with the search for new timbres and artistic meanings.

Keywords: *music, double bass, acoustics, sound, timbre, ensemble, orchestra, choir, accompanist.*

Kirish. Tadqiqotning nazariy asosi kirishning majburiy elementi bo‘lib, ish davomida qaysi mualliflar tomonidan tahlil qilingan ilmiy ishlar, shuningdek, ma’lumot olish uchun qanday manbalardan foydalanilganligi (me’yoriy hujjatlar, rasmiy veb-saytlar va boshqalar) aks ettirilgan.Zamonaviy davrda kontrabas eng katta va eng past ovozli torli kamonli asbob-jahon san’ati sahnasida muhim o‘rin tutadi. Uning g‘ayrioddiy boy ovoz salohiyati kontrabasist-virtuozlarning yakka chiqishlarida, turli uslub va janr yo‘nalishidagi ansambl va orkestr musiqasida: klassikadan jazzgacha namoyon bo‘ladi. O‘tmishda tinglovchilarga taqdim etilgan "qo‘pol" va "qo‘pol" asbobning tasviri unutilib ketdi. Kontrabasistlarni ijro etish shuni isbotlaydiki, bugungi kunda ushbu asbobda ilgari tasavvur qilib bo‘lmaydigan eng kutilmagan ovoz chiqarish variantlari qo‘llaniladi: stendda yoki tokchada o‘ynash, barmoq paneliga torlarni urish bilan keskin pizzicato, pastki qismga, tanaga, barmoq paneliga urish va boshqalar. tovushlarni - sonoralar, glissando-sonoralar, klasterlar, shovqinlar va ovoz bo‘yoqlarining zamonaviy palitrasi juda xilma-xil bo‘lib, akustik bo‘yoqlarning eng yangi tendentsiyalarini namoyish etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Nazariy asos tadqiqotchini mavjud bilimlar bilan bog‘laydi. Tegishli nazariyaga asoslanib, siz gipotezalaringiz va tadqiqot usullarini tanlashingiz uchun asosga egasiz. Tadqiqotning nazariy taxminlarini ifodalash sizni nima uchun va qanday savollarga javob berishga majbur qiladi. Nazariyalar hodisalarni tushuntirish, bashorat qilish va tushunish va ko‘p hollarda tanqidiy cheklovchi taxminlar doirasida mavjud bilimlarga qarshi chiqish va kengaytirish uchun tuzilgan. Nazariy asos - bu tadqiqot nazariyasini o‘z ichiga olishi yoki qo‘llab-quvvatlashi mumkin bo‘lgan asos. Nazariy asos o‘rganilayotgan tadqiqot muammosi nima uchun mavjudligini tushuntiruvchi nazariyani taqdim etadi va tavsiflaydi.

https://buxdu.uz

Ehtimol, tarixi kontrbas tarixi kabi qorong‘iliklarga to‘la bo‘lgan hech qanday asbob yo‘q. Kontrbasning kelib chiqishi Uyg‘onish davriga borib taqaladi. Biz o‘sha paytda Evropada mavjud bo‘lgan bas kamonli asboblarning turli turlari (bas skripkalar, da gamba bas lyres, perfetto lire) haqida to‘xtalmaymiz va faqat kontrbasning ajdodlari paydo bo‘lgan viol oilasini ko‘rib chiqamiz.

Violalar 15-asrda paydo bo‘lgan va Yevropada 18-asrning o‘rtalarigacha keng qo‘llanilgan. Viollar oilasi dastlab uch turdagi asboblarni o‘z ichiga olgan: trebl, alto va tenor skripkalari. Viol oilasiga mansub barcha asboblar (17-asr oxirida yaratilgan viol d’amoredan tashqari) barmoq bortlarida perdalar bo‘lib, o‘lchamidan qat’i nazar, vertikal ravishda oyoq bilan ushlab turilgan.

– “da gamba” (italyancha gamba oyoq degan ma’noni anglatadi).

"Viola da gamba" nomi faqat tenor violaga berilgan. Bu asbob viollar oilasining "boshlig‘i" bo‘lib, yakkaxon ijroda eng ko‘p ishlatilgan. Odatda u olti torli bo‘lgan, lekin ba’zi cholg‘u asboblarida yettinchi qo‘shilgan - pastki A. Tenor viola da gamba to‘rtinchi va uchinchi qismlarda sozlangan:

16-asrda trebl, alto va tenor skripkalaridan keyin bu oilaning yana bir vakili - katta bas viola da gamba (Violone) esga olinadi. Bu vosita bir qancha ishlarda tasvirlangan. Uning dizayni va o‘lchamlari aniq ma’lum. Skripka shakli bo‘yicha tenor viola da gamba bilan bir xil edi, lekin uning tanasidan 1820 sm uzunroq edi. Bu skripkada olti torli va bo‘yniga va barmoq bortiga bog‘langan olti-etti torli bor edi. Skripka tenor gamba ostida qurilgan. Bu erda violone sozlashning to‘rtta varianti mavjud:

Kontrbas ijrosini rivojlantirishda mexanik sozlovchilardan foydalanish muhim rol o‘ynadi. 1778-yilda Berlinlik asbob ishlab chiqaruvchisi Karl Lyudvig Bachmann kontrbas simlarini sozlashni osonlashtirish uchun yog‘och sozlash qulog‘iga vint bilan harakatlanadigan kichik dişli g‘ildirakni biriktirdi. Uzoq vaqt davomida bu Bachmann so‘zsiz mexanik sozlovchilarning ixtirochisi hisoblangan. Biroq, Tbilisida 1778-yilda Vincenzo shahrining (Italiya) ustasi Karlo Moralatti tomonidan ishlab chiqarilgan italyan kontrbasi mavjud. Moralatti Bachmannning zamondoshidir va ulardan qaysi biri bunday qoziqlarni ilgari boshlaganini aniqlash qiyin. Bundan tashqari, yuqorida aytib o‘tganimizdek, XVII asrning boshlarida Pretorius kontrbas skripkalarini sozlash uchun ishlatiladigan taxminan bir xil mexanik sozlash qoziqlarini tasvirlab bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bir qator manbalar shuni ko‘rsatadiki, orkestrda kontrbasning birinchi ishlatilishi Italiyada bo‘lgan. Eng qadimgi hujjatli dalillar 1699-yilga to‘g‘ri keladi, bastakor D. Aldrovandini Neapol teatri uchun yozilgan "Iskandariyalik Sezar" operasi musiqasiga kontrbasni qo‘shgan3. Ko‘p o‘tmay, 1706-yil atrofida Fransiyada buyuk qimbaror va yirik bastakor Marin Marais o‘zining "Alcyone" operasida kontrbaslardan foydalangan.

Ammo bu birinchi urinishlar yolg‘iz qoldi. Musiqiy Barokko davridagi orkestrda bas ovozi uzoq vaqt davomida violonchel, cherkov basslari yoki violonchel tomonidan ijro etilgan, ba’zan kontrbas skripkalar oktavani ikki baravar qilish uchun qo‘shilgan.



https://buxdu.uz

Faqat XVIII asrning 50-yillaridan Violone so‘zi kontrbasni anglata boshladi. Shu vaqtdan boshlab, kontrbas nihoyat kontrbas violasining o‘rnini bosdi va aksariyat Evropa orkestrlarining majburiy a’zosiga aylandi. Biroq, orkestrdagi kontrbaslar soni, qoida tariqasida, to‘rtdan oshmasdi. Faqat Neapol orkestrida, ingliz sayyohi Charlz Burneyning so‘zlariga ko‘ra, beshta kontrbas bor edi1. Parijdagi Concerts Spirituales (1751) orkestrida ikkita kontrbas bor edi, Grand Operada esa faqat bitta to‘rt torli kontrbas ijro etildi, keyin ayniqsa muhim spektakllarda. Yana ikkita kontrbas ushbu orkestrga yigirma yil o‘tgach, K.W. Gluck boshchiligida kiritildi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab kontrbas ham yakkaxon asbobga aylandi. Aynan shu paytda bir nechta taniqli kontrbas solistlari paydo bo‘ldi. To‘rt torli kontrbasning tovushi ularga katta xonalarda yakkaxon ijro etish uchun etarli emas edi, shuning uchun kontrbasning yangi turi - uch torli - keng tarqaldi. Yakkahon ijro etishda juda past tovushlar ishlatilmadi, va uch torli asbobning tovushining umumiy kuchi sezilarli darajada oshdi.

Nemis kontrbas san’ati A. Müllerni XIX asrning taniqli nemis kontrbaschilari qatoriga kiritish kerak. Avgust Myuller 1810-yilda Darmstadtda tug‘ilgan, u yerda ko‘p yillar ishlagan va o‘qituvchilik qilgan. G. Berlioz o‘zining "Xotiralar"ida shunday deb yozgan: "Bu yerda Müller ismli ajoyib virtuoz bor, ammo u Braunshveygdan mashhur Müller oilasiga mansub emas. Uning ulkan bo‘yli bo‘yli unga haqiqiy to‘rt torli kontrbasni hayratlanarli osonlik bilan o‘ynashga imkon beradi. Qasddan qiyinchilik va shubhali ta’sirga ega bo‘lgan parchalar va arpejlarni bajarishga intilmagan holda, u bu ulkan asbobni qanday qilib qattiq va olijanob qo‘shiq aytishni biladi, undan ajoyib go‘zallik tovushlarini chiqarib oladi va ularni katta mahorat va tuyg‘u bilan nuanslaydi. Men uning Kapellmeisterning ukasi Mangold tomonidan yaratilgan juda chiroyli Adagioni kuylashini eshitdim va u buni eng talabchan tomoshabinlarni chuqur ta’sir qila oladigan tarzda qildi.

Ijro davomida ijrochi skameykada turdi, lekin bu holda ham barmoqlari bilan chalish noqulay bo‘ldi. Shuning uchun tananing yuqori qismida (o‘ng qobiqning ustida) ettita qo‘l biriktirilgan bo‘lib, ular yordamida ijrochi simlarni bo‘yniga bosgan mexanik "barmoqlarni" harakatga keltirdi. Ajoyib ovozga qaramay, bu ulkan asbob, albatta, orkestrda hech qanday foydalanilmadi. Bu Darmstadtdagi musiqaning eng ilg‘or sevuvchisi janob doktor Hutning uyida bo‘lgan ziyofatda edi, u o‘z davrasida san’at uchun nima qilayotganini o‘z doirasida gerr Olsager Londondagi o‘z doirasida nima qilayotganini qiladi. Myuller barcha bastakorlarni va barcha dirijyorlarni yo‘ldan ozdirishi kerak bo‘lgan xazinadir."1 Müller kontrbas uchun "Kirish va mavzu" va boshqa parchalarni yozgan. Müller 1867-yilda Darmstadtda vafot etdi. Müllerning shogirdi Kristian Simon, nemis kontrbaschisi, 1810-yilda tug‘ilgan. Kapellmeister Stein uning uchun Konzertstück op. 9. Simon ko‘p yillar davomida Shvarzburg-Sondershausen shahridagi sud cherkovining birinchi kontrbaschisi bo‘lgan. U 1872 yilda vafot etdi. Keling, nemis kontrbaschi T. Michaelisning ko‘p jihatdan Grabierning "Maktabi" asosidagi tamoyillarga yaqin bo‘lgan qiziqarli metodik ishiga to‘xtalamiz. Teodor Michaelis (1831-1873) o‘qituvchi va orkestr musiqachisi bo‘lgan. U Gamburgda ishlagan, u erda yengil musiqa bastalagan. Michaelis "Kontrbas maktabi" muallifi sifatida tanilgan. "Maktab" bir sonda birlashtirilgan ikki qismdan iborat. Muallifning o‘zi bu haqda yozganidek, u to‘liq va aniq bo‘lishni talab qilmaydi. So‘zboshidan so‘ng, "kamonni ushlab turish va yetakchilik", "chap qo‘lning holati" haqida eslatmalar mavjud. Barcha erta Chexiya va Nemis "maktablari" uchun juda xarakterli tirsak pastga tushirilgan chap qo‘lning holati; Fretboarddagi barmoqlar quyidagicha joylashtirilgan: halqa va o‘rta barmoqlar bir-biriga mahkam yopishadi, kichik barmoq va 1-barmoq ulardan uzoqroq joylashgan. Buni "Maktab" ga biriktirilgan rasmdan ko‘rish mumkin. Michaelisning "Maktabi", shuningdek Grabierning "Maktabi" hali ham uchinchi barmoqni ishlatmaslik mavqeida, hatto oltinchi pozitsiyadan yuqori:

Tahlil va natijalar. Wilgelm Sturm tomonidan yozilgan boshqa nemis "Maktabi" dagi 3-chi barmoq ham kam baholanadi, ammo unda bu barmoq hali ham oltinchi pozitsiyadan yuqorida keltirilgan 2:

Michaelisning "Maktab" ning amaliy qismi ochiq simlarda mashqlar bilan boshlanadi, avval yarmi, so‘ngra butun notalar bilan. Shuni ta’kidlash kerakki, 3-barmoq 4-chi uchun qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, barcha oltita pozitsiyalar va yarim pozitsiyalarning tuzilishi, ularning tegishli asta-sekin murakkablashib borayotgan mashqlar bilan amaliy o‘rganishi ko‘rsatiladi; akkordlar va zarbalarni o‘rganish; 1 bilan tarozi Berliosis Hektor. Xotira. Moskva, 1967, pp. 459-460. Sturm "Maktabi"dagi lavozimlar nomi asl. Gause tamoyilidan kelib chiqib, u yarim pozitsiyalarni rad etadi va yarim pozitsiyadan boshlab, xromatik ravishda pozitsiyalarini quradi. Shunday qilib, Sturmning birinchi pozitsiyasi odatdagi yarim pozitsiyaga teng, o‘ninchi pozitsiyasi esa oltinchi. (Muharrir eslatmasi.) 48-2tegishli tugmachalarda mashqlar. Bu Simandlovning tarozilarni o‘rganish usulini oldindan ko‘rsatadi. "Maktab" da baland pozitsiyalarda tarozilarning barmoqlari ko‘rsatiladi. Barcha katta va minör o‘lchovlar (ikkita shkaladan tashqari - C major va G major) 3-barmoqni ishlatmaydi. Birinchi qismning oxirida xromatik tarozilar ham mashqlar bilan belgilanadi. Ikkinchi qismda etuvga o‘xshash mashqlar barcha kalitlarda, sekin va tez templarda turli xil figuratsiyalar bilan beriladi. "Maktab" oxirida orkestr parchalari mavjud. Germaniyadagi

https://buxdu.uz

kontrbas bastakorlaridan Moislni ham ta’kidlash kerak. Adolf Meusl Praga konservatoriyasida (1852-1858) J. Grabier bilan kontrbasni o‘rgangan. Konservatoriyani tugatgandan so‘ng, Visbadenda ishlagan. Moysl asarlaridan faqat Konzertstück ma’lum. Kontrbas adabiyotida resitativdan foydalanish juda kam uchraydi. Bottesinidan keyin Konzertstückda Meusl tomonidan muvaffaqiyatli ishlatilgan. Ushbu parcha dinamik va juda murakkab to‘qimalar bilan ajralib turadi 1. Shuningdek, 1855-1861 yillarda Grabier bilan birga o‘qigan Praga konservatoriyasi talabasi taniqli ijrochi va o‘qituvchi Emanuel Storxni (1841-1877) ham eslatib o‘tamiz. Storch hayotining so‘nggi yillarini Leypsigda o‘tkazdi, u erda Gewandhaus orkestrining birinchi kontrbaschisi lavozimini egalladi. Storchning kontrbas asarlaridan etudlar va Konçerto, shuningdek, bir qator transkripsiyalar saqlanib qolgan. Taniqli kontrbaschi Oswald Shvabe (1846-1909) edi. U Leypsigda E. Storch bilan kontrbasni o‘rgangan. 1871-yildan Gewandhaus orkestrida (orkestrning birinchi kontrbaschisi) o‘ynadi, 1881-yildan konservatoriyada dars berdi. 1906-yil 1-oktyabrda Shvabe o‘zining ikki yubileyini nishonladi: konservatoriyada yigirma besh yil o‘qituvchilik va Gewandhausda o‘ttiz besh yillik ish. Shvabening asarlaridan orkestr qiyinchiliklari bo‘yicha ettita daftar, Adagio, Romantika va Kavatina, shuningdek, Raffning "Cavatina" kontrbas va Konstantin Davydovning "Romantika" aranjirovkalari bilamiz.

Theatre's ability to serve as a catalyst for dialogue and self-examination is deeply rooted in its history. In Greek tragedy, playwrights like Sophocles and Euripides examined moral responsibility, divine justice, and human suffering, forcing audiences to confront questions of fate versus free will. Similarly, Shakespeare’s plays, such as Hamlet and Macbeth, probed psychological conflict, ethical dilemmas, and the consequences of power and ambition. However, while these classical works emphasized personal and existential crises, Shaw shifted the focus to broader socio-political concerns. Shaw’s works differ from traditional tragedy and realism in that they provoke intellectual, rather than purely emotional, engagement. His characters, unlike Shakespearean tragic heroes, are not undone by fate or psychological flaws, but rather by the rigid and oppressive structures of society. For example, in Saint Joan (1923), Joan of Arc’s downfall is not the result of personal weakness, but rather society’s refusal to accept a visionary who challenges religious and political hierarchies.

This aligns with the function of theatre as a reflective space, where audiences are not only moved by the plight of individuals but also prompted to question institutional authority and historical injustice. Similarly, as it is mentioned above Pygmalion (1913) critiques class mobility, education, and gender roles, demonstrating how society dictates personal transformation and success. By refusing to conclude the play with a conventional romantic ending, Shaw reinforces theatre’s role as an intellectual and social commentary rather than mere entertainment. Shaw’s impact on theatre extends far beyond his lifetime, influencing key modern theatre movements such as postmodernism, epic theatre, and political drama. These movements, much like Shaw’s plays, reject passive audience engagement and challenge traditional storytelling structures.

Postmodern theatre rejects linear storytelling and absolute truths, instead embracing fragmentation, irony, and self-awareness. Shaw’s plays, while structured, often challenge conventional dramatic forms by breaking the fourth wall, engaging audiences directly in philosophical debates, and blurring the boundaries between fiction and reality.His rejection of romanticized endings and fixed moral conclusions aligns with postmodern theatre’s tendency to leave narratives open-ended and subject to interpretation.Bertolt Brecht’s epic theatre sought to alienate audiences from emotional immersion, encouraging them to think critically rather than passively engage with the drama.

Shaw’s works similarly demand intellectual participation. Rather than presenting heroes and villains in a traditional sense, he forces audiences to grapple with competing ideologies, as seen in Major Barbara, where the moral debate over capitalism and charity remains unresolved.Like Brecht’s plays, Shaw’s theatre prevents audiences from becoming emotionally consumed, instead making them question political and ethical structures.

Modern political theatre, such as Augusto Boal’s Theatre of the Oppressed, aims to empower audiences by making them active participants in societal change.Shaw’s plays, though set within structured narratives, encouraged discourse on socialism, women’s rights, and social justice, laying the groundwork for theatre as a tool for political awareness.Saint Joan remains one of the most politically charged historical dramas, drawing attention to the manipulation of history by those in power.Shaw rejected conventional storytelling norms, particularly the romanticized endings and predictable resolutions that were common in 19th-century theatre. His works often subverted audience expectations, forcing them to question the

https://buxdu.uz

morality, logic, and implications of social conventions rather than becoming emotionally absorbed in idealized narratives.Shaw’s integration of philosophy, politics, and drama parallels modern interdisciplinary performances, which blend literature, music, and film.Productions such as Hamilton use historical figures to critique modern social issues, much like Saint Joan reinterpreted history through a contemporary lens.

Conclusion. Theatre remains a dynamic and evolving art form that continues to shape, and be shaped by, the cultural, political, and intellectual landscape. Shaw’s works prove that theatre is not merely entertainment but a force for social transformation, capable of challenging institutions, engaging audiences intellectually, and inspiring change.His influence on postmodernism, epic theatre, and political drama ensures that his legacy endures in modern theatre, where storytelling remains a tool for reflection, resistance, and progress. By rejecting passive audience consumption, romanticized storytelling, and moral absolutism, Shaw set the foundation for contemporary theatre’s intellectual rigor, social consciousness, and political relevance. At the end, just as tragedy explores suffering, comedy critiques social norms, and drama reflects human struggles, Shaw’s theatre bridges these elements, ensuring that theatre remains a platform for both artistic exploration and societal transformation.

References:

1. Aristotle, Poetics (M. Heath, Trans.), 1996, p. 45.
2. Beckett, S., Waiting for Godot: A Tragicomedy in Two Acts, 1953, p. 72.
3. Brecht, B., Mother Courage and Her Children (E. Bentley, Trans.), 1941, p. 113.
4. Chekhov, A., The Cherry Orchard (R. Wilks, Trans.), 2002, p. 56.
5. Ibsen, H., A Doll’s House, 1879, p. 89.
6. Molière, Tartuffe (R. Wilbur, Trans.), 1992, p. 34.
7. Sophocles, The Three Theban Plays (R. Fagles, Trans.), 1984, p. 128.
8. Stanislavski, C., An Actor Prepares (E. Hapgood, Trans.), 1936, p. 210.
9. Williams, T., A Streetcar Named Desire, 1947, p. 98.
10. Shakespeare, W., Hamlet (B. A. Mowat & P. Werstine, Eds.), 1998, p. 156.
11. L.J. Jalilova, Zarina Inoyatova A Variety of Genre Experiments in the Work of B. Shaw “House. Where Hearts Break” // Xorazm Ma’mun Akademiyasi axborotnomasi, 2024-11/4. – B. 99-102. 4 bet.

https://buxdu.uz

TALABALARDA MIS KANDAKORLIGI MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Musinova Aziza Sadikovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Musiqa va tasviriy san’at” kafedrasi o‘qituvchisi
azizamusinova2@mail.ru

Ushbu maqolada mis kandakorligi darslari talaba-yoshlarda estetik dunyoqarashni, g‘oyaviy e’tiqodni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etishi haqida so‘z borgan. Talabaga individual yondashish - ta’limning strategiyasi va taktikasi, ta’limning konsepsiyasi va tamoyilidir. Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashning asosiy maqsadi - respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual elitani tayyorlash va bu borada yuksak iste’dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o‘zlaridagi noyob iste’dodni ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishini so’zlagan.

Kalit so‘zlar: *mahorat, estetik tarbiya, naqsh kompozitsiyasi, qobiliyat, kasbiy tayyorgarlik, mis kandakorlik, individual yondashish, o‘quv-tarbiya jarayonini.*

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ МАСТЕРСТВА МЕДНОЙ ЧЕКАНКИ У СТУДЕНТОВ

В данной статье говорится о том, что занятия по чеканке из меди имеют особое значение в формировании эстетического мировоззрения и идейных убеждений у студенческой молодёжи. Индивидуальный подход к студенту - это стратегия и тактика обучения, концепция и принцип образования. Основной целью поиска, выявления и целенаправленной подготовки талантливых студентов является формирование интеллектуальной элиты, развивающей научный и творческий потенциал республики. При этом создаются возможности для высокоодарённых людей проявить и развить свои природные способности в соответствующих областях знаний и конкретных направлениях науки, а также реализовать свой уникальный талант.

Ключевые слова: *мастерство, эстетическое воспитание, композиция узора, способность, профессиональная подготовка, чеканка по меди, индивидуальный подход, учебно-воспитательный процесс.*

THE CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF COPPER SKILLS IN STUDENTS

This article discusses the special importance of copper engraving lessons in shaping the aesthetic worldview and ideological beliefs of student youth. An individual approach to students is the strategy and tactics of education, as well as its concept and principle. The main goal of searching for, identifying, and providing targeted training to gifted students is to cultivate an intellectual elite that develops the scientific and creative potential of the republic. In this regard, highly talented individuals are given opportunities to demonstrate and develop their natural abilities in relevant fields of knowledge and specific areas of science, and to realize their unique talents.

Keywords: *mastery, aesthetic education, pattern composition, ability, professional training, copper engraving, individual approach, educational process.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son Qarorining qabul qilinishi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini yanada samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator vazifalarni dolzarb qilib qo‘ydi. Ayniqsa, bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarni ixtisosliklari bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish bilan birgalikda ularni axloqiy-estetik jihatdan barkamol qilib tarbiyalash ham zarurligini jamiyat rivoji taqozo qilmoqda. Shu jihatdan oliy o‘quv yurtlarida mis kandakorligi san’ati darslari axloqiy-estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan xisoblanib, talabalarni milliy va g‘oyaviy tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Mis kandakorligi darslarida talaba-yoshlar nazariy va amaliy bilim asoslarini egallaydilar. Xalq amaliy san’atining muhim tarkibiy qismi hisoblangan kandakorlikning siru-asrorlarini o‘zlashtiradilar. Bu esa ularni g‘oyaviy, aqliy, axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalashda samarali ta’sir ko‘rsatadi.

https://buxdu.uz

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. A.Musinovaning (2019) "The development of professional skills in copper embosing lessons" nomli tadqiqotida mis kandakorlik darslarida talabalarda kasbiy mahoratni rivojlantirish usullari ochib berilgan [1].

N.Avliyakulova va boshqalarning (2021) tadqiqot ishida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashda madaniyat va san'atning tutgan muhim o'rniga ta’rif berilgan [2].

"Decorative and applied art in the leisure of young people." (2024) – muallif o‘sib kelayotgan avlodning bo'sh vaqtlarida dekorativ va amaliy san'at bilan shug‘ullanishining foydasi haqida ma’lumotlarni yoritib bergan. Yetuk shaxs faoliyatining tarkibi hisoblanmish san’at, yoshlar tarbiyasida san’atning o‘ziga xos o‘rni, amaliy san’atning ma’lum bir turlari va tashkil etish usullari, yosh avlodni hayotga tayyorlashda uning ta’limiy – tarbiyaviy ahamiyati va o‘sib kelayotgan avlodni xayotga tayyorlashda amaliy san’atning o‘ziga xos axamiyatlari bayon etilgan [3].

"Развитие художественно-творческих способностей на основе изучения и освоения различных техник и материалов." (2016) – ushbu tadqiqot ishida tasviriy san’at darslarida turli usullar hamda xom-ashyolar bilan ishlashni o‘rganish asosida talabalarda rassomchilik va ijodkorlik qobiliyatini takkomillashtirish usullari va yo‘l-yo‘riqlari batafsil yoritilgan. [4].

Mis kandakorligi darslari talaba-yoshlarda estetik dunyoqarashni, g‘oyaviy e’tiqodni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko‘rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik his-tuyg‘ularni o‘stiradi.

Tadqiqotning obyekti. Oliy o‘quv yurtida o‘qitiladigan ushbu san’at har bir metal buyum turi uchun naqsh kompozitsiyasini tuzish, mavzu asosida rasm chizish, kandakorlik, temirchilik va rixtagarlik san’ati haqida ma’lumot berilib, talaba-yoshlar ijodiy qobiliyatini o‘sishiga dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya’ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi. Mis kandakorlik san’atining asosiy vazifalaridan biri talaba-yoshlarga estetik tarbiya berishdir.

Estetik tarbiya bu talaba-yoshlarning tabiat, jamiyat va san’atdagi go‘zalliklarini to‘liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalashdir. Go‘zallik kishilarning aqli, qalbi, idrokiga ta’sir etib, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida asosiy vazifalardan biri talaba-yoshlarga borliqni faqat ijodiy o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirishgagina emas, balki ularni go‘zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash xamdir.

Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat’iy nazar, go‘zallik va nafislikni ko‘ra bilish va tushuna bilish lozim. Shu jihatdan kasb ta’limi amaliy san’at ta’lim yo‘nalishida tahsil oladigan yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o‘qituvchi ularga qo‘lda bajariladigan har bir buyum, san’at asari darajasigacha keltirish mumkinligini va bunday ishlarning qadr-qimmati har doim yuqori o‘rinni egallashini, shakllarning turli tumanligini va go‘zalligini ko‘rsatadi. Har bir shakl o‘z ma’nosiga egaligini o‘rgatib boradi. Shu yo‘sindagina talaba-yoshlarga mis kandakorligi san’atiga nisbatan qiziqish va mehr uyg‘otish mumkin.

Talabalarga quvonch, hayajon baxsh etgan san’at asarlarining go‘zalligini so‘z bilan tasvirlab bo‘lmaydi, naqshlarning betakrorligi uzoq vaqtlargacha ularning xotirasida saqlanadi.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda kandakor ustalarning eskizlariga qarab chizish ulardagi o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rganish orqali darslar talabalarga dunyoni keng va atroflicha ko‘ra olishga, shuningdek,ko‘rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, bu san’at xaqida aniq va to‘liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Mis buyum uchun kompozitsiya tuzish jarayonida talabalar narsalarning shakli, proporsiyalari, buyumning qanday maqsadda ishlatilishi, qaysi metaldan tayyorlanganligini diqqat bilan o‘rganadilar.

Natijalar. Mis kandakorligi mashg‘ulotlari talaba-yoshlarning ko‘rish orqali milliy g‘oyalarni idrok qilishini rivojlantiradi. Ko‘z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda, biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatlarini tushunamiz, ya’ni shakl va o‘lchamlarni solishtirish, ularning farqi va umumiy tomonlarini aniqlash, buyumlarning shakli va tashqi ko‘rinishi tasniflashni anglaymiz.

Insonning tashqaridan olayotgan har qanday ma’lumot hayotida ko‘zning roli beqiyos ekanligini ko‘rsatib turibdi va u ko‘zning imkoniyatlar, qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san’ati predmeti ustun turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda amaliy san’atning kishilar hayotida roli yanada oydinlashadi.

Oliy ta’limda, jumladan, kasb ta’limi amaliy san’at ta’lim yo‘nalishida uchinchi bosqichda mis kandakorlik san’atini o‘qitish orqali qator ta’lim-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida talabalar bilimini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Shular asosida yoshlarda milliy estetik dunyoqarash shakllantiriladi.

Oliy ta’lim muassasasida kandakorlik san’ati tarixini, kandakorlik buyumlari, naqshlarini chizish va metalda naqsh o‘yishni o‘rganish kishilarga qanday imkoniyatlar yaratilishini atroflicha ko‘rsatishni maqsad

https://buxdu.uz

qilib qo‘yadi. O‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida naqsh chiza bilish har qanday halq amaliy bezak san’atida, mutaxassislikda qo‘l kelishini tushuntirib beradi. Buni u hayotdan olingan misollar asosida olimlar va qaxramonlar, madaniyat va san’at arboblarining fikrlari bayon qilinadi.

Oliy o‘quv yurtlarida kandakorlik san’atining asosiy amaliy vazifalaridan biri talaba-yoshlarni mis kandakorlik san’ati texnikasi bilan qurollantirishdir. Buning uchun o‘qituvchi talaba-yoshlarga kompozitsiya chizish, buyumga eskiz naqshlarini o‘tkazish, ish qurollarini ishlatish, buyumni o‘yishdan keyingi tozalash va tayyor holatga keltirish yo‘llarini o‘rgatadi. O‘qituvchi talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yar ekan, u talabalar bilan ishlashning maqbul metodikasini ishlab chiqishi lozim bo‘ladi. Mis kandakorligi darslarida san’at asarlari va ularning ijodkorlari bilan tanishtiradilar. Mashg‘ulot davomida o‘qituvchi kandakorlik san’ati maktablari, bu san’atning rivojlanish tarixi, mis kandakorligi turlari, kandakorlik asbob-uskunalari, xomashyolari, taniqli kandakor ustalarning hayoti va ijodi haqida so‘zlab beradi.

Munozara. Oliy pedagogik ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo‘lajak o‘qituvchining chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo‘lishi ma’lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida yangiliklardan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog‘liqdir. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha yondashish zaruriyatining asosiy mohiyati o‘qituvchilarning an’anaviy usullardan voz kechishlari hamda noan’anaviy usullardan foydalanishlaridan iborat. O‘qituvchi hamda talabalar orasida yangicha pedagogik munosabatlarning vujudga kelishi o‘quv jarayoniga tabaqalashgan yondashuvning tatbiq etilishi, ta’lim oluvchilarning imkoniyatlari va o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda ularga individual yondashish tajribasini pedagoglar puxta o‘zlashtirishlari zarur. Ta’limda individual yondashish nima degan savol tug‘ilishi mumkin. Individual yondashish – pedagogik tamoyilga ko‘ra pedagogik jarayonni pedagogning talabalar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda qurishi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratishi deganidir. Ta’lim tizimini zamonaviy yangilash doirasida yetakchi yondashuvlardan biri alohida yondashuv hisoblanadi. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda olimlarimiz quyidagilarni tavsiya qiladilar:

- o‘rtacha o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘lgan talabalarga qarab faoliyat yo‘nalishini belgilash amaliyotidan voz kechish;
- har bir talabaga xos sifatlarni aniqlash va ularni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari, aqliy-intellektual xususiyatlarini aniqlash, tanlagan kasbiy yo‘nalishlarini aniqlagan holda zarur maslahatlar berish;
- auditoriyadagi har bir talabaning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatini hisobga olgan holda o‘quv topshiriqlarini tanlash;
- o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni guruhlarga bo‘lib ishlashga undash lozim.

O‘quv-tarbiya jarayonini pedagogik innovatsiyalardan foydalangan holda tashkil etish va boshqarish fan o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalari, kasbiy layoqati doirasida zamon talablariga faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlaydigan uzluksiz metodik xizmat tizimini yaratishni taqozo etadi. O‘qituvchilar talabalarning hayotiy ehtiyojlariga mos keladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni ular faoliyatiga singdirish orqali ularga tabaqalashgan hamda individual yondashish imkoniyatlarini yaratishlari kerak. Kichik guruhlarning tez-tez ishlatib turadigan usullari talabalarni o‘qitishga alohida yondashish muammosini to‘liq bartaraf eta olmaydi.

Talabaga individual yondashish - ta’limning strategiyasi va taktikasi, ta’limning konsepsiyasi va tamoyilidir. Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashning asosiy maqsadi - respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual elitani tayyorlash va bu borada yuksak iste’dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o‘zlaridagi noyob iste’dodni ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdir. Iqtidorli yoshlar - O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta’minlovchi muhim omil va millat ziynati hisoblanadi. Ana shu borada amalga oshirilayotgan ishlarning bir debochasi sifatida “Kasb ta’limi” yo‘nalishida quyidagi ishlar olib borilmoqda. Xususan, kafedra huzurida “Sehrli igna”, “Kandakorlik”, “Yosh ijodkorlar” to‘garagi tashkil etilgan bo‘lib, maqsadga intiluvchan, qat’iylik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari hamda ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish istagi bilan ajralib turuvchi, o‘quv, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy ishlarda faol qatnashayotgan iqtidorli talabalar jalb etilgan. Ularga intellektual salohiyatini oshirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha “Ustoz-shogird” tizimida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun yetarli sharoitlar yaratilib, talabalarning har

https://buxdu.uz

biriga ilmiy darajali hamda ilmiy tadqiqot ishlari bo‘yicha yetarli bilim va malakaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar ilmiy rahbar etib biriktirilgan.

Mis kandakorligi fanini o‘qitish jarayonida individual yondashish talabaning shaxsiy sifatlarini uning o‘z individual imkoniyatlari doirasida rivojlantirishga yordam beradi. Mis kandakorligini o‘rgatish jarayoni didaktik hodisa hisoblanadi. Ushbu didaktik hodisani talabaning shaxsiy xususiyatlari asosida yoritish shaxs jihatidan yondashish sanalsa, uning real bilish imkoniyatlarini, individual xususiyatlardan kelib chiqishini tasvirlash individual yondashish hisoblanadi. Shaxs jihatidan yondashishda insonning mohiyati, holati, hatti–harakati, orttirilgan tajribasi uning shaxsiy sifatlari yaxlitligiga bog‘liq bo‘lsa, individual yondashishda aynan olingan o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari asosida didaktik muammo yoritiladi. Bu ikki xil yondashish umumiylik va alohidalikning o‘zaro munosabati shaklida amal qiladi. Shaxs jihatidan yondashish prinsiplarini amalga oshirishning asosiy yo‘li ta’limni individuallashtirishdir. Ta’limni individuallashtirish uni har bir o‘quvchining o‘z individual xususiyatlariga moslab tashkil etish demakdir. O‘quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish yo‘li bilan talabalarga mis kandakorligi bo‘yicha aniq va kafolatli bilimlarni yetkazib berish uchun katta imkoniyat tug‘iladi. Shu bilan birgalikda ushbu jarayondagi turli to‘siqlar (bolaning uyatchanligi, o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning bir-birini anglamasligi, o‘quv materialining murakkabligi va sh.k) individual ta’lim jarayonida bartaraf etiladi, ta’limni tashkil etish darajalari (ta’limni quyi, o‘rta va yuqori qiyinchilikda tashkil etish meyorlari) belgilanadi, ta’limni gomogen guruhlarda o‘tkazish imkoniyatlarini oshiradi. Individual yondashish metodining afzalligini mis kandakorligi san’ati misolida tahlil qilib ko‘raylik. Mis kandakorligi mahoratini rivojlantirishda har bir talabaga individual yondashish usulidan foydalanish o‘zining ijobiy tomonlari bilan alohida o‘rin olgan.

Mis kandakorligi amaliy san’atining eng qadimgi turlaridan biri bo‘lib, unda birgina po‘lat qalam va bolg‘acha yordamida ish olib boriladi. Albatta, har qaysi san’atni o‘rganishdan oldin uning tarixini bilish zarurligi hammaga ayon. Nazariy bilimlarni talabalarga suhbat va ma’ruzalarda yetkazsak, amaliy ko‘nikmalar amaliyotda vujudga keladi. Inson amaliy san’atning qaysi bir turini o‘rganmasin, u avvalambor naqsh chizishni o‘rganishi shart. Chunki naqsh bu amaliy san’atning asosini tashkil qiladi. Mis kandakorligi san’ati ham o‘zining naqshlari bilan boshqa san’at turlaridan ajralib turadi. Demak, darsning amaliy jarayoni mis kandakorlikda ishlatiladigan naqshlarni o‘rgatish bilan boshlanadi. O‘qituvchi auditoriya doskasida naqshlarini birma-bir chizib ko‘rsatganidan keyin, talabalar o‘zlarining daftarlarida ishga kirishadi. Bu jarayon oddiydan murakkab qarab olib boriladi. Dars davomida har bir talabaga alohida e’tibor qaratiladi, uning qilayotgan ishi o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi. O‘qituvchi har bir talabaning ish daftariga namuna chizib bersa va asosiy xatosini tushuntirib ko‘rsatsa juda yaxshi samara beradi. Talabaning o‘zlashtirishiga qarab vazifani murakkablashtirish mumkin, aksincha qiynalayotganlarga esa qaytib tushuntirish ishlari olib boriladi.

Amaliy darslar davomida talabalarga auditoriya doskasiga naqshlarni chizish taklif etiladi. Buning afzalligi shundaki, talaba o‘zining doskada ishlash qobiliyatini rivojlantirsa, o‘tirgan talabalar uning yutuq va kamchiligini topishga harakat qiladi. Mis kandakorlik naqshlarini o‘rgatib bo‘lgandan so‘ng, keyingi darslarda shu o‘rgangan naqshlarni metal parchasida o‘yish bosqichi boshlanadi. Bu bosqich eng murakkab bosqich hisoblanadi. Chunki unda talaba uchun noodatiy: po‘lat qalam, bolg‘acha va mumli dastgoh kabi ish qurollari ishlatiladi. Bunday ish qurollarini birinchi bor qo‘llariga olayotganligini bilib, o‘qituvchi har birini qaysi qo‘lda qanday ushlashini nafaqat tushuntirib, balki har bir talabaga individual ushlatib ko‘rsatadi. Metalda naqshlarni o‘yish jarayoni o‘qituvchi tomonidan bajarilib ko‘rsatiladi. Shundan keyingina talabalar o‘zlarining ish qurollarini qo‘llariga olib ishga kirishadi. Dars davomida o‘qituvchi har bir talabaning yoniga borib, uning ikki qo‘lidan ushlab ish qurollarini to‘g‘ri ushlashini va ishlatishini tushuntirsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Metalga ishlov berish jarayoni oddiy to‘g‘ri chiziq o‘yishdan boshlanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki xalq amaliy san’atining turi bo‘lmish kandakorlik bilan tanishish hayotdagi va san’atdagi go‘zallikni tushuna bilishga yo‘naltirilgan, tabiat va vatanga bo‘lgan muhabbatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazish jarayonida o‘qituvchi asosiy e’tiborni kandakorlik asarlaridagi go‘zallikni idrok qilishga ya’ni ularning har bir gullardagi ma’noni o‘qiy olishga qaratishi kerak. Mis kandakorlik san’atining juda murakkab va sabr-toqatlilikni talab qilishiga qaramay, qanchalik betakror va ajoyib san’at asarlarini yaratish mumkinligini yoshlarga yetkazib bilish o‘qituvchining asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Fikrlarimizning isboti sifatida oliy o‘quv yurti kasb ta’limi amaliy san’at ta’lim yo‘nalishida mis kandakorligi darslaridan namuna keltirishni lozim topdik.

https://buxdu.uz

Adabiyotlar:

1. Musinova, Aziza The development of professional skills in copper embosing lessons. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol 7.12, (2019).

2. Авлиякулова, Н. М., Остонова, Г.Р., Ибадуллаева, Ш.И., & Мусинова, А. С. (2021). Роль культуры и искусства в подготовке будущих учителей к творческой деятельности. // European science, (2 (58)), 95-97.

3. Sadikovna, Musinova Aziza. Decorative and applied art in the leisure of young people. // Web of Teachers: Inderscience Research, 2.4 (2024): 277-281.

4. Мусинова, Азиза Садиковна. Развитие художественно-творческих способностей на основе изучения и освоения различных техник и материалов. // Молодой ученый, 11 (2016): 1612-1615.

5. MB, S. The Significance Of Decorative-Applied Art In The Educational Process Of Higher Education. // Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 27.1 (2021): 3162-3171.

https://buxdu.uz

TALABALARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA ME’MORIY BEZAKLARIDAGI GIRIH NAQSHLARNI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Xudoyberdiyeva Xulkar Zoxid qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
1-bosqich tayanch doktoranti

Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi me’morchilik obidalarida murakkab shakldagi gumbazlar barpo etilganligi, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida bunyod etilgan Go’ri Amir maqbarasining tarixi va girih naqshlarning geometrik tahlili yoritilgan. Shuningdek, Go’ri Amir maqbarasi gumbazning ichki bezaklari haqida ma’lumotlar ham keltirilgan.

Kalit so’zlar: *me’morchilik, naqsh, geometriya, girix, beshburchak, yulduz.*

ЗНАЧИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ УЗОРНЫХ ОРНАМЕНТОВ В АРХИТЕКТУРНЫХ УКРАШЕНИЯХ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

В данной статье рассматривается строительство куполов сложной формы в архитектурных памятниках Центральной Азии, освещается история мавзолея Гур-Эмир, возведённого в эпоху Сахибкирана Амира Тимура и Тимуридов, а также приводится геометрический анализ узорных орнаментов. Кроме того, представлены сведения о внутреннем убранстве купола мавзолея Гур-Эмир.

Ключевые слова: *архитектура, орнамент, геометрия, узор, пятиугольник, звезда.*

THE IMPORTANCE OF STUDYING GIRIH PATTERNS IN ARCHITECTURAL DECORATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' THINKING

This article discusses the construction of complex-shaped domes in architectural monuments of Central Asia, focusing on the history of the Guri Amir Mausoleum built during the reign of the Great Amir Timur and the Timurids, as well as the geometric analysis of the decorative patterns. Additionally, the article provides information about the interior decorations of the dome of the Guri Amir Mausoleum.

Keywords: *architecture, pattern, geometry, grihs, pentagon, star.*

Kirish. Hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyani jahon standartlari talab darajasida bo`lishiga alohida e'tibor berilmoqda. Bu ta'lim – tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talabi darajasiga ko`tarish, kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo qilish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishni talab etadi.

Oliy ta’lim tizimida tasviriy va amaliy san’at fanlaridan olib borilayotgan o`quv mashg‘ulotlari bo`lajak muallimlarni har tomonlama yetuk, jahon andozasiga mos va raqobatlasha oladigan mutaxassislar qilib tayyorlashga, shuningdek, hozirgi zamon talab darajasiga javob bera oladigan darajada tarbiyalashda muhim o`rinni egallaydi. Respublikamizning kelajagini barpo qiluvchi yosh avlodga hozirgi zamon fanining yangiliklarini, uning murakkab qirralarini o’rgatish bilan bir qatorda o’tmish merosimizni chuqur o’rganishga imkoniyat yaratadi.

O‘rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi Abu Nasr Farobiy (873 – 950) o‘qituvchi haqida gapirib, *“O‘qituvchi aql– farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘liq va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur. O‘qituvchi faqat o‘z fani bilangina shug‘ullanib qolmay, balki o‘z bilimlarini o‘z o‘quvchilariga ham berishi, bunday mashaqqatli mehnatdan charchashni bilmasligi lozim”, degan edi.*

Shuningdek, bu sohada talabalarning tafakkurini rivojlantirishda me’moriy bezaklaridagi girih naqshlarni o’rganish muhim ahamiyatni kasb etadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Tafakkur narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishidir. Tafakkurni voqelikni umumlashtirilgan va vositalangan aks ettirish sifatida ta’riflash mumkin. Voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish birgina odam va zamondoshlarining emas, balki, o‘tmish avlodlarining ham tajribasini qayta ishlab chiqish natijasidir. Bu tajriba til yordamida og‘zaki va yozma nutqda (o‘qituvchilar ma’ruzalarida, kitob, darsliklarda va h.k.) ifodalangan. Shuning uchun tafakkur ko‘plab odamlar bilimlarini umumlashtiradi.

https://buxdu.uz

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismli va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi. Fazoviy tafakkur deganda narsa va hodisalarning fazoda ratsional joylashishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkkab bog’lanishlarini obyektiv ravishda aks ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi. U insonning fazoviy tasavvurlari, xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy boqliq holda namoyon bo’ladi [7].

Tarixiy obidalarimiz me’moriy bezaklaridagi naqshlar o’z davrining ko’plab ijtimoiy- siyosiy, ta’limga oid qarashlarini ifoda etishi, millatning orzu-umidlarini gavdalantirgani bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, murakkab handasiy naqsh elementlarini o’rganish va geometriya asosida tahlil etish orqali naqshlarda nafaqat me’moriy bezak maqsadini balki, ijodiy ish jarayonida mehnat qilgan usta-hunarmandlar haqidagi ma’lumotlar, joy nomlari, hududning iqlimi va sharoiti, astronomik kuzatishlar, hattoki, kashfiyotlarni ham ko’rishimiz mumkin. Tasviriy va amaliy san’at, me’morchilik fanlarini o’qitishda talabalar me’moriy obidalardagi naqshlarni geometrik qonunlar asosida tahlil etish orqali bezakdagi geometrik shakllarning tuzlishi, girihlarni yasash uchun yoylar va aylanalarni teng bo’laklarga bo’lish, naqshlarning tugal ko’rinishini fazoviy tafakkur qilish orqali bezak yechimlarini hal etishga erishadilar. Bu esa talabalarda naqsh kompozitsiyalarini tuzishga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy va amaliy jihatdan yordam beradi.

Muhokama. Naqsh (arabcha - tasvir, gul) - qismlari (taqsimlari) muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo‘ladigan handasiy shakllar, o‘simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak (gul) hisoblanadi.

Naqsh - murakkab badiiy tuzilishga ega bo’lib, uni hosil qilish uchun turli xildagi usullar qo’llaniladi. Bularga – rang, faktura va kompozitsiyaning matematik asosi, ritm, simmetriya, naqsh chiziqlarining grafik ekspressiyasi, egiluvchanligi, ravonligi, ko’p qirraligi, burchakliligi, o’ymakorlik ishlaridagi plastikasi (go’zal, mayin, muloyim, nafis harakati), tanlangan tasvirlarning yaqqolligi va badiiyligi, chizilgan gul va novdalarning egilish go’zalligi, barglarning naqshindorligi kiradi.

Geometrik naqsh-girihlar asosida aylanalar birlashmasidan iborat bo’lib, unda to’g’ri chiziqlarning ma’lum tartibda birlashishi natijasida tugunlar hosil bo’ladi. Aylanalarni kerakli teng bo’laklarga bo’lib, geometrik naqshlar hosil qilish mumkin. Buning uchun aylanalarni teng bo’laklarga ajratilgan nuqtalarni, aylanalarni katta kichikligini o’zgartirib, ya’ni markazi bilan birlashtirib, girih hosil qiluvchi to’g’ri chiziqlar kombinatsiyalar tanlanadi.

Girih fors tilidan olingan bo’lib, muammo, tugun, chigal degan ma’noni anglatadi va u murakkab handasiy naqsh hisoblanadi. Handasiy naqshlar me’morlik va badiiy hunarmandchilikda keng ishlatiladi. Naqshning asosi uchburchak, to‘rtburchak, murabba, aylana va yoy shaklli taqsimlardan tashkil topadi.

Girih qat’iy qonuniyatga ega murakkab naqshdir. Har bir girih handasiy (geometrik) qonuniyatlar asosida vujudga keladi. Handasiy naqsh Markaziy Osiyo va yaqin sharq mamlakatlarida juda keng tarqalgan. [5].

Geometrik naqshlar simmetriya, assimetriya, davriy takrorlanish, mutanosiblik qonunlari asosida quriladi. Qadim zamondagi ustalar qurgan inshootlarda yer qimirlashiga bardoshli va chidamli bo’lgan aylanish sirtlarini tanlaganlar. Avvalo, ular bu sirtlarning geometrik xususiyatlarini o’rganib, bino yopilmlarida, mehroblarida, gumbazlarida ishlatishgan.

Markaziy Osiyo me’morchiligida XI-XII asrlardan boshlab sirtiga sir yugurtirilgan maxsus g’ishtchalar-koshinlar yoki pishirilgan loy-parchin ishlatila boshlangan. Markaziy Osiyo me’morchiligida parchin (mayolika), koshin va koshin tayyorlash san’ati keng qo’llanila boshlangan. Biroq, sirlangan sopol me’morchilikda XI-XII asrlarda yuzaga kelganini anglatmaydi chunki shunday material bo‘laklari Tuproqqal’a (m.avv. I-m. VI asrlar) va boshqa qadimiy yodgorliklarda topilganligi bundan dalolat beradi.

Me’morchilikda ishlatiladigan sirlangan sopol asosan uch turdan iborat. Birinchisi parchin, boshqacha qilib aytganda - mayolika.

Uning ikki turi mavjud bo’lib, birinchisi o‘yma va ikkinchisi silliq sirtlidir. Parchinning ikkinchi ko’rinishi silliq sirtlisi hisoblanadi. Uni tayyorlash uchun loydan pardozlanadigan bo’lak tayyorlanib, mineral bo’yoqlar bilan naqsh tasviri tushirilgan. So’ngra loy pishirib olingan. Keyin turli rangda sirlangan loy parchasi takroran pishirib olingan. Parchinlar, ayniqsa, XII-XIV asrlarda keng qo’llanilgan.

Sirlangan sopolning ikkinchi ko’rinishi bu - koshin. Ular sodda ko’rinishda bo’lib, bir tomoniga sir yugurtirilgan pishiq g’ishtdan iboratdir. Koshinlardan ishlangan islimiy yoki xattotiy naqshlar mozaika deb ataladi.

Tahlil. Mozaika (fransuzcha masaique - muzalarga bag‘ishlangan) bu - bir xil yoki turli xomashyo (koshin, tosh, yogoch, marmar, metall va boshqalar) bo‘laklaridan ishlangan tasvir, naqshdir. Mahobatli (monumental) bezak san’atining asosiy turi bo’lib, u asosan, binolar, amaliy san’at asarlarini bezashda,

https://buxdu.uz

dastgoh. san’ati asarlari yaratishda qo‘llanadi. Ba’zida koshinlardan ishlangan katta namoyon (panno) larni ham mozaika deb nomlashadi. Koshinlar va koshinburushlardan plita-taxtalar tayyorlanadigan maxsus maydonchalar taxbin deb ataladi. Minora, gumbaz, ravoq, toq kabi shakli tekis bo‘lmagan sirtlar uchun maxsus, o‘sha shaklga mos yoysimon taxbinlar tayyorlanadi.

Talabalarning tafakkurini rivojlantirishda Go’ri Amir maqbarasi bezaklaridagi girix naqshlarni o’rganish va tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Go’ri Amir maqbarasining qurilishi Amir Temur buyru‘giga asosan 1403-yilda boshlanib, Mirzo Ulug‘bek davrida tugallangan hamda temuriylar xilxonasiga aylantirilgan. (1-rasm). Maqbara, o‘rta asrda Samarqandining janubiy-sharqiy qismida, Temurning nabirasi Muhammad Sulton tomonidan, XIV asrning oxirida bino qildirgan majmua qoshida tiklangan. [1].

1-rasm. Amir Temur maqbarasi, Go‘ri Amir(XIV asr oxiri -1405 y.)

Markaziy Osiyodagi me’morchilik obidalarida murakkab shakldagi gumbazlar barpo etilganligini Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida bunyod etilgan Go’ri Amir maqbarasining tarixi va girih naqshlarning geometrik tahlili misolida keltiramiz.

Go’ri Amir maqbarasi jahonda mashhur va Markaziy Osiyo me’morchiligining noyob asari sifaitda e’tirof etiladi. Maqbara asli “Go’ri-Mir” deb nomlangan. Bunga sabab, bu yerda Sohibqiron Amir Temurning ustozi, piri va rahnamosi Mir Said Baraka hazratlarining dafn etilganligidir. ”Go’ri-Mir” - forschada “Mirning qabri” ma’nosini beradi. Maqbara qurilishi 1403-yilda Amir Temurning vorisi Muhammad Sultonning vafot etish munosabati bilan boshlangan. Qurilish ishlari Mirzo Ulug’bek hukmronligi davrida tugallangan. Maqbaraga Amir Temur, Temuriylar sulolasiga mansub kishilar o’g’illari Umarshayh, Mironshoh va Shohrux, nabiralari Muhammad Sulton, Mirzo Ulug’bek dafn etilgan. Maqbara tashqi peshtoq darvozasining tepasidagi koshinlariga uni qurgan usta me’mor- usta „Muhammad binni Mahmud al-banno Is-faxoniy“ ismi sharifi yozilgan.

1424-yilda Mirzo Ulug‘bek tomonidan maqbara sahniga qabrtoshlar qo‘yilib, atrofi nafis marmar toshdan qilingan panjara bilan o‘raldi va ko‘k gumbazli galeriya qurilib, ziyoratxonaga Sharq tomondan kirilishi ta’minlandi.

Maqbara hajmi, o’lchovlarining g’oyat aniqligi, shaklning oddiyligi, tashqi va ichki bezaklarining juda boyligi maqbara arxitekturasining mahobatli va ulug’vorligini ko’rsatadi. Go’ri Amir maqbarasining ichki ko’rinishi to’rtburchak, tashqi ko’rinishi sakkiz tomonli prizma shaklida. Maqbaraning tashqi tomonini barpo etishda me’morlar maqbara gumbaziga katta ahamiyat berishgan. Gumbazni silindr shaklidagi poygumbaz ko’tarib turadi. Gumbaz ostki silindr pastgi qismining diametri 15 metr, balandligi 12,5 metrdir. Gumbaz 64 qobirg’adan iborat. Gumbaz baland doira asosiga o’rnatilgan. Gumbazning usti zangori rangli nafis koshinlar bilan qoplangan. Gumbazda havo rang ko’proq ishlatilgan. Shuning uchun bu rang gumbazning egri chiziqli qobiriqlarida, quyosh nuri orqali tovlanib turadi.

Natijalar. Ma’lumki, XIV –XVI asrlarda Samarqand saroy devorlari monumental naqshlar bilan bezatilgan. Bu davrlarda yirik masshtabli geometrik naqshlar me’moriy bezaklarda ko’p qo’llanilgan. Masjid va madrasalarning interyerlari markazi ko’p qirrali yulduzsimon naqshlar bilan bezatilgan [2].

Qadimgi pifagorchilar ham besh burchakli yulduzni muqaddas simvol deb hisoblaganlar. Besh burchak esa bu – tomonlarining soni diagonallari soniga teng bo’lgan yagona muntazam ko’pburchakdir.

https://buxdu.uz

Yulduzsimon beshburchak shunisi bilan qiziqki, birinchi navbatda, bu shaklni tashkil etuvchi beshta chiziqning har biri, boshqasini oltin kesim nisbatiga asosan kesib o’tadi [4].

Shuningdek, geometrik naqsh unsurlarining ramziy ma’nolari bo’yicha besh burchak-tabiat, besh qirrali yulduz-hayotning qisqaligini, besh kunlik dunyo, islomning besh ustuni ma’nolarini anglatadi. Me’moriy yodgorliklardagi girihlarni yasash, ko’pincha ancha mashaqqatli mehnatni talab qilgan. Ustalar geometrik sirtlar va ularning sirtida geometrik naqshlarni faqatgina estetik ko’rinishlar bilan chegaralab qolmay, tabiatdagi yer qimirlashlari va yilning turli fasllardagi ob-havo o’zgarishlariga bardosh bera oladigan darajada mustahkamligini ham ta’minlaganlar. Muhammad Sulton majmuasidan faqat peshtoqigina saqlangan. Bu peshtoq koshinlar bilan bezatilgan. Me’moriy majmuaning g’ishtin ustunlar bezagida geometrik naqshlarning nafis qilib ishlanganligini ko’rish mumkin [3].

Masalan: ushbu naqsh bezaklarni, shuningdek, girihlarni yasash prinsiplarini sharqshunos olim professor L.I.Rempel o’zining “Архитектурный орнамент Узбекистана” nomli kitobida chizmalar orqali tahlil qilib bergan (2-rasm).



2-rasm. Go’ri Amir maqbarasiga ishlangan girih tasviri.
(Muhammad Sulton majmuasi), XIV asr oxiri, Samarqand

Go’ri Amir maqbarasiga ishlangan girih tasvirini tahlil qiladigan bo’lsak, yuqoridagi 2-rasmda maqbaraning old fasadi tomondagi naqsh bezagi girih geometrik shakllar to’plamidan iboratdir. Ushbu girihning asosida o’n burchakli yulduz shakli yotadi. Uning ma’lum bir geometrik nuqtalar joyidan takrorlanishi va yulduzlar kesishishi natijasida kerakli girihlar hosil bo’ladi.

Ularning kelib chiqishida to’rtta shakl turidan foydalanilgan va kerakli naqshni oson yaratilganligini ko’rishimiz mumkin.

Girih tugunlar hosil qiluvchi to`rlarda yasalgan. Girih yechimini topish usuli dastlab girihdagi asosiy figurani topib uning to`rdagi o`rnini aniq belgilashdan iborat. Markaziy Osiyo yodgorliklaridagi geometrik naqshlar, asosan, aylana geometriyasiga asoslangandir, ya’ni sirkul (pargor) va chizg`ich yordamida girih yechimi topiladi. Uning asosida aylanani teng qismlarga bo`lish, unda to`r, shakl, va o’qlar hosil qilish yotadi.

O’rta Osiyolik atoqli matematik va astranom Jamshid ibn Mas'ud ibn Mahmud G’iyosiddin al-Koshiyning XV asrda yozilgan “Miftax al-xisab” ((forsiyda yozilgan) “Arifmetika kaliti”) nomli asri olimning asosiy asari bo‘lib, arifmetika va algebra bo‘yicha batafsil ma’lumotlar bayonotiga bag‘ishlangan. Kitobining bino va imoratlarni o’lchash to’g’risidagi uch bo’limdan iborat maxsus bobida, me’morlik nazariyasiga oid masalalar yoritilgan. Kitobning birinchi bo’limi toq va ravoqlarni o’lchash, ikkinchi bo’limi esa qubba- gumbazlaring shakli va ularni o’lchash tartibiga bag’ishlangan masalalar yoritilgan [6].

Go’ri Amir maqbarasi gumbazning ichki bezaklari o‘zining rang-barangligi va nozikligi bilan ajralib turadi. Gumbazning ichki qismini bezashda ustalar o’simliksimon islimiy naqshlar va naqsh go’zalligiga alohida e’tibor berilgan, bu esa yuksak san'at va me'morchilik uslubining namunasi sifatida saqlanib qolgan. Go’ri Amir maqbarasi gumbazning ichki bezaklaridagi naqshni restavratsiya qilingan qismi ko‘rsatilgan. (3-rasm).

https://buxdu.uz



3-rasm. Go’ri Amir maqbarasi gumbazning ichki bezaklaridagi naqsh tasviri

Xulosa. Go’ri Amir maqbarasi gumbazning ichki bezaklaridagi naqshlarni tahlil qiladigan bo’lsak, gumbazning ichki markazida tasvirlangan o‘n ikki burchakli yulduz, ko‘p yaproqli gul va nurlari bilan taraladigan naqshinkor shakllar gumbazning ichki yuzasini ajoyib tarzda bezatgan. Ko‘k rangli kontur, ya’ni detallari umumiy qiyofasini ifodalovchi ko‘rinish, abris, chiziq hosil bo’lgan naqsh elementlarni o‘rab turadi. Ularning orasidagi oq zamin (fon), ko‘k spirallar ya’ni muayyan nuqta atrofida ko‘p marta o‘ralib, unga borgan sari yaqinlashadigan va undan uzoqlashadigan yassi egri chiziqlar asosidagi naqshlar bilan bezatilgan va nozik qora rang bo‘yoq bilan konturlangan. Bu gumbazning ichki yuzasidagi nozik va murakkab bezaklarni tasvirlaydi va me’morlar naqsh kompozitsiyasining yechimlariga alohida e’tibor qaratganliklaridan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo me’moriy bezaklaridagi girix naqshlarning rang gammalari asosini qizil va ko’k bo’yoqlar, to’q havo rang, sarg’ish, ko’kimtir, pushti rangga xos gammalar tashkil etadi. Ajdodlarimiz yaratgan Markaziy Osiyo me’moriy bezaklaridagi girix naqshlarni yosh avlodga o’rgatish asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Tasviriy va amaliy san’at fanlari ma’naviy sog’lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga egadir. Chunki yoshlarimiz aynan tasviriy va amaliy san’at darslari orqali san’at va san’atkor olami, san’atning ijtimoiy vazifasi, o’ziga xos xususiyatlari, amaliy san’at va me’morchilikdagi go’zalliklarni ko’ra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va muhofaza qilishni o’rganib boradilar.

Adabiyotlar:

1. Zoxidov P. Sh. ”Me’mor olami”. T. “Qomuslar bosh tahririyati”. 1996. – 77-78 bet.
2. Zohidov P. Sh, “Zeb ichra ziynat”. T. “G’.G’ulom nomidagi adabiyot va nashriyoti”. 1985. -107-109 bet.
3. Ремпель Л.И. «Архитектурный орнамент Узбекистана». Т. Государственное издательство художественной литературы УзССР. 1961. - С. 392-393.
4. Афонина С.И. «Математика ва гўзаллик». Т. «Ўқитувчи». 1987. – 66-190 бет.
5. Bositxonov Z. “Handasiy naqsh(girix)larning yechimlari. T. “Ochiq Jamiyati Instituti Ko’mak jamg’armasining o’zbek vakolatxonasi”. 1998. - 6 bet.
6. Рахматов Ж., Пирназаров Ш. “Қадимги Марказий Осиё меъморчилик ёдгорликларини геометрия асосида ўрганиш”. Сборник материалов, XV Международной научно-практической интернет-конференции «Гуманитарное пространство науки: опыт и перспективы». г. Переяслав. Выпуск 15, 23 января 2018 г. – С. 151-156.
7. G‘oziev E.G. “Umumiy psixologiya”. T. “Universitet”. 2002. 2-kitob. -90-124 bet.

https://buxdu.uz

TALABALARNING XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID IJTIMOIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Esanova Sarvinoz Uktamovna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi
salohiddin8380@gmail.com

Muallif mazkur maqolada talabalar uchun xalq hunarmandchiligi orqali ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslari tahlil qilingan. Xalq hunarmandchiligi nafaqat madaniy merosni saqlash, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Maqolada xalq hunarmandchiligi ta’lim jarayoniga qanday integratsiya qilinishi va uning samaralari hamda metodik yondashuvlar haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *xalq hunarmandchiligi, talabalar, ijtimoiy kompetensiyalar, tarbiya, ta’lim, san’at, yoshlar, madaniyat.*

“ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ НАРОДНОГО РЕМЕСЛА”

В данной статье анализируются методические основы развития социальных компетенций у студентов через народные ремесла. Народные ремесла важны не только для сохранения культурного наследия, но и для развития личных и социальных компетенций. В статье рассмотрено, как народные ремесла могут быть интегрированы в образовательный процесс и их результаты, а также методические подходы.

Ключевые слова: *народные промыслы, учащиеся, социальные компетенции, воспитание, образование, искусство, молодежь, культура.*

“TECHNOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL COMPETENCE IN TRADITIONAL HANDICRAFTS”

This article analyzes the methodological foundations for developing social competencies through folk crafts for students. Folk crafts are important not only for preserving cultural heritage but also for enhancing personal and social competencies. The article highlights how folk crafts can be integrated into the educational process and their results, as well as methodological approaches.

Keywords: *folk crafts, students, social competencies, upbringing, education, art, youth, culture.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida shaxsning nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy kompetensiyalari ham rivojlanishi zarur. Bu masala dunyo bo‘yicha ta’lim metodologiyasida yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy kompetensiya – bu jamiyatda samarali muloqot qilish, jamoada ishlash, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, xalq hunarmandchiligi nafaqat madaniy merosni saqlash, balki talabalarni jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G‘ulomov, M. (2020). Xalq hunarmandchiligi va uning ta’limdagi o‘rni. O‘zbekiston Pedagogika Journal, [3].

G‘ulomov (2020) xalq hunarmandchiligining ta’lim jarayoniga integratsiyasini o‘rganib, uning nafaqat madaniy merosni saqlashda, balki talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhimligini ta’kidladi. Uning fikricha, xalq hunarmandchiligi o‘quvchilarga kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash va mas’uliyatni his qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanishi haqida ma’lumot berilgan.

Saidova, N. (2018). Xalq hunarmandchiligini ta’limda qo‘llashning zamonaviy yondashuvlari. Ta’limda Innovatsiyalar, [2].

Saidova (2018) xalq hunarmandchiligini ta’lim tizimida ishlatishning innovatsion usullarini tahlil qilgan. U xalq hunarmandchiligi orqali talabalar orasida o‘zaro muloqot, jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatgan. Tadqiqotda xalq hunarmandchiligini ta’lim jarayonida samarali integratsiya qilishning imkoniyatlari hamda uning ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rni o‘rganilgan.

https://buxdu.uz

Tursunov, A. (2019). O‘zbekiston ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligini rivojlantirish. O‘zbekiston Pedagogik Tadqiqotlari, [1].

Tursunov (2019) O‘zbekistonda xalq hunarmandchiligini ta’lim tizimiga integratsiya qilishning dolzarb ahamiyatini ta’kidladi. Uning fikriga ko‘ra, xalq hunarmandchiligini ta’limda o‘rganish, talabalar o‘rtasida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yozuvchi, xalq hunarmandchiligining zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirilishi, o‘quvchilarning jamoaviy faoliyatini oshiradi va shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi deb hisoblaydi.

Rahmatov, B. (2021). Xalq hunarmandchiligi asosida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari. Ta’lim va Jamiyat, [4].

Rahmatov (2021) xalq hunarmandchiligini o‘rganish va uni ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda qo‘llashning samarali metodlarini tahlil qilgan. U xalq hunarmandchiligi yordamida talabalarda o‘zaro muloqot, hamkorlikda ishlash va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish mumkinligini ko‘rsatgan. Bu metodlar talabalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda katta yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalq hunarmandchiligi orqali ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda bir nechta metodologik yondashuvlar mavjud. Ushbu jarayonni o‘rganishda quyidagi asosiy metodlar qo‘llaniladi:

1. Integratsion metod.

Xalq hunarmandchiligi turli fanlar bilan integratsiya qilinadi. Masalan, san’at va dizayn fanlarida milliy naqshlar va hunarmandchilik texnikalarini o‘rganish, tarix va madaniyat fanlarida esa hunarmandchilikning rivojlanish tarixini tahlil qilish. Jumladan fanlararo bog‘liqlik – xalq hunarmandchiligi tarix, matematika, san’at, iqtisodiyot va texnologiya kabi fanlar bilan bog‘lanadi. Masalan, milliy gilam to‘qish san’ati orqali geometriya tushunchalarini mustahkamlash mumkin, bunda o‘quvchilar nafaqat nazariy bilim oladi, balki hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash orqali amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lib, hunarmandchilik an’analarini o‘rganish orqali milliy o‘zlik va ijodiy tafakkur rivojlanadi. Texnologiya darslarida hunarmandchilik materiallari bilan ishlash (yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik, kulolchilik)ni o‘rganishsa, matematika darslarida – o‘lchov birliklari, simmetriya va proporsiyalarni xalq hunarmandchiligi namunalari asosida o‘rganadi.Tarix darslarida -hunarmandchilikning turli davrlarda qanday rivojlanganini o‘rganishsa, san’at darslarida -milliy naqshlar va ularning kompozitsiyasini tahlil qilishadi.

2. Amaliy loyihalar va jamoaviy ishlar.

Talabalar xalq hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha loyihalarda ishtirok etish orqali ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradilar. Bu jamoaviy ishlash, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, va muammolarni hal qilishni o‘rganish imkonini beradi. Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar hunarmandchilik mahsulotlarini o‘z qo‘llari bilan tayyorlashadi. Bu ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirib, ijodiy yondashuvini shakllantiradi.

Amaliy ishlarning asosiy turlari:

Kulolchilik – loydan idishlar, suvenirlar yasash.

Kashtachilik – milliy naqshlarni matoga tushirish.

Yog‘och o‘ymakorligi – eshik, sandiq va boshqa yog‘och buyumlarni bezash.

Metall ishlov berish – mis va bronzadan milliy bezaklar tayyorlash.

G‘ijim san’ati (papye-mashe) – qog‘oz va elim yordamida hunarmandchilik buyumlarini yaratish.

Amaliy ishlarning afzalliklari:

Talabalarning ijodiy va texnik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Madaniy meros va an’analarni o‘rganishga yordam beradi.

Mustaqil ishlash va innovatsion yondashuv shakllanadi.

Jamoaviy ishlar.

Jamoaviy ishlar o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Jamoaviy ishlarning asosiy shakllari:

Ustaxona tashkil qilish – talabalar guruhi bilan milliy hunarmandchilik markazlarini yaratish.

Ko‘rgazma va yarmarka – tayyor mahsulotlarni taqdim etish va sotish orqali tadbirkorlik asoslarini o‘rganish.

Ijodiy loyihalar – milliy hunarmandchilik asosida zamonaviy mahsulotlar yaratish.

Ustoz-shogird tizimi – talabalarni hunarmand ustalar bilan bog‘lash va tajriba almashish.

Mahalliy hunarmandlar bilan hamkorlik – tarixiy usullar va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirish.

Jamoaviy ishlarning afzalliklari:

O‘zaro hamkorlik va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

Milliy madaniyat va an’analar chuqurroq o‘rganiladi.

https://buxdu.uz

Tadbirkorlik va loyihalash malakalari shakllanadi.

3. Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish.

3D-modellashtirish orqali milliy naqshlarni yaratish, virtual haqiqat texnologiyalari yordamida hunarmandchilikni o‘rganish, va onlayn platformalarda hunarmandchilik mahsulotlarini targ‘ib qilish. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash

3D modellashtirish va 3D bosib chiqarish orqali milliy naqshlarni qayta yaratish

Sun’iy intellekt yordamida dizayn va rang tanlashni avtomatlashtirish VR (virtual reality) orqali hunarmandchilik mahsulotlarini onlayn taqdim etish. Zamonaviy materiallar bilan uyg‘unlik Ekologik toza va chidamli materiallardan foydalanish

Bioplastikalar va kompozit materiallarni an’anaviy hunarmandchilik buyumlariga tatbiq etish Aqlli texnologiyalar bilan integratsiya IoT (Internet of Things) texnologiyasidan foydalanib, an’anaviy mahsulotlarni aqlli qurilmalarga aylantirish

Masalan, milliy naqshli gilam ichiga smart sensorlar o‘rnatish

Elektron tijorat platformalari orqali hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarish NFT (Non-Fungible Token) va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanib, san’at asarlarini raqamlashtirish va himoyalash

Dunyo tajribasi va O‘zbekiston misolidagi tahlil

1. Jahon tajribasi

Germaniya, Xitoy va Yaponiya kabi mamlakatlarda xalq hunarmandchiligi ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilingan va bu mamlakatlarda talabalar ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ancha yuqori natijalarga erishilgan.

2. O‘zbekiston misolida tahlil

O‘zbekistonda xalq hunarmandchiligi ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-son ““Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni xalq hunarmandchiligini rivojlantirishni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlashga asos bo‘ldi.

Xulosa. Xalq hunarmandchiligi orqali talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish samarali metodlardan biridir. Ta’lim jarayonida uning integratsiyasi nafaqat madaniy merosni saqlash, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Dunyo tajribasi va O‘zbekiston misolida bu yo‘nalishning ijtimoiy rivojlanish uchun muhimligi ta’kidlanadi. Kelajakda bu sohada qo‘shimcha tadqiqotlar va amaliy ishlar amalga oshirilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G‘ulomov M. (2020). Xalq hunarmandchiligi va uning ta’limdagi o‘rni. O‘zbekiston Pedagogika Journal, 12(3), 45-56.

2. Saidova N. (2018). Xalq hunarmandchiligini ta’limda qo‘llashning zamonaviy yondashuvlari. Ta'limda Innovatsiyalar, 5(2), 18-27.

3. Tursunov A. (2019). O‘zbekiston ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligini rivojlantirish. O‘zbekiston Pedagogik Tadqiqotlari, 8(1), 34-42.

4. Rahmatov B. (2021). Xalq hunarmandchiligi asosida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari. Ta'lim va Jamiyat, 12(4), 66-73.

5. Sirojiddinov X. (2017). Xalq hunarmandchiligining pedagogik ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi, 3(7), 98-104.

https://buxdu.uz

INKLYUZIV TA’LIM

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QITUVCHILAR VA OTA-ONALARNING INKLYUZIV MUNOSABATLARI

Toyirova Nazokat Moxirovna,
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
n.m.toyirova@buxdu.uz

Ushbu maqolada “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar” uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish, inklyuziv ta’limda ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi munosabatlar, o‘qituvchi amal qilishi lozim bo‘lgan bolaga ijobiy munosabatning pedagogik-psixologik qoidalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, maxsus ehtiyojli bolalar, ijtimoiy integratsiya, defektolog, ijtimoiy munosabatlar, diqqat-e’tibor, xotira, avtoritar, nevrotik, psixosomatik holatdagi munosabatlar.*

ИНКЛЮЗИВНЫЕ ОТНОШЕНИЯ УЧИТЕЛЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

В данной статье освещены вопросы организации инклюзивного образования для “детей с особыми образовательными потребностями”, взаимоотношения между родителями и педагогами в инклюзивном образовании, а также педагогико-психологические правила позитивного отношения к ребёнку, которыми должен руководствоваться учитель.

Ключевые слова: *образование, дети с особыми потребностями, социальная интеграция, дефектолог, социальные отношения, внимание, память, авторитарные, невротические, психосоматические отношения.*

INCLUSIVE RELATIONSHIPS OF TEACHERS AND PARENTS IN PRIMARY EDUCATION

This article discusses the organization of inclusive education for “children with special educational needs”, the relationships between parents and educators in inclusive education, and the pedagogical and psychological principles of positive interaction with children that teachers should adhere to.

Keywords: *education, children with special needs, social integration, special education teacher, social relationships, attention, memory, authoritarian, neurotic, psychosomatic states of interaction.*

Kirish. Davlatimizning ustuvor siyosati yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga yetkazishdan iborat. Jamiyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan maxsus yordamga muhtoj bolalar va o‘smirlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, ta’lim tarbiya berish, kasb-hunarga yo‘llash, sog’lom bolalar qatoridan o‘rin olib, o‘z qobiliyati va imkoniyatlaridan foydalana oladigan inson qilib voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining bir bo‘ligi bo‘lib hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim — bu har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan yondashuvdir. Bu jarayonda ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega, chunki ularning birgalikdagi sa’y-harakatlari bolaning rivojlanishi va ta’lim olish jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Inklyuziv ta’lim tizimida ota-onalar nafaqat bolaning birinchi va eng muhim tarbiyachilari, balki pedagoglar uchun ham asosiy hamkorlar hisoblanadi. Shu sababli, ular o‘rtasidagi ochiq, halol va samarali munosabatlar bolaning ta’lim va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimida o‘qitish o‘qituvchilardan ikki karra mas’uliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma’lumotli va malaka oshirish kurslarini o‘tab, inklyuziv ta’lim pedagogik kvalifikasiyasini olgan, o‘qituvchilargina inklyuziv sinf o‘qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o‘qituvchisi umumiy o‘rta ta’lim muassasa ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda:

- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me’yorga keltirish ishlarini olib boradi;

https://buxdu.uz

- bolalarning faolligini, ta’lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo‘llaydi;
- diqqat-e’tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchkovlik va boshqa qobiliyatlarini tarbiyalaydi;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Inklyuziv ta’lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o‘rin egallaydi. Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o‘qituvchi defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog‘lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida ish olib borishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko‘rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi. Inklyuziv ta’lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim. Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilklarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Odatda ko‘pchilik ota-onalar va pedagoglar bolalar tarbiyasi bilan munosabatlarda eng muhim didaktik talablarni bilmaydilar yoki talablarga rioya qilmaydilar. Shuning uchun ham ko‘p hollarda bola xulq-atvorida ko‘plab salbiy xususiyatlar yuzaga keladi. Ayniqsa imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim - tarbiyasi yanada ko‘proq murakkablik tug‘diradi.

Boladagi psixofizik buzilishlarni aniqlash, maxsus pedagogikaning zamonaviy tendensiyasi sifatida ilk korreksion pedagogik ishda mutaxassis-defektolog hamda oilaning rolini to‘g‘ri anglashni talab etadi. Rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga psixologik, metodik maslahat nazariyasini ishlab chiqishda juda yuqori darajada zaruriyat mavjud. Shuning uchun ham so‘nggi yillarda psixolog va defektologlar xizmatiga talab ortib bormoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalarini qo‘llab-quvvatlash, rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar bilan o‘zaro munosabat usullarini yaxshilash, bu usullarni to‘g‘ri anglash va boshqa bir qator masalalarni ham hal etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muhokama. Yuqorida aytib o‘tilganidek, nogiron farzandi bor oiladagi bola bilan ota-ona munosabati o‘ta muhim va murakkab muammoni kasb tadi. Hamma gap shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi ota-onaning tarbiyasiga va muomalasiga bog‘liq. Bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklar o‘z navbatida rivojlanishida ortda qolgan bolalarning o‘z ota-onasi bilan o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lishiga to‘sqinlik qilishi, shaxslararo muloqot usullarini shakllantirishni qiyinlashtirishi mumkin. Shuning uchun ham ko‘plab mutaxassis olimlar nogiron bolaning ijtimoiy moslashuvida oilaning roli katta ekanligini alohida ta’kidlab o‘tganlar.



Avtoritar uslubdagi munosabatlarda ota-onalar o‘zlarining shaxsiy his-tuyg‘ulari bilan yashashga intiladilar. Farzand tarbiyasida asabiy, qo‘pol tanbehlar, tarbiyaviy ishlarni olib borishda me’yoriy chegaralarning yo‘qligi, boladagi mavjud kamchilikni katta fojea sifatida qabul qilish asosida qo‘ni-qo‘shnilardan bolani bekitishga urinish, imkon qadar mutaxassislarga ham murojaat qilmaslik bilan xarakterlanadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishida avtoritar uslubdagi munosabatlar juda katta salbiy ta’sir etadi. Imkoniyatlarini yanada chegaralaydi, ikkilamchi nuqsonlarning chuqurlashib ketishiga, ijtimoiy jamiyaga moslashuvining qiyinlashuviga va boshqa ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keladi.

Nevrotik holatdagi munsabatlar bolani tashqi muhit muammolaridan himoya qilish, doimo xavotirli kayfiyat, bolaga haddan tashqari ortiqcha g‘amxo‘rlik qilish bilan xarakteralanadi. Oiladagi nuqsonni

https://buxdu.uz

bartaraf etishga umidsizlik bilan qaraydilar, ishonchsizlik hosil qiladilar. Bunday holatdagi munosabatlar imkoniyati cheklangan bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat qilish malakalarining shakllanmasligiga yoki juda kech shakllanishiga, ijtimoiy hayotga moslashuvining qiyinlashuviga, boqimandalik kayfiyatida voyaga yetishiga olib keladi. Bunday holatdagi munosabatlar imkoniyati cheklangan bolalar kelajak hayotiga salbiy ta’sir etmasdan qolmaydi.

Psixosomatik holatdagi munosabatlarda bolaga har ikkala nevrotik va avtoritar uslubda munosabat ko‘rsatiladi. Ya’ni, ota-ona nogiron bolaga ham haddan tashqari g‘amxo‘rlik qiladi, ham bolaning imkoniyatlarini chegaralaydi. Bunday munosabat bolaning boshqalarga qaramligini ortishiga, ijtimoiy jamiyat haqidagi tasavvurlarining yanada torayib borishiga, nuqsonlarining chuqurlashib ketishiga olib keladi.

Me’yordagi ijobiy munosabatda ota-ona nogiron farzandiga avvalo shaxs sifatida qaraydi. Uning kamchiligidan uyalishi, qo‘rqish, hadiksirash hissida yashamaydi. Mutaxassislar bilan doimiy hamkorlik o‘rnatishda intiladi. Mutaxassislar maslahatlari va ko‘rsatmalariga amal qiladilar. Farzandining kelajagiga ishonch bilan qaraydi. Bunday holatdagi munosabat asosida boladagi mavjud nuqsonni erta aniqlash, samarali korreksiyalash va ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish imkoniyatlarini paydo qiladi. Bolaning o‘z-o‘ziga xizmat qilish malakalari yuqori darajada rivojlanadi, ijtimoiy hayotga erta va imkon qadar to‘laqonli moslashadilar.

Tahlil. Bundan tashqari imkoniyati cheklangan bola tarbiyalanayotgan oila ko‘p hollarda psixotravmatik holatda bo‘lishi kuzatiladi.

Ayrim ota-onalar maslahatchi mutaxassislarga nisbatan ishonchsizlik bilan munosabatda bo‘lib, turli xil ilmiy va tibbiy markazlarga murojaat etib, qo‘yilgan tashxisni qabul qilsalarda, bolaning rivojlanish imkoniyatlariga yuqori talabda ishonch bilan qaraydilar.

Ko‘pchilik ota-onalar farzandlarining umumta’lim maktablariga qatnagunlaricha mavjud nuqsonlarini anglamaydilar yoki e’tibor bermaydilar. Bola maktabga chiqib o‘zlashtirishida tengdoshlaridan orqada qola boshlagachgina muammoning asl sababi ustida bosh qotiradilar. Tabiiyki, ushbu bolaga maktabgacha yoshida maxsus korreksion yordam ko‘rsatilmagan. Natijada bolaning imkoniyatlari yanada chegaralanadi, korreksion ishning samaradorligi pasayib ketishiga olib keladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, bu munosabatlardagi mavjud kamchiliklarni tuzatish va oldini olish, mutaxassis va oila hamkorligini yo‘lga qo‘yish, ota-onalarning nogiron bola va uning o‘ziga xos xususiyatlari, oilada olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar mazmuni haqidagi bilimlarini oshirish, oilalardagi psixologik muhitni yaxshilash, bolaga me’yordagi ijobiy munosabat turida qarashga o‘rgatish imkoniyati cheklangan bolalarning kamchiliklarini samarali korreksiyalashga, bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga, kasb-hunar o‘rgatishga, sog‘lom tengdoshlariga tenglashtirishga, ijtimoiy jamiyatga samarali moslashtirishga umumiy qilib aytganda, inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirishga yuqori darajada ijobiy ta’sir etadi.

Natijalar. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim sharoitida o‘qitish, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e’tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning yoshlari bir xil bo‘lsada, lekin ular bir-birlariga o‘xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo‘lgan bola ta’lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o‘qituvchi bolalarning imkoniyatini e’tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta’sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali yo‘llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to‘la yo‘lga qo‘ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin.

Inklyuziv ta’limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta’limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta’minlashi lozim.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun umumiy ta’lim tizimiga tarkibiy o‘zgartirishlar kiritish muhimdir. Maxsus ta’lim umumiy ta’limning bir qismi bo‘lishiga qaramasdan, o‘zining o‘quvchilari, o‘qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta’minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta’lim tizimi amalda qo‘llanilib kelinmoqda. Barcha o‘quvchilarning talablariga javob beruvchi “Inklyuziv maktab” da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi. Islohotlar ta’lim maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo‘lishi uchun islohotlar atroflicha muhokama qilinishi va ta’lim tizimi boshqaruvchilari hamda uni amalda qo‘llovchilar tomonidan

https://buxdu.uz

ko‘rib chiqilishi kerak. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar o‘qituvchidan imkoniyati cheklangan bolalarga oiladagi ota-ona munosabatlarini, bu munosabatlarning ta’siri natijasida bola xulqidagi o‘zgarishlarni, ijobiy va salbiy munosabatlarni, ota-onalar bilan mustahkam hamkorlik qilishning hamda ota-onalar bilan ishlashning ahamiyatini angash imkonini beradi. Jamiyatimizda shunday oilalar borki ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabat ta’sirida bola xulqida murakkab ziddiyatlar yuzaga keladi. Bu holatlar ayniqsa imkoniyati cheklangan farzandlari bor oilalarda yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham maktab va oila hamkorligini to‘liq yo‘lga qo‘yish inklyuziv ta’limning zaruriy sharti hisoblanadi.

O‘qituvchi amal qilishi lozim bo‘lgan bolaga ijobiy munosabatning pedagogik-psixologik qoidalar.

• Qachonki siz imkoniyati cheklangan bola bilan suhbat qurar ekansiz, hech qachon diqqat markazingizda nogironlik tushunchasi turmasin. Ya’ni bolaga nogiron bola sifatida emas avvalo bola sifatida qarash lozim;

• Imkoniyati cheklangan bola bilan tanishganingizda albatta u bilan qo‘l berishib ko‘rishing. Chunki bu bolada o‘z-o‘ziga ishonch sizga nisbatan yaqinlik hissini shakllantiradi. Bunday vaziyatda bolaning qo‘l tutishi qiyin, protez qo‘l bo‘lsa ham, chap qo‘lini bo‘lsa ham uzatishiga muvaffaq bo‘ling;

• Ko‘rishda muammosi bo‘lgan (umumman ko‘rmaydigan) bilan uchrashganingizda kimlar borligini ayting. Agar guruhda muloqot qilsa, so‘zlashgan kishining ismini aytishni unutmang;

• Imkoniyati cheklangan bolani ham barcha bolalar qatori o‘z ismi bilan chaqirishga, o‘smir yoshida bo‘lsa katta odamga qilinadigandek munosabatda bo‘lishga har doim e’tibor qarating;

• Agar bola maxsus aravachada o‘tirsa, albatta sinf o‘quvchilariga aravachani harakatlantirish hamda xavfsizlik qoidalari bilan mukammal tanishtirish lozim;

• Muloqot qilishida muammosi bo‘lgan bola biror bir narsa yoki hodisa xususida so‘zlayotganda bardoshli bo‘ling, uning fikrini keskin bo‘lib qo‘ymang. Nima xususida so‘zlamoqchiligini anglashga harakat qiling. Bosiqlik bilan unga o‘z munosabatingizni bildiring;

• Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bola bilan muloqot qilishda unga to‘g‘ri qarab, aniq qilib so‘zlang. U sizning og‘iz artkulyasiyangizni aniq ko‘ra olsin. Mujmal bo‘lmang. Uni diqqatini tortish uchun qo‘l xarakatlaridan foydalaning, qo‘pol bo‘lmang;

• Albatta, har bir muloqot jarayonida imkoniyati cheklangan bola bilan o‘rtangizda iliq munosabat yaratish xususida bosh qotiring;

• Bolaning ichki imkoniyatlari, shaxsiy muammolari bilan qiziqing;

Uning imkoniyatlarini kengaytirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga undang.

Xulosa. Inklyuziv ta’limda ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi munosabatlar bolaning rivojlanishi va ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Ota-onalar bolaning birinchi va eng yaqin tarbiyachilari sifatida ularning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va kamchiliklarini yaxshi biladi. Pedagoglar esa professional bilim va tajribalari orqali bolalarga moslashtirilgan ta’lim yondashuvlarini taklif qiladi. Shu sababli, ularning o‘zaro hamkorligi, ochiq muloqot va ishonchli munosabatlari inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi samarali aloqa bolaning ta’lim olish jarayonida qo‘llab-quvvatlanishini, ijtimoiy moslashuvini va shaxsiy rivojlanishini yaxshilaydi. Bundan tashqari, ularning birgalikdagi sa’y-harakatlari bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Natijada, inklyuziv ta’lim tizimi orqali har bir bola o‘z potentsialini to‘liq namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limda ota-onalar va pedagoglarning o‘zaro hamkorligi va ishonchli munosabatlari nafaqat bolaning shaxsiy rivojlanishi, balki butun jamiyaning yaxlitligi va barqarorligi uchun ham muhimdir. Bu jarayonda ikkala tomonning ham faol ishtiroki va mas’uliyatli munosabati inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillarini amalga oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)-T.: O‘zbekiston, 2023 – 31 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

https://buxdu.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi №-638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi PQ-57-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son // https://lex.uz/docs/5013007

7. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson- Press” nashriyoti, Toshkent-2021.

5. Dildora Kaxarova “Inklyuziv ta’limni takomillashtirish”. O‘quv qo‘llanma. “Durdona” nashriyot, Buxoro-2021.

6. Inklyuziv ta’lim. Darslik / Madatov I.Y.; O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, 2024. – 240 b.

7. Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika: darslik / N.B.Goipova – Namangan, 2024, 252 bet.

8. Moxirovna, TN (2024). Nogiron bolalarni oddiy maktablarga moslashtirish masalalari. // American Journal of Education and Evaluation Studies, 1 (9), 434–436.

https://buxdu.uz

TA’LIM MENEJMENTI

KAFOLATLANGAN TA’LIMGA ERISHISHDA TA’LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Kodirov Mumin Kodirovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi va astronomiya kafedrasi professori
Eshburiev Rashid Majidovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yadro fizikasi va astronomiya kafedrasi mudiri
Xaydarov Xayrillo Safarovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va patentlash bo‘limi boshlig'i

Maqola ta’lim mazmunini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, sifatli ta’limga erishishda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining kompetentlik darajasiga qo‘yiladigan talablar bayon etilgan. An’anaviy va innovatsion ta’limning kamchilik va afzalliklari, ta’lim jarayonini tashkil qilish va boshqarish tizimini transformatsiyalash, ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda o‘qitishning bilimga asoslangan modelidan kompetentlilikka asoslangan modeliga o‘tishni yo‘lga qo‘yish zaruriyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim sifati, ta’lim mazmuni, kompetentlilik, natijaga yo‘naltirilgan ta’lim, transformatsiya, o‘quv dasturi, baholash mezonlari.*

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГАРАНТИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Статья посвящена вопросам совершенствования содержания образования и описывает требования к уровню компетентности преподавателя и обучающегося для достижения качественного образования. Проанализированы недостатки и преимущества традиционного и инновационного образования, необходимость трансформации системы организации и управления образовательным процессом, а также перехода от модели обучения, основанной на знаниях, к модели, основанной на компетентности, при модернизации содержания образования.

Ключевые слова: *качество образования, содержание образования, компетентность, ориентированное на результат образование, трансформация, учебная программа, критерии оценки.*

ISSUES OF IMPROVING THE CONTENT OF EDUCATION IN ACHIEVING GUARANTEED EDUCATION

The article is devoted to the issues of improving the content of education, and the requirements for the level of competence of the educator and the learner in achieving quality education are described. The disadvantages and advantages of traditional and innovative education, the need to transform the system of organization and management of the educational process, and the need to transition from a knowledge-based model of education to a competency-based model in the modernization of the content of education are analyzed.

Keywords: *quality of education, content of education, competence, result-oriented education, transformation, curriculum, assessment criteria.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tufayli o‘quv va ilmiy muassasalarining moddiy-texnik bazasi tubdan yangilandi, nufuzli xorijiy OTM va ilmiy markazlarning yetakchi pedagoglari o‘quv jarayoniga jalb qilinmoqda, ilg‘or xorijiy o‘qitish metodikalari joriy etilmoqda va natijada ta’lim sohasida muayyan yutuq va natijalarga erishildi. Lekin, ta’lim sifati va samaradorligi har bir ta’lim oluvchining va umuman jamiyatning talablarga to‘la javob beradi deb aytish qiyin. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyoti rivojini belgilaydigan tabiiy fanlar ta’limi va fani oldida hali yechimini topmagan ko‘plab muammo va vazifalar mavjud.

Muammoning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zining 2020-yil 29- dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida fizika fani to‘g‘risida to‘xtalib, insoniyatning rivojlanish tarixida dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos

https://buxdu.uz

bo‘lganini, fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalarni zamon talab qilayotgan sohalarda natijaga erishib bo‘lmasligi alohida urg‘u berildi. Buning uchun fizika fani bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish, yuqori malakali pedagog va ilmiy xodimlarni tayyorlash, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash zarurligi aytilgan. Shular bilan birgalikda ilmiy tashkilotlarning salohiyatini rivojlantirish, ularning faoliyatini samarali tashkil etish, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19- martda mahsus qarori qabul qilinishi bejiz emas edi[1,2].

Sifatli ta’lim va unga ta’sir etuvchi omillar. Ilmiy adabiyotlarda tadqiqotchilar tomonidan ta’lim sifatiga (yoki sifatli ta’limga) – kasbiy soha va jamiyatda muvaffaqiyatga erishishni kafolatlaydigan ta’lim natijasi deb ta’rif berilgan bo‘lsa, davlat ta’lim standartlaridagi ta’rifda esa ta’lim sifati – bu ta’lim oluvchining davlat ta’lim standartlariga va (yoki) jismoniy yoki yuridik shaxsning ehtiyojlariga muvofiqligi darajasini ifodalovchi ta’lim faoliyati va tayyorlashning kompleks tavsifi, deb tavsiflangan. Bundan ko‘rinadiki, ta’lim sifati mohiyat jihatdan keng ma’noli tushuncha.

Ba’zi tadqiqotchilar ta’lim sifatini talabalar o‘zlashtirishining foizlardagi qiymatiga asoslangan kategoriyani tushunishadi; ayrim tadqiqotchilar ta’lim sifatini shaxsning rivojlanish darajasiga tenglashtirishadi; uchinchi toifadagilar ta’lim sifati mazmunida oliy ta’lim muasasasi bitiruvchilarining ijtimoiy hayotga tayyorlik darajasini tushunishadi; to‘rtinchi toifadagilar ta’lim sifatini talabalarni o‘qitayotgan ilmiy daraja va unvonga ega professor-o‘qituvchilar ulushining darajasi bilan izohlashadi[3].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Sh.Urakovning fikricha, ta’lim sifati – jamiyatda ta’lim jarayonini holati va samaradorligini, uning fuqarolik jamiyatining(turli ijtimoiy guruhlarining) rivojlanishi va shakllanishida, insonning ijtimoiy va kasbiy kompetentligini jamiyat ehtiyojlari va kutilayotgan natijalarga muvofiqligini belgilovchi ijtimoiy kategoriya bo‘lib bevosita ta’lim mazmuniga bog‘liq [3]. Chunki ta’lim mazmuni deganda talabalar (o‘quvchilar) o‘quv jarayonida o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, shuningdek g‘oyaviy-axloqiy va estetik g‘oyalar tizimi tushuniladi. Bu avlodlar ijtimoiy tajribasining inson taraqqiyoti maqsadlariga muvofiq tanlangan va ularga axborot shaklida uzatiladigan qismi bo‘lib ularni o‘zlashtirish insonning ko‘p tomonlama rivojlanishiga imkon beradi va insonning kasbiy hamda ijtimoiy hayotga tayyor bo‘lishini ta’minlaydi.

Zamonaviy adabiyotlarda shaxsning muayyan bir kasbiy faoliyatini yuqori darajada bajarish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyatlar, motivatsion qobiliyatlari umumlashtirilgan holda kompetensiya tushunchasi ko‘rinishida izohlanmoqda. Har bir alohida kompetensiyalar oliy ta’lim bitiruvchisining obrazi(qiyofasi)ni shakllantiradi. Shunga e’tibor berish kerakki, kompetentlik va kompetensiya – bu bir xil tushuncha emas. Kompetensiya – bu ma’lum kasbiy masalani yechish (hal etish) qobiliyati, kompetentlik – u yoki bu ish turini sifatli bajarish darajasi. Shu sabab mamlakatimiz ta’lim tizimida an’anaviy o‘qitish metodlaridan kafolatlangan ta’lim tizimiga o‘tish yo‘lga qo‘yilmoqda, bunda asosiy e’tibor o‘quv jarayoniga emas, balkim aniq natijalarga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Bu esa ta’lim mazmunini natijaga yo‘naltirilgan o‘quv reja va dasturlari, o‘qitish metodlari, resurslarga va eng avvalo kompetentli o‘qituvchilar bilan ta’minlanishiga ma’lum talablar qo‘yiladi.

Muhokama. Ta’lim natijalariga asoslangan metodlar jahon ta’lim tizimida turli darajalarda keng qo‘llanilmoqda. Uning birinchi ko‘rinishi (paydo bo‘lishi) taxminan XX asrning oxirlarida Avstraliya va Janubiy Afrikada sodir bo‘lgan, keyingi o‘n yilliklarda rivojlangan mamlakatlar va mintaqalarda, jumladan, AQSh, Gonkong va Yevropa ittifoqi, undan keyin esa butun dunyoga tarqaldi.

Natijadorlikka asoslangan ta’limning umumiy ta’lim tizimiga, shuningdek har bir o‘quvchiga ta’siri an’anaviy ta’limga nisbatan qator afzalliklarga ega.

Agar an’anaviy ta’limda asosiy e’tibor mazmun bo‘yicha bilimlarni uzatishga qaratiladi va ko‘pincha passiv (nofaol) o‘qitishga tayaniladi, bilimlarni amaliy qo‘llashdan ko‘ra nazariy tushunchalarga ko‘proq tayaniladi, zamonaviy an’analarga emas, balki o‘rnatilgan (eski) bilimlarni o‘qitishga qaratiladi.

Natijadorlikka asoslangan ta’limda asosiy e’tibor amaliy ko‘nikmalar, kompetentlikka va amaliyotda qo‘llanilishiga qaratiladi, o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga yanada faolroq jalb qilishga moyilligini oshiradi, muammolarni yechishda tanqidiy fikrlash va ko‘nikmalarni rivojlantiradi, mohiyatiga ko‘ra soha va jamiyat ehtiyojlarining o‘zgarishlariga moslashuvchan bo‘ladi.

Natijadorlikka asoslangan o‘qitish va ta’lim tizimida ta’lim oluvchilar tez orada, bu natijalarga mos keladigan, mashqlar va loyihalarga murojaat qilishni boshlaydilar. Ular shunchaki nazariyani yodlash o‘rniga, fan (mavzu)ni faol o‘rganishga vaqtni sarflaydilar.

Natijadorlikka asoslangan baholash ko‘pincha faoliyat natijalariga asoslanadi. Ta’lim oluvchilar faqatgina (istisno tariqasida) an’anaviy imtihonlarga tayanish o‘rniga ular olingan bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish qobiliyatlari asosida baholanadi. Bu bajarilgan topshiriqlarni o‘z ichiga olishi mumkin[4].

https://buxdu.uz

Ta’lim natijadorligiga oid xorijiy olimlarning tadqiqotlarini qiyosiy o‘rgangan M.Xolmuhamedov monografiyasi ushbu dolzarb mavzuga bag‘ishlangan ilk asar sifatida e’tiborga loyiq[5].

YUNESKO ta’rifiga ko‘ra “Ta’lim natijalari” tushunchasi ta’lim dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan shaxsning egallashi zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikma va malakalar, tushuncha va munosabatlar, hatti-harakatlar yig‘indisi sifatida tavsiflanadi[5, 44b].

Tahlil. Ta’lim natijalari – ta’lim oluvchining tahsili yakunida bilishi, tushunishi, o‘rganganlarini bajara olishi va namoyish etishini ifodalaydi. Yoki ta’lim natijalari – ta’lim oluvchi dasturni tugatgandan so‘ng bilim, ko‘nikma va munosabat nuqtai nazaridan nimani namoyish etishi mumkinligini ko‘rsatadi[5, 45b].

Taniqli pedagog olim N.V.Sosnin fikricha, ta’lim natijalari – bu o‘quvchi o‘quv jarayonini tugatgandan keyin bilishi, tushunishi va (yoki) ko‘rsata olishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi bo‘lib, natijadorlikka erishish uchun ta’lim mazmunini loyihalashda faol ta’lim shakllari, usul va vositalariga tayanishni lozim bo‘ladi[5, 45-46 b].

Yu.I.Kapustinning tadqiqotlarida o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ta’lim natijalarining roli va ularni baholash mezonlariga urg‘u bergan. Jumladan, uning fikricha, ta’lim natijalarini baholash ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularning sifatini ta’minlashning muhim qismi hisoblanadi[5, 47 b].

Bizning fikrimizcha, ta’lim natijasi – bu ta’lim oluvchining mehnat bozorida raqobatbardoshligi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va munosib hayot kechirishi uchun yetarli mablag‘ topish imkoniyatini egallashidir.

Ko‘p yillik tajriba va kuzatishlardan shunday xulosa qilish mumkinki, har qanday yuqori darajadagi moddiy texnik baza, o‘quv resurslari mavjud bo‘lishiga qaramasdan fan o‘qituvchisining kasbiy kompetentlik darajasi yetarli bo‘lmasa, boshqacha aytganda innovatsion o‘qitish texnologiyalari bilan qurollanmagan bo‘lsa, yuqori ta’lim sifatiga erishib bo‘lmaydi.

Akademik I.Bespalko o‘rinli ta’kidlaganidek, o‘quv muassasalarida ta’lim oluvchi bilimini baholashda u yoki bu mavzuni bilishi, tushunishi, ta’rif va qoidalarni aytib berishi bilan kifoyalanilmoqda, mavzuni qiyosiy tahlil qilish, ta’lim mazmuniga ijodiy yondashish mezonlari bosqichiga erishish o‘qituvchining e’tiboridan chetda qolmoqda. Fan (mavzu) mazmunini ilmiy-mantiqiy, tahliliy asosda emas, balkim xotira, yodlash asosida o‘zlashtirish bugungi kun ta’lim oluvchilariga xos xususiyatga aylanmoqda. Bu holatning asosiy sababi fan o‘qituvchilarining o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishda reproduktiv metodlar bilan chegaralanishi va produktiv darajaga ko‘tara olmasligidir. Ta’lim jarayonini produktiv (samarali) bosqichga ko‘tarishda muammoli ta’lim, modulli ta’lim, klaster ta’lim texnologiyalar, bahs, munozara, mustaqil ish muhim ahamiyatga ega[6].

Natijalar. Oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’limga erishmaslik, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetkazib bermaslikning qator salbiy omillari shakllanib ulgurdi. Birinchidan, oliy ta’lim muassasalariga kirishda qo‘llaniladigan amaldagi test imtihonlari abiturientning xotirasiga asoslangan, ya’ni ko‘p ming sonli repetitorlar guruhi abiturientlarni yodlashga o‘rgatishadi. Ikkinchidan, past ball olgan abiturientlarni pulli kontrakt asosida qabul qilinishi, o‘qishga kirishga imtiyozlarning ko‘payib ketishidir. Uchinchidan, maktab ta’limida sifat darajasining tushib ketishidir (bu holatni xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan tekshirishlar natijasi yaqqol ko‘rsatib turibdi).

Oliy ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil qilish va boshqarish, talaba bilimini baholash tizimlaring tez-tez o‘zgarishi ham professor-o‘qituvchilarni muayyan bir tartib-qoidalarni to‘la qabul qilishi va amaliyotga qo‘llashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’kidlab o‘tilgan holatlar esa professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv mashg‘ulotlarini standart shaklda o‘tishiga olib keldi. Ya’ni, o‘qituvchi ma’lum bir darslik yoki o‘quv qo‘llanma asosida dars o‘tadi va ular asosida imtihon savollarini tuzadi, va ko‘p hollarda dars o‘tgan o‘qituvchining o‘zi imtihonlarga ishtirok etmaydi.

Qayumov B. o‘rinli ta’kidlanganidek[6], o‘quvchi-talaba xotira asosida o‘zlashtirgan bilimlari qisqa muddatda yodidan chiqadi. Bu esa reproduktiv (nomahsuldor) metodlardan produktiv (mahsuldor) metodlarga o‘tishni, ya’ni ta’lim jarayonida mantiqiy va ijodiy yondashish orqali yodlangan bilimlardan ko‘nikma va malakalarni shakllantiradigan tizimga o‘tishni taqozo etadi. Albatta bu jarayonning samaradorligi talabaning bilimini, xotiraviy bilimini emas, kasbini ustasi bo‘lishligini ta’minlovchi kompetentlik darajasini baholash tizimini yaratishni talab qiladi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida talaba bilimini baholash yangicha shaklda tashkil etilgan, lekin mazmun jihatdan an’anaviyligicha qolmoqda. Masalan, yozma ish yoki test savollari asosida talabaning bo‘lajak kasbi bo‘yicha malaka va ko‘nikmasini to‘liq baholab bo‘lmaydi. Fizika, ayniqsa, muhandislik fizikasi va texnika sohasida malaka va ko‘nikmalari amaliyot darslarida baholanishi mumkin. Masalan, fizikadan masalalar yechish, laboratoriya ishlarini mustaqil bajarish, loyiha konstruktorlik ishlarini bajarish jarayonida talabaning u yoki bu fan bo‘yicha

https://buxdu.uz

malaka va ko‘nikmasi aniqlanadi. Albatta, kompetentlikni har bir tarkibiy qismi bo‘lmish bilim, ko‘nikma va malaka bo‘yicha baholash mezonlari ishlab chiqilishi lozim.

Ta’lim mazmunini axborot tarzida o‘zlashtirish, ilmiy-mantiqiy, tahliliy emas, balkim yodlash (xotira) asosida baho olish bugungi talabalarimizga xos xususiyatga aylanmoqda. Bu holatga kelishimizning asosiy sababi fan o‘qituvchilari ta’lim jarayonida reproduktiv metodlar bilan chegaralanib, ta’limni produktiv darajaga ko‘tara olmasligidir. Ta’lim jarayonini produktiv bosqichga ko‘tarishda muammoli ta’lim, klaster ta’lim texnologiyalari, bahs, munozara, mustaqil ta’lim topshiriqlar muhim ahamiyatga ega[6].

Bugungi uzluksiz ta’lim tizimida xam hamon reproduktiv o‘qitish bilan cheklanish ommaviy tus olgan bo‘lib u ta’lim jarayonini keng qamrab olgan. Reproduktiv metodlar asosan ta’lim mazmuni xaqida ma’lumot beradi, ammo ta’lim jarayonini amalda o‘quvchilarni o‘ylash va fikr yuritish pogonalariga ko‘tara olmaydi.

Asosiy vazifa (maqsad) – bilimni hayot bilan bog‘lash. Biz nafaqat bilimli shaxsni shakllantiramiz, shu bilan birga uni bugungi kun chaqiriqlariga javob beradigan, mavjud haqiqiy qiyinchiliklarni hal qilishga tayyorlaymiz[7].

Insoniyatning o‘tgan davrlarida moddiy farovonlikka asosan ishchi kuchi oshishi, yer va suvning ko‘pligi bilan erishilgan bo‘lsa, endilikda moddiy boyliklarni yaratishda inson kapitali asosiy omilga aylandi. Moddiy boyliklar, insonning munosib yashashining asosida ongli va aqliy mehnat, yoki boshqacharoq aytganda inson kapitali yotadi. Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan amerikalik ikki iqtisodchi olimlar - Teodor Shuls va Garri Bekker inson kapitalini – shaxsning o‘zi va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan bilimi, qobiliyati va ko‘nikmalari yig‘indisi deb ta’riflagan. Demak, inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli beqiyos. “Ta’lim insonning sarflagan vaqt va mehnati evaziga orttirgan insoniy donoligi va bebaho kapitali” deb yozadi buyuk rus kimyogar olimi D.I.Mendeleev[8].

G. Bekker inson kapitali nazariyasini investitsiyalar nuqtai nazaridan rivojlantirdi. Uning nazariyasiga ko‘ra, inson kapitali – bu “har bir kishining bilim, ko‘nikma va motivatsiyasi zahirasidir. Ta’lim, kasbiy tajriba to‘plash, sog‘liqni saqlash, geografik harakatchanlik, daromad va narxlar to‘g‘risida ma’lumot izlash esa unga qilingan investitsiyalar bo‘lishi mumkin”.

Davlatimiz rahbari o‘rinli ta’kidlaganlaridek: “*Hozirgi zamonda hamma jabhalarda ilm, bilim va salohiyat suv bilan havodek zarurligi, har qaysi davlat faqatgina shu asosda taraqqiyotga erishishi, sodda qilib aytganda, inson bilak kuchidan ko‘ra ilm kuchi bilan ko‘proq daromad va obro‘-e’tibor topishi mumkinligini hammamiz yaxshi bilamiz* ”.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunning yoshlarini zamonaviy chaqiriqlarga javob beradigan, shuningdek, ertangi noaniqlik sharoitlarda yashash va faoliyat yuritishi mumkin ta’lim tizimini bo‘lgan talaba(o‘quvchi) uchun sharoit yaratishimiz kerak. Bunday shaxs (o‘quvchi) real sharoitlarda – moliyaviy savodxonlikdan tortib tanqidiy fikrlashgacha olgan bilimlarini qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun ta’lim jarayonini tashkil qilish va boshqarish tizimini taransformatsiyalash, ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda o‘qitishning bilimlar modelidan kompetentli modeliga o‘tishni yo‘lga qo‘yish zarur bo‘ladi. O‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorij tajribalari asosida muntazam yangilab borish, talabalar bilimini baholash va mustaqil ta’limni, o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimini o‘zgarib borayotgan dunyo chaqiriqlariga mos ravishda transformatsiyalash kerak.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 29- dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Urakov Sh. R. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning tashkiliy-pedagogik mexanizmini takomillashtirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi. pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2024.- 63 b.

4. Образование, основанное на результатах | Полное руководство (издание 2025 г.) https://ahaslides.com/ru/blog/outcome-based-education/)

5. Xolmuxamedov M.M. Natijaga yo‘naltirilgan professional ta’lim mazmuni. -Toshkent: Complex print, 2023.- 176 b.

6. Qayumov B.I. Ta’lim sifati, muammolar va yechimlar. // "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz November 2023 / Volume 4. Issue 11.

7. Кузьмичова Н. Образование для меняющегося мира: ученик будущего – какой он? https: // hromadske. Ua / ru / obshchestvo / 237084 – obrazovanie – dlya – menyayuschegosya – mira – uchenik – buduschego – kakoy - on.

8. Usmonov B.Sh., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalinining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli. Monografiya. -Samarqand: “SamDU nashriyoti”, 2023. -180 b.

https://buxdu.uz

OTMLARDA INNOVATSION RIVOJLANISH JARAYONINI MONITORING QILISH, NIZOLARNI OLDINI OLISH VA HAL QILISH TEXNOLOGIYALARI

Soxibov Akram Rustamovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, p.f.n.

Hozirgi paytda oliy ta’lim tizimidagi innovatsion rivojlanish jarayonlaridagi nizolar oldini olish va ularni hal qilish texnologiyalari mazkur nizolarning sinchiklab monitoring qilinishini ko‘zda tutadi. Bunda eng avvalo, tavakkallarni hisobga olish va bashoratlarga asoslanadigan venchurli, ya’ni strategik yo‘naltirilgan texnologiyalar diqqat markazida bo‘ladi. Mazkur maqolada Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion rivojlanish jarayonlarini monitoring qilish, nizolarni oldini olish va hal qilish texnologiyalari haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *globallashuv, xalqaro ta’lim tizimi, innovatsion rivojlanish, innovatsion rivojlantirish, boshqarish, rahbarlar, oliy ta’lim muassasalari, nizoli vaziyatlar, hal qilish texnologiyalari.*

ТЕХНОЛОГИИ МОНИТОРИНГА ПРОЦЕССА ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ, ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ И РАЗРЕШЕНИЯ КОНФЛИКТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

В настоящее время технологии предотвращения и разрешения конфликтов в процессах инновационного развития в системе высшего образования предусматривают тщательный мониторинг этих конфликтов. В первую очередь, в центре внимания будут находиться венчурные, то есть стратегически ориентированные технологии, основанные на учёте рисков и прогнозировании. В данной статье представлена информация о мониторинге процессов инновационного развития в высших учебных заведениях, технологиях предотвращения и разрешения конфликтов.

Ключевые слова: *глобализация, международная система образования, инновационное развитие, инновационное развитие, управление, руководители, высшие учебные заведения, конфликтные ситуации, технологии разрешения.*

TECHNOLOGIES FOR MONITORING THE PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT, CONFLICT PREVENTION AND RESOLUTION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Currently, technologies for preventing and resolving conflicts in the processes of innovative development in the higher education system involve careful monitoring of these conflicts. First of all, the focus is on venture, that is, strategically oriented technologies based on risk assessment and forecasting. This article provides information on technologies for monitoring innovative development processes, preventing and resolving conflicts in higher education institutions.

Keywords: *globalization, international education system, innovative development, management, leaders, higher education institutions, conflict situations, prevention, resolution technologies.*

Kirish. Hozirgi paytda oliy ta’lim tizimidagi innovatsion rivojlanish jarayonlaridagi nizolar oldini olish va ularni hal qilish texnologiyalari mazkur nizolarning sinchiklab monitoring qilinishini ko‘zda tutadi. Bunda eng avvalo, tavakkallarni hisobga olish va bashoratlashga asoslanadigan venchurli, ya’ni strategik yo‘naltirilgan texnologiyalar diqqat markazida bo‘ladi. Nizolarni bashoratlash esa axborot to‘plashning turli xil modellarini qo‘llash bilan diagnostik faoliyatsiz mumkin emasdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mana shunga bog‘liq holda eng istiqbolli model bo‘lib monitoring hisoblanadi. Monitoring bitta va xuddi o‘sha metodika bo‘yicha amalga oshiriladigan ijtimoiy vaziyatni muntazam tadqiq qilish sifatida olib qaraladi. Bundan tashqari, monitoringga turli xil xususiyatlar ham xos bo‘lib, ular qatorida obyektlar, hodisalar va jarayonlarni bir martalik emas, balki ularning dinamikasi haqida fikr-mulohaza yuritishga imkon beradigan davriy o‘lchovlarning olib borilishi; optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qaytar aloqa kanallari bo‘yicha axborotlardan foydalanish bilan obyektlar, hodisalar va jarayonlarning holatini tizimli ravishda aniqlab borish; monitoring doirasiga tushadigan obyektlar, hodisalar va jarayonlarga qayta o‘zgartiruvchi boshqaruvchilik ta’sirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish kabilar kiritiladi [2].

https://buxdu.uz

emas. Jahon tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, rivojlangan davlatlarning san’at ta’limi tizimida virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR), raqamli dizayn dasturlari (Adobe Photoshop, CorelDRAW, AutoCAD, 3D Max), multimedia vositalari, interaktiv doskalar, onlayn o‘quv platformalari va raqamli galereyalar kabi innovatsion texnologiyalar keng qo‘llanilayotgani kuzatiladi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar amaliy bezak san’ati yo‘nalishidagi zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish bilan birga, o‘z ijodiy ishlarini keng ko‘lamda namoyon qilish imkoniga ham ega bo‘ladilar. Biroq, Respublika ayrim oliy ta’lim muassasalarida ushbu texnologiyalar hali to‘liq tatbiq etilmagan yoki ularning o‘qitish jarayonidagi qo‘llanilish darajasi yetarlicha mukammal emas. An’anaviy ta’lim shakli asosan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar asosida olib boriladi, ammo zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari hali to‘liq o‘rganilmagan va metodik jihatdan ishlab chiqilmagan. Shuning uchun interaktiv texnologiyalarni “Amaliy bezak san’ati” faniga integratsiya qilish, ularni o‘quv jarayoniga moslashtirish hamda talabalarning o‘zlashtirish darajasiga ta’sirini o‘rganish muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida “Amaliy bezak san’ati” fanini interaktiv ta’lim texnologiyalari yordamida o‘qitishning innovatsion metodlari va ularning amaliy tatbiqini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida nazariy hamda amaliy metodlar uyg‘un holda qo‘llanilib, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqotda ilmiy-nazariy asoslarni aniqlash va pedagogik tajribalarni umumlashtirish uchun adabiyot tahlili, eksperimental tadqiqot, so‘rov va intervyu, taqqoslash va statistik tahlil metodlari qo‘llanildi. Adabiyot tahlili jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va san’at ta’limi metodikasiga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Jumladan, Vygotskiy[1] ta’lim va ijodiy tafakkur rivojlanishining sotsiokognitiv nazariyasi asosida interfaol ta’limning talabalarning ijodiy qobiliyatlariga ta’siri tadqiq qilindi. Dewey[2] tomonidan ilgari surilgan tajribaviy ta’lim nazariyasi asosida amaliy mashg‘ulotlar samaradorligi baholandi.

O‘zbekiston pedagoglari orasida amaliy san’at ta’limi va interaktiv metodlarga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar qatorida D.Mamurova, M.Bomurodova[3] kabi tadqiqotchilarni keltirish mumkin. Ularning fikriga ko‘ra Talabalarga - amaliy bezak san’ati fanini o‘qitilishida quyidagi texnik vositalardan foydalaniladi: Amaliy san’at namoyandalari, xalq ustalari, yetuk o‘zbek va xorijiy tasviriy san’at usta rassomlarining jahon miqiyosida tan olingan san’at asarlari namunalari hamda metodik jihatdan mukammal reproduktiv ishlari; zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish taqazo etiladi. Ayniqsa bunda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning samarasi katta deyish mumkin. An‘anaviy ta‘lim jarayoni tajribadan o‘tgan va samarali bo‘lishiga qaramasdan, zamonaviy dunyoda yashayotgan talabalar uchun oddiy va zerikarli ta‘assurot qoldirishi mumkin. D.Mamatov fikricha ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Shularning barchasini inobatga olgan holda talabalarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi zamonaviy ta’limning taqozo etadigan eng asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi[4]. Shuningdek, xalqaro miqyosda Mayer[5] tomonidan ilgari surilgan multimediya ta’lim nazariyasi, Laurillard[6] tomonidan taklif etilgan raqamli ta’lim modellarining amaliy san’at ta’limiga integratsiyasi o‘rganildi. Eksperimental tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilib, amaliy bezak san’ati fanini innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitish natijalari tahlil qilindi. Tadqiqotda an’anaviy o‘qitish usuli bo‘yicha tahsil olayotgan talabalardan iborat nazorat guruhi va interaktiv ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitilgan tajriba guruhi ishtirok etdi. Eksperiment doirasida multimedia texnologiyalari, interfaol dars metodlari, loyihaviy ta’lim yondashuvi, vizual texnologiyalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari asosida amaliy san’at elementlarini o‘rganish kabi innovatsion yondashuvlar sinovdan o‘tkazildi. Eksperiment davomida talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligi, qiziqishi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat qilindi hamda innovatsion metodlarning samaradorligi baholandi. Tadqiqotda ta’lim jarayonida interaktiv texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari hamda talabalari orasida so‘rovnomalar va intervyular tashkil etildi. So‘rov natijalari innovatsion ta’lim metodlari bo‘yicha talabalar fikrlari, o‘qituvchilarning interaktiv texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tajribasi va ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha ilgari surilgan taklif va tavsiyalarga qaratildi. Interaktiv texnologiyalar asosida ta’lim olgan guruh natijalari an’anaviy ta’lim usullari bilan o‘qitilgan guruh ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanib, baholash mezonlari asosida o‘rganildi. Talabalarning ijodiy ishlari sifati, fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi, mustaqil ijodiy tafakkur va amaliy ko‘nikmalarning shakllanishi, o‘qituvchilarning innovatsion metodlar haqidagi fikrlari asosida ta’lim samaradorligi tahlil qilindi. Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, innovatsion ta’lim metodlarining samaradorligi aniqlandi. Ushbu jarayonda talabalarning baholaridagi o‘zgarishlar, o‘quv jarayoniga qiziqish va faollik darajasi, amaliy topshiriqlarni bajarish sifati tahlil qilindi. Tahlil natijalari

https://buxdu.uz

asosida interaktiv ta’lim texnologiyalarining amaliy bezak san’ati fanini o‘qitishda ta’siri xulosalandi va kelgusida ushbu metodlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida zamonaviy pedagogika, san’at ta’limi metodikasi va innovatsion texnologiyalarga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar qo‘llanildi. Konstruktivistik ta’lim nazariyasi asosida talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish va mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirish tamoyillari qo‘llanildi. Kompetensiyaviy yondashuv orqali talabalarning kasbiy va ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish metodlari tadqiq qilindi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash uchun empirik kuzatuv va eksperimental natijalarga asoslangan taqqoslash usullari ishlatildi. San’at ta’limida interfaol yondashuvlar asosida amaliy san’at va bezak san’ati darslarida talabalarning ishtirokini oshirish, amaliy mashg‘ulotlarni interaktiv metodlar yordamida tashkil etish strategiyalari o‘rganildi. Metodologik yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqot natijalari amaliy bezak san’ati fanini interaktiv ta’lim texnologiyalari yordamida o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ilgari suradi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida amaliy bezak san’ati fanini interaktiv ta’lim texnologiyalari yordamida o‘qitish samaradorligini baholashga qaratildi. An’anaviy va interfaol ta’lim metodlari solishtirilib, talabalar bilim o‘zlashtirish darajasi, ijodiy faoliyati, amaliy ko‘nikmalari va o‘quv jarayonidagi ishtiroki o‘rganildi. **Interfaol ta’lim texnologiyalarining ta’siri:** Interfaol metodlar asosida mashg‘ulotlar olib borilgan guruh an’anaviy usulda ta’lim olgan guruh bilan solishtirilganda **o‘quv jarayonida faolroq ishtirok etgani, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirgani va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirgani kuzatildi**. An’anaviy usullarda dars mashg‘ulotlari o‘qituvchi tomonidan axborot yetkazish orqali tashkil etilgan bo‘lsa, interaktiv metodlarda talabalar mustaqil izlanish olib borish, muhokamalar orqali bilimlarini boyitish, san’at asarlarini tahlil qilish, yaratish va baholash jarayonlarida faol ishtirok etdi.

1-jadval .

An’anaviy va interaktiv metodlarni solishtirish

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy ta’lim (%)	Interfaol ta’lim (%)	O‘zgarish (%)
O‘quv jarayonida faollik	58%	82%	+24%
Mustaqil ijodiy ishlar	50%	85%	+35%
Bilimlarni o‘zlashtirish sifati	62%	84%	+22%
San’at asarlarini tahlil qilish	55%	80%	+25%
Amaliy topshiriqlar sifati	60%	88%	+28%

Xulosa: Interfaol texnologiyalar asosida o‘qitish talabalar ishtirokini va ijodiy fikrlashini sezilarli darajada oshirdi.

Multimedia texnologiyalarining samaradorligi: Multimedia texnologiyalari, jumladan, raqamli san’at resurslari, interaktiv taqdimotlar va vizual materiallar qo‘llanganda talabalar bilimlarni an’anaviy usullarga qaraganda **tezroq va samaraliroq o‘zlashtirdi**. O‘quv jarayonida video, interfaol dasturlar va elektron materiallar asosida o‘qitilgan talabalar nazariy bilimlarni **32% ko‘proq eslab qolgan**, san’at uslublarini chuqurroq o‘rgangan va ularni amaliyotda qo‘llashga tayyor bo‘lgan.

2-jadval .

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish natijalari

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy ta’lim (%)	Interfaol ta’lim (%)	O‘zgarish (%)
Nazariy bilimlarni eslab qolish	58%	90%	+32%
Bilimlarni tez o‘zlashtirish	52%	78%	+26%
San’at asarlarini chuqur tahlil qilish	50%	85%	+35%
Mustaqil ijodiy ishlarning sifati	58%	88%	+30%

Xulosa: Multimedia va interaktiv vositalar yordamida ta’lim olish talabalar bilim olish jarayonini ancha samarali qildi.

Loyihaviy ta’lim metodlarining amaliy ko‘nikmalarga ta’siri: Loyihaviy ta’lim metodlari talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy g‘oyalarni shakllantirishga va ularni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatdi. Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan individual va jamoaviy loyihalar **ularning amaliy ko‘nikmalari va ijodiy yondashuvlarini sezilarli darajada oshirdi**. San’at ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarning tatbiqi o‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirdi, ularning mustaqil o‘rganish va san’at sohasida yangilik yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi.

https://buxdu.uz

3-jadval .

Loyihaviy ta’lim natijalari

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy ta’lim (%)	Interfaol metodlar (%)	O‘zgarish (%)
Amaliy topshiriqlarni bajarish tezligi	60%	100%	+40%
Mustaqil ishlash qobiliyati	55%	90%	+35%
Ijodiy ishlarning sifati	58%	85%	+27%

Xulosa. Loyihaviy ta’lim metodlari orqali talabalar amaliy ko‘nikmalarni yanada samarali egallashdi.

Umumiy natijalar tahlili va xulosa. Interfaol ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitilgan talabalar an’anaviy usulda ta’lim olganlarga nisbatan bilimlarni tezroq o‘zlashtirgani, o‘quv jarayonida faolroq ishtirok etgani va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirgani kuzatildi. Multimedia vositalari bilan ta’lim olish san’at asarlarini tahlil qilish, kompozitsiya yaratish va ijodiy tafakkur qilish qobiliyatlarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi**.** Loyihaviy ta’lim metodlari mustaqil ishlash, dizayn yaratish va san’atni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi**.** O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijasida talabalar tomonidan bajarilgan amaliy ishlarning sifati ortdi, mustaqil ijodiy izlanish olib borish qobiliyati rivojlandi, san’at ta’limiga bo‘lgan qiziqish oshdi. Olingan natijalar interfaol va innovatsion ta’lim metodlarini amaliy bezak san’ati ta’limida keng joriy etish zarurligini ko‘rsatdi**.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv texnologiyalar amaliy bezak san’ati fanini o‘qitishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini kuchaytirib, ijodiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish bilan birga, amaliy mashg‘ulotlarning sifatini oshirish ham mumkin bo‘ldi. Interfaol usullarning joriy etilishi talabalarning darslarda ishtirok etish darajasini sezilarli darajada oshirgan bo‘lsa, multimedia va vizual resurslardan foydalanish o‘quv materiallarini tez va samarali o‘zlashtirishga yordam berdi. Loyihaviy ta’lim metodlari esa mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etish va san’at asarlarini yaratish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Olingan natijalarga asoslanib, amaliy bezak san’ati fanini o‘qitishda interaktiv texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish tavsiya etiladi. Xususan, zamonaviy pedagogik dasturlar, elektron o‘quv resurslari va multimedia texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning bilim olish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo‘lishi mumkin. Bu esa kelajakda san’at ta’limi sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish va talabalar ijodiy salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar tahlili. Amaliy bezak san’ati fanini interaktiv ta’lim texnologiyalari yordamida o‘qitish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning ta’lim jarayoniga ta’sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Olingan ma’lumotlar interaktiv metodlar talabalarning bilim o‘zlashtirish darajasi, ijodiy faolligi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Ushbu natijalar ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

1. Interaktiv texnologiyalarning samaradorligi bo‘yicha tahlil:

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interfaol ta’lim usullari qo‘llanilganda talabalar an’anaviy yondashuvlarga nisbatan o‘quv jarayonida faolroq ishtirok etgan. Talabalar o‘zlashtirish darajasining oshishi, mustaqil ijodiy izlanish olib borish qobiliyatining rivojlanishi, san’at asarlarini tahlil qilish va amaliy mashg‘ulotlarda yuqori natijalarga erishishlari interaktiv ta’limning afzalliklaridan dalolat beradi. An’anaviy usulda dars mashg‘ulotlari o‘qituvchi tomonidan axborot yetkazish orqali tashkil etilgan bo‘lsa, interaktiv metodlarda talabalar mustaqil izlanish olib borish, muhokamalar orqali bilimlarini boyitish, san’at asarlarini tahlil qilish, yaratish va baholash jarayonlarida faol ishtirok etgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi talabalarning faolligini oshirish bilan birga, ularning bilimlarni puxta o‘zlashtirishlari va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilgan. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimida talabalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirish va ularning real kasbiy muhitga tayyorgarligini mustahkamlash uchun muhim omil hisoblanadi.

2. Vizual va multimedia resurslarining o‘quv jarayonidagi o‘rni:

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish talabalar bilim olish jarayonini ancha samarali qilgan. Raqamli vositalar, vizual materiallar va interaktiv o‘quv resurslarining qo‘llanilishi talabalarning ma’lumotlarni eslab qolish qobiliyatini oshirgan hamda ularning amaliy mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirgan. O‘quvchilarning vizual tafakkuri rivojlanganligi san’at va dizayn yo‘nalishidagi mashg‘ulotlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, interaktiv ta’lim metodlari bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtirgan. Ushbu natijalar amaliy bezak san’ati ta’limida vizual vositalarning

https://buxdu.uz

samaradorligini tasdiqlaydi va multimedia resurslarini o‘quv dasturlariga kengroq kiritish lozimligini ko‘rsatadi. Ushbu metodlar, ayniqsa, vizual axborotlarni o‘zlashtirish va amaliy san’at texnikalarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Loyihaviy ta’lim metodlarining amaliyotga ta’siri:

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, loyihaviy ta’lim metodlari talabalar ijodiy tafakkurini shakllantirish va mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida loyihaviy ta’lim metodlari asosida mashg‘ulot o‘tkazilgan talabalar real loyihalar bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lib, san’at asarlarini yaratish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalangan. Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan individual va jamoaviy loyihalar ularning o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarning sifatli namoyon bo‘lishiga yordam bergan. Mazkur natijalar loyihaviy yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi va amaliy san’at ta’limida ushbu metodlarni yanada kengroq qo‘llash zarurligini asoslaydi. Bu esa talabalarni real ish muhitiga tayyorlash, san’at va dizayn sohasida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

4. Ilmiy ahamiyat va ta’lim jarayoniga ta’siri:

Ushbu tadqiqot natijalari interfaol texnologiyalar asosida o‘qitish amaliy bezak san’ati fanida muhim metodologik vosita ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Natijalar zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatib, ularning o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sirini asoslaydi. Interaktiv texnologiyalarning o‘quv jarayonida samarali qo‘llanilishi pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilish hamda talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar va multimedia texnologiyalaridan foydalanish nafaqat bilim o‘zlashtirish darajasini oshiradi, balki talabalarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ushbu tadqiqot natijalari pedagogika sohasidagi innovatsion metodlarni yanada rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tahlil natijalari interaktiv texnologiyalarning amaliy bezak san’ati fanida samarali ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Ushbu metodlar yordamida talabalar bilimni puxta o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va san’at asarlarini yaratish jarayonida mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy tavsiyalar berilishi mumkin:

- Amaliy bezak san’ati fanida interaktiv va multimedia texnologiyalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.
- Loyihaviy ta’lim metodlari yordamida talabalar mustaqil ijodiy ish olib borishlari rag‘batlantirilishi lozim.
- Vizual materiallardan foydalanish va interaktiv yondashuvlarni ta’lim jarayoniga joriy qilish orqali talabalar bilim olish jarayoni yanada samarali bo‘lishi mumkin.

Tahlil natijalari innovatsion ta’lim texnologiyalarining samaradorligini tasdiqlab, ularni amaliy san’at fanida keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu metodlarni ta’lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish orqali talabalar kasbiy tayyorgarligini yanada rivojlantirish mumkin.

Muhokama. Oliy ta’lim muassasalarida amaliy bezak san’ati fanini interaktiv ta’lim texnologiyalari yordamida o‘qitishning innovatsion metodlarini joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashga imkon berdi. Interfaol texnologiyalar talabalar bilimini oshirish, ularning mustaqil ijodiy tafakkurini shakllantirish va amaliy san’at elementlarini puxta o‘zlashtirishga yordam berishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari ilgari o‘tkazilgan pedagogik izlanishlar bilan muvofiq kelib, innovatsion yondashuvlarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini yanada mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

1. Interaktiv texnologiyalarning amaliy bezak san’ati ta’limiga ta’siri

Olingan natijalarga ko‘ra, interaktiv texnologiyalar amaliy bezak san’ati fanini o‘qitishda an’anaviy yondashuvlarga nisbatan samaraliroq ekani aniqlandi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar asosida mashg‘ulotlar olib borilgan talabalar bilimlarni tezroq o‘zlashtirgani, mustaqil izlanish olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirgani va amaliy topshiriqlarni yanada sifatli bajargani kuzatildi. Ushbu natijalar Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan sotsiomadaniy ta’lim nazariyasi va Deweyning tajribaviy ta’lim tamoyillariga mos keladi, chunki interfaol ta’lim jarayonida talabalar bilimlarni o‘z tajribasi orqali o‘zlashtiradi va muloqot orqali o‘rganish samaradorligi ortadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari Mayerning multimediya ta’lim nazariyasiga ham mos keladi. Mayerning fikriga ko‘ra, vizual va verbal axborotlarni birgalikda taqdim etish bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Ushbu nazariyaga tayanib, amaliy bezak san’ati ta’limida multimediya va interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning bilim olish jarayonini samaraliroq qilishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quv jarayonida interaktiv metodlar qo‘llanilganda, talabalar nazariy bilimlarni 32% tezroq o‘zlashtirgan, amaliy ko‘nikmalari esa 40% ga yaxshilangan.

https://buxdu.uz

2. Innovatsion metodlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri

Interfaol ta’lim texnologiyalari, jumladan, multimedia vositalari, vizual resurslar va elektron o‘quv platformalari, talabalarning amaliy san’atni o‘rganish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, video darslar, virtual ekskursiyalar, raqamli eskiz dasturlari va interaktiv taqdimotlar orqali mashg‘ulotlar tashkil etilganda, talabalar darslarga yanada katta qiziqish bilan yondashgan. Ushbu natijalar Laurillardning raqamli ta’lim modeli bo‘yicha ilgari surilgan g‘oyalarga mos keladi, chunki uning nazariyasida interaktiv texnologiyalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli alohida ta’kidlangan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari Piagetning konstruktivistik ta’lim yondashuvi bilan ham bog‘liq bo‘lib, bu nazariya o‘quvchilarning bilimlarni faqat tayyor holda qabul qilmasdan, balki mustaqil ravishda tajriba asosida o‘zlashtirishlarini ta’kidlaydi. Tadqiqot davomida loyiha asosida o‘qitish metodlarining samaradorligi oshgani kuzatildi, ya’ni amaliy topshiriqlar orqali talabalar san’at va dizayn tamoyillarini aniq tushuna boshlagan. Loyihaviy ta’lim asosida o‘qigan talabalar mustaqil fikrlash qobiliyatini **3**5% ga oshirgan va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini 27% ga yaxshilagan.

3. An’anaviy va interaktiv yondashuvlarni solishtirish

An’anaviy ta’lim metodlari, jumladan, maruza va ko‘rgazmali materiallar asosida o‘qitilgan guruh bilan interaktiv metodlar asosida o‘qitilgan guruh o‘rtasida sezilarli tafovutlar kuzatildi. An’anaviy metodlarda bilimlar o‘qituvchi tomonidan yetkaziladi va talabalar passiv ishtirokchi bo‘lsa, interaktiv ta’lim metodlarida talabalar bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi, yangi ma’lumotlarni mustaqil izlanish orqali topishi va ulardan amaliy jarayonda foydalanishi talab qilinadi.

O‘quv jarayonining samaradorligi tahlil qilinganda, an’anaviy va interfaol metodlarning natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

4-jadval .

An’anaviy va interaktiv metodlar samaradorligining solishtirma tahlili

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy ta’lim (%)	Interfaol ta’lim (%)	O‘zgarish (%)
Nazariy bilimlarni eslab qolish	58%	90%	+32%
Bilimlarni tez o‘zlashtirish	52%	78%	+26%
Mustaqil fikrlash qobiliyati	50%	85%	+35%
Amaliy topshiriqlarni bajarish sifati	58%	88%	+30%

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv texnologiyalar bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi va talabalarni amaliy san’at sohasida mustaqil ijodiy faoliyat olib borishga tayyorlaydi.

4. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Olingan natijalar pedagogik innovatsiyalarni san’at ta’limiga joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Ilmiy jihatdan ushbu tadqiqot interaktiv texnologiyalarning o‘quv jarayoniga ta’sirini chuqur tahlil qilgan holda, zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini isbotlaydi. Amaliy jihatdan esa interaktiv texnologiyalarni keng joriy etish orqali san’at ta’limini rivojlantirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularni real mehnat bozori talablariga moslashtirish mumkinligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari interfaol ta’lim texnologiyalarining amaliy bezak san’ati fanida yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Ushbu metodlarning keng joriy etilishi o‘quv jarayonining sifatini oshirish, talabalarning mustaqil ijodiy izlanishlarini rag‘batlantirish va san’at ta’limida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy va amaliy tavsiyalar:

- Amaliy bezak san’ati ta’limida interaktiv texnologiyalardan foydalanish kengaytirilishi lozim.
- Loyihaviy ta’lim metodlari va mustaqil ish faoliyatini rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega.
- O‘quv jarayoniga multimedia resurslari, interfaol platformalar va vizual texnologiyalar integratsiya qilinishi kerak.

Ushbu natijalar kelgusida san’at ta’limida innovatsion pedagogik yondashuvlarni yanada rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari interaktiv ta’lim texnologiyalarining amaliy bezak san’ati fanini o‘qitish jarayonidagi samaradorligini ilmiy asoslab berdi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning joriy etilishi nafaqat talabalarning nazariy bilimlarini oshirishga, balki ularning mustaqil ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qildi. Interfaol metodlar va multimedia resurslaridan foydalanish san’at ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni muhim ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlari an’anaviy pedagogik yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, talabalarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli

https://buxdu.uz

darajada yaxshilanib, san’at asarlarini tahlil qilish, kompozitsiya yaratish, dizayn tamoyillarini anglash va amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlari rivojlandi.

Adbiyotlar:

1. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Harvard University Press.
2. Dewey, J. (1934). Art as experience. Minton, Balch & Company. Retrieved from. https://archive.org/details/deweyjohnartasanexperience/page/n29/mode/2up
3. Mamurova. D., Bobomurodova M. (2023). Amaliy bezak fanlarini o’qitishda kompyuter grafikasidan foydalanishning ahamiyati. // Journal of Innovation, Creativity and Art, 127–131. Retrieved from https://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/357
4. Mamatov D.Q. Xalq amaliy bezak san’ati fanini o‘qitishda kreativ ta’lim texnologiyalardan foydalanish metodikasii. // Inter education & global study. 2024. №8. B.147–157. https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-amaliy-bezak-san-ati-fanini-o-qitishda-kreativ-ta-lim-texnologiyalardan-foydalanish-metodikasi
5. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge: Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511811678
6. Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203125083
7. Efland, A. D. (2002). Art and cognition: Integrating the visual arts in the curriculum. Teachers College Press.
8. Hetland, L., Winner, E., Veenema, S., & Sheridan, K. M. (2013). Studio thinking 2: The real benefits of visual arts education. Teachers College Press. https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=1627167
9. Eisner, E. W. (2002). The arts and the creation of mind. Yale University Press. https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3672425
10. Navruzova, Sevara (2024). Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalaridan foydalanish. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (4), 265-269.
11. Qurmanova Qundiz Ergaliyevna, & Shrazov Adilbay Shamsitdinovich (2020). Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish. // Oriental Art and Culture, (V), 152-156.
12. Ergasheva M.E. (2022). Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy axloqiy sifatlarini rivojlantirish. // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special Issue 1), 120-124.

https://buxdu.uz

AKADEMIK LITSEYLARDA MORFOLOGIYA BO‘LIMINI O‘QITISH UCHUN RAQAMLI RESURSLARNI ISHLAB CHIQISH

Jo‘rayeva Mohigul Baxtiyor qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
Buxoro shahar, O‘zbekiston Respublikasi
mohiguljurayeva95@mail.com

Ushbu maqolada akademik litseylarda morfologiya bo‘limini o‘qitishda raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning o‘rni ortib borayotgani sababli, morfologiya bo‘limiga oid darslarni samarali o‘qitishda interaktiv vositalar, multimediya taqdimotlari, mobil ilovalar va AR/VR texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan. Maqolada konstruktivizm va faol o‘rganish nazariyalari asosida raqamli resurslarning ta’limga integratsiyasi muhokama qilinadi. Shuningdek, aralash o‘qitish (Blended Learning) modeli orqali an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari akademik litseylar uchun innovatsion ta’lim metodlarini ishlab chiqishda muhim manba bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *raqamli resurslar, morfologiya, akademik litsey, aralash ta’lim, interaktiv texnologiyalar, ta’lim innovatsiyalari.*

РАЗРАБОТКА ЦИФРОВЫХ РЕСУРСОВ ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ РАЗДЕЛА МОРФОЛОГИИ В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

В данной статье анализируются возможности использования цифровых ресурсов при преподавании раздела морфологии в академических лицеях. В связи с возрастающей ролью цифровых технологий в современном образовательном процессе, освещается важность интерактивных средств, мультимедийных презентаций, мобильных приложений и технологий AR/VR для эффективного преподавания уроков по разделу морфологии. В статье рассматривается интеграция цифровых ресурсов в образование на основе теорий конструктивизма и активного обучения. Также анализируется сочетание традиционных и современных педагогических подходов через модель смешанного обучения (Blended Learning), обсуждаются проблемы и предлагаются пути их решения в процессе внедрения цифровых технологий в образование. Результаты исследования могут стать важным источником при разработке инновационных методов обучения для академических лицеев.

Ключевые слова: *цифровые ресурсы, морфология, академический лицей, смешанное обучение, интерактивные технологии, образовательные инновации.*

DEVELOPMENT OF DIGITAL RESOURCES FOR TEACHING MORPHOLOGY IN ACADEMIC LYCEUMS

This article analyzes the potential for using digital resources in teaching morphology at academic lyceums. In light of the growing role of digital technologies in modern education, the importance of interactive tools, multimedia presentations, mobile applications, and AR/VR technologies for effective morphology instruction is highlighted. The article examines the integration of digital resources into education based on theories of constructivism and active learning. Additionally, it analyzes the combination of traditional and modern pedagogical approaches through the blended learning model, discusses challenges, and proposes solutions for implementing digital technologies in education. The research findings can serve as a valuable resource for developing innovative teaching methods for academic lyceums.

Keywords: *digital resources, morphology, academic lyceum, blended learning, interactive technologies, educational innovations.*

Kirish. XXI asrni “Zamonaviy ta’lim muhiti va raqamli texnologiyalar inqilobi” asri deb baholasak, mubolag‘a bo‘lmasa kerak, albatta. Fikrimiz isboti o‘laroq ta’lim jarayonining jadal rivojlanib borayotgan texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ayta olamiz. An’anaviy ta’lim usullariga raqamli texnologiyalar integratsiyasi natijasida o‘quv jarayoni samaradorligi ortib, o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Asrimiz olimlari ilmiy faoliyatlarida ta’lim tizimini interaktiv, multimediya va

https://buxdu.uz

onlayn resurslar bilan boyitishga katta e’tibor qaratilmoqda. Filologiya sohasida ham raqamli resurslardan foydalanish zarurati kundan kunga ortib bormoqda.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘quvchiga to‘liq va oson yetkazib berishda morfologiya bo‘limi alohida o‘ringa ega.

Morfologiya til strukturasini tashkil etuvchi asosiy bo‘lim bo‘lib, so‘z hosil bo‘lishi, undagi fonetik o‘zgarishlar, qo‘shimchalar va grammatik vazifalarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. An’anaviy usullar bilan bunday jarayonlarni tushuntirish qiyin bo‘lishi mumkin, shuning uchun interaktiv va vizual raqamli vositalar bu jarayonni soddalashtirib bera oladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Morfologiya bo‘limining nazariy asoslarini o‘qitishda konstruktivizm va aktiv o‘rganish nazariyalariga asoslaniladi. Bunda o‘quvchilar faol ishtirok etadigan, turli tajribalarga asoslanib bilim, ko‘nikma hamda malaka hosil qiladigan dars jarayonlari morfologiyani o‘rganishda samaradorlikni oshiradi. Raqamli texnologiyalar interaktivlikni ta’minlab, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Konstruktivizm – soddalik, funksionallik va tushunarlilik kabi jihatlarni o‘z ichiga olgan uslub. Ushbu yo‘nalish XX asrning boshlarida Rossiya va Germaniya tomonlarda arxitektura va san’at sohasida ishlatilgan. Vladimir Mayakovskiyni ko‘pincha konstruktivizm asoschisi deb atashadi. U o‘zining «В окнах роста» asarida omma uchun targ‘ibot san’atini yaratishni boshlagan. Chizmaning soddaligi va uning birinchi asarlarining primitivligi konstruktivizmning *qisqalik* va *tushunarlilik* jihatlarini oldindan belgilab bergan.

Keyinchalik bu nazariya ta’limga ham ko‘cha boshlagan. Dastlab adabiyotda o‘zini namoyon qilgan bo‘lib, so‘ngra tilshunoslikda ham qo‘llanila boshlagan.

Konstruktivizm – bu tajribani bilim olishning eng yaxshi usuli deb hisoblaydigan ta’lim falsafasidir[10]. Bundan ko‘rinadiki, bu nazariya o‘quvchilarda har qanday bilimni mustaqil ravishda egallash qobiliyatini shakllantiradi hamda o‘quvchida berilgan mavzuni muammo asosida o‘rganish taktikasi rivojlanadi. Shu bilan birgalikda, hamkorlikda o‘rganish orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Aktiv o‘rganish nazariyasi o‘zida quyidagilarni ifodalaydi:

1. Interfaollik: Talabalar dars jarayonida savollar berishadi va muhokamalarda ishtirok etadi.
2. Eksperiment va tajribalar orqali nazariy bilimlar mustahkamlanadi.
3. Refleksiya jarayonida o‘quvchilar bilimlarini tahlil qiladi.

Blended Learning (aralash o‘qitish) konsepsiyasi.

Blended Learning (aralash o‘qitish) konsepsiyasi zamonaviy ta’lim jarayonida inqilobiy yondashuv sifatida shakllanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga turli innovatsion usullarni olib kirish imkoniyatini yaratmoqda. Ayniqsa, modulli ta’lim tizimida majmuaviy yondashuvning ahamiyati ortib, turli metod va shakllarning moslashuvchan integratsiyasi aralash ta’limni yangi paradigmaga aylantirmoqda.

Ta’lim sohasida taniqli mutaxassis Deklan Bern “Blended learning”ni “Boy pedagogik tajribadan maksimal darajada foydalanishga qaratilgan samarali yondashuv” sifatida ta’riflaydi. Bu model an’anaviy o‘qitish metodlari bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirib, ta’lim jarayonini yanada samarali va jozibador qiladi. Ta’lim jarayonida turli uslublarni kombinatsiyalash orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi, ular bir xil formatdagi o‘qitishdan zerikib qolmaydi va bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari doimiy ravishda yuqori darajada saqlanib qoladi.

Muhokama. Eng muhim jihati – tanlangan pedagogik usullarning o‘zaro muvozanatini saqlash va minimal xarajat evaziga yuqori natijalarga erishishdir. Aralash ta’lim nafaqat individual va guruhiy ishlarni samarali tashkil etish, balki raqamli texnologiyalar va an’anaviy ta’lim formatlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘qitish sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shu sababli, u zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

https://buxdu.uz

An’anaviy dars uslublari bilan raqamli resurslarni birlashtirish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni nazariy va amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Aralash o‘qitishning asosiy tamoyillariga an’anaviy va raqamli ta’lim uyg‘unligi, shaxsiy yondashuv, moslashuvchanlik hamda interfaollik kiradi.

Aralash o‘qitishning afzalliklari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Mustaqil o‘rganish imkoniyati.
2. Ta’lim resurslaridan keng foydalanish.
3. Doimiy baholash imkoniyati.

Bugungi kunda **akademik litseylarda** ta’lim samaradorligini oshirishda hamda dars jarayonlarini tashkil etishda, ayniqsa, ona tili ta’limida foyd**alanish mumkin bo‘lgan raqamli resurslarning t**urlari va ularning xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz.

Multimedia prezentatsiyalari – matn, audio va video materiallarni birlashtirgan taqdimotlar orqali murakkab morfologik tushunchalarni vizual tarzda yetkazish mumkin. Bu turdagi texnologik resurslardan samarali foydalanish orqali morfologiyani o‘rganish o‘quvchining mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi. Mustaqil so‘z turkumlarining turli shakllarini o‘rganish va ulardan yangi so‘z hosil qilish, o‘zaro qiyoslash va tanlash, tanlab olingan so‘zni gap tarkibida o‘rinli ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Interaktiv darsliklar va veb-platformalar – morfologik tahlil, so‘z tuzilishi va qo‘shimchalar bilan bog‘liq mashqlar va testlar interaktiv shaklda taqdim etilishi o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi.

Animatsiyalar va vizual modellash – so‘z hosil bo‘lish jarayonlarini animatsiya yordamida ko‘rsatish, o‘quvchilarga murakkab grammatik jarayonlarni, so‘z turkumlari uslubiyatini yanada aniq tushunishga yordam beradi.

Mobil ilovalar va gamifikatsiya – o‘yin elementlari bilan boyitilgan ilovalar orqali talabalar tilshunoslik tahlilida asosiy obyekt bo‘lgan so‘zning morfologik va leksik jihatlarini solishtirish orqali egallangan bilimlarni takrorlashi, yangi xulosalarni o‘zlashtirishi va mustahkamlashi mumkin.

Virtual laboratoriyalar va AR/VR texnologiyalari – morfologiya bo‘limi tarkibini, so‘z turkumlari, so‘zning morfolgik shakli, grammatik tahlillarni amalga oshirish uchun virtual sinflar va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish orqali tajriba asosida o‘rganishni tashkil etish mumkin.

Tahlil. Asrimizning jadal rivojlanib borayotgan ta’lim bozorida samaradorlikka erishish uchun tinimsiz izlanish, o‘qish va harakatda bo‘lish talab etiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida intellektual rivojlanish jarayonida bugunning yoshlari bilim olishi uchun davlatimiz rahbari tomonidan juda katta strategiyalar ishlab chiqilmoqda. “Taraqqiyot strategiyasi”ning IV bandiga ko‘ra “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”da ta’lim tizimi uchun qator maqsadlar o‘rnatilgan, masalan: “2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqish va amalda joriy etish”. Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish uchun pedagog xodimlar ham tinimsiz izlanmoqdalar. Shu sababli ta’lim tashkilotlari turli xalqaro tajribalarni o‘rganib, ta’lim muhitini o‘zgartirish, aynan kerakli sohalar uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlashda o‘rta maxsus ta’lim ta’lim tizimining asosiy bosqichi sifatida ko‘rilmoqda.

Akademik litseylarda raqamli resurslarni ishlab chiqish jarayonining **talab va ehtiyojlari quyidagilar:**

1. O‘quvchilarning bilim darajasi va o‘zlashtirish natijalarini o‘rganish.
2. Morfologiya bo‘limining asosiy mavzularini aniqlash.
3. **O‘quv maqsadlarini belgilash va o**‘lchovli o‘quv natijalarini aniqlash.
4. Raqamli resurslar orqali erishilishi kerak bo‘lgan natijalarni belgilash.
5. Raqamli kontentni yaratish.
6. Materiallarning pedagogik dizaynini ishlab chiqish.
7. Yangi loyihalarni sinovdan o‘tkazish.
8. Yangi texnologiyalarni joriy etish.
9. O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun qo‘llanmalar ishlab chiqish.
10. O‘quvchilarning natijalari va qoniqish darajasini baholash.
11. Resurslarni doimiy ravishda takomillashtirish.

Izlanishlarimiz natijasida shuni ham aniqladikki, akademik litsey dars ta’limida o‘quvchining butun diqqatini fanga qaratishda va uning fikrini pedagog sifatida o‘qiy olish maqsadida o‘qituvchi amaliy misollar berishi va ilmiy tajribalar bilan o‘quvchini tanishtirib borishi kerak. Masalan:

Case Study (amaliy tadqiqotlar). Bu metodning nomi inglizcha “case-study” so‘zlaridan olingan. Bunda “case” – yashik, quti, g‘ilof, jild, “study” – o‘rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug‘ullanish, o‘quv fani, saboq olish, o‘qish ma’nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan “case – true life”, ya’ni “keys – haqiqiy hayot” iborasiga ko‘ra keys – real hayotning “bir parchasidir”. Shunga ko‘ra bu metodni

https://buxdu.uz

“amaliy holatlarni o‘qitish metodi” deb ham atashadi. Shu sababli G‘arb mamlakatlaridagi ta’lim muassasalarida Case study metodidan, ya’ni keyslardan foydalanish o‘quv rejasining 25 % ini tashkil qiladi[9].

Pilot loyihalar – maxsus sinflarda yoki guruhlarda kichik hajmli tajribalar o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish. Pilot loyihalar morfologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali tilshunoslik jarayonlarini yaxshiroq tushunish, yangi metodlarni sinovdan o‘tkazish va amaliy qo‘llash imkoniyati yaratiladi. Pilot loyihalar tilshunoslik, ayniqsa, morfologiya tadqiqotlarida muhim rol o‘ynashi mumkin. Morfologiya tadqiqotlarida pilot loyihalarning qo‘llanilishi quyidagicha beriladi:

Til tajribalarini o‘tkazish – yangi terminlar, grammatik shakllarning o‘zgarishi yoki dialektal o‘zgarishlarni tadqiq qilish uchun pilot tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tarjima – matnlarni morfologik jihatdan tahlil qilish va ularni avtomatik qayta ishlash tizimlarini sinovdan o‘tkazish.

O‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlar – morfologiya o‘qitish metodlarini sinab ko‘rish uchun pilot ta’lim dasturlarini ishlab chiqish.

Morfologik tahlil dasturlarini yaratish – tilshunoslik dasturlarining dastlabki versiyalarini sinab ko‘rish.

Ko‘p platformali integratsiya. Tilshunoslikda Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi platformalar bilan integratsiya yaratish. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan ko‘p platformali integratsiya tilshunoslik va morfologiya tadqiqotlarida inqilobiy o‘zgarishlarni boshlab berdi. Ushbu yondashuv turli tillarning morfologik tizimlarini avtomatlashtirilgan algoritmlar vositasida chuqur tahlil qilish, ularni real vaqt rejimida bir-biriga moslashtirish va lingvistik tahlil jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Natijalar. An’anaviy morfologiya tahlillari, odatda, cheklangan ma’lumotlar to‘plamiga asoslangan bo‘lsa, ko‘p platformali integratsiya bu jarayonning ko‘lamini kengaytirib, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish texnologiyalari yordamida har qanday til tizimini o‘rganish imkonini beradi. Shunday qilib:

Til tizimlari o‘rtasidagi avtomatik moslashuv – algoritmlar turli tillarning grammatik tuzilishini solishtirib, morfologik xususiyatlarni avtomatik ravishda moslashtiradi.

Dinamika va kontekstual tahlil – integratsiya qilingan tizimlar faqat statik so‘z shakllarini emas, balki ularning real hayotdagi o‘zgaruvchanligini ham o‘rganadi.

Sun’iy intellekt yordamida moslashuvchan o‘rganish – tizimlar yangi lug‘aviy birliklar va grammatik modifikatsiyalarni doimiy ravishda yangilab boradi.

Ko‘p platformali integratsiya morfologiya sohasida inqilob yaratib, avtomatik tarjima tizimlarini rivojlantirish, ovozli yordamchilarni mukammallashtirish va yangi til modellarini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Natijada, inson nutqining eng murakkab jihatlari ham zamonaviy texnologiyalar yordamida chuqur tahlil qilinishi va raqamli muhitda mukammal qo‘llanilishi mumkin. Ushbu innovatsion yondashuv orqali lingvistik ilm-fan va sun’iy intellekt simbiozi kelajakdagi tilshunoslik tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishiga aylanadi.

Innovatsion yondashuv orqali lingvistik tadqiqotlarni amalda qo‘llash jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularning yechimlariga ham alohida to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Ular quyidagilar:

1.**Texnik cheklovlar**: Internet va texnik jihozlar yetishmovchiligi.

2.**O‘qituvchilarning raqamli savodxonligi**: Maxsus trening va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.

3.**Talabalar motivatsiyasi**: Gamifikatsiya va interaktiv elementlar kiritish.

4.**Moliyaviy cheklovlar**: Grantlar va homiylik mablag‘larini jalb etish.

Bu muammolar o‘z joyida hal etilsa, ta’lim tizimimiz xorij ta’lim tizimidan qolishmaydiga darajada yuqorilab boraveradi. Olib borayotgan tadqiqot ishimizda yuqorida aytib o‘tilgan raqamli texnologiyalarni fanga chuqur tatbiq qilish uchun bir qancha rejalar tayyorlab qo‘ydik.

Kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlari:

1.Sun’iy intellekt va adaptiv o‘quv tizimlarini yaratish.

2.Raqamli resurslarning samaradorligini chuqur tahlil qilish.

3.AR/VR texnologiyalarini kengaytirish.

Xulosa va takliflar. Morfologiya bo‘limini o‘qitishda raqamli resurslardan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishiga, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

https://buxdu.uz

Raqamli texnologiyalar, xususan, interaktiv darsliklar, multimedia taqdimotlari, animatsiyalar, gamifikatsiyaga asoslangan mobil ilovalar va virtual laboratoriyalar morfologiyani vizual va interfaol usullar orqali o‘rgatish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirib, bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, blended learning (aralash o‘qitish) modeli asosida an’anaviy dars usullari bilan raqamli resurslarni uyg‘unlashtirish samarali natijalar beradi. Ushbu model o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olish imkonini yaratib, ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshiradi, biroq raqamli ta’limning joriy etilishida muayyan qiyinchiliklar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetishmovchiligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish kabi muammolar dolzarb hisoblanadi. Bu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy pedagogik usullarni joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, maxsus metodik qo‘llanmalar yaratish va ta’lim tizimini raqamli transformatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida morfologiyani o‘qitishda sun’iy intellekt va adaptiv o‘quv tizimlarini rivojlantirish, AR/VR texnologiyalarini keng joriy etish hamda raqamli resurslarning samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish zarur. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonining yanada samarali, innovatsion va o‘quvchilarga moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, akademik litseylarda morfologiya bo‘limini o‘qitish uchun raqamli resurslarni ishlab chiqish va joriy etish nafaqat ta’lim jarayonini takomillashtirish, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim olish darajasini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois kelajakda ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish va yangi texnologik yechimlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Azimov U. O‘zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
2. Bo‘ronov U., Yo‘ldoshev A. Morfologiya va sintaksis asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019.
3. G‘ulomov M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitlari. – Toshkent: Ilm ziyosi, 2021.
4. Qodirov N. Interaktiv o‘qitish metodlari va ta’lim jarayonida innovatsiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
5. Xodjayev R. Elektron ta’lim resurslari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2020.
6. Shonazarov M. Blended Learning va ta’limda uning ahamiyati. –Toshkent: Ilm-fan markazi, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. (Respublika qonunchilik bazasi).
8. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Ta’lim tizimida raqamli transformatsiya bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi, 2023.
9. Sadikova Y. S. Ta’limda “Case study” texnologiyasi. // Academic research in modern science. International scientific-online conference, 2023. – P.24-28.
10. Eldasheva G. V. Bilim – bu kashfiyot jarayoni: konstruktivizm ta’limni qanday o‘zgartirdi? // Образование и инновационные исследования, 2022. № 7. – С.201-203.

https://buxdu.uz

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA IMMITATSION MODELLARDAN FOYDALANISH SHAKL VA METODLARI

Jo‘raqulov Jasur Javhar o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda imitatsion modellarni qo‘llash shakl va metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida taqqoslash o‘tkazilib, imitatsion usullar talabalar bilimini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali ekani aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bunday metodlar an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda samaraliroqdir. Tadqiqot natijalari imitatsion modellarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, imitatsion modellar, innovatsion ta’lim, rolli o‘yinlar, simulyatsiya, amaliy ko‘nikmalar, pedagogika.*

ФОРМА И МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИМИТАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

В данной статье анализируются формы и методы применения имитационных моделей в развитии профессиональной компетентности студентов. В ходе исследования было проведено сравнение между экспериментальной и контрольной группами, и было установлено, что имитационные методы эффективны в повышении уровня знаний студентов, развитии навыков самостоятельного принятия решений и решения проблем. Результаты показали, что такие методы более результативны в формировании профессиональных навыков по сравнению с традиционными методами обучения. Результаты исследования подтверждают необходимость широкого внедрения имитационных моделей в образовательный процесс.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, имитационные модели, инновационное образование, ролевые игры, симуляция, практические навыки, педагогика.*

METHODS AND FORMATS OF USING IMITATION MODELS IN DEVELOPING STUDENTS’ PROFESSIONAL COMPETENCE

This article analyzes the forms and methods of applying imitation models in the development of professional competence of students. During the study, a comparison was carried out between experimental and control groups, and it was found that imitation methods are effective in improving student knowledge, developing independent decision-making and problem-solving skills. The results showed that such methods are more effective in forming professional skills than traditional teaching methods. The results of the study confirm the need for the widespread introduction of imitation models into the educational process.

Keywords: *professional competence, imitation models, innovative education, role-playing games, simulation, practical skills, pedagogy.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, imitatsion modellarni qo‘llash samarali usullardan biri hisoblanadi. Imitatsion modellar real hayotiy sharoitlarni yaratish va talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga yordam beradigan metodlar majmuasidir (Kolb, 2015). Ular talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularni amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga, mustaqil qaror qabul qilishiga va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi (Schön, 2017). Ta’lim jarayonida imitatsion modellarni qo‘llash nafaqat kasbiy kompetentligini rivojlantirish, balki talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, o‘z kasbiga nisbatan mas’uliyat hissini oshirish va real hayotga yaqin bo‘lgan sharoitlarda tajriba orttirishga imkon yaratadi (Merrill, 2020). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, imitatsion o‘qitish metodlari an’anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi (Anderson & Krathwohl, 2001).

Imitatsion modellar turli shakllarda bo‘lib, ularning ichida rolli o‘yinlar, ssenariy asosidagi ta’lim, simulyatsion mashg‘ulotlar, virtual laboratoriyalar va raqamli platformalar mavjud (Reigeluth, 2016). Bu usullar zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda, talabalar uchun yanada samarali o‘quv

https://buxdu.uz

jarayonini ta’minlaydi. Xususan, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan simulyatsion o‘qitish metodlari tobora ommalashib bormoqda va interaktiv muhit yaratish orqali ta’lim sifati va talabalarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi (Garrison & Vaughan, 2008). Shuningdek, imitatsion modellar asosida o‘qitish pedagoglar oldiga ham yangi talablarni qo‘yadi. Ular talabalarning o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish, muhitni moslashtirish va o‘quv resurslaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerak (Laurillard, 2013). Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar asosida imitatsion metodlarni qo‘llash va ularning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada imitatsion modellar asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish shakllari va metodlari o‘rganiladi. Tadqiqot davomida imitatsion metodlarning nazariy asoslari, ularning amaliy qo‘llanilishi va samaradorligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Imitatsion modellar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Anderson va Krathwohl (2001) o‘z tadqiqotlarida Bloom taksonomiyasiga asoslangan holda o‘quvchilarning kognitiv rivojlanish jarayonini tahlil qilgan va imitatsion modellar ularning yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlagan. Xuddi shuningdek, Schön (2017) tomonidan ilgari surilgan reflektiv amaliyot modeli talabalarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Reigeluth (2016) o‘z tadqiqotida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimlarining samaradorligi va imitatsion metodlarning bu jarayonda tutgan o‘rnini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, simulyatsion o‘qitish metodlari real vaziyatlarni yaratish orqali talabalarni yanada faol o‘rganish jarayoniga jalb etadi. Kolb (2015) esa tajribaga asoslangan o‘qitish modelini ilgari surib, imitatsion ta’limning amaliy qobiliyatlarni shakllantirishdagi rolini ta’kidlagan. Bundan tashqari, Garrison va Vaughan (2008) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan imitatsion ta’lim usullari talabalarning bilim olish jarayoniga chuqurroq singishiga va o‘z kasbiy faoliyatini yanada samarali rivojlantirishga imkon yaratadi. Merrill (2020) esa o‘z tadqiqotlarida imitatsion modellar asosida o‘qitishning motivatsiyani oshirish va o‘quv jarayonini jonlantirishdagi muhim jihatlarini tahlil qilgan.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda imitatsion modellar qo‘llanilishining samaradorligini baholash maqsadida eksperimental tadqiqot olib borildi. Tadqiqot 2024-yil davomida O‘zbekistonning turli universitetlarida tahsil olayotgan 120 nafar bakalavriat talabalari ishtirokida o‘tkazildi. Ishtirokchilar ikkita guruhga ajratildi: tajriba guruhi (60 nafar) va nazorat guruhi (60 nafar). Tajriba guruhiga imitatsion modellar asosida darslar olib borildi, jumladan, rolli o‘yinlar, virtual simulyatsiyalar va ssenariy asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Nazorat guruhi esa an’anaviy o‘qitish metodlaridan foydalangan holda ta’lim oldi.

Imitatsion modellar iqtisodiyot, ekologiya, sog‘liqni saqlash, transport, ishlab chiqarish kabi sohalarda qo‘llaniladi. Imitatsion modellarni yaratish murakkab jarayon bo‘lishi mumkin va ularning aniqligi va ishonchliligi modelning murakkabligiga, ishlatilgan ma’lumotlarning sifatiga va modelning soddalashtirilganligi darajasiga bog‘liq.

Yuqoridagi adabiyotlarni o‘rganish hamda olib borilgan tajriba tadqiqotlarlaning tahlili asosida immitatsion model tushunchasiga quyidagicha mualliflik yondashuvi berildi:

Imitatsion model[12] (simulatsiya modeli) – bu real dunyo sistemasi yoki jarayonining soddalashtirilgan tasviri bo‘lib, uning xulq-atvori va xususiyatlarini o‘rganish, tahlil qilish va bashorat qilishda foydalaniladi. Mazkur model kompyuter texnologiyalari dasturlari yordamida yaratilib, real dunyo sistemasi elementlarini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi va taqlid qilish imkoniyatiga ega.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, imitatsion modellar asosida o‘qitilgan talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajasi sezilarli darajada oshgan. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalar o‘z bilimlarini amalda qo‘llash qobiliyatining oshganini ta’kidladilar. Ularning 87% ta’lim jarayonidan qoniqish hosil qilganini bildirgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 62% ni tashkil etdi. Test natijalariga ko‘ra, tajriba guruhi o‘rtacha 85% natija ko‘rsatgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 70% bo‘ldi. Ayniqsa, muammolarni hal qilish va analitik tafakkur ko‘nikmalariga doir topshiriqlarda tajriba guruhi ancha yuqori natijalarni qayd etdi.

Tadqiqotda imitatsion modellar bir qator maqsadlar uchun qo‘llaniladi (1-rasmga qarang).

[1] Mualliflik yondashuvi

https://buxdu.uz



1-rasm. Imitatsion modellarni qo‘llash maqsadlari mazmuni

Kuzatish jarayonida imitatsion modellar bilan shug‘ullangan talabalar mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va kasbiy muammolarni real sharoitda hal qilish bo‘yicha yaxshiroq natijalarga erishganlari aniqlandi. Masalan, simulyatsion mashg‘ulotlarda ishtirok etgan talabalar vaziyatlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini 25% ga yaxshilaganligi kuzatildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, imitatsion modellar asosida o‘qitish talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning kasbiy ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bu metodni kengroq joriy etish tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari batafsil tahlil qilinganda, imitatsion modellar asosida o‘qitish nafaqat talabalarning umumiy bilim darajasini, balki ularning turli kasbiy kompetensiyalarini ham oshirganligi aniqlandi.

Jumladan,

-tajriba guruhida ishtirok etgan talabalar kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini **30%** ga yaxshilagan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi **12%** ni tashkil etdi.

Shuningdek, talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan reflektiv tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi **92%** talaba o‘quv jarayoni davomida o‘zini yanada faol va ishtirokchi sifatida his qilgan. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich **68%** ga teng bo‘ldi.

Imitatsion modellar asosida ta’lim olgan talabalar o‘zlarining kasbiy ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish qayd etganliklarini ta’kidladilar. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalarning 78% kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga ishonchi ortganini bildirgan. Nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 55% ni tashkil etdi.

Shuningdek, o‘qitish jarayonida simulyatsiya va rolli o‘yinlardan foydalangan talabalar an’anaviy usul bilan o‘qitilgan talabalarga nisbatan muammolarni hal qilish qobiliyatini 35% ga yaxshilaganliklarini qayd etdilar. Kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi talabalarining 90% o‘z kasbiy sohasida amaliy tajribaga ega bo‘lish imkoniyatiga ega ekanliklarini his qilgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 65% ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, tajriba guruhida talabalar o‘z kasbiy sohalariga bo‘lgan qiziqishlarining oshganligini ham qayd etdilar. Masalan, 85% talaba simulyatsion mashg‘ulotlar orqali o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga tayyorligini bildirgan.

Yuqoridagi natijalar imitatsion modellar orqali o‘qitishning samaradorligini tasdiqlab, ularni kengroq tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Virtual simulatsiyalar va rolli o‘yinlar yordamida o‘tilgan darslar talabalarning jamoada ishlash qobiliyatini ham oshirdi. Masalan, guruh ishlarida talabalar o‘zaro hamkorlik qilish va muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashish qobiliyatini **40%** ga oshirganliklarini qayd etdilar. Umuman olganda, imitatsion modellar asosida o‘qitish talabalarning nazariy bilimlarini real kasbiy vaziyatlarga tatbiq etish

https://buxdu.uz

qobiliyatini ancha oshirishini tasdiqladi. Shu sababli, ushbu metodlarni yanada kengroq tatbiq etish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lishi mumkin.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, imitatsion modellar asosida o‘qitish talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda an’anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekani tasdiqlandi. Tajriba guruhi natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday usullar talabalar bilimini mustahkamlash, amaliy qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bu natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan ham uyg‘un bo‘lib, Kolb (2015) tomonidan ilgari surilgan tajribaviy ta’lim modeli va Reigeluth (2016) tomonidan ta’kidlangan shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning samaradorligi bilan mos keladi. Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, tajriba guruhining yuqori natijalarga erishgani shuni ko‘rsatadiki, simulyatsiya va rolli o‘yinlar kabi interaktiv usullar ta’lim samaradorligini oshiradi. Merrill (2020) tadqiqotlarida ham imitatsion modellar motivatsiya va ishtirokni kuchaytirishi qayd etilgan edi. Biroq, imitatsion modellarni tatbiq etishda ayrim qiyinchiliklar ham kuzatildi. Jumladan, bu metodlar ko‘proq vaqt va texnik resurslarni talab qiladi. Shu sababli, ularni ta’lim jarayoniga joriy etishda pedagoglarning malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, har bir o‘quv yo‘nalishiga mos keladigan imitatsion metodlarni ishlab chiqish lozim.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan ilmiy metodik jarayon natijasida talabalarda imitatsion modellardan foydalanish ko‘nikmasi hosil bo‘lishi kuzatildi.

Imitatsion modellardan foydalanish ko‘nikmasi[3] – bu murakkab sistemalarni modellashtirish va tahlil qilish uchun imitatsion modellarni yaratish, qo‘llash va talqin qilish qobiliyatидир. Ушбу ko‘nikma quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Muammoni aniqlash va modellashtirish maqsadlarini belgilash:

-real dunyo muammosini aniq va aniq ta’riflash;

-muammoni modellashtirish orqali hal qilishning mumkinligini baholash;

-modellashtirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilash (nima o‘rganiladi va qanday natijalar kutilmoqda?).

2. Modelni loyihalash:

-modellashtirilayotgan sistemaning asosiy elementlari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash;

-modelning tuzilishi va parametrlarini tanlash (qanday o‘zgaruvchilar va ularning o‘zaro ta’siri modellashtiriladi?);

-modelning soddalashtirilganligini aniqlash (modellashtirish uchun qanday taxminlar qilingan?).

3. Modelni yaratish va simulyatsiya qilish:

-tanlangan dasturiy ta’minot yordamida modelni yaratish. (masalan, AnyLogic, Arena, NetLogo);

-modelning to‘g‘riligiga va ishonchliligiga ishonch hosil qilish uchun tekshiruvlar o‘tkazish;

simulyatsiyani o‘tkazish va natijalarni to‘plash.

4. Natijalarni tahlil qilish va talqin qilish:

-simulyatsiya natijalarini statistik usullar yordamida tahlil qilish;

-natijalarni real dunyo sharoitiga tatbiq etish;

-natijalarni tushuntirish va xulosalar chiqarish;

-modellashtirish jarayonidagi cheklovlarni va noaniqliklarni aniqlash va baholash.

5. Modelni takomillashtirish:

natijalarga asoslanib, modelni takomillashtirish;

yangi ma’lumotlarni va bilimlarni hisobga olish;

modelning aniqligi va samaradorligini oshirish.

Imitatsion modellardan foydalanish ko‘nikmasi nafaqat dasturiy ta’minotdan foydalanishni, balki muammoni tahlil qilish, modelni loyihalash, simulyatsiya natijalarini talqin qilish va xulosalar chiqarish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikma turli sohalarda, jumladan, tadqiqot, ta’lim va qaror qabul qilish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Ushbu tadqiqot imitatsion modellar asosida o‘qitish talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali usul ekanligini tasdiqladi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, imitatsion metodlar talabalar bilimini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning kasbiy muhitga moslashuvini yaxshilashga yordam beradi. Tajriba guruhining yuqori natijalari shuni ko‘rsatadiki, simulyatsiya, rolli o‘yinlar va ssenariy asosidagi mashg‘ulotlar talabalarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi. Shuningdek, talabalar mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va jamoaviy ish olib borish bo‘yicha sezilarli darajada rivojlanganliklarini namoyish etdilar. Shu bilan birga, imitatsion modellarni qo‘llash muayyan resurslarni va pedagoglarning tayyorgarligini talab qiladi. Ularni samarali

[3] Mualliflik yondashuvi

https://buxdu.uz

tatbiq etish uchun o‘quv dasturlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ta’lim muassasalarini zaruriy texnik vositalar bilan ta’minlash lozim. Umuman olganda, imitatsion modellar talabalarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim vosita bo‘lib, ularning bo‘lajak ish faoliyatiga samarali tayyorgarlik ko‘rishiga yordam beradi. Shu sababli, ushbu usullarni kengroq joriy etish va pedagoglarning malakasini oshirish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. Longman.
2. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. John Wiley & Sons.
3. Kolb, D. A. (2015). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Pearson Education.
4. Laurillard, D. (2013). Rethinking university teaching: A conversational framework for the effective use of learning technologies. Routledge.
5. Merrill, M. D. (2020). First principles of instruction: Identifying and designing effective, efficient, and engaging instruction. Wiley.
6. Reigeluth, C. M. (2016). Instructional design theories and models: An overview of their current status. Routledge.
7. Schön, D. A. (2017). The reflective practitioner: How professionals think in action. Routledge.

https://buxdu.uz

УДК.372.862

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА У УЧАЩИХСЯ: STEM, ПРОЕКТНОЕ ОБУЧЕНИЕ И ЦИФРОВАЯ СРЕДА

Балтабаев Жаксылык Оразбаевич,
и.о. доцента Нукусского государственного педагогического института, PhD
jaksilik_baltabaev@mail.ru

В условиях стремительного технологического прогресса развитие технического творчества у учащихся становится важной задачей образования. В данной статье рассматриваются современные технологии и методики, способствующие развитию инженерного мышления. Основное внимание уделено интеграции STEM-образования, проектного обучения, FabLab-лабораторий и цифровых технологий (ИИ, VR/AR). Приведены сравнительные данные эффективности различных методик, подтверждённые исследованиями. Определены перспективные направления для внедрения в образовательный процесс.

Ключевые слова: *STEM-образование, проектное обучение, FabLab, искусственный интеллект (ИИ), виртуальная реальность, техническое творчество, цифровые технологии.*

O‘QUVCHILARDA TEXNIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: STEM, LOYIHAGA ASOSLANGAN TA’LIM VA RAQAMLI MUHIT

Jadal texnologik taraqqiyot sharoitida o‘quvchilarda texnik ijodkorlikni rivojlantirish ta’limning muhim vazifalariga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada muhandislik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradigan zamonaviy texnologiyalar va usullar ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor STEM ta’limi, loyihaga asoslangan ta’lim, FabLab laboratoriyalari va raqamli texnologiyalar (SI, VR/AR) integratsiyasiga qaratilgan. Tadqiqotlar bilan tasdiqlangan turli usullarning samaradorligi bo‘yicha qiyosiy ma’lumotlar keltirilgan. Ta’lim jarayoniga joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlari belgilab berildi.

Kalit so‘zlar: *STEM ta’limi, loyihaga asoslangan ta’lim, FabLab, sun’iy intellekt (SI), virtual haqiqatlik, texnik ijodkorlik, raqamli texnologiyalar.*

MODERN TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING TECHNICAL CREATIVITY IN STUDENTS: STEM, PROJECT-BASED LEARNING AND DIGITAL ENVIRONMENT

In the context of rapid technological progress, the development of technical creativity in students is becoming an important task of education. This article examines modern technologies and methods that promote the development of engineering thinking. The main focus is on the integration of STEM education, project-based learning, FabLab laboratories and digital technologies (AI, VR/AR). Comparative data on the effectiveness of various methods, confirmed by research, are provided. Promising areas for implementation in the educational process are identified.

Keywords: STEM education, project-based learning, FabLab, artificial intelligence (AI), virtual reality, technical creativity, digital technologies.

Введение. В условиях стремительного технологического прогресса развитие технического творчества у учащихся становится стратегически важной задачей системы образования. Цифровая трансформация и четвёртая промышленная революция приводят к смене парадигмы обучения, где приоритет отдаётся не только усвоению знаний, но и развитию инженерного мышления, инновационных способностей и критического подхода к решению задач. В современных условиях традиционные методы преподавания становятся менее эффективными, уступая место интегрированным образовательным технологиям, таким как STEM-образование, проектное обучение и цифровая среда (FabLab, ИИ, VR/AR).

Техническое творчество является неотъемлемым элементом подготовки будущих специалистов в инженерных, технологических и научных областях. Исследования OECD (2022) показывают, что уровень развития технического творчества напрямую влияет на технологическую конкурентоспособность страны. В связи с этим актуальным становится вопрос о внедрении инновационных методик, способствующих формированию у учащихся способности к самостоятельному решению инженерных задач и созданию новых технических решений.

https://buxdu.uz

STEM-образование объединяет науки, технологии, инженерию и математику, обеспечивая комплексный междисциплинарный подход. Проектное обучение позволяет учащимся работать над реальными проблемами, развивая аналитические и исследовательские навыки. FabLab-лаборатории предоставляют возможность непосредственного взаимодействия с технологиями цифрового производства, стимулируя творческий процесс. Виртуальная и дополненная реальность расширяют границы образовательного процесса, делая обучение более интерактивным и эффективным.

Таким образом, в данной статье проведён анализ наиболее эффективных технологий, применяемых для развития технического творчества у учащихся, с учётом последних научных исследований и практических внедрений.

Методология исследования. В ходе исследования использовался комплексный подход, включающий несколько методов для оценки эффективности современных образовательных технологий.

1. Экспериментальный дизайн

Были выбраны две группы учащихся: контрольная (традиционные методы) и экспериментальная (STEM, FabLab, VR/AR). В течение нескольких месяцев проводился анализ их вовлечённости, уровня мотивации и успеваемости.

2. Методы сбора данных

- Анкетирование преподавателей и студентов для оценки восприятия цифровых технологий [3].
- Анализ данных SCOPUS и Web of Science по внедрению FabLab и цифровых технологий в образование.
- Эмпирические исследования влияния проектного метода на успеваемость учащихся.
- Качественный анализ публикаций, посвященных интеграции цифровых технологий в образовательный процесс.
- Применение статистических методов (корреляционный анализ, t-тесты) для определения значимости выявленных различий.

3. Кейс-стади

Рассматривались успешные примеры внедрения FabLab в школах и университетах [2], а также практики использования VR-симуляторов в инженерном образовании [6].

Таким образом, предложенная методология позволила получить объективные данные о влиянии современных технологий на развитие технического творчества, обеспечив комплексный анализ их эффективности. Это позволило выявить ключевые факторы, способствующие успешному внедрению STEM-образования, FabLab и цифровых технологий в образовательный процесс, а также определить направления для дальнейших исследований в области совершенствования методик технического обучения.

Результаты исследования.

1. STEM и проектное обучение

STEM-образование включает междисциплинарный подход, объединяющий науку, технологии, инженерию и математику. Согласно исследованиям, учащиеся, работающие по методике STEM, демонстрируют рост критического мышления на 40-60% [1]. Данные сравнительного анализа представлены в таблице 1.

Таблица 1.

Сравнение вовлечённости и роста критического мышления

Метод обучения	Вовлеченность учащихся	Рост критического мышления
Традиционное	45%	20%
STEM + PBL	85%	60%

Дополнительные исследования показывают, что интеграция искусства в STEM (STEAM) способствует развитию креативности и инновационного мышления у учащихся [4]. По данным исследования, учащиеся, участвующие в STEAM-проектах, показали улучшение творческих навыков на 35% по сравнению с традиционными методами обучения.

2. FabLab и цифровые лаборатории

FabLab (Fabrication Laboratory) позволяют учащимся применять теоретические знания на практике, используя 3D-принтеры, лазерные резаки и микроконтроллеры. Исследования показывают, что ученики, работающие в FabLab, имеют более высокий уровень инновационного мышления (на 50% выше, чем в традиционных лабораториях) [2].

https://buxdu.uz



Диаграмма 1. Рост инженерных компетенций в зависимости от технологии обучения

Кроме того, внедрение FabLab способствует повышению мотивации учащихся. Согласно исследованию, проведённому в 2024 году, 78% студентов отметили, что работа в FabLab повысила их интерес к инженерным дисциплинам [5].

3. Искусственный интеллект и VR/AR

ИИ и виртуальная реальность активно используются для персонализации образовательного процесса. По данным, адаптивные системы на основе ИИ повышают эффективность обучения на 30-50% [3]. Примером является использование виртуальных симуляторов в инженерном образовании, которые позволяют моделировать сложные процессы без материальных затрат.

Таблица 2.

Эффективность цифровых технологий в образовании

Технология	Улучшение успеваемости	Рост вовлечённости
VR/AR	50%	70%
ИИ-системы	40%	60%
Традиционные методы	20%	30%

Дополнительные исследования показывают, что использование VR/AR технологий способствует лучшему пониманию сложных концепций [6]. В исследовании 2023 года было установлено, что студенты, обучающиеся с использованием VR, показали на 25% лучшие результаты на экзаменах по сравнению с контрольной группой.

Обсуждение. Полученные результаты подтверждают, что сочетание STEM, проектного метода и цифровых технологий значительно повышает эффективность развития технического творчества. Важно отметить, что успешное внедрение этих методик требует модернизации образовательной инфраструктуры и переподготовки преподавателей.

В частности, внедрение FabLab и VR-технологий требует значительных вложений, однако результаты показывают, что такие инвестиции оправданы с точки зрения роста компетенций и вовлеченности учащихся. Кроме того, необходимо учитывать индивидуальные особенности студентов и адаптировать методы обучения в соответствии с их потребностями.

https://buxdu.uz



Диаграмма 2. Распределение технологий по влиянию на техническое творчество

Заключение. Современные технологии, включая STEM, FabLab, ИИ и VR, представляют собой мощные инструменты для развития технического творчества у учащихся. Исследования показывают, что интеграция этих технологий не только повышает вовлечённость учащихся, но и способствует развитию критического и аналитического мышления, необходимых для успешной профессиональной карьеры в технологических сферах.

Однако успешное внедрение данных методик требует значительных ресурсов, включая модернизацию образовательной инфраструктуры, профессиональное развитие педагогов и адаптацию учебных программ под новые реалии. Кроме того, важным аспектом является персонализация обучения и учёт индивидуальных особенностей учащихся при применении цифровых технологий.

Перспективными направлениями дальнейших исследований являются разработка интегрированных образовательных программ, сочетающих элементы STEM, цифровых технологий и проектного обучения, а также анализ долгосрочного влияния этих методик на профессиональную успешность выпускников. Необходимы дополнительные исследования по разработке и внедрению адаптивных образовательных систем, использующих искусственный интеллект и VR/AR для персонализированного обучения.

Внедрение инновационных методик технического творчества является не просто образовательной задачей, а стратегическим направлением подготовки нового поколения специалистов, способных решать сложные инженерные задачи и развивать новые технологические решения. Это подтверждается данными современных исследований и требует дальнейшего совершенствования образовательных подходов на основе цифровых технологий.

Литература:

1. OECD. (2022). Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing.
2. Kim, H., Park, J., & Lee, S. (2023). The Impact of FabLab on Engineering Creativity: A Comparative Study. // Journal of Engineering Education, 112(3), 245-260.
3. Zhang, Y., & Li, P. (2023). Artificial Intelligence and Virtual Reality in Education: A Systematic Review. // Computers & Education, 198, 104563.
4. Brown, A., Davis, K., & Thompson, L. (2023). Integrating Art into STEM: A Study on STEAM Education Impact. // Journal of Educational Research, 89(2), 155-170.
5. Lee, C., & Chang, M. (2024). FabLab as a Driver of Student Motivation in Engineering Education. // International Journal of Technology and Design Education, 30(1), 45-62.
6. Wang, X., Chen, Y., & Li, Z. (2023). Virtual Reality in Higher Education: Enhancing Learning Outcomes and Engagement. // Journal of Interactive Learning Research, 35(4), 379-402.

https://buxdu.uz

“ELEKTROMAGNIT INDUKSIYA HODISASI” MAVZUSINI O‘QITISHDA EKSPERIMENT VA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Hamroyeva Sevara Nasriddinovna,
Navoiy davlat universiteti “Fizika va astronomiya” kafedrasi dotsenti
hamroyevasevara17@gmail.com
Izbosarov Baxritdin Faxritdinovich,
Navoiy davlat universiteti “Fizika va astronomiya” kafedrasi professori,f.-m.f.n.
izbosarov.b.f.@gmail.com

Hozirgi kunda bo‘lajak fizika o‘qtuvchilarini tayyorlashda fanga, politexnik kasblarga qiziqishni uyg‘otish va ta’lim sifatini oshirish uchun fizikadagi aksariyat mavzularni ishlab chiqarish bilan (integrativ) bog‘lab o‘qitish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Ta’lim sohasida STEM ta’limi dasturini tadbiq etish, o‘zlashtirish asosida ochiq, moslashuvchan, induviduallashgan, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda va bu o‘quv jarayonida o‘zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. Fizika fanini STEM ta’limi dasturi asosida o‘qitish orqali bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisi mavjud sharoitlar va ish tajribasiga asoslanib, ijodiy yondashgan holda uzluksiz ish faoliyatini olib borishi natijasida o‘zining mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishga erisha oladi. Elektromagnitizm induksiya hodisasi mavzusini o‘qitishda eksperiment va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib o‘qitish metodikasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *elektromagnit, eksperiment, magnit, induksiya, o‘zgaruvchan tok, galvonometr, magnit, elektromagnit qutblar, elektr yurutuvchi kuch.*

USE OF EXPERIMENTAL AND INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING THE TOPIC OF “ELECTROMAGNETIC INDUCTION PHENOMENON”

At present, in order to stimulate interest in science, polytechnic professions and improve the quality of education in the training of future physics teachers, there is a need to link (integrative) teaching of most physics subjects with production. In the field of education, special attention is paid to the use of open, flexible, individualized, modern educational technologies based on the implementation and development of the STEM educational program, and this shows its positive results in the educational process. Teaching physics based on the STEM educational program, the future physics teacher can expand his logical thinking as a result of continuous work with a creative approach based on existing conditions and work experience. In teaching the topic of electromagnetism induction, the teaching method using experiment and information and communication technologies is highlighted.

Keywords: *electromagnet, experiment, magnet, induction, alternating current, galvanometer, magnet, electromagnetic poles, electric motive force.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ И ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ «ЯВЛЕНИЕ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЙ ИНДУКЦИИ»

В настоящее время для стимулирования интереса к науке, политехническим профессиям и повышения качества образования при подготовке будущих учителей физики возникает необходимость связать (интегративное) преподавание большинства предметов по физике с производством. В сфере образования особое внимание уделяется использованию открытых, гибких, индивидуализированных, современных образовательных технологий, основанных на реализации и освоении образовательной программы STEM, и это показывает ее положительные результаты в образовательном процессе. Преподавая физику на основе образовательной программы STEM, будущий учитель физики может расширить свое логическое мышление в результате непрерывной работы с творческим подходом, основанным на существующих условиях и опыте работы. В преподавании темы индукции электромагнетизма выделен метод обучения с использованием эксперимента и информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: *электромагнит, эксперимент, магнит, индукция, переменный ток, гальванометр, магнит, электромагнитные полюса, электрическая движущая сила.*

https://buxdu.uz

Tabiat hodisalari va qonuniyatlarini fizik tajribalar asosida o‘rganish, talaba-o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga olib keladi, hamda fizik hodisalar va qonunlarni chuqur o‘zlashtirishga, ishlab chiqarishga qo‘llanilishini ko‘rib, bu esa fanga va poletexnik ta’limga qiziqishini oshiradi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda Fizik eksperiment asosan ikki turga ajratiladi:

Birinchisi namoyishli tajriba, u asosan ma’ruzachi tomonidan auditoriyada tinglovchilarga namoyish qilib o‘tkaziladi va ko‘rsatiladi;

Ikkinchsi: laboratoriya, eksperiment bunda talaba- o‘quvchilar tomonidan bajariladi.

Namoyishli tajriba-maqsadli yo‘naltirilgan jarayondir, bunda ma’ruzachi – o‘qituvchi talaba-o‘quvchilarni sezishi, tushunishini boshqarib boradi va bu asosda ma’lum bir zaruriy tushunchalarni qurilmani talaba o‘quvchilar oldida yig‘ib ishlatib ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Elektromagnetizm fanini o‘qitishda eksperimental tajribalar namoyish etib o‘qitish bu o‘zlashtirishda ahamiyti katta, shu bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalarning ta’lim faoliyatiga keng tadbiqi ma’ruza, amaliy darslarni obrazlar ko‘rinishida ifodalab, talabalarga ko‘rsatish va tushuntirish metodikasi an’anaviy o‘qitish uslubiga nisbatan o‘quv jarayonini kengroq ochib berishga, ko‘zga ko‘rinmaydigan hodisalarga, detallarni ilg‘ab olishga katta imkoniyat yaratmoqda.

O‘rganayotganda ko‘pincha hodisalarning o‘zini emas, balki u hodisalar yuzaga keltiradigan harakatni kuzatishga to‘g‘ri keladi, ba’zi asboblar murakkab bo‘ladi, ularning ko‘rinishi, ko‘p xodisalar va ularning texnikadagi qo‘llanilishini tabiiy holda ko‘rsatib bo‘lmaydi.

Elektron o‘quv majmuasini o‘quv jarayoniga tatbiq etish, nafaqat darslarni, balki laboratoriya ishlarini ham samaradorligini oshiradi. Darslikning bunda va ilmiyligi, grafik va multimediya vositalarini keng qamrovligi, ranglarning tabiiy va psixologik tomonidan to‘g‘ri uyg‘unlashishi o‘quvchining tez va to‘liq tushunilishiga sabab bo‘ladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni e’tiborga olib, ushbu maqolada elektromagnit induksiya hodisasi mavzusini o‘qitishda namoyishli eksperiment va axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil etishini ko‘rsatib o‘tamiz.

Elektromagnit induksiya hodisasini quyidagi namoyishli eksperimentda ko‘rsatish mumkin (1-rasm).

1-rasm. Elektromagnit induksiya hodisasi.

G‘altakli sim uchlari galvonometrga ulangan. Agar g‘alta tirqishiga magnitnitzm kiritib chiqarsak, galvonometr strelkasi oldin unga so‘ng chapga og‘ganligini ko‘ramiz. Magnitni tezroq harakatlantirsak galvonmetr strelkasi ko‘proq og‘adi. Magnit harakati to‘xtasa galvonometr strelkasi og‘maydi [3].

Ikkita har xil ko‘ndalang kesimga ega bo‘lgan simli g‘altak olamiz, birini ikkinchisiga kiritib qo‘yamiz, birinchi g‘altakni manbaga ulaymiz, ikkinchisini galvonometrga ulaymiz. Tokni ulash yoki uzish paytida reostat yordamida tok ko‘paytirish yoki kamaytirish paytida simli g‘altaklarni bir-biriga nisbatan harakatlantirganda, galvonmetr strelkasi og‘ganligini ya’ni tok borligini ko‘rsatadi. U o‘tkazilgan tajribalarga ta’rif bersa bo‘ladi: har qanday berk o‘tkazgich konturi bilan chegaralangan yuza qanday berk o‘tkazgich konturi bilan chegaralangan yuza orqali o‘tayotgan magnit induksiya oqimi o‘zgargan vaqtda shu konturda elektr toki paydo bo‘ladi. Bu tok induksion tok deyiladi.

https://buxdu.uz



2-rasm. Berk konturda elektr toki hosil bo’lishi.

Induksion tokni elektr yurutuvchi kuchi va o‘tkazgichni kesib o‘tayotgan magnit maydon oqimi kuch chiziqlari tezligi o‘rtasida miqdor bog‘lanish quyidagi formula bilan ifodalanadi [1].

$$\varepsilon' = -k\frac{d\Phi}{dt} \qquad (1).$$

Bu yerda dΦ-dt vaqtda o‘tkazgichni kesib o‘tayotgan magnit maydon induksiya oqimi Xalqaro birliklar sistemasi x=1 bo‘ladi.

Berk konturni kesib o‘tayotgan magnit maydon induksiya oqimi kuch chiziqlari R qarshilikni o‘tkazgichda hosil qilayotgan induksion tok kattaligi Om qonuni bo‘yicha aniqlanadi [2].

$$J = \frac{\varepsilon'}{R} = -\frac{1}{R}\frac{d\Phi}{dt} \qquad (2).$$

Elektromagnit induksiya hodisasi asosida, o‘zgaruvchan tok generatorlari, asinxron sinxron dvigatellar ishlab chiqilgan.

O‘zgaruvchan tok generatorlarini ishlash prinspini tajribada namoyish qilib o‘quvchilarga ko‘rsatiladi.



3-rasm. Elektr dvigatelning ishlash prinsipi.

Doimiy magnit yoki elektromagnit qutblari orasiga o‘tkazgichdan yasalgan ramkani joylashtiramiz, bu ramka ab o‘q atrofida ω burchak tezlik bilan aylanma harakatga keltirilishi natijasida, unda o‘zgaruvchan elektr yurutuvchi kuch hosil bo‘ladi [1].

https://buxdu.uz

$$\varepsilon = -\frac{d\varphi}{dt} = BS\omega Sin\omega t = \varepsilon_0 Sin\omega t$$

$$J = \frac{\varepsilon}{R} = \frac{\varepsilon_0 Sin\omega t}{R} = J_0 Sin\omega t$$

Generatorlar, dvigatellarni tashqi ko‘rinishi tuzilishi ishlash prinspini hosil bo‘layotgan tok kattaliklarni plakatlarda doskada chizib ko‘rsatish mumkin. Va o‘zini tashqi ko‘rinishini va ishlashini, ko‘pchilikni qurilmalarda qo‘llanilayotganini ko‘rsatiladi. Bu generator, dvigatellarni ishlab chiqarish korxonalarda priborlarda qo‘llanilishi bilan bog‘lab o‘qitish ko‘rsatilsa talabalarni o‘zlashtirishining sifat ko‘rsatkichi oshadi.

Kompyuterda elektron doskalarda esa generator va dvigatellarning ustki va ichki tuzilishi, uning tok hosil qilishi namoyish etiladi. Ustki ya’ni stator ichki qismi rotor ko‘rsatiladi va aylanib turgan holati magnit maydonining yo‘nalishi, magnit qutblari qisqasi, tok hosil bo‘lish bilan bog‘liq to‘liq jarayonlarini ko‘rish mumkin.

O‘quvchining ko‘z o‘ngida har bir detal alohida-alohida olinib, vazifalari tushuntirilib yana alohida yig‘ib ko‘rsatiladi. Talaba-o‘quvchi o‘sha detallarni o‘zi buzib, o‘zi yig‘adigandek tasavvurga ega bo‘ladi. Tushunmagan ba’zi joylarini ekranda yana qaytadan ko‘rish imkoni mavjud bo‘ladi.

Namoyishli tajribani o‘takazish va ko‘rsatish tezligi o‘qituvchining mavzuning o‘g‘zaki bayoniga mos tushishi kerak. Namoyish etilayotgan tajriba qurilmani talaba-o‘quvchilar oldida yig‘ib ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi, sababi ular tajribani tushunishda va o‘zlashtirishda yordam beradi. Murakkab qurilmalar bo‘lsa, ular oldindan yig‘ib tayyorlab qo‘yiladi va ma’ruza o‘qigan paytda qurilma ishga tushuriladi.

Fizika fanini o‘qitishda eksperimental tajriba namoyish etilishi bu albatta fandagi hodisa va qonunlarni o‘zlashtirishda ahamiyati katta shu bilan bir vaqtda har bir o‘qituvchi axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida tabiiy fanlardagi hodisa, jarayon va qonuniyatlarni harakatli animatsiyalar, slaydlar, videofilmlar ko‘rinishida, vertual laboratoriyalar ko‘rsatib o‘tilsa mavzuni o‘zlashtirishda va talaba-o‘quvchilarni fanga qiziqishini oshirishga erishiladi.



4-rasm. Generatorlarning ishlab chiqarish korxonalarida ishlash sxemasi.

Fizika ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlardan biri fizik hodisalar, jarayonlarni va murakkab qurilmalarni kompyuter ekranida namooyish etish talabalarning yangi noan’anaviy o‘quv faoliyatini tashkil etishga yordam beradi.

STEM ta’lim tizimi bizning ta’limga bo‘lgan qarashlarimizni o‘zgartiradi. Bunda talaba amaliy qobiliyatga ega bo‘lib, shu bilan bir qatorda talaba irodasini, texnik- ijodkorligini ham oshiradi. Chunki talaba ma’ruza va amaliyotda olgan bilimlarini tasavvur eta olib o‘z qo‘llari bilan yasay olsa bu talabada

https://buxdu.uz

o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada oshishiga olib keladi. STEM ta’lim tizimi bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir [7].

Fizika fanini STEM ta’lim dasturi asosida o‘qitish orqali bo‘lajak o‘qituvchi mavjud sharoitlar va o‘zlashtirilgan tajribalarga asoslanib, ijodiy yondashgan holda o‘z faoliyatini olib borishi hamda mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishi lozim. Jumladan, STEM ta’lim dasturi asosida talaba (bo‘lajak o‘qituvchi) fizika fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishi belgilangan [6].



Fizika fanini muvofaqqiyatli va samarali o‘qitishda axborot kompyuter texnologiyalari nafaqat tajribalarni namoyish etish, amaliy, laboratoriya ishlarini bajarish, jadvallarni to‘ldirish uchungina emas, balki o‘quvchilar ongida hodisa, mashina, asboblar obrazini yaratadi, fikrlashni faollashtiradi, o‘quv jarayonini jonlantiradi, o‘rganilayotgan materialga qiziqish hamda e’tiborni kuchaytiradi va shu bilan uni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda hamda o‘quvchilarga “Elektromagnit induksiya hodisasi” mavzusini eksperiment va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib o‘qitish talaba-o‘quvchilarni fizika faniga qiziqishini ortishiga xizmat qilib qolmay, mavzuni mustahkamlanishiga erishiladi. Qolaversa “Elektromagnit induksiya hodisasi” mavzusini STEM ta’limi orqali o‘qitilsa talabada kundalik hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan hodisalarni ham bemalol o‘zlashtira olishlariga yordam beradi. Elektromagnetizm darslarida eksperiment va axborot kompyuter texnologiyalardan foydalanib o‘qitishda eng avvalo darsning samaradorligini hamda sifatini oshirishga xizmat qiladi va mustaqil fikrlashni va ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov. “Elektromagnetizm” o‘quv qo‘llanma. Iqtisodiyot-Moliya nashriyoti, Toshkent, 2006-yil.
2. B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov, Yu.Ne’matov. “Fizika” Ma’lumotnoma. Yurist-media nashriyoti, Toshkent, 2009-yil.
3. B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov, F.O.Nabiyeva, S.T.Barakayeva. “Elektromagnit induksiya hodisasi” mavzusini o‘qitishda eksperiment va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish”. Zamonaviy fizika va astronomiyaning muammolari, yechimlari, o‘qitish uslublari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 16.04.2024-yil.
4. S.N.Hamroyeva, B.F.Izbosarov. “Fizika ta’lim yo‘nalishida “Energiya, energiyani saqlanish qonuni” mavzusini STEM ta’limi asosida o‘qitish metodikasi”. Fizika, matematika va informatika ilmiy-uslubiy jurnal” Toshkent. 6/2024.
5. S.N.Hamroyeva, B.F.Izbosarov. “Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini STEM ta’limi dasturi orqali o‘qitishda eksperiment va nazariy asoslardan foydalanib o‘qitish metodikasi” (Molekulalarni tezliklar bo‘yicha taqsimoti” mavzusi misolida). ”Scienceproblems.uz-Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” № S/8 (4) – 2024.
6. S.N.Hamroyeva. “The importance of the virtual laboratory in the training of future physics teachers through the STEM education program”. Ethiopian international journal of multidisciplinary research Volume: 10, Issue 10.
7. S.N.Hamroyeva. “STEM ta’limi orqali talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda demonstratsion tajribaning o‘rni”. “Pedagogik akmeologiya 4(6). Buxoro. 2023.

https://buxdu.uz

KREDIT- MODUL TIZIMIDA TALABA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi,
Navoiy davlat universiteti

Oliy ta’lim muassasasi talabalarni yillar davomida o‘qitish, bilimini oshirish bilan birga ularni turli faoliyat turlariga yo‘naltirishi, o‘z istaklariga erishishga yordamlashishi lozim. Biroq bugungi kunda mamlakatimizda joriy qilingan oliy ta’lim tizimi juda keng maqsad yo‘lida harakat qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ma’ruza mashg‘ulotlari bilan birgalikda amaliy mashg‘ulotlar ta’limiy, tarbiyaviy va nazariyani amaliyot bilan bog‘lash funksiyalarini bajaradi.

Kalit so’zlar: *talaba, kompetent, texnologiya, integratsiya, innovatsion, muammo, oliy ta’lim*

INTRODUCTION OF INTEGRATED INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENT COMPETENCE IN THE CREDIT - MODULE SYSTEM

The educational institution should train students throughout the academic year, as well as direct them to various activities, motivate them to achieve their desires. However, today the education system introduced in our country operates with a broad goal. Together with teaching sessions held in higher educational institutions, practical classes perform educational, educational and theoretical functions related to practice.

Keywords: *student, competence, technology, integration, innovation, problem, higher education*

ВНЕДРЕНИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ СТУДЕНЧЕСКОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Учебное заведение должно обучать студентов в течение всего учебного года, а также направлять их на различные виды деятельности, мотивировать их на достижение своих желаний. Однако сегодня внедренная в нашей стране система образования действует с широкой целью. Совместно с преподавательскими занятиями, проводимыми в высших образовательных учреждениях, практические занятия выполняют образовательные, воспитательные и теоретические функции, связанные с практикой.

Ключевые слова: *студент, компетенция, технология, интеграция, инновации, проблема, высшее образование*

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayoni fanlarning mazmunida ham, o‘qitishning usullari, vositalari va shakllarida ham namoyon bo‘ladi [1; 614-620-b]. Bugungi davr dunyo ta’limi oldiga ham katta vazifalarni qo‘ymoqda. Bunda qo‘yilgan asosiy talab yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, tez o‘zgarayotgan dunyoga moslashishni o‘rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan (1.1.-rasm).



1.- rasm. Oliy ta’lim tizmida talaba kompetentligini innovatsion texnologiyalari va ta’lim dasturlaridan foydalanib rivojlantirish

https://buxdu.uz

Quyida keltirilgan chizmada fanlararo o‘qitishda talaba kompetentligini innovatsion texnologiyalari va ta’lim dasturlaridan foydalanib rivojlantirish algoritmi berilgan. [2; 2419-2423-b.].

O‘quv-tarbiya jarayonida bilim, ko‘nikma, malaka va umumiy kompetensiyalarning shakllanganligini nazorat qilish muhim o‘rin egallaydi. Xususan, nazorat funksiyalari bir qator vazifalar va talablarni keltirib chiqarishi mumkin. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ularda o‘tilgan fanlarga nisbatan ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o‘z bilimini doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish demakdir. Shu bilan birga, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni yuzaga keltiradi, yana o‘qitishning o‘zaro aloqador ikki vositasini yuzaga keltiradi. Bunda professor-o‘qituvchilarning ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rishi, baholashga doir me’yor va mezonlarni, savolnomalar, test savollari va turli boshqotirmalar hamda tayanch tushunchalarni tuzishdagi ma’suliyatli yondashish va tinimsiz mehnati yotadi.

Kredit-modul tizimi ilk bor XIX asrning ikkinchi yarmida AQSHda joriy etilgan. O‘sha paytda mamlakat oliy ta’lim muassasalari qat’iy belgilab qo‘yilgan o‘quv dasturlari asosida faoliyat yuritgan. O‘quv dasturlari, asosan, o‘sha davr diniy falsafasi bilan bog‘liq fanlardan tashkil topgan. Oliy ta’lim o‘quv dasturlarida bu kabi amaliyotda ahamiyatini yo‘qotgan fanlar ko‘lami anchani tashkil qilgan. Natijada, oliy ta’lim mutaxasislar tayyorlaydigan dargoh emas balki o‘sha davrda aholining o‘ziga to‘q qatlami shunchaki obro‘ va to‘kinlik belgisi sifatida ta’lim oladigan muassasaga aylanib qolgan. Buning oqibatida mamlakatning oddiy fuqarolari orasida oliy ta’limga qiziqish keskin kamaya boshlagan. 1869-yilda Garvard universiteti Prezidenti Charlz Eliot birinchi bo‘lib “kredit-soat” tushunchasini kiritdi va 1870- 1880-yillar davomida fan hajmini kredit-soatlarda o‘lchashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi. 1892-yildan “kredit-soat” tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSh milliy ta’lim qo‘mitasi “kollej-maktab” bo‘g‘inini yaxshilash, o‘rta maktablarda o‘quv dasturlarini standartlash maqsadida nafaqat kollejlarda, balki o‘rta maktablar uchun ham “kredit” tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalavriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta’lim bosqichlarigacha kengaytirdi. Hozir kunda Yevropa oliy ta’lim muassasalarida keng qo‘llanib kelinayotgan va O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida joriy etilayotgan ECTS kredit-modul tizimi asosida ham AQSH akademik kredit tizimi tamoyillari yotadi. 1987-yilda Yevropa ittifoqining London Sammiti davomida ittifoqqa a’zo mamlakatlar oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida talabalar almashinuvini qo‘llabquvvatlovchi Erasmus (ERASMUS) (European Community Action Scheme for Mobility of University Students) dasturi tashkil etilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad Yevropa ittifoqi davlatlari oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan talabalar bir yil yoki bir semestr davomida boshqa a’zo davlatlar oliy ta’lim muassasalarida o‘zaro almashib ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirgan. Erasmus dasturi 1989-yilda Amerika kredit tizimi va Niderlandiya oliy ta’lim tizimiga asoslangan holda yangi kredit-modul tizimini ishlab chiqadi va uni European Credit Transfer System (ECTS) deb nomlaydi. Ushbu qoidalar o‘zida Yevropa Ittifoqi davlatlari oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida taklif etiladigan fanlarni qiyosiy tahlil qilish va talabalar almashish dasturlarida horijiy universitetlarda o‘zlashtirgan fanlarni o‘z universitetlarida tan olinishini belgilab beradi. ECTS kredit-modul tizimi qoidalarini joriy etish natijasida Yevropa Ittifoqi davlatlarining oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida talabalar almashinuvi rivojlana boshlaydi. Dasturida qatnashuvchi oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlari xalqaro darajada e’tirofga sazovor bo‘la boshlaydi.

20-asrning so‘nggi choragida Yevropada yuz bergan integratsiyalashuv jarayonlari oliy ta’lim muassasalarida yagona kredit-modul tizimini qo‘llash zaruratini keltirib chiqadi va 1999 yil Yevropada Bolonya protsessi deb atalgan Yevropa mamlakatlari oliy ta’lim vazirliklari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish xalqaro forumi ish boshlaydi. Quyida mamlakatimiz va xorijiy davlatlar kredit tizimining qiyosiy tahlili keltirilgan (1-jadvalga qarang).

Kredit-modul tizimini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit-modul tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi ko‘plab rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimlarida ko‘p tarqalganligi bilan asoslaniladi, chunki ta’lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi kreativlik va bilim olishga o‘zini safarbar qilish, oxir-oqibat ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi.

1.-jadval.

Xorijiy davlatlar kredit- modul tizimining qiyosiy tahlili

№	Mamlakatlar (kredit tizimlari)	Bakalavr		Magistratura		Doktorantura	
		ta’lim yili	kredit soati	ta’lim yili	kredit soati	ta’lim yili	kredit soati
1	AQSh (USCS)	4	120	1-2	30-60	3-4	60-90
2	Germaniya (ECTS)	3-4 (5)	180-240	1-2	120	3	Kreditsiz

https://buxdu.uz

3	Buyuk Britaniya (ECTS)	3 (4)	360	2	120	3	Individual
4	Shvetsiya (ECTS)	3	120	1-1,5	60	2-4	Individual
5	Yaponiya (UCTS)	4	180-240	2	32-60	3	12-90
6	Xitoy (UCTS)	4	120	1-2	30-60	3-4	60-90
7	O‘zbekiston (ECTS)	4	240	2	120	3	Individual

O‘zbekistonda ham kredit-modul tizimiga o‘tish bo‘yicha dastlabki harakatlar Yevropa ittifoqi tashabbusi bilan TACIS (Techical Assissance to Commonwealth of Indepent States) Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga texnik yordam dasturi va Osiyo taraqqiyot bankining O‘zbekistonda ta’limni isloh qilish loyihasi orqali 2000-2008 yillarda amalga oshirish uchun tadqiqotlar olib borilgan. 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab Respublika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy etildi.

Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimi joriy etilgan. O‘quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo‘lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro‘yxatdan o‘tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Unga ko‘ra, universitetda o‘tiladigan har bir fan endilikda undagi o‘qish yuklamasi miqdoriga qarab, kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o‘rtacha 5, 6 yoki 7,5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o‘quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to‘plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistr darajasi beriladi

ECTS – Yevropa Kredit Transfer Tizimiga dastlab, 1989 yilda asos solingan bo‘lib, Yevropa davlatlari tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan kreditlarni taqsimlash tizimidir. ECTS tizimida talaba olgan bilimining bahosini bir davlatdan (OTMdan) ikkinchi davlatga (OTMga) erkin ko‘chishini, erishilgan ko‘nikma va malakasini erkin tan olinishini, pirovardida barchasini hisobga olib daraja (diplom) olishini nazarda tutuvchi tizimdir.

ECTS tizimida ta’lim olishning barcha turlari (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy) va o‘quv yuklamasining barcha ko‘rinishlari (ma’ruza, amaliyot, laboratoriya va h.k.) uchun qo‘llanilishi mumkin

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25-30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda- 40-50% auditoriya soati, 50-60% mustaqil ish soatiga, magistraturada- 30% -40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘linadi. Oliy ta’lim muassasasi kengashi tomonidan kreditning soatlardagi miqdori va o‘quv yuklamasi miqdori belgilanadi va oliy ta’lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtirilishi kerak bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish modeli: motivatsion-maqsadli, metodologik yondashuvlar, texnologik jarayonlar va tashhislash komponentlaridan iborat [3; 84-88-b.,4;413-417-b.].

Oliy ta’lim muassasalarida Kredit- modul tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish modeli: motivatsion-maqsadli, metodologik yondashuvlar, texnologik jarayonlar va tashhislash komponentlaridan iborat. Kredit-modul tizimi, bu — ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir.

Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo‘naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta’minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi (1.2 rasm.). Yuqoridagilar dars mashg‘ulotlarini nafaqat o‘qitishni innovasion ta’lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o‘qib-o‘rganish, ta’limga yangicha munosabatda bo‘lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatishdan iboratdir.

https://buxdu.uz



2.- rasm. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari

Xorijiy tajribaga ko‘ra, kredit-modul tizimida o‘quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo‘ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o‘zaro uzviy to‘ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo‘lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Modulga asoslangan o‘quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

o‘quv maqsadi hamda vazifalarning to‘liq ochib berilishi;

talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo‘ladigan malakasiga qo‘yiladigan talablar;

o‘qitishning qisqacha bayoni: ta’lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya’ni ma’ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg‘ulotlarning rejasi, mustaqil ta’limni baholash uchun mo‘ljallangan topshiriqlar;

Ta’limni tashkil etishning kredit-modul tizimining pedagogik salohiyati uning imkoniyatlari (ijtimoiy-madaniy, tizimli, tashkiliy, huquqiy shartlilik) majmui sifatida quyidagilarni o‘z ichiga oladi: axborot, kontent resurslarining mavjudligi;

o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatida talaba va o‘qituvchining qiyinchiliklarini aniqlash va bartaraf etishga e’tibor berish;

o‘qituvchi va talabaning hamkorlik asosidagi o‘zaro munosabati, o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatining tashkiliy shakllari, usullari, vositalarini tanlash erkinligi, o‘quvchining o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatining individual-shaxsiy trayektoriyasini tanlash imkoniyati;

talabalarda mustaqil ta’lim faoliyatining turli shakllariga ko‘nikmalar tarbiyalashni o‘z ichiga oladi. O‘qitishni tashkil etishning kredit-modul tizimining pedagogik salohiyati ularning umumiyligida ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini aks ettiradi. Shu bilan birga, boshlang‘ich nuqta kreditni (Kredit, Kredit-soat) talaba/o‘qituvchining o‘quv ishlari hajmini o‘lchash uchun yagona birlik sifatida tushunishdir. Bitta kredit akademik davrda talabaning haftalik auditoriya ishining 1 akademik soatiga teng. Ma’ruza, amaliy (seminar) va seminar mashg‘ulotlarining har bir akademik soatiga 2 soatlik (100 daqiqa) mustaqil ta’lim olib boriladi. Kredit-modul tizimi bizga nima beradi? Ta’limda shaffoflik, pragmatizm va talabaga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatini yaratadi. O‘quv jarayoniga kredit-modul tizimining joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishda hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Kredit-modul tizimi oliy ta’lim muassasi ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv dasturi, o‘quv rejasi, dars jadvali, talabalar bilimini baholash, o‘qituvchilarning ish yuklamasini aniqlash va boshqa shu kabi faoliyatni tartibga solish imkonini beradi. Biz quyidagi jadvalda an’anaviy va kredit- modulli talimning qiyosiy tahlilini keltirdik. (2. -jadvalga qarang).

https://buxdu.uz

2- jadval.

An’anaviy o’qitish metodikasi va kredit- modul tizimiida o’qitish ta’limini qiyoslash

Pozitsiyalar	An’anaviy ta’lim	Kredit-modulli ta’lim
Maqsadlar	1. Moddiy ishlab chiqarish va mehnatga tayyorlikni shakllantirish 2. Mas’uliyatli ijrochini tayyorlash	1. Nazariy va ilmiy bilimlardan foydalanib qayta o‘zgartirish faoliyatiga tayyorlikni shakllantirish 2. Qayta o‘zgartiruvchi ijodkor o‘qituvchini tayyorlash
Asosiy vazifalar	1.Umumiy va kasbiy bilimlar bilan ta’minlash 2.Ko’nikma va malakalarni shakllantirish	1.Bilimlarga ehtiyojni rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish ko’nikmalarini shakllantirish 2.Talabalarning kompetentligini shakllantirish
Mazmuni	Tabiiy-ilmiy fanlar, obyektlar, fanlar (matematika, fizika, kimyo, biologiya va boshq.)	Integrallashgan STEAM ta’limi (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san’at, Mathematics – matematika)
Tuzilmasi	Atrof- olamni bilish yo’nalishlari	Ilmiy asosda atrof-olamni o‘zgartirishga qaratilgan permanentli (doimiy), muammoli-yo‘naltirilgan o‘qitish
Ilg’or metod va shakllar	Axborot-reproduktiv, nofaol, guruhiy va ommaviy, ekstensiv, deduktiv	Ijodiy, faol (loyiha va tahlillar, ishbilarmonlik o‘yinlari, mashqlar, kazuslar, eksperimentlar, ijodiy topshiriqlar), individual va guruhiy, jadal, induktiv
O’qitish mohiyati	Namuna bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni uzatish, o‘zlashtirish va qayta tiklash	Loyihalash mashqini qila olish faoliyati orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash
Ustuvorliklar	Tabiiy-ilmiy, bilimlar va ta’lim natijalari	Bilimlar, bilish metod va vositalari
O’qituvchi va talabalarning o’zaro ta’siri	Avtoritar, subyekt-obyekt (o‘qituvchi-nazoratchi)	Demokratik, subyekt-subyekt, hamkorlik asosida (o‘qituvchimaslahatchi, yordamchi
Asosiy natijalar	Fanlar bo‘yicha bilimlar darajasi (o‘zlashtirish, bilimlar sifati)	Talaba kompetentligini shakllantirish va qayta o‘zgartirish faoliyati ko‘nikmalari darajasi

Axborot asrida insoniyat tarixida sanoat va fan olamida olamshumul yutuqlar qo‘lga kiritildi. Dunyoda axborot eng qimmat narsaga aylandi. Kompyuter ixtiro qilinishi insonlar bajaradigan yumushlarni yengillashishiga olib keldi. Fan, ta’lim sohalarida o‘qitish o‘rganishning zamonaviy vositalari joriy qilindi. Endilikda elektron uslubiy qo‘llanmalarning bu sohadagi, ahamiyati yanada oshmoqda. Dastlab elektron uslubiy qo‘llanmalar oddiy matn ko‘rinishida bo‘lsa hozirda turli tasviriy ko‘rinishlarini ham o‘zida mujassamlashtirmoqda. Bugungi jamiyat axborot texnologiyalaridan foydalanish inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida amaliy zaruriyatga aylanmoqda. Bu texnologiyalardan fodalanish ko‘nikmasini shakllantirish ko‘pchilik hollarda bugungi talaba kasbiy tayyorgarligining muvaffaqiyatli bo‘lishligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Азиза Бозорова, Нилуфар Намозова Медиатаълим асосида астрономия дарсларини ташкил этишга инновацион ёндашиш методи// journal of innovations in scientific and educational research volume6 issue-6 (30- june)
2. Нилуфар Намозова Астрономия фанини ўқитишда қўлланиладиган дастурий-педагогик воситалар ва уларнинг имкониятлари // eurasian journal of technology and innovation Innovative Academy Research Support Center
3. Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi Namozova Nilufar Tuxtamurodovna Astronomiya fanini o’qitishda elektron darsliklarning o’ziga xos xususiyatlari va afzalliklari// Journal of Universal Science Research 1 (10)

https://buxdu.uz

4. Н Намозова Г Сайфуллаева Астрономия фанига интеграциялашган медиатаълимнинг фаолиятли тузилмаси// бюллетень педагогов нового Узбекистана 1 (7)

5. Aziza Bozorova, Gulhayo Sayfullayeva kredit–Modul Ta'lim Tizimida Talabalarning Mustaqil Ta'lim Jarayonini Tashkil Etish// Бюллетень студентов нового Узбекистана, 2023

6. Н Намозова мактаб астрономия фанига интеграциялашган медиатаълимдан фойдаланиш //Technical science research in uzbekistan, 2023

7. Haydarova Dilorom, Sayfullayeva Gulhayo Pyton dasturida astronomiyadan animatsiya yaratish // Journal of Universal Science Research, 2023

8. Haydarova Dilorom, Sayfullayeva Gulhayo ways to effectively organize speech culture of the astronomy teacher// Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya, 2023

9. Q Surayyo, X Sevinch, S Gulhayo Astronomiyada ishlatiladigan amaliy innovatsion dasturlar haqida asosiy tushunchalar va ularning imkoniyatlari //Journal of Universal Science Research, 2023

https://buxdu.uz

RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM

BO‘LAJAK INFORMATIKA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ADAPTIV O‘QITISH TIZIMLARIDAN FOYDALANIB O‘QITISHNI INDIVIDUALLASHTIRISH

Ashirova Anorgul Ismoilovna,
Mamun universiteti professori, p.f.n.
anorgul76@gmail.com

Ushbu ilmiy maqolada boʻlajak informatika fani oʻqiyuvchilarini tayyorlashda adaptiv oʻqitish tizimlaridan foydalanib oʻqitishni individuallashtirish boʻyicha tamoyillari, texnologiyalari va metodlari haqida ilmiy fikr mulohazalar, pedagogic tajriba- sinov natijalari, tajriba tahlillari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *adaptiv ta’lim, elektron ta’lim, adaptiv test, onlayn kurs, tabaqalashtirilgan ta’lim, shaxsiylashtirilgan ta’lim.*

ИНДИВИДУАЛИЗАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АДАПТИВНЫХ СИСТЕМ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ

В данной научной статье представлены научные мнения, результаты проверки педагогического опыта и экспериментального анализа о принципах, технологиях и методах индивидуализации обучения с использованием адаптивных систем обучения при подготовке будущих студентов информатики.

Ключевые слова: *адаптивное обучение, электронное обучение, адаптивное тестирование, онлайн-курс, дифференцированное обучение, персонализированное обучение.*

INDIVIDUALIZATION OF TEACHING USING ADAPTIVE LEARNING SYSTEMS IN TRAINING FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS

This scientific article presents scientific opinions, results of testing pedagogical experience and experimental analysis on the principles, technologies and methods of individualization of learning using adaptive learning systems in the preparation of future students of computer science.

Keywords: *adaptive learning, e-learning, adaptive testing, online course, differentiated learning, personalized learning.*

Kirish. Adaptiv ta’lim – bu har bir talabaning bilim darajasi, o’rganish sur’ati, individual ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda o’quv jarayonini avtomatik tarzda moslashtiradigan ta’lim tizimidir.

Adaptiv ta’limning asosiy jihatlari: moslashuvchan o’quv dasturi – talabaning oldingi bilimlari va natijalariga asoslanib, o’quv materiali o’zgaradi; shaxsiy yondashuv – har bir talaba o’zining qobiliyati va ehtiyojlariga mos o’quv rejimi bilan ta’minlanadi; texnologiyalar bilan qo’llab-quvvatlanishi – sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalaniladi; doimiy baholash va tahlil – talabalarning natijalari real vaqt rejimida baholanib, o’quv jarayoni mos ravishda o’zgartiriladi. Boʻlajak informatika fani oʻqituvchilarini tayyorlashda adaptiv oʻqitish tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy adaptiv ta’lim tizimlari va umuman dasturlashtirilgan o’qitishning asoschilari odatda amerikalik psixologiya professori Sidney Levitt Pressi, shuningdek, mashhur amerikalik psixolog va ixtirochi Burres Frederik Skinner deb ataladi. Ularning xizmati shundaki, ular birinchi o’quv mashinalarini yaratdilar[1].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ushbu soha rivojiga katta hissa qo’shgan tadqiqotchilar orasida:

• Psixolog Lev Naumovich Landa – u psixologiyaga “aqliy harakatlar algoritmi” tushunchasini kiritdi va psixik jarayonlarni qanday o’lchash mumkinligi va ularga kelajakda tizimli ta’sir ko’rsatishni tasvirlashga harakat qildi.

• Psixolog Pyotr Yakovlevich Galperin. U aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini ishlab chiqdi va bu, o’z navbatida, dasturlashtirilgan ta’lim tamoyillari uchun asos bo’ldi.

https://buxdu.uz

• Psixolog Nina Fedorovna Talyzina. Uning g’oyasi o’lchanadigan o’quv maqsadini shakllantirish, materialni kichik bloklarga bo’lish va bosqichma-bosqich talabalarga berish edi. Har bir bosqich o’z-o’zini sinovdan o’tkazdi. Ushbu g’oyaning asosi o’quv mashinasidan foydalanish edi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan o’quv mashinasi g’oyasi raqamli platformalar bilan almashtirildi. Birinchi shunday platformalardan biri 1984 yilda moliyachi Robert Lemir tomonidan asos solingan Lexia Learning edi. Lemir har bir oilada ham farzandlariga u kabi yordam berish imkoniyati yo’qligini tushundi. Keyin u do’stlari - texnologiya mutaxassisi va nevrolog bilan birgalikda shaxsiylashtirilgan ta’lim platformasini yaratishga qaror qildi.

Kompyuter texnologiyalari qanchalik rivojlangan bo’lsa, ta’lim sohasi mutaxassislari ham, korxonalar ham ta’lim samaradorligini oshirish uchun ulardan qanday foydalanish haqida tez-tez o’ylay boshladilar. Natijada Pearson, Smart Sparrow va boshqalar kabi tizimlar paydo bo’ldi. Ularning barchasi turli tamoyillar asosida ishlaydi, lekin bir xil g’oya atrofida - ta’limga individual yondashuvni targ’ib qilishda yo’naltirilgan.

Moslashuvchan ta’lim ma’lum bir talaba uchun nimani va qanday o’zgartirish kerakligini hisobga oladigan moslashuv modeliga muvofiq qurilgan. Buning uchun ikkita asosiy ma’lumot manbalari mavjud:

• *Mavzu sohasi modeli* - bu o’rganilayotgan mavzu haqidagi ma’lumotlarni o’z ichiga oladi: mavzular, loyihalar, havolalar va boshqalar. Tizim sizga fanning turli elementlarini bog’lash va ular o’rtasida o’tishni qurish imkonini beradi.

• *Talaba modeli* - ya’ni talabaning hozirgi bilimi, u qanday o’rganishi (qanday xatolarga yo’l qo’ygani, topshiriqlarni qanday tezlikda bajarishi va boshqalar) haqidagi ma’lumotlari, uning xususiyatlari (masalan, imtiyozlar va motivatsiya darajasi).

Shu bilan birga, moslashish obyektlari boshqacha bo’lishi mumkin. Masalan, Pearsons quyidagi tasnifni beradi:

• *Kontent*. Tarkibni moslashtiradigan tizim talabalarning javoblariga asoslanadi. Agar xato bo’lsa, u maslahatlar beradi yoki mahoratni kichik bloklarga ajratadi. Oddiy qilib aytganda, bu o’rganish tezligini o’zgartiradi.

Shunday qilib, noto’g’ri javobdan so’ng, talaba aniq yordam oladi: bu eslatma bo’lishi mumkin ("X ning Y ga bog’liqligini unutmang"), fikr-mulohaza ("siz buni unutganga o’xshaysiz ..."), qo’shimcha materiallar (matnlar, videolar, bosqichma-bosqich ko’rsatmalar). Ba’zi hollarda tizim o’qituvchi bilan bog’lanishni taklif qiladi. Lekin moslashtirilgan tarkibning eng murakkab mexanizmi scaffolding hisoblanadi.

• *Testlash*. Talabaning javobiga qarab, tizim turli xil murakkablikdagi savollarni taklif qiladi - masalan, agar biror kishi savolga to’g’ri javob bergan bo’lsa, keyingisi qiyinroq bo’ladi, agar siz xato qilsangiz, bu osonroq.

Pearson tadqiqotchilari testni "amaliy" (testlar kichik ma’lumot blokidan keyin keladi) va "daraja" ga bo’lishadi (test ma’lum bir modul yoki bir nechta bloklardan keyin taklif etiladi).

• *Materiallarni tasvirlash tartibi***.** Talaba o’quv materiali bilan muloqotda bo’lganda, u haqida ma’lumot to’playdi - masalan, savollarga javoblar, urinishlar soni va boshqalar. Ushbu ma’lumotlar tahlil qilinadi, so’ngra tizim talabaga kerakli kontentni taklif qiladi.

Eng soddalashtirilgan misol quyidagicha ko’rinadi: talaba kasallik tufayli mavzuni tushuntirishni o’tkazib yubordi. Bir yil o’tgach, u o’tkazib yuborgan mavzuga asoslangan boshqa mavzuni o’rganishni boshladi. O’quv materiallari ketma-ketligini o’zgartiruvchi moslashuvchi tizim bilimlardagi bo’shliqni aniqlaydi va birinchi navbatda o’tkazib yuborilgan mavzuni o’rganishni taklif qiladi.

Tadqiqot metodi. Individuallashtirilgan ta’lim – bu talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va o’rganish sur’atiga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etishdir. Bunday yondashuv har bir talabaga mos metod va vositalarni tanlash imkonini beradi.

Individuallashtirilgan ta’limning asosiy tamoyillari

1. Talabaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish – Har bir talabaning qobiliyati, bilim darajasi va o’rganish uslubi hisobga olinadi.
2. Moslashuvchan ta’lim dasturi – Ta’lim mazmuni va usuli talabaning ehtiyojiga qarab o’zgartiriladi.
3. Talabaning mustaqilligini oshirish – Ta’lim jarayonida mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati beriladi.
4. Interfaol va texnologik yondashuv – Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali samaradorlikni oshirish.
5. Doimiy baholash va fikr-mulohaza – talabaning rivojlanishini kuzatib borish va unga mos yondashuvlarni ishlab chiqish.

https://buxdu.uz

Bitta tizim turli xil moslashish obyektlaridan foydalanishi mumkin. Shunday qilib, matematikani o’rganish bo’yicha Amerikaning Knowre xizmati moslashtirilgan tarkibni (ya’ni o’quvchilarga yordam berish uchun video va ko’rsatmalar) va moslashtirilgan ketma-ketlikni taklif qiladi, chunki u foydalanuvchining harakatlarini tahlil qiladi va unga kerakli amaliyotni taklif qiladi.

Bundan tashqari, har bir ta’lim darajasi o’ziga xos moslashish obyektlariga ega. Shunday qilib, maktablar kontentni moslashtirishni, universitetlar esa o’quv materiallarini taqdim etish tartibini moslashtirishni afzal ko’radilar.

Adaptiv kurslar 1950-1960-yillarda ishlab chiqila boshlandi. B.F. Skinner, A.K. Crowder, G. Pask kabi olimlar turli xil dasturiy ta’minotni o’rganish algoritmlarini taklif qilgan. Ular moslashuvchan ta’limning birinchi bir nechta tamoyillarini aniqladilar[2]:

• ta’lim mazmuni kichik qismlarda taqdim etildi;

• o’rganilgan materialni sinovdan o’tkazish optimal tanlangan topshiriqlar yordamida amalga oshirildi;

• zudlik bilan batafsil fikr bildirildi.

Professor B.F. Skinner chiziqli o’rganish algoritmini taklif qildi, unda yuqorida ko’rsatilgan tamoyillar to’ldirildi. B.F. Skinner har bir talaba uchun individual sur’atni kiritdi, bunga asoslanib, talabalar o’rganish uchun turli vaqt sarfladilar va material past darajadagi murakkablikdagi minimal bloklarga bo’lingan. Undan keyin professor Skinner A.K o’zining ta’lim algoritmini taklif qildi. Bu erda boshqa tamoyillar ham ishlab chiqilgan. Oʻqitishning dastlabki bosqichi juda katta hajmli va murakkab savollarni o’z ichiga olgan modullardan iborat edi. Keyingi bosqichda talaba qiyin savollardan iborat test topshiradi.

Moslashuvchan ta’limning bir qancha tasniflari mavjud. Eng batafsil va tushunarli Arizona shtat universiteti (AQSh) mutaxassisi tomonidan taklif qilingan:

• Mashinani o’rganishga asoslangan (machine-learning-based). Tizim patternni aniqlash, bashoratli tahlillar, statistik modellar va boshqa murakkab texnologiyalardan foydalanadi. Bularning barchasi uning demografik xususiyatlarini, o’rganish uslubini, afzalliklarini, kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda foydalanuvchi profilini yaratishga imkon beradi. Mashinani o’rganishga asoslangan tizimlar juda aniq va o’z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim etadi va materialni talabaning ehtiyojlariga moslashtiradi. Ammo ularning kamchiliklari ham bor: yuqori narx, yaratish qiyinligi, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash va masshtablashdir.

• Kengaytirilgan algoritm (advanced algorithm). Aslida, bunday tizim xatti-harakatlar omillarini tahlil qiladi – klavishani bosish, javob vaqti, urinishlar soni va boshqalar. Bularning barchasi boshqa talabalarning natijalari bilan taqqoslanadi. Agar kimdir ortda qolayotgani aniqlansa, tizim ularga real vaqtda maslahatlar, fikr-mulohazalar yoki boshqa kontentni taklif qiladi.

• Qoidalarga asoslangan (rules-based). Ushbu tizim algoritmlarga emas, balki ma’lum qoidalar to’plamiga va bir nechta traektoriyalarga asoslangan. Tayyorgarlik darajasiga qarab, talaba berilgan traektoriya bo’ylab boradi va o’quv blokining oxirida fikr-mulohazalarni oladi. Tizim jarayonni shaxsiylashtirish uchun talaba ma’lumotlarini to’plamaydi.

• Qarorlar daraxti asosida.

"Agar ... keyin ..." tamoyiliga muvofiq tuzilgan qat’iy qoidalarga asoslangan tizim. Bu erda printsip oddiy elektron testga o’xshaydi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Dasturdan foydalangan holda moslashuvchan ta’lim foydalanuvchiga uning oldingi harakatlariga qarab, keyingi qaysi mavzuni o’rganishi kerakligi haqida maslahat beradigan tavsiyalar tizimi shaklida amalga oshiriladi. Tanlangan kurs materiallari doirasida tavsiyalar berilgan bo’lsa, kelajakda ixtiyoriy mavzu doirasidagi tavsiyalar ham mavjud bo’ladi. Kelajakda har qanday mavzu moslashuv rejimida o’rganilishi mumkin.



1-rasm. Dasturiy ta’minot paketining asosiy veb-sahifalari

https://buxdu.uz

Ma’ruza uchun tavsiya etilgan materialni olgandan so’ng, talaba unga uchta usuldan biri bilan munosabatda bo’lishi mumkin:

• ma’ruzadan o’tish (undagi muammolarni hal qilish),
• ma’ruzani juda oson deb belgilash;
• ma’ruzani juda qiyin deb belgilash.

Reaksiyani qayta saqlagandan so’ng, talabaning bilimi va o’qituvchining qiyinchiliklari yangilanadi va talaba yangi tavsiyanomasini oladi. Ma’ruzaning murakkabligidan tashqari, biz mavzular bo’yicha mazmunning tartibini ham ko’rib chiqmoqchimiz. Biz Wikidatadagi bilim grafigidan foydalanamiz va dars mualliflariga ularni ikki turdagi mavzular bilan belgilashga ruxsat beramiz:

• ushbu darsga tegishli mavzular (ular unda tushuntirilgan),
• ushbu darsni tushunish uchun zarur bo’lgan mavzular.

Misol uchun, agar talaba ma’ruzani juda qiyin deb belgilagan bo’lsa, biz unga ushbu ma’ruza uchun zarur bo’lgan mavzularni o’rganishni maslahat beramiz. Dasturda har bir ma’ruza 5 ta boʻlimdan iborat: videoma’ruza, taqdimot, ma’ruza matni, topshiriq va internet havolalari (ma’ruza uchun qoʻshimcha materiallar).

1-jadval.

Pedagogik tajriba-sinov natijalari

Tajriba – sinovgacha boʻlgan davr									
1-tanlanma (tajriba guruhi)					2-tanlanma (nazorat guruhi)				
X_i	2	3	4	5	Y_j	2	3	4	5
n_i=47	6	23	14	4	n_j=47	5	21	16	5
Tajriba-sinovfan keying davr									
1-tanlanma (tajriba guruhi)					2-tanlanma (nazorat guruhi)				
X_i	2	3	4	5	Y_j	2	3	4	5
n_i=47	0	11	17	19	n_j=47	6	26	11	4



2-rasm. Tajriba natijalarining diagramma koʻrinishi

“AKT sohasidagi kasb ta’limi” yoʻnalishi 3-kurs talabalarida “Ta’lim nazariyasi” fani boʻyicha pedagogik tajriba-sinov ishlari oʻtkazildi. Adaptiv dastur orqali talabalarni individual oʻqitilishi natijasida tajriba-sinov guruhi talabalarida nazorat guruhi talabalariga nisbatan kasbiy koʻnikma va malakalarini shakllanganlik darajasi 15 % yuqori ekanligi pedagogik eksperimentda matematik statistuka usullari yordamida isbotlandi.

Xulosa. O’quv jarayonining ishlash ko’rsatkichlari ko’p jihatdan moslashtirilgan avtomatlashtirilgan o’qitish tizimlarini ishlab chiqish sifatiga bog’liq. Moslashuvchan oʻqitish tizimlarining sifatini baholash uchun mualliflar tomonidan taklif qilingan (ko’p qatlamli yondashuvdan foydalanishga asoslangan) usul, bizning fikrimizcha, samarali, chunki har bir qatlam uchun mavjud mezonlar tahlili o’tkazildi va har bir qatlam uchun sifatni baholashning yangi mezonlari joriy etildi. Ushbu usuldan foydalanish rivojlanishning kontseptual darajasidagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish orqali ishlab chiqilgan adaptiv oʻqitish tizimlarining sifatini yaxshilash imkonini beradi.

https://buxdu.uz

Adabiyotlar:

1. Artemenko O.A., Amelicheva K.A. Psychological foundations for the development of an adaptive automated learning system // Higher education today. – 2013. – No. 10. – P. 48.

2. Vorobkalov P.N., Shabalina O.A. Quality management of the development process of adaptive learning systems using a multilayer approach // News of the Vologda State Technical University. – 2007. – No. 2. – P. 76 – 78.

3. Jalilovich, Hojiyev Mirshod. "Kasbiy kompetensiyani raqamli musiqiy dasturlar vositasida takomillashtirishning o ‘ziga xos xususiyatlari." // Ta'lim va madaniyat 2.3 (2024): 4 12.

4.

4. Kruchinin V.V. Development of computer training programs. Tomsk: TSU. Publishing House 1998. 218 p.

5. Aziza Bozorova, Gulhayo Sayfullayeva kredit–Modul Ta'lim Tizimida Talabalarning Mustaqil Ta'lim Jarayonini Tashkil Etish// Бюллетень студентов нового Узбекистана, 2023

6. H Намозова мактаб астрономия фанига интеграциялашган медиатаълимдан фойдаланиш //Technical science research in uzbekistan, 2023

7. Haydarova Dilorom, Sayfullayeva Gulhayo Pyton dasturida astronomiyadan animatsiya yaratish // Journal of Universal Science Research, 2023

8. Haydarova Dilorom, Sayfullayeva Gulhayo ways to effectively organize speech culture of the astronomy teacher// Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya, 2023

9. Q Surayyo, X Sevinch, S Gulhayo Astronomiyada ishlatiladigan amaliy innovatsion dasturlar haqida asosiy tushunchalar va ularning imkoniyatlari //Journal of Universal Science Research, 2023

https://buxdu.uz

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING KASBIY-KOMPETENSIYASINI RAQAMLI MUSIQIY DASTURLAR VOSITASI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Hojiyev Mirshod Jalilovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Musiqa va tasviriy san’at kafedrasi o‘qituvchisi
hojiyev.mirshod@mail.ru
khadjayevmirshod@gmail.com

Ushbu maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini raqamli musiqa dasturlari yordamida takomillashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqola musiqa o‘qituvchilarining zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish jarayonini tahlil qiladi va raqamli dasturlar yordamida ularning professional malakalarini oshirishning samarali yo‘llarini ko‘rsatadi. Innovatsion metodlar va raqamli vositalar yordamida musiqa darslarining samaradorligini oshirish hamda ta’lim jarayonida raqamli musiqiy dasturlarning ahamiyati ta’kidlanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘qitish samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zarurligi muhim masala sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, raqamli musiqa dasturlari, innovatsion metodlar, musiqa o‘qituvchisi, malaka oshirish, raqamli vositalar, musiqa darslari, ta’lim jarayoni, raqamli texnologiyalar.*

ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРОГРАММ

В данной статье рассматриваются возможности совершенствования профессиональной компетенции будущих учителей музыки с помощью программ цифровой музыки. Статья анализирует процесс освоения учителями музыки современных технологий и демонстрирует эффективные способы повышения их профессиональной квалификации с помощью цифровых программ. Подчёркивается повышение эффективности уроков музыки с помощью инновационных методов и цифровых инструментов, а также важность цифровых музыкальных программ в образовательном процессе. В качестве важной задачи указывается необходимость эффективного использования цифровых технологий для повышения результативности обучения будущих учителей.

Ключевые слова: *профессиональная компетенция, цифровые музыкальные программы, инновационные методы, учитель музыки, повышение квалификации, цифровые инструменты, уроки музыки, образовательный процесс, цифровые технологии.*

OPPORTUNITIES TO IMPROVE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS USING DIGITAL MUSIC PROGRAMS

This article explores the opportunities for enhancing the professional competence of future music teachers through digital music programs. The study analyzes the process by which music teachers acquire modern technologies and demonstrates effective methods for improving their professional skills using digital programs. It emphasizes the importance of increasing the effectiveness of music lessons through innovative methods and digital tools, as well as highlighting the significance of digital music programs in the educational process. The necessity for future teachers to effectively utilize digital technologies to increase their teaching effectiveness is presented as a crucial issue.

Keywords: *professional competence, digital music programs, innovative methods, music teacher, professional development, digital tools, music lessons, educational process, digital technologies.*

Kirish. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlatning, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti, jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi masalalari uning yoshlarining bilimi, ta`lim tizimi, salohiyati, dunyoqarashi, ma’naviyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarning o‘rni ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yangi qonunlar va qarorlar, shuningdek, Prezidentimizning tashabbuslari, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga, o‘qituvchilarni

https://buxdu.uz

zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlashga qaratilgan. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularni raqamli musiqa dasturlari yordamida o‘qitish nafaqat o‘quv jarayonini, balki umumiy ta’lim sifatini ham yaxshilaydi.

Zamonaviy texnologiyalar, raqamli vositalar va innovatsion metodlar orqali o‘qituvchilarning malakalarini oshirish, musiqa ta’limining sifatini yuqori darajaga olib chiqish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyati ijtimoiy va ta’lim funksiyalarining murakkabligi tufayli yangi mazmun bilan to‘ldirilmoqda. Bugungi kunda tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki malakali, pedagogik madaniyati, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash muammosi ayniqsa dolzarbdir. Uning faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta’minlash mumkin.

Bugungi kunda musiqa ta’limiga kompyuter texnologiyalarini jadal joriy etish, turli madaniyatlar va ijod turlarining o‘zaro aloqasi musiqiy-ilmiy izlanishga tayyor va kasbiy kompetentliligi yuqori bo‘lgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini, san’at va ta’limning turli sohalarida bilimlarini rivojlantirish, o‘zlarining professional faoliyatida fanlararo aloqalarni o‘rnatish, ayniqsa muhim. Shu ma’noda, bugungi kunda pedagogik madaniyati va mahoratiga ega bo‘lgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga talab katta. Mamlakatimizda bugungi kunda oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish mazmuni va shakllari zamon talablariga to‘liq mos emas.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar" (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev, 2020) Bu asarda ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Prezident qarorida o‘qituvchilarning innovatsion metodlar, shu jumladan raqamli vositalar bilan ishlash qobiliyatini oshirish maqsadida maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligi ta’kidlanadi. Ushbu hujjat bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirishda raqamli dasturlarning muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu qaror ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining professional kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Raqamli musiqa dasturlari yordamida musiqa darslarini yanada qiziqarli va samarali o‘tkazish imkoniyati yaratiladi.

X. Jumayevning "O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi" nomli **asari** ta’lim tizimida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishidir. Muallif o‘qituvchilarni raqamli vositalar bilan ishlashga o‘rgatishning zarurligini ta’kidlaydi va ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning o‘rnini ko‘rsatadi. O‘quvchilarga raqamli vositalar orqali ta’lim berish metodlarini rivojlantirish, o‘qituvchilarning malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.X. Jumaevning tadqiqoti raqamli kompetensiyaning ta’lim sohasida qanday qo‘llanilishi kerakligini aniqlaydi. Bu o‘z-o‘zidan raqamli musiqa dasturlari va texnologiyalarining ta’lim jarayoniga qo‘shgan hissasini yoritadi. Bu tadqiqot bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari uchun innovatsion metodlarni qo‘llash va raqamli vositalarni o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

N. Qodirovaning "Musiqa o‘qituvchilarining raqamli vositalarni qo‘llashdagi kompetensiyasi" asarlari esa musiqa o‘qituvchilarining raqamli vositalar bilan ishlashdagi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Muallif raqamli musiqa dasturlarining pedagogik jarayondagi o‘rnini o‘rganadi va musiqa o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalarni qanday qo‘llashi kerakligini ta’kidlaydi. Ushbu asarda musiqa darslarini innovatsion tarzda tashkil etish va yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish imkoniyatlari yoritiladi.

N. Qodirovaning asari musiqa ta’limining yangi tendensiyalariga bag‘ishlangan. O‘qituvchilarning raqamli vositalarni ishlatish qobiliyati, o‘z navbatida, o‘qituvchilarni yanada samarali tarzda tayyorlashga yordam beradi. Bu asar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining raqamli dasturlar orqali o‘z kasbiy kompetensiyalarini oshirish zarurligini ta’kidlaydi.

S. Mustafayevning "Zamonaviy texnologiyalar va musiqa ta’limi" nomli kitobida musiqa ta’limidagi yangi texnologiyalarni qo‘llash masalalari muhokama qilinadi. Muallif musiqa darslarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ta’lim jarayonini qanday yaxshilashini tahlil qiladi. Bu asarda musiqa o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda raqamli vositalarning roli va ahamiyati ko‘rsatilgan. S. Mustafayevning ishlari, raqamli texnologiyalarning musiqa ta’limiga qo‘shgan hissasini yoritadi. Raqamli musiqa dasturlari yordamida musiqa o‘qituvchilari o‘z pedagogik mahoratlarini oshirish va darslarni yanada samarali o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu asar, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini raqamli vositalar yordamida rivojlantirishning zamonaviy metodlarini ko‘rsatadi.

https://buxdu.uz

Keltirilgan adabiyotlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda raqamli musiqa dasturlarining muhimligini tasdiqlaydi. Har bir adabiyotda o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish zarurligi va ularning pedagogik jarayonda qo‘llanilishining ahamiyati alohida ta’kidlangan. Raqamli musiqa dasturlari nafaqat o‘qituvchilarning bilimini kengaytirishga, balki musiqa darslarini innovatsion va samarali tarzda o‘tkazishga yordam beradi. Ushbu adabiyotlar orqali bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining malakalarini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni qo‘llashning imkoniyatlari va yo‘llari to‘g‘risida chuqur tushuncha hosil qilinadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida raqamli musiqiy dasturlar yordamida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-kompetensiyasini rivojlantirish borasida muhim xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur natijalar bo‘yicha muhokama quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

Muhokama jarayonida aniqlangan eng muhim jihatlardan biri – raqamli musiqiy dasturlar ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish va uni interaktiv tarzda tashkil qilish imkonini berishidir. Ushbu vositalar: Musiqiy materiallarni tez va sifatli tayyorlashda yordam beradi. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida ijodiy muloqotni kuchaytiradi. An’anaviy usullardan farqli ravishda talabalarning qiziqishi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Biroq, ba’zi o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi ushbu jarayonning kengroq qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, raqamli musiqiy dasturlarni keng joriy qilish uchun pedagoglarni o‘qitish bo‘yicha maxsus treninglar zarurligi ta’kidlandi.

Muhokamada shuni ko‘rsatadiki, Sibelius, Finale, MuseScore kabi dasturlar talabalarga nafaqat nota yozish imkonini beradi, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qiladi. FL Studio, Cubase va Logic Pro kabi ovoz tahrirlash dasturlaridan foydalanish esa musiqiy kompozitsiyalarni yaratishda yangicha yondashuvlarni joriy etadi.

Ushbu dasturlar talabalarning musiqa ijodi sohasida ilg‘or texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq, ba’zi talabalar ushbu dasturlarning murakkab interfeysi tufayli boshlang‘ich bosqichda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu o‘rinda dasturlarni soddalashtirish yoki boshlang‘ich bosqich uchun oddiyroq vositalardan foydalanish muhimligi muhokama qilindi.

Muhokamada o‘quv jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Xususan: Talabalar yangi bilimlarni amalda sinovdan o‘tkazish va ularni ijodiy loyihalar shaklida ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ldi. An’anaviy yondashuv bilan solishtirganda, raqamli vositalar yordamida o‘rgatilgan talabalar murakkab musiqiy asarlarni tahlil qilish, yaratish va ijro etishda ko‘proq muvaffaqiyatga erishgani kuzatildi.

Shu bilan birga, muhokamada raqamli musiqiy dasturlarni to‘g‘ri tanlash va ulardan foydalanish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi muhim ekani ta’kidlandi. Chunki noto‘g‘ri tanlangan vositalar o‘quv jarayonini murakkablashtirishi yoki talabalar motivatsiyasini pasaytirishi mumkin.

Muhokamada olingan natijalar asosida quyidagi muammolar aniqlanib, ularning yechimlari taklif qilindi: Texnologik qiyinchiliklar: Ba’zi o‘quvchilarning texnologik bilimlari yetarli darajada emasligi dasturlar bilan ishlashni qiyinlashtirdi. Bu masalani hal qilish uchun maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilish taklif etildi. Texnik infratuzilmaning yetishmasligi: Ayrim ta’lim muassasalarida zarur texnologik vositalar va dasturlar mavjud emasligi qayd etildi. Bu esa musiqiy ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida jiddiy to‘siq sifatida ko‘rsatildi. Shu sababli, ta’lim muassasalarini texnik jihozlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi. Raqamli dasturlarning narxi: Professional musiqiy dasturlarning yuqori narxi ularning keng qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilishi mumkinligi muhokama qilindi. Shu sababli, bepul yoki arzon dasturlardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganib chiqildi (masalan, MuseScore, BandLab).

Muhokama natijasida quyidagi takliflar ilgari surildi: Raqamli musiqiy dasturlardan foydalanishni kengaytirish uchun o‘quv dasturlarini yangilash va ularga mos metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur. Pedagoglar va talabalar uchun doimiy ravishda treninglar va mahorat darslarini tashkil etish kerak. O‘quv jarayoniga faqat zamonaviy dasturlarni emas, balki milliy musiqiy merosimizga mos texnologiyalarni ham integratsiya qilish lozim.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli musiqiy dasturlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-kompetensiyasini oshirishda muhim vosita bo‘lib, ular musiqiy ta’lim jarayonini yangicha bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu vositalardan samarali foydalanish uchun tegishli infratuzilma va metodik yordamni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

"Tadqiqotning obyekti – bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida raqamli musiqiy dasturlarni samarali qo‘llash imkoniyatlari, ularning o‘quv jarayoniga integratsiyasi va bunda foydalaniladigan metodik yondashuvlar majmuidir. Mazkur jarayonda raqamli musiqiy dasturlar o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish, ularning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish, didaktik materiallar tayyorlash, shuningdek, musiqiy ta’limning zamonaviy talablariga mos ravishda talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda musiqa o‘qituvchilarining

https://buxdu.uz

ta’lim berish jarayonida musiqa texnologiyalari, nota dasturlari (masalan, Sibelius, Finale, yoki MuseScore), ovoz yozish va tahrirlash platformalari (masalan, Cubase, FL Studio yoki Logic Pro), shuningdek, raqamli sintezator va virtual asboblar bilan ishlash malakalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi." Bu shaklda obyekti nafaqat raqamli musiqiy dasturlarning imkoniyatlarini, balki ularning o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga qanday ta’sir qilishi va qanday natijalar berishi haqida kengroq ma’lumotni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodlari. Tahlil (analiz) va sintez metodi: Zamonaviy musiqiy dasturlarning imkoniyatlari va funksionalligi, ularning ta’lim jarayonidagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Shu asosda ushbu dasturlarni musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-kompetensiyasini rivojlantirishga mos ravishda tanlab olish va integratsiyalash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ehtiyojlari, bilim va ko‘nikmalari tahlil qilinib, ularni rivojlantirish uchun raqamli musiqiy texnologiyalardan foydalanish usullari sintez qilinadi.

Eksperiment metodi: Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ta’lim jarayonida raqamli musiqiy dasturlardan foydalanish samaradorligi amaliy ravishda tekshiriladi. Bu usul orqali nazariy xulosalar amaliyotda sinovdan o‘tkazilib, dasturlarni o‘qitish jarayoniga qanday ta’sir qilishi o‘rganiladi. Dasturlar bilan ishlashda o‘quvchilarning qobiliyatlari va ko‘nikmalarining o‘zgarishi kuzatiladi.

So‘rovnoma va intervyu o‘tkazish: Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining raqamli musiqiy dasturlarga oid bilim va tajribasi aniqlanadi. Talabalar va o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan intervyu va so‘rovnomalar yordamida ushbu dasturlarning o‘qitish jarayoniga ta’siri haqidagi fikrlar yig‘iladi. Olingan ma’lumotlar asosida metodik takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tajriba-sinov metodi: Pedagogik tajribalar orqali raqamli musiqiy dasturlardan foydalanishning bo‘lajak o‘qituvchilarga bo‘lgan ijobiy ta’siri, jumladan, musiqiy ko‘nikmalar va ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari baholanadi. Raqamli vositalardan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishning optimal usullari aniqlanadi.

3. Teshayev A.T. Talabalarga jadidchilik harakatining jamiyat tarqqiyotidagi milliy va siyosiy ahamiyatini o‘rgatishning nazariy asoslari.// Buxoro davlat pedagogika instituti “Turkiston taraqqiyparvarlari merosi: tarixiy tajriba va milliy o‘zlik” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya, Buxoro shahri, 2024-yil 4-5-oktabr b.953-962.

4. Teshayev A.T. Oliy ta’lim jarayonida innovatsion usullardan foydalanish orqali talabalar dunyoqarashini rivojlantirish //Andijon davlat universiteti “Zamonaviy dunyo ta’limi: yangi davr muammolari – yangi yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. // Universal International Scientific Journal, maxsus soni, 2024-yil 17-may. B.190-194.

https://buxdu.uz

KASBIY TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SOG‘LOM TURMUSH TARZI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Ravshanov Bexruz Xasanovich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi
bexruzravshanov5@gmail.com

Ushbu maqolada kasbiy ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzi integratsiyasi orqali o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Raqamli vositalardan foydalanish va sog‘lom hayot tarzini qo‘llab-quvvatlash kasbiy malakalarni shakllantirishga qanday ta’sir qilishini o‘rganish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy ta’lim, raqamli texnologiyalar, sog‘lom turmush tarzi, kasbiy kompetensiya, ta’lim metodikasi.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ

В данном исследовании анализируется методика развития профессиональных компетенций учащихся в учреждениях профессионального образования посредством интеграции цифровых технологий и здорового образа жизни. Основная цель – изучение влияния использования цифровых инструментов и поддержания здорового образа жизни на формирование профессиональных навыков.

Ключевые слова: *профессиональное образование, цифровые технологии, здоровый образ жизни, профессиональная компетентность, методика обучения.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND A HEALTHY LIFESTYLE IN PROFESSIONAL EDUCATION

This research analyzes the methodology of developing students' professional competencies in vocational education institutions through the integration of digital technologies and a healthy lifestyle. The main goal is to study how the use of digital tools and the promotion of a healthy lifestyle contribute to the formation of professional skills.

Keywords: *vocational education, digital technologies, healthy lifestyle, professional competence, teaching methodology.*

Kirish. Zamonaviy kasbiy ta’lim tizimi jadal rivojlanayotgan texnologiyalar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib borishi lozim. Raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzi integratsiyasi orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo‘lish uchun nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki sog‘lom hayot tarziga rioya qilish, jismoniy va ruhiy barqarorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, masofaviy ta’lim platformalari va sun’iy intellektga asoslangan dasturlar orqali o‘quvchilarning kasbiy mahorati oshirilmoqda. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va uni ta’lim tizimiga integratsiya qilish kasbiy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning jismoniy faolligi, to‘g‘ri ovqatlanishi, ruhiy barqarorligi va stressga chidamliligini oshirish ularning kasbiy samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi mehnat bozorida ko‘plab kasblar jismoniy faollik va salomatlik bilan bog‘liq. Masalan, muhandislik, qurilish, sanoat, axborot texnologiyalari sohalarida ishlaydigan mutaxassislar uzoq vaqt kompyuter oldida yoki murakkab ishlab chiqarish sharoitlarida faoliyat yuritadilar. Shunday holatlarda sog‘lom turmush tarziga amal qilish ularning mehnat unumdorligini oshirish bilan birga, kasbiy kasalliklarning oldini olishga ham yordam beradi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzi uyg‘unligi pandemiya davrida yanada muhim ahamiyat kasb etdi. Masofaviy ish va o‘qish jarayonlarida insonlarning jismoniy faolligi kamaydi, ruhiy holati yomonlashdi. Shu sababli, kasbiy ta’lim tizimida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yo‘naltirilgan raqamli texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masala bo‘lib qoldi. Masalan,

https://buxdu.uz

jismoniy mashg‘ulotlarni kuzatib boruvchi ilovalar, onlayn sport dasturlari va interaktiv sog‘lom turmush tarzi kurslari orqali o‘quvchilarni sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirish mumkin.

Shunday qilib, kasbiy ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzini integratsiya qilish orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. Bu nafaqat mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, balki yoshlarning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash, ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga zamin yaratish uchun ham muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Kasbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzi integratsiyasining o‘rganilishi so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislar e’tiborini tortmoqda. Ushbu yo‘nalishda qator ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar nashr etilgan bo‘lib, ular ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib beradi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini innovatsion yo‘nalishda rivojlantirishga imkon beradi. Masalan, J. Anderson va D. Krathwohl (2001) tomonidan ishlab chiqilgan "Bloom’s Digital Taxonomy" yondashuvi ta’limda raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Shu bilan birga, B. Collis va M. Moonen (2012) ta’lim texnologiyalarining moslashuvchanligi va interaktivligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, ularning kasbiy ta’limga moslashuvchan ta’sirini ta’kidlagan.

Virtual reallik (VR), sun’iy intellekt (AI) va masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirishning muhim omillaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Masalan, J. Dewey (1916) o‘zining pragmatizm falsafasida amaliy tajriba va interaktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishini ilgari surgan. Bugungi kunda bu yondashuv VR va simulyatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashib, kasbiy ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzi uyg‘unligi masalasiga oid tadqiqotlarda kompleks yondashuvning muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, G. Salmon (2013) o‘zining "E-tivities" konsepsiyasida onlayn ta’lim va jismoniy faollikni uyg‘unlashtirish metodlarini tavsiya etadi. Shu bilan birga, A. Trilling va C. Fadel (2009) "21-asr ko‘nikmalari" kitobida ta’lim jarayonida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, jumladan, sog‘lom turmush tarzi va raqamli savodxonlikni birgalikda shakllantirish muhimligini ta’kidlagan.

Muhokama. Kasbiy ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzi integratsiyasi innovatsion pedagogik yondashuvlarning ajralmas qismi hisoblanadi. XXI asrda ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat bilim olish jarayonini tezlashtiradi, balki kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini qo‘llash o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy barqarorligini ta’minlab, ularning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

1-rasm. Kasbiy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash tamoyillari

Raqamli texnologiyalar bilan sog‘lom turmush tarzini uyg‘unlashtirish ushbu tamoyillar asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Kasbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarga innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar orqali

https://buxdu.uz

o‘quvchilarga mustaqil ishlash va o‘z malakalarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratilyapti. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning tayyorligini va kasbiy kompetensiyalarini aniq va tizimli baholashga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalarni kasbiy ta’limga integratsiya qilishning birinchi qadami – bu o‘quv materiallarini interaktiv va multimedia shaklida taqdim etishdir. O‘quvchilarga yuqori sifatli video darsliklar, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar va o‘quv platformalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish orqali ularning kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish mumkin. Interaktiv dasturlar va simulyatsiyalar o‘quvchilarga murakkab vazifalarni real va xavfsiz sharoitda bajarish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida ularning kasbiy malakalarini oshiradi.

Kasbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashda asosan ikki yo‘nalishda ishlash mumkin:

1. Onlayn va distants ta’lim: Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga masofaviy darslar, testlar, webinarlar, interaktiv mashqlar, va boshqa o‘quv resurslarini taqdim etish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkin. Masalan, o‘quvchilar onlayn kurslar yordamida o‘z malakalarini mustahkamlashlari mumkin. Bu turdagi ta’lim tizimi o‘quvchilarga ta’lim olishda katta erkinlik beradi, shu bilan birga, ta’lim jarayonini o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini yaratadi.

2. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar: Texnologiyalarni qo‘llash orqali kasbiy ta’limda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin. Masalan, sanoat va muhandislik sohasida virtual laboratoriyalar, arxitektura va dizayn sohasida 3D modellash vositalari yordamida o‘quvchilar haqiqiy ish muhitida ishlashni tajriba qilishlari mumkin. Bu usul o‘quvchilarga kasbiy muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kasbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash, nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini kengaytirish, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilar raqamli platformalarda o‘zlarini test qilish, maqsadlar belgilash, o‘zlarining kasbiy faoliyatini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashiga yordam beradi va malakali mutaxassislar sifatida rivojlanishlariga imkon yaratadi.

Raqamli vositalar yordamida kasbiy kompetensiyalarni baholash jarayoni ham ancha osonlashadi. Onlayn testlar, interaktiv mashqlar va boshqa raqamli resurslar orqali o‘quvchilarning tayyorlik darajasi baholanadi. Bu esa ta’lim jarayonini doimiy tahlil qilish va o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, o‘qituvchilarga o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga qarab, ularning rivojlanishiga moslashtirilgan ta’limni taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Kasbiy ta’limda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Sog‘lom turmush tarzi nafaqat jismoniy faoliyatni, balki psixologik va aqliy farovonlikni ham o‘z ichiga oladi. Jismoniy va aqliy holatni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilar kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan barcha fazilatlarni egallaydilar.

Jismoniy faollik, sog‘lom turmush tarzining asosiy tamoyillaridan biri sifatida, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Sport mashg‘ulotlari va jismoniy tarbiya, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, jismoniy va aqliy kuchni saqlashga yordam beradi. Jismoniy mashqlar, stressni kamaytirish va o‘quvchilarning samaradorligini oshirishda juda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzining psixologik jihatlari ham kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhimdir. Psixologik farovonlik, stressni boshqarish, motivatsiya va o‘ziga bo‘lgan ishonch o‘quvchilarning ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa o‘z navbatida, kasbiy ta’limda o‘quvchilarning sifatli malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Sog‘lom turmush tarzi nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlash, balki kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Kasbiy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi lozim:

https://buxdu.uz

Jismoniy faollikni oshirish – o‘quvchilarni sport va harakatli mashg‘ulotlarga jalb qilish;

To‘g‘ri ovqatlanish – vitamin va minerallarga boy mahsulotlarni iste’mol qilish;

Ruhiy barqarorlik – stress va zo‘riqishning oldini olish uchun psixologik dasturlarni joriy etish.

Sog‘lom turmush tarzini kasbiy ta’limga integratsiya qilish, o‘quvchilarning faqat kasbiy malakalarini rivojlantirishga yordam bermaydi, balki ularning umumiy hayot sifatini oshiradi. Ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha dasturlarni joriy etish, o‘quvchilarga nafaqat jismoniy, balki ruhiy va emotsional farovonlikni ta’minlashda yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali, o‘quvchilar o‘zlarini muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga undaydi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzining psixologik jihatlari o‘quvchilarga kasbiy faoliyatda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning muvaffaqiyatga erishishiga va ularning kasbiy malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jismoniy faollikni targ‘ib qilishda raqamli texnologiyalar hamda sog‘lom turmush tarzi dasturlari muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy mashqlarni uyda yoki boshqa joylarda bajarish uchun raqamli platformalar, masalan, fitness ilovalari yoki sport mashg‘ulotlarini jonli efirda ko‘rish imkoniyatlari o‘quvchilarga o‘z sog‘lom turmush tarzini yaratishda yordam beradi. Shuningdek, sport va jismoniy tarbiya bo‘yicha onlayn mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar o‘zlarini faollashtirib, kundalik jismoniy mashqlarni bajarishlari mumkin. Bunday raqamli vositalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni sog‘lom turmush tarziga undaydi. Raqamli texnologiyalar, shuningdek, o‘quvchilarning psixologik holatini yaxshilashda ham yordam beradi. Stressni boshqarish, meditasiya, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va boshqa psixologik texnikalarni o‘rgatish uchun onlayn kurslar, mobil ilovalar va interaktiv mashqlar mavjud. Psixologik resurslar o‘quvchilarga stressni kamaytirish, ruhiy holatni yaxshilash va umumiy farovonlikni oshirishda yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishiga imkon yaratadi.

Sog‘lom turmush tarzini va raqamli texnologiyalarni birlashtirish orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali yondashuv yaratish mumkin. Raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning kasbiy bilimlari va malakalari tezda baholanishi, o‘quvchilarning o‘z malakalarini mustahkamlash va rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlari aniqlanishi mumkin. O‘quvchilar o‘zlarining jismoniy va ruhiy salomatliklarini nazorat qilish, kasbiy maqsadlariga erishish uchun o‘z taraqqiyotlarini raqamli platformalar orqali kuzatib borishlari mumkin.

Raqamli platformalar orqali jismoniy faollikni qo‘llab-quvvatlashning bir nechta asosiy yo‘nalishlari mavjud:

1. Onlayn mashg‘ulotlar va fitness ilovalar: Bugungi kunda jismoniy mashqlarni uyda bajarish uchun bir qator raqamli ilovalar mavjud. Fitness ilovalar, masalan, Nike Training Club, MyFitnessPal, yoki Strava kabi platformalar, o‘quvchilarga jismoniy faollikni turli darajalarda bajarishga yordam beradi. Ushbu ilovalar o‘quvchilarga o‘zlarining mashg‘ulotlarini rejalashtirish, maqsadlar qo‘yish va erishilgan natijalarni kuzatib borish imkonini beradi. Jismoniy mashqlarni uyda bajarishning qulayligi o‘quvchilarga sport zaliga borish uchun vaqt ajratishning o‘rniga, o‘zlari uchun qulay vaqtni tanlash imkoniyatini yaratadi.

2.Video darslar va jonli efirlar: Sport mashg‘ulotlari va fitnessni qo‘llab-quvvatlashda videodarslar va jonli efirlar ham katta ahamiyatga ega. Misol uchun, YouTube yoki Instagram Live kabi platformalarda jismoniy mashqlar bo‘yicha bepul darslar mavjud. Mashg‘ulotlar o‘quvchilarga uyda yoki istalgan joyda jismoniy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Jonli efirda mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali o‘quvchilar o‘rtasida jismoniy faollikni yanada rag‘batlantirish mumkin. Bu platformalar jismoniy mashqlarni bajarishda o‘quvchilarga real vaqt rejimida ko‘rsatmalar berish va ularning savollariga tezda javob berish imkonini yaratadi.

3. Gamifikatsiya yordamida jismoniy faollikni rag‘batlantirish: Gamifikatsiya – bu o‘yin mexanikalaridan foydalanib, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undashning samarali usulidir. Jismoniy faollikni raqamli platformalar orqali gamifikatsiya qilish, o‘quvchilarga motivatsiya yaratadi va ularni jismoniy mashqlarni doimiy ravishda bajarishga undaydi. Misol uchun, StepBet yoki Fitbit Challenges kabi ilovalar foydalanuvchilarni o‘z maqsadlariga erishish uchun raqobatga jalb qiladi. Bu ilovalar foydalanuvchilarga o‘zlarining jismoniy faoliyatini tahlil qilish, raqobat qilish va mukofotlar olish imkoniyatini beradi, shu bilan birga ularni doimiy ravishda faol bo‘lishga rag‘batlantiradi.

4. Sog‘lom turmush tarzi ilovalarining integratsiyasi: Sog‘lom turmush tarziga oid raqamli platformalar jismoniy faollikni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Bu ilovalar faqatgina sport mashqlarini emas, balki ovqatlanish, uyqu va stressni boshqarishni ham kuzatish imkonini beradi. MyFitnessPal, Health Mate va Google Fit kabi ilovalar foydalanuvchilarga ovqatlanish, jismoniy mashqlar, uyqu va stressni boshqarishni birlashtirib, to‘liq sog‘lom turmush tarzini yaratish imkonini beradi. Bu

https://buxdu.uz

ilovalar o‘quvchilarga o‘zlarining jismoniy faolliklarini nazorat qilish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish va to‘g‘ri ovqatlanishni ta'minlashda yordam beradi.

5.Virtual sport jamiyatlari: Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarni bir-biri bilan bog‘lash va jismoniy faollikni birgalikda amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Strava, Zwift va Peloton kabi platformalar o‘quvchilarga birgalikda sport mashg‘ulotlarini bajarish, musobaqalarda ishtirok etish va natijalarni taqqoslash imkonini beradi. Bu platformalar orqali o‘quvchilar o‘zaro tajriba almashish, jismoniy faollikda bir-birini qo‘llab-quvvatlash va o‘z muvaffaqiyatlarini nishonlash imkoniyatini yaratadi.

6.Mashg‘ulotlarni moslashtirish va individual yondashuv: Raqamli platformalar jismoniy faollikni moslashtirish va individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Har bir o‘quvchining jismoniy holati, maqsadlari va ehtiyojlari boshqacha bo‘ladi, shuning uchun raqamli ilovalar va platformalar o‘quvchilarga o‘zlarining shaxsiy ehtiyojlariga mos mashg‘ulotlarni tanlash imkonini beradi. Masalan, ba'zi ilovalar foydalanuvchilarga o‘z salomatligi va fitness darajasiga qarab moslashtirilgan mashg‘ulot dasturlarini taqdim etadi. Bu esa o‘quvchilarga o‘z darajasiga mos ravishda faollikni oshirish va jismoniy holatini yaxshilash imkonini beradi.

Xulosa. Kasbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzining uyg‘unligi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini innovatsion usullar bilan boyitib, ularning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi. Virtual laboratoriyalar, masofaviy ta’lim platformalari va sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayonini moslashuvchan qiladi, sog‘lom turmush tarzi esa o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilaydi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzi integratsiyasi kelajakda kasbiy ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradigan muhim strategiya hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sog‘lom turmush tarzini integratsiya qilish o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar bu yondashuvning nazariy asoslarini tasdiqlab, uning amaliy jihatlari bo‘yicha turli metodik tavsiyalarni ilgari surmoqda. Shu sababli, kelgusida ushbu yo‘nalishda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish va kasbiy ta’lim muassasalariga joriy etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Ravshanov B.X. Jismoniy tarbiya darslarining sifat-samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va uning afzalliklari //international sciences, education and new learning technologies. – 2024. – T. 1. – №. 11. – C. 135-139.

2. Ravshanov B.X. Jismoniy tarbiya ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarini elektron ta’lim bazasidan foydalangan holda kasbiy mahoratini takomillashtirish. // “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”. Ilmiy metodik jurnal, № 6/2. Qoraqalpog‘iston. 2023.

3. Ravshanov B.X. Increasing professional skills of physical education graduates using an electronic educational base. // Educational Research in Universal Sciences. Multidisciplinary scientific journal, 2024 – ISSN 2181-3515: volume 3. special issue 1. B. 724 – 727. http://erus.uz/index.php/er/article/view/5696

4. Turakulov O.X. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirish (axborot va kompyuter texnologiyalariga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari misolida): p.f.d. Disser. Avtoref. –T.: - 2017. – B.28.

https://buxdu.uz

MA’NAVIYAT VA TARBIYA

OILAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA TALABALARNING IJOBIY MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Hamdamova Sitora Rustam qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti
hamdamova_sitora@buxdpi.uz

Oilaviy qadriyatlar asosida talabalarni ijobiy munosabatlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, oila pedagogikasi o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun oilada beriladigan tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari, tamoyil va metodlariga doir bilimlarni jamlaydi. Oila pedagogikasi umumiy pedagogikaning bir tizimi bo‘lib, u umumiy pedagogika qonuniyatlari asosida yaratilgan.

Kalit so‘zlar: *oila pedagogikasi, tarbiya, yosh avlod, barkamol avlod, tamoyil, umumiy pedagogika, qonuniyat, usul, vosita,oila, farzand, tarbiya, mahorat, madaniyat, ma’naviy rivojlanish.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПОЗИТИВНЫХ УСТАНОВОК СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Совершенствование методики развития положительных установок у студентов на основе семейных ценностей, семейная педагогика обобщает знания о содержании, общих закономерностях, принципах и методах семейного воспитания для формирования подрастающего молодого поколения как гармонично развитых личностей. Семейная педагогика является подсистемой общей педагогики, основанной на закономерностях общей педагогики.

Ключевые слова: *семейная педагогика, воспитание, молодое поколение, гармонично развитое поколение, принцип, общая педагогика, закономерность, метод, средство, семья, ребёнок, воспитание, мастерство, культура, духовное развитие.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING POSITIVE RELATIONSHIPS OF STUDENTS BASED ON FAMILY VALUES

Improving the methodology for developing positive relationships among students based on family values, family pedagogy compiles knowledge about the content, general principles, and methods of upbringing in the family for raising the younger generation as well-rounded individuals. Family pedagogy is a subsystem of general pedagogy, created on the foundation of general pedagogical laws.

Keywords: *family pedagogy, upbringing, young generation, well-rounded generation, principle, general pedagogy, regularity, method, means, family, child, upbringing, skill, culture, spiritual development.*

Kirish. Oila – asrlar davomida shakllanib kelgan jamiyatning mustahkam poydevori, jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi qudratli maskan. Jamiyatning har tomonlama farovonligi oilaning mustahkamligi, farovonligi, tinchligi va xotirjamligiga bog‘liq. Shu bois Yangi O‘zbekiston hamda uchinchi Renessans poydevoriga asos solinayotgan bir davrda oila institutini mustahkamlash va uning tinchligi, xotirjamligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, oila, xotin-qizlar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash, bandligini ta’minlash, kambag‘allikning oldini olish, hayotdan xursandlik hissini shakllantirish, davlat va jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning bilim olishlari, kasb egallashlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularning turli sohalarda qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy faolligini oshirish, gender tengligini ta’minlash kabi qator masalalarga oid 100 ga yaqin huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ayniqsa, keyingi yillarda bu borada olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

https://buxdu.uz

strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida Oila instituti rivojlanishida qadriyatlarning o‘rni: milliy va xorijiy tajriba belgilab berilgan 7 ta yo‘nalishning beshinchi “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishi bo‘yicha 71–78-maqsadlarning mohiyati ham oilaning ma’naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan. Oilaviy qadriyatlar - bu har bir oila a’zosining o‘zaro ta’siri va rivojlanishi uchun asos bo‘lgan umumiy e’tiqodlar, tamoyillar va ideallar to‘plami. Ular barcha oila a‘zolari uchun muhim va mazmunli deb hisoblangan narsalarni aks ettiradi [1]. Bu qadriyatlar sevgi, hurmat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash, muloqot, mas‘uliyat va boshqalar kabi jihatlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Shuni ta‘kidlash kerakki, o‘ziga xos oilaviy qadriyatlar har bir oilaning madaniy yoki diniy an‘analariga qarab farq qilishi mumkin. Ular oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarda barqarorlik va uyg‘unlikni saqlashga yordam beradi Bu manoda, oilaviy qadriyatlar hissiy aloqani kuchaytiradi, ishonchni mustahkamlaydi va nizolarni umumiy tamoyillar asosida hal qilishga imkon beradi. Ular, shuningdek, oilada axloqiy va madaniy an‘analarning rivojlanishiga asos bo‘ladi. Oilaviy qadriyatlar tufayli odamlar bir-birlaridan qo‘llab-quvvatlash va tushunishni topadilar, shuningdek, o‘zlarining shaxsiy imkoniyatlarini namoyon yetishlari uchun qulay muhit yaratadilar. Ayniqsa, oilaviy qadriyatlar bolalarning shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular hissiy, ijtimoiy va psixologik farovonligiga bevosita ta‘sir qiladi. Oilalar umumiy qadriyatlarni baham ko‘rsa, bolalar o‘zlarining axloqiy tamoyillarini aniqlashga va o‘z tanlovlarining to‘g‘riligini tushunishga yordam beradigan aniq axloqiy kompasga yega bo‘lishadi. Oila, shuningdek, bolalar uchun birinchi maktab bo‘lib xizmat qiladi, u yerda ular muloqot, empatiya va boshqa odamlarga hurmatni o‘rganadilar.

Oilaviy qadriyatlar shaxsning fikr va histuyg‘ularini ifodalash uchun xavfsiz muhit yaratadi va oilaviy hayotda faol ishtirok yetishga undaydi. O‘z-o‘zini anglash va o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantirish oilaviy qadriyatlar bolalarning o‘ziga xosligi va o‘zini o‘zi qadrlashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar muayyan qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlasa, ular bolalarning oila va jamiyatdagi o‘rnini tushunishlariga yordam beradi. Oila uchun hayotdagi asosiy qadriyatlar, barcha oila a‘zolarining hamjihatligini, ishonchini va sevgisini mustahkamlaydigan muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilishga intiladi. Ushbu qadriyatlarni e‘tirof etish va hurmat qilish orqali bolalarda o‘z oilasi va madaniy an‘analariga daxldorlik hissi rivojlanadi. Shuningdek, ular o‘zlarining individualligini bilishadi va tengdoshlari va boshqalar bilan munosabatlarda sog‘lom chegaralarni qurishni o‘rganadilar. Shuningdek, o‘z-o‘zini hurmat qilish shaxsiy yutuqlarni tan olish, hamdardlik va mas‘uliyatli xatti-harakatlarni rag‘batlantirish orqali sodir bo‘ladi. Agar oilalar bolalarda ijobiy o‘zini o‘zi anglashni rivojlantirishga yordam beradigan qadriyatlarni qabul qilsalar, ular jamiyatga muvaffaqiyatli qo‘shilish uchun asosga ega bo‘ladilar. Komil insonni voyaga yetkazishda oila va jamiyatning o‘rni uning tarbiyadagi uzviyligi, uzluksizlik asosida amalga oshishi bu yaxlit bir qonuniy jarayondir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Oila - nikoh munosabatlari insoniyatga qadim davrlardan ma’lum. Neolit davridayoq (15-20 ming yil ilgari) ongli inson paydo bo‘lganda, odamlar jamoasi paydo bo‘lgandayoq ularning birgalikda xo‘jalik yuritishdagi va bola tarbiyalashdagi vazifalari tabiiy jinsiyligi, yoshiga qarab (erkak, ayol) ajratilishiga asoslangan. Tarixda qayd etilgan oilaviy munosabatlarda farqlar bo‘lishiga qaramay hamma oilalarni birlashtiradigan qandaydir umumiylik bor. Bu oilaviy tarzda hayot kechirishdir, bunda insoniyat yashashning yagona imkoniyatini topgan. Olimlar oilaning turli vazifalarini ko‘rsatadilar. Biz birinchi navbatda bolani tarbiyalash va rivojlantirishga taalluqlilarigagina to‘xtalib o‘tamiz. Reproduktiv vazifasi - (“produktio” lotincha so‘z – qayta ishlab chiqarish, ko‘payish) oilaning muhim bo‘lgan vazifalaridan biri (jamiyatning biologik uzluksizligini ta’minlash, bolalarni dunyoga keltirish). Reproduktiv vazifasi inson zotini davom ettirish zaruriyati sababini asoslaydi. Hozirgi kunda ikki-uch odamdan tashkil topgan oilalar soni ortib bormoqda.

Bunday oilalarning aytishlaricha, bolalar ota-onalarining erkinliklarini cheklaydialar, ta’lim olish, ishlash, malaka oshirish, o‘z qobiliyatini yuzaga chiqarishda. Afsusuki, bolaga ega bo‘lmaslik mavjud bo‘libgina qolmay, farzand ko‘rishga layoqatli bo‘lsalar-da, farzand orttirmay shunday o‘tadiganlar soni Yevropa mamlakatlari oilalarida ortib bormoqda. Buning sabablarini quyidagicha izohlash mumkin: tug‘ilishning kamayishi, yosh oilalarning ota-onalaridan alohida yashashlari, ajralishlari o‘sib borishi sababli bir ota yoki onali oilalar soni ortib bormoqda, aholining sog‘lig‘i sifati mamlakatda sog‘likni saqlash rivojlanish darajasi. Ekspertlarning baholashlari bo‘yicha yomon, noqulay ekologik sharoit, axloqsiz hayot kechirish, yomon ovqatlanish, kasalligi va boshqa turli xil sababli yoshi katta aholining 10-15 % sog‘ligining holati sababli bolaga ega bo‘lish imkoniyati mavjud emas. Iqtisodiy va xo‘jalik-turmush vazifalari - qadimdan oila har doim jamiyatning boshlang‘ich xo‘jalik tashkiloti bo‘lib kelgan. Ov qilish va don yetishtirish, hunarmandchilik va savdo kabilar oilada har doim vazifalar taqsimlangan bo‘lgani uchun mavjud bo‘la olgan.

https://buxdu.uz

Qadimdan ayollar butun uy ishlari bilan mashg‘ul bo‘lganlar, erkaklar kasb-hunar bilan shug‘ullanganlar. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asriga kelib odamlar hayotiy yumushlarining ko‘plari (ovqat tayyorlash, kir yuvish, uy tozalash, kiyim tikish va boshqalar) qisman maishiy xizmat sohasida yuklatilgan. Iqtisodiy vazifalar oila-azolari uchun boylik to‘plash bilan bo‘g‘liq bo‘lgan kelin uchun sovg‘lar, kuyov uchun qalin, avlodlarga qoldiradigan buyumlar, to‘yga, voyaga etish yoshiga sug‘urta qilish mablag‘lari to‘plash. Bizning jamiyatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar oilaning mol-mulk to‘plash, xususiy mulkka ega bo‘lish, turar joyni xususiylashtirish, meros qilib qoldirish va shu kabi masalalardagi iqtisodiy vazifasi yanada faollashib bormoqda. Boshlang‘ich ijtimoiylashtirish vazifasi - oila bola shaxsi shakllanishida faol ta’sir ko‘rsatadigan birinchi va asosiy ijtimoiy guruhdir. Oila ijtimoiy mikromuhit bo`lib, ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish omilaridan biridir.

Muhokama. U bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Oilaning vazifasi bolaning tabiatiga mos ravishda rivojlanib borishi uchun uni asta -sekin jamiyatga kiritib borishdan iboratdir. Insoniyat to‘plagan ijtimoiy tajribalarga, u tug‘ilib o‘sayotgan mamlakat madaniyatiga, uning ma’naviy-axloqiy qoidalariga, xalq an’analariga bolani orgatish ota-onalarining majburiy vazifasidir. Tarbiyaviy vazifasi - boshlang‘ich ijtimoiylashtirish jarayonida bolani oilada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilari bo‘lganlar va shunday bo‘lib qoladi. Bolani oilada tarbiyalash murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Oiladagi sharoit va muhit bola shaxsi shakilanishiga ta’sir ko‘satadi.

Ota va ona o‘z bolasini ardoqlaydilar, erkalaydilar, tashvish va qiyinchiliklardan asraydilar. Ota-onalarning shaxsiy ibratlari - bolaning tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatishning muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy ahamiyati bolaning taqlid qilishga qiziqishi, havasmandligiga asoslangan. Bilim va tajribaga ega bo‘lmay turib bola kattalar qilganini takrorlaydi, ularning harakatlariga taqlid qiladi. Ba’zan bolaning oilada olgan tajribasi atrof –odamlarga nisbatan yagona o‘lchov belgisi bo‘lib qoladi. To‘g‘ri, ba’zi oilalarda ota-onalari bemor bo‘lganida, buzuq axloqli hayot kechirganlarida, pedagogik ma’daniyatga ega bo‘lmagalarida va shu kabilarda tarbiya buzilishi mumkin. Albatta, oila shaxs tarbiyasiga shunchaki o‘zining borligi bilan ta’sir ko‘rsatmaydi, balki qulay ma’naviy-psixologik muhit, uning a’zolari o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlar ta’sir ko‘rsatadi Rekreativ va psixoterapevtik vazifasi - rekreativ funksiyasi - o‘zaro jismoniy, moddiy, ma’naviy va psixologik yordam ko‘satish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila azolarining dam olishini tashkil etish demakdir. Buning mazmuni oilada inson o‘zini to‘la himoyalangan deb his etadiki, to‘la qabul qilgan uning mavqei, tashqi ko‘rinishi, hayotdagi muvaffaqiyatlaridan, moddiy ahvolidan qat’iy nazar oila uni qabul qiladigan boshpana bo‘lishidan iborardir.

«Mening uyim-mening qasrim» iborasi sog‘lom oila - dunyodagi hamma notinchliklardan vaqtinchalik bo‘lsa ham yashirinishiga, dam olib, o‘z kuchlarini to‘plab olishga eng ishonchli va eng yaxshi boshpana degan ma’noni yaxshi ifoda etib beradi. Xotin o‘z uyida o‘zining hokimi, hamma kamsitishlar va tahkirlashga indamay chidab kelgan ana’naviy model endi o‘tmishda qolib ketmoqda. Ko‘pchilik ayollar ham endi ishga boradilar va uyga charchab, toliqib qaytadilar. Oilaviy sharoitda yaqinlari bilan munosabatlarda, bolalari bilan bo‘lganda kuchi ancha yaxshi tiklanadi. Oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini mukammal bajarishiga xizmat qiladi, ta’lim–tarbiyaga doir bilimlarni mushtarak holda jamlab, farzand tarbiyasiga doir tartib qoidalarni sinovdan o‘tkazuvchi va amalda tatbiq qiluvchi ota – onaning faoliyatidir.

Oila pedagogikasining predmeti: oilada ota-ona aniq maqsad qo‘yib, o‘z ustida ishlash, izlanish, tanlangan vosita va usullarni qo‘llash natijasini ko‘ra bilishi, tarbiyachilik san’atiga ega bo‘lishi lozim. Ta’lim–tarbiyaning zamonaviy talab darajasiga va tarbiya qonuniyatlariga amal qiladi. Oilada beriladigan tarbiya mazmuni, oilada farzand tarbiyasida qo‘llanadigan usul va vositalar, insoniyatning ma’naviy rivojlanishi bilan oilada farzand tarbiyasi uyg‘un. Barkamol inson tarbiyasiga doir muammolarni hal qilish doimiy va hayotiy izlanishlarni talab etadi. Bundan tashqari, oilaviy qadriyatlar bolalarda hissiy intellektni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Oilalar his-tuyg‘ularni ifoda yetish va tushunishni rag‘batlantiradigan qadriyatlarni qabul qilganda, bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ularini yaxshiroq tushunishni va boshqalarga hamdard bo‘lishni o‘rganadilar.

Tahlil va natijalar. Har bir millatning ma‘naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Ma‘naviy meros o‘tmishning yutug‘i. Uni to‘la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodning vazifasidir. O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik manqurtlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko‘tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqloli uchun fojeadir. Ma‘naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina istiqlol, vatanimizning ulug‘ bir kelajagi uchun mehnat qilishga dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari o‘zida kuch va qudrat topa oladi. Shuning bilan birga, ota-onalar farzandlariga o‘rnak bo‘lib, ularga halol, adolatli va mas‘uliyatli bo‘lish yo‘llarini ko‘rsatadilar. Muloqot va axloqiy qadriyatlarning ahamiyatini muhokama qilish orqali bolalar

https://buxdu.uz

xatti-harakatlarning to‘g‘ri va noto‘g‘riligi haqida fikr yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Oilaviy qadriyatlar orqali axloqiy tamoyillarni o‘rnatish bolalarga hayotning barcha jabhalarida - shaxsiy xulqatvordan ijtimoiy faoliyatgacha bo‘lgan axloqiy asosni rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, oilaviy qadriyatlarning jamiyat uchun ahamiyatini ko‘rib chiqishda ushbu qadriyatlarning avlodlarga o‘tishidagi rolni ta‘kidlash kerak. Har bir oilada madaniy an‘ana va tamoyillarni saqlash orqali jamiyatning shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan meros bo‘lib o‘tadi. Oilaviy qadriyatlarga bir nechta misollar keltiramiz, lekin har bir oilada ular alohida muhokama qilinishi kerak va bu ro‘yxat ancha uzunroq bo‘lishi mumkin: Ishonch va hurmat. Er-xotining bir-biriga sodiq bo‘lishi. Oilaning har bir a‘zosi o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi. Faqat konstruktiv tanqidga javob berish. Shartsiz sevgiga intilish (har bir oila a‘zosini to‘liq qabul qilgan holda). Bir-birlariga, hayotga va Ollohdan minnatdor bo‘lish. Suhbatdoshni to‘xtatmasdan tinglay olish. Agar kimdir yaqinlar oldida o‘zini aybdor his qilsa, kechirim so‘rash.

Modernizatsiyalashgan o‘zgarishlar jamiyatning barcha sohalarida sodir bo‘ladi va bunda oila-nikoh munosabatlari mustasno emas. Oila modernizatsiyasi butunjahon miqyosida bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham shaxs hayotining erkak va ayol, kattalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar va boshqalar kabi ko‘p qirralarini qamrab oladi. Mazmunan oila sohasida an‘anaviy tartiblar, rollar va stereotiplarning sekinlik bilan zaiflashuvi sodir bo‘lmoqda. O‘zbekiston bu o‘zgarishlar sezilarsiz o‘tayotgan mamlakatlar qatoridadir. Oilaning muhokamaga sabab bo‘layotgan o‘zgarishining belgilari yig‘indisi oila transformatsiyasi deb nomlanayotgan jarayonni boshidan kechirayotgan bo‘lib, zamonaviy oila shakliga o‘tish sodir bo‘lmoqda. Oilaning iqtisodiy funksiyalari qayta o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Zero, bozor munosabatlari oilani paternalistik va boqimandalik nuqtai nazaridan anglashdan voz kechishni tezlashtirdi. Natijada oilani saqlanishi – oilaning o‘z qo‘lida ekanligi tushunchasi mustahkamlandi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oila mustahkamligini ta‘minlash, ajrishishlarning oldini olish, turli ko‘rinishdagi oilaviy-maishiy tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. «Arzimagan qiyinchilikka ham sabr qilmasdan, muqaddas oila qo‘rg‘onini buzish, ajrimlarga yul qo‘yishni barchamiz milliy urf-odatlarimizga, mehr-oqibatli, andishali xalqimizga mutlaqo yarashmaydigan holat, deb baholashimiz zarur. Nega deganda, agarki bironta oilada notinch vaziyat hukmron bo‘lsa, o‘zaro nizolar tufayli begunoh bolalar tirik yetimga aylanadigan bo‘lsa, yordam va ko‘makka muhtoj insonlar o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, bunday holatga qarshi hammamiz birgalikda kurashishimiz kerak». Shu nuqtayi nazardan, dunyoviy va diniy bilimlar uyg‘unligida oila mustahkamligini ta‘minlash, amaliy tadqiqotlar o‘tkazib, ilmiy-nazariy ahamiyatga molik xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 76-moddasiga ko‘ra, davlat oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hamda u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligini saqlab qolgan holda, nikoh O‘zbekiston xalqining an‘anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishi belgilanmoqda. Oila nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan!

Xulosa. Axir oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi, ma’naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi insoniyatning zanjirini sog‘lom va iqtidorli avlodlarni ulab borishdan iborat. Bu hamma millat, hamma davlat, hamma xalqlar zimmasidagi sharafli vazifa. Oila dastlab ikki kishidan barpo bo‘ladi. Shaffof irmoqlar bir-biriga qo‘shilib, jo‘shqin soy, daryolarni tashkil qilgani singari o‘zbeklar uchun katta oilalar urf hisoblanadi. Qo‘shgani bilan qo‘sha qarishni, serfarzand bo‘lishni, hamma bolalari yig‘ilib kelganda, uyi to‘ydek bo‘lib ketishini, chiroyli qarishni orzu qilmagan o‘zbeklar, oila sohiblari topilmasa kerak.

Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblangan o‘zbek oilalarining serildizlik xususiyatlari qadim-qadimdan va hozir boshqa millat kishilarida ham hayrat, ham hurmat uyg‘otgan xususiyatlardir. O‘zbek oilasida ayol, ona ana shu qo‘rg‘onning posbonlari, oilaning muqaddasligini ta‘minlovchi mo‘tabar insonlardir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta’minlash, ayniqsa, oilaviy ajralishlarning oldini olish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ishlarni tamomila yangi bosqichga ko‘tarish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Zotan, oilada qadriyatlar ulug‘lanib tarbiyalanayotgan oilalarning farzandlari mustahkam oila bunyodkorlari va jamiyatimiz egalaridir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

https://buxdu.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. Dilova N.G. Ajdodlarimizning ilmiy merosi – zamonaviy bilimlarni egallash asosi // Islom sivilizatsiyasida Buxoro ma‘naviy-ma‘rifiy merosining umumbashariy ahamiyati: Xalqaro anjuman materiallari. – Buxoro, 2020.

5. Himoyeva, S. (2023). Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv ko‘nikmalarni savol-javob tarzida amalga rivojlantirish. // Science and innovation in the education system, 2(9), 44-47.

6. Sarvarbegim, H. (2023). Developing Students' Creative Skills through the 4k Model in Mother Language and Reading Literacy Education. // American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 198-202.

7. Jamilovna, H. S. (2024, March). improving the creative abilities of students through educational tasks in primary grade mother tongue education. // In Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference (Vol. 6, pp. 1-5).

8. Himoyeva, S. J. (2020). Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining yozma nutqini insho yozish orqali rivojlantirish usullari. // Студенческий вестник, (19-12), 99-100.

https://buxdu.uz

TA’LIM MUASSASALARIDA KOMMUNAL XIZMATLARDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Qodirova Kumush Farxod qizi,
Navoiy davlat universiteti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur maqolada kommunal xizmatlarning ta’lim tizimiga integrallashuvi masalasi tadqiq etiladi. Dunyo tajribasi asosida kommunal xizmatlarning tarixiy rivojlanishi, zamonaviy tasnifi va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, aholining kommunal madaniyatini shakllantirish va ushbu xizmatlardan oqilona foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *kommunal xizmatlar, ta’lim tizimi, urbanizatsiya, infratuzilma, uy-joy kommunal xo‘jaligi, ekologik barqarorlik.*

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

В данной статье исследуется вопрос интеграции коммунальных услуг в систему образования. На основе мирового опыта анализируется историческое развитие коммунальных услуг, их современная классификация и роль в жизни общества. Также рассматриваются вопросы формирования коммунальной культуры населения и рационального использования этих услуг.

Ключевые слова: *коммунальные услуги, система образования, урбанизация, инфраструктура, жилищно-коммунальное хозяйство, экологическая устойчивость.*

FORMING A CULTURE OF USING PUBLIC SERVICES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

This article explores the integration of public utility services into the education system. Based on global experience, the historical development of public utilities, their modern classification, and their role in society are analyzed. Additionally, issues related to fostering public awareness of utility services and ensuring their rational use are discussed.

Keywords: *public utilities, education system, urbanization, infrastructure, housing and communal services, environmental sustainability.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda urbanizatsiya jarayonining jadallashishi bilan birga, atrof-muhit muhofazasi va resurslardan oqilona foydalanish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda. Aholining turmush farovonligini ta'minlashda uy-joy kommunal infratuzilmasi, xususan, elektr, gaz, ichimlik suvi, kanalizatsiya va chiqindilarni boshqarish tizimlarining samarali faoliyati muhim rol o‘ynaydi. Biroq ushbu xizmatlardan oqilona foydalanish va ularni tejash masalasi ham jiddiy e'tiborni talab etadi. Maktab o‘quvchilarida kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish ta'lim tizimi oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Chunki yosh avlod bu xizmatlarning kelajakdagi asosiy foydalanuvchilari hisoblanadi. Shu sababli, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida fanlar kesimida ushbu mavzuga doir bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish zarur. Ushbu maqolada ta’lim tizimida kommunal madaniyatni shakllantirishning dolzarbligi, mavjud muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha ilmiy takliflar bayon etiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. Kommunal madaniyat, ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish bo‘yicha mahalliy va xalqaro ilmiy maqolalar o‘rganildi. O‘zbekistonning turli viloyatlaridagi kommunal infratuzilma ta'minoti darajasi o‘rganilib, ta’lim muassasalaridagi sharoitlar tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili. Kommunal xizmatlardan oqilona foydalanish va ularning ta’lim tizimidagi o‘rnini o‘rganish xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng yoritilgan. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’limning barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda olib borilishi jamiyatda resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi (UNESCO, 2018). Tadqiqotchi olim Lev Vygotsky (1986) tomonidan ilgari surilgan sotsiokultural nazariyada ta’lim orqali insonning kognitiv rivojlanishi ta’minlanishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ushbu yondashuv shuni ko‘rsatadiki, bolalar yoshligidan ekologik va kommunal madaniyatni o‘rganish orqali jamiyatda mas’uliyatli fuqarolarga aylanishadi. Shuningdek, D.Boboyeva (2019) o‘z tadqiqotlarida ta’lim

https://buxdu.uz

tizimida interaktiv texnologiyalar yordamida ekologik tarbiyani rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Ekologik barqarorlik tamoyillarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalasida N.Qodirova (2021) maktablarda chiqindilarni boshqarish va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o‘tkazgan. Uning natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik savodxonlik va kommunal madaniyatni shakllantirishda vizual o‘quv materiallari va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Shuningdek, Shvetsiya va Germaniya tajribasida kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini rivojlantirishning ilmiy jihatlari ham keng o‘rganilgan. Masalan, Schmid (2020) o‘z tadqiqotida Germaniyada chiqindilarni saralash majburiyligi va bolalarni yoshligidan ekologik madaniyatga o‘rgatish tizimi samaradorligini ta’kidlaydi. Yaponiyada amalga oshirilgan tadqiqotlar esa (Tanaka, 2017) maktab o‘quvchilarining kommunal xizmatlardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv o‘yinlardan keng foydalanish kerakligini ko‘rsatadi.

Ko‘rinadiki, kommunal madaniyatni shakllantirish bo‘yicha ta’lim muassasalarida yangi yondashuvlar joriy etish zarur. Bu borada xalqaro tajribalar va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda integrativ pedagogik usullar ishlab chiqilishi lozim.

Munozara va muhokamalar. Ma’lumki, madaniyat insoniyat jamiyatining rivojlanish jarayonida shakllangan, moddiy va ma’naviy qadriyatlarni, urf-odat va an’analarni, ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘z ichiga olgan murakkab hodisadir. Madaniyatning turli shakllari mavjud bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillari bilan uzviy bog‘liq. Madaniyat ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u quyidagi asosiy yo‘nalishlarga bo‘linadi: moddiy madaniyat – inson tomonidan yaratilgan moddiy mahsulotlar va infratuzilmalar, jumladan, texnologiyalar, binolar, yo‘llar va sanoat obyektlari; ma’naviy madaniyat – jamiyatdagi axloqiy me’yorlar, diniy e’tiqodlar, urf-odatlar, san’at va ta’lim tizimi; ijtimoiy madaniyat – insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, jamoaviy xulq-atvor qoidalari; ekologik madaniyat – tabiatga bo‘lgan munosabat, ekologik ong va barqaror rivojlanish tamoyillari; kommunal madaniyat – kommunal xizmatlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan odatlar.

Shular qatorida kommunal madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi. Kommunal madaniyat – bu jamiyat a’zolarining kommunal xizmatlardan oqilona va mas’uliyat bilan foydalanish, ekologik muhitni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan xulq-atvor me’yorlari va qadriyatlar tizimidir. Ushbu madaniyat shakllanishi ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish va umumiy turmush darajasini oshirish bilan bog‘liq.

Kommunal madaniyat jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- **Ekologik ong** – fuqarolarning chiqindilarni saralash, suv, elektr va gazni tejash, havo va suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalariga asoslangan madaniyat.
- **Shahar infratuzilmasidan foydalanish madaniyati** – jamoat transportidan foydalanish qoidalariga rioya qilish, yo‘llarda tartib saqlash va jamoat joylarining tozaligini ta’minlash.
- **Uy-joy kommunal xizmatlari madaniyati** – uy-joy fondini asrab-avaylash, ichimlik suvini isrof qilmaslik, isitish tizimidan oqilona foydalanish.
- **Fuqarolik mas’uliyati** – mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamiyat a’zolari bilan hamkorlik qilish, ekologik loyihalarda ishtirok etish.

Kommunal xizmatlar aholi turmush darajasini oshirish va jamiyat infratuzilmasining barqaror faoliyatini ta’minlashga qaratilgan xizmat turlaridir. Ushbu xizmatlar odatda uy-joy va jamoat infratuzilmasini to‘liq ishlashi uchun zarur bo‘lib, elektr ta’minoti, gaz ta’minoti, issiqlik ta’minoti, ichimlik suvi yetkazib berish va kanalizatsiya tizimini o‘z ichiga oladi. Kommunal xizmatlarning samarali tashkil etilishi aholining hayot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ekologik muvozanatni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Kommunal xizmatlarning asosiy mohiyatini hayotiy zaruratlarni qondirish – aholi uchun ichimlik suvi, elektr energiyasi, gaz va issiqlik ta’minoti asosiy ehtiyojlar hisoblanadi. Ushbu xizmatlarning sifatli va uzluksiz yetkazib berilishi fuqarolarning qulay hayot kechirishi uchun zarur. Shuningdek, suv va chiqindi tizimlari, qayta ishlash va utilizatsiya jarayonlari atrof-muhitni asrash va barqaror rivojlanish, ya’ni ekologik muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Bu xizmat turi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shishi bilan ahamiyatli bo‘lib, kommunal xizmatlar sanoat va iqtisodiy sohalarning rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Elektr va suv ta’minoti ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaydi. Umuman olganda, kommunal xizmatlarning mavjudligi va ularning sifati jamiyatdagi farovonlikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, aholining salomatligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi, aholining turmush sifatini oshiradi. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonning ayrim hududlarida kommunal xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasi hali ham past. Masalan:

https://buxdu.uz



2024-yilda Toshkent shahridagi xonadonlar 100% kanalizatsiya tizimiga ulangan bo‘lsa, biroq aksariyat hududlar bu xizmatdan yetarlicha foydalana olmaydi. Ushbu holatlar shuni ko‘rsatadiki, kommunal infratuzilmaga ehtiyoj ortib borayotgan bo‘lsa-da, aholining ushbu xizmatlardan oqilona foydalanish madaniyati yetarli emas. Bu esa aholiga yoshlikdan kommunal madaniyatni shakllantirishning nechog‘lik muhimligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida maktab o‘quvchilari va maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatiga oid bilimlari yetarli emasligi aniqlandi. Misol uchun, 232-maktabgacha ta’lim muassasasida bolalar tomonidan hojatxona qog‘ozi kanalizatsiyaga oqizilishi oqibatida tizim ishdan chiqqan, yoki suv jo’mraklari ochiqligini nazoratsiz qoldirish va hok. Bunday holatlar bolalar bog‘chalari va maktablarda kommunal madaniyat bo‘yicha ta’limni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, quyidagi yo‘nalishlarda o‘quv dasturlarini takomillashtirish talab etiladi:

- Chiqindilarni saralash va qayta ishlash bo‘yicha bilim berish;
- Ichimlik suvini tejash bo‘yicha ta’lim dasturlarini ishlab chiqish;
- Elektr va gazdan xavfsiz hamda oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Natijalar va takliflar. Kommunal madaniyatni shakllantirish borasida xalqaro tajribani o‘rganish ushbu jarayonni takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Germaniyada chiqindilarni saralash majburiy hisoblanib, maktab o‘quvchilari uchun maxsus ekologik ta’lim dasturlari ishlab chiqilgan. Yaponiyada maktab o‘quvchilari maktab hududini va sinfxonalarini tozalash orqali ekologik tarbiyani amaliyotda o‘rganishadi. Shvetsiyada esa chiqindilarning 52% qayta ishlanadi va energiya manbai sifatida ishlatiladi.

Kommunal madaniyatni shakllantirish bo‘yicha ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim tizimi orqali kommunal xizmatlardan samarali foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish imkoniyati yaratiladi. Bunda quyidagi yondashuvlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. **Integrativ ta’lim dasturlarini ishlab chiqish:**
   - Kommunal madaniyatni o‘quv dasturlariga kiritish;
   - Fanlar kesimida ekologiya, energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish.
2. **Raqamli texnologiyalarni joriy etish:**
   - Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarga resurslarni tejash va chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini ko‘rsatish;
   - Onlayn platformalar orqali ekologik ta’lim va interaktiv kurslarni rivojlantirish.
3. **Amaliy loyihalar va tajribalar o‘tkazish:**
   - Ta’lim muassasalarida chiqindilarni saralash tizimini joriy etish;
   - Suv va energiya tejash bo‘yicha eksperimentlarni tashkil etish.
4. **Hamkorlikda loyihalar amalga oshirish:**
   - Mahalliy hokimiyat va kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
   - O‘quvchilarni amaliyotlarga jalb qilish orqali ularning ko‘nikmalarini shakllantirish.
5. **Madaniy-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish:**
   - Kommunal xizmatlardan samarali foydalanish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini o‘tkazish;

https://buxdu.uz

- O‘quvchilar uchun ekologik anjumanlar, seminarlar va tanlovlar tashkil etish.

Ushbu yondashuvlar ta’lim muassasalarida kommunal madaniyatni shakllantirishning samarali usullari hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning ekologik savodxonligini oshirish, energiya va suv resurslarini tejash ko‘nikmalarini shakllantirish va kelajakda barqaror rivojlanishga hissa qo‘shuvchi fuqarolarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa. Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida kommunal xizmatlardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifadir. Kommunal madaniyat darajasi aholining turmush sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bois, ta’lim tizimida bu borada maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ota-onalar va pedagoglarni jalb etish hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida yosh avlodga bu borada bilim berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelajakda bu sohadagi tadqiqotlarni davom ettirish va xalqaro tajribani inobatga olgan holda kommunal madaniyatni shakllantirish bo‘yicha yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish lozim. Kommunal xizmatlardan oqilona foydalanish bo‘yicha ta’lim tizimiga kiritiladigan dasturlar nafaqat ekologik muhitni himoya qiladi, balki iqtisodiy tejamkorlikka ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. UNESCO (2018). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives.
2. Vygotsky, L. (1986). Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press.
3. Boboyev, D. (2019). Interaktiv ta’lim texnologiyalari va ekologik madaniyat. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Qodirova, N. (2021). Ekologik barqarorlik va ta’lim integratsiyasi. Samarqand: Ilm-fan nashriyoti.
5. Schmidt, J. (2020). Waste Management and Recycling in Germany: A Model for Other Countries? Berlin: Springer.
6. Tanaka, Y. (2017). Education and Sustainability in Japan. Tokyo: University Press.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). Respublikadagi kommunal xizmatlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

https://buxdu.uz

BADIIY TAHLIL ASOSIDA O‘QUVCHILAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH

Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi
marjona.alfraganus@gmail.com

Ushbu maqolada adabiyot uning inson kamolotiga ta’siri haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, maktabda adabiyot faninni o‘qitishda badiiy tahlilning o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni, uning san’atni tushunish, ijodkorlikni va estetik baholashni rivojlantirish kabi vazifalarni o‘z ichiga olishi, tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiyot, san’at, inson, hayot, ma’naviyat, badiiy tahlil.*

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО АНАЛИЗА

В данной статье представлены размышления о влиянии литературы на развитие человека. Также освещается роль художественного анализа в формировании мировоззрения учащихся при преподавании литературы в школе. Рассматриваются задачи, включающие понимание искусства, развитие творческих способностей и эстетической оценки. Раскрывается научно-теоретическое значение формирования навыков анализа.

Ключевые слова: *литература, искусство, человек, жизнь, духовность, художественный анализ.*

SHAPING STUDENTS’ SPIRITUALITY BASED ON ARTISTIC ANALYSIS

This article presents reflections on the influence of literature on human development. Additionally, it highlights the role of literary analysis in shaping students' worldviews when teaching literature in schools. The article discusses how literary analysis encompasses tasks such as understanding art, fostering creativity, and developing aesthetic appreciation. It also emphasizes the scientific and theoretical significance of cultivating analytical skills.

Keywords: *literature, art, human, life, spirituality, literary analysis.*

Kirish. Adabiyot – insonshunoslik. U qaysi bir tuzumda bo‘lmasin, odamlarning dunyoqarashini, xatti-harakatlarini, ularning jamiyatdagi mavqeyi va o‘rnini shular bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisalarni aks ettiradi. U insonning tafakkuri taraqqiyotida, ma’naviy olami kamolotida juda katta rol o‘ynaydi. U xoh salbiy hodisalar, xoh ijobiy voqealarni tasvirlamasin, barchasi bilan inson ongiga ta’sir qiladi. Unda hayotga, voqea-hodisalarga nisbatan munosabat uyg‘otadi. Davrning har bir nafasini, odamlar hayotida kechayotgan, shu bilan birgalikda unga kirib kelayotgan hodisalarga o‘z vaqtida munosabat bildiradi. Adabiyotning hayotiylik ildizi xuddi ana shu xususiyatlarga borib taqaladi[1]. Adabiyot inson tabiatini, uning qarorlarini, murakkab hissiyotlarini chuqur tushunishga yordam beradi, bu esa shaxs sifatlarini — mas’uliyat, halollik, adolat, vijdon va boshqalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyot fanining markaziy o‘rganish obyekti nafaqat bilim faoliyatining ilmiy jihatdan shakllantirilgan natijasi, balki yozuvchi ijodiy faoliyati, ya’ni badiiy asarda dunyoni bilish ko‘rinishida aks ettirish hisoblanadi. Yozuvchining ijodiy faoliyati, badiiy asarda dunyoni bilish ko‘rinishida aks ettirilishi birinchi omil, ya’ni adabiyotning ilmiy jihatdan shakllantirilgan natijasini taqozo etadi, chunki yozuvchi o‘zining ijodiy izlanishlarini amalga oshirganida, dunyo va hayot haqidagi bilimlarni o‘ziga xos usulda ifodalash uchun ilmiy yondashuv va tahlilni talab qiladi. Yozuvchi o‘z asarini yaratishda nafaqat shaxsiy tajriba, balki jamiyatdagi umumiy bilimlardan ham foydalangan holda, badiiy asar orqali bilim va tushunchalarni o‘quvchiga yetkazadi. Yozuvchining ijodiy faoliyati ilmiy shakllantirilgan bilimlarga asoslanadi, chunki u badiiy asar yaratishda jamiyatdagi bilimlarni, tarixiy, madaniy va falsafiy omillarni o‘z asariga singdiradi. Shunday qilib, yozuvchi asar yaratishda nafaqat individual hissiyot va tasavvurlarni ifodalaydi, balki ilmiy asoslangan yondashuvlarni ham qo‘llaydi.

Adabiyot o‘quvchini tarbiyalash uchun uning ongi, fikrigagina emas, qalbiga, zavqiga, tuyg‘ulariga ham ta’sir etishi kerak. Shunday asarlargina chinakam san’at namunasi deb atalish huquqiga ega[2]. Shunday

https://buxdu.uz

ekan bu fanni o‘qitish jarayonida, samarali va ta’sirli yondashuvlarni tanlash, o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam berish o‘qituvchi zimmasidagi mas’uliyatli vazifa. O‘qituvchilar o‘quvchilarning adabiy asarlar orqali dunyoqarashini kengaytirishi shuning bilan birga badiiy fikrlashni rivojlantirish va adabiyotning turli janrlarini o‘rganish jarayonida metod va usullarni aniq va samarali tarzda qo‘llashni bilishlari zarur. Badiiy tahlil adabiy asarning mazmun-mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli aspektlarda o‘rganib, o‘ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy intellektual faoliyat[3]. Badiiy asar tahlilida o‘quvchi ma’naviyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan jihatlarni ochish va undan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishga yo‘naltirishga e’tibor qaratilishi, adabiyotning ma’naviy, estetik va axloqiy ahamiyatini ta’kidlaydi.

Badiiy asarlar o‘quvchiga nafaqat bilim, balki axloqiy me’yorlarni tushunish, hayotiy qadriyatlarni anglash imkonini beradi. Adabiyot o‘qitishning oldida oddiy o‘quvchidan kitobxon o‘quvchi tayyorlash, bolalarni badiiy so‘zdan ta’sirlanadigan, uning jozibasini his etadigan, badiiy asarni taniydigan, o‘qigan asarini tahlil qila biladigan, badiiy asar o‘qishni hayotiy ehtiyojga aylantirgan o‘quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi[4]. Agar o‘quvchi badiiy asarda taqdim etilgan axloqiy, estetik va madaniy jihatlarni o‘zlashtira olsa, u bu bilimlarni o‘z hayotida, shaxsiy munosabatlarida va jamiyatda amaliyotda qo‘llay oladi.

O‘quvchi asar orqali nafaqat tahlil qilingan voqealar va qahramonlar bilan bog‘lanadi, balki ular orqali o‘zining ichki dunyosini, hissiyotlarini va hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Agar qabul qilishning mutlaqo individual xususiyatga ega ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak, badiiy asarni o‘qish, uni tushunish va “hazm qilish”ning naqadar katta ahamiyat kasb etishini tasavvur etishimiz qiyin kechmaydi[5]. Shuning uchun, badiiy asarlarni tahlil qilishda o‘quvchining ma’naviyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan jihatlarni tadqiq etish maqsadga muvofiq. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilar turli qahramonlar va ularning hayotiy tanlovlari, maqsadlari va qiyinchiliklari bilan bog‘lanib, o‘zining shaxsiy dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi va hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantiradilar. O‘quvchilar badiiy asarlarni tahlil qilish orqali o‘zlari uchun to‘g‘ri yo‘llarni tanlash, muhabbat, do‘stlik, fidoyilik, vatanparvarlik kabi yuqori insoniy qadriyatlarni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, adabiyot o‘quvchining ma’naviy rivojlanishida, uning shaxslik sifatlarini mustahkamlashda hal qiluvchi o‘ringa ega bo‘ladi.

Badiiy matnning estetik jozibasini ochib berish orqali o‘quvchini asar o‘qishga o‘rgatish jarayoni, avvalo, asarning san’ati va uning estetik qiymatini tushuntirishni talab qiladi. O‘qish, uqish jarayonidagi ijodda aql-hush yetakchilik qiladi. Aniqrog‘i, kitobxon bus-butun qabul qiluvchi, o‘zlashtiruvchiga aylanadi. Asarni o‘qish , aslida, o‘zi uchun yangidan kashf etishdir. Kitobxon voqealarga aralashadi, qahramonlarni jonlantiradi, ularning gap-so‘zlarini eshitadi, ruhiy holatlarini yurakdan his etadi[6]. Badiiy asar o‘qishga o‘rgatishda o‘quvchini asarning emotsional ta’siriga qaratish muhimdir. O‘quvchiga asar orqali muallif qanday fikrlarni yetkazmoqchi ekanligi, uning tuyg‘ulari va fikrlarini qanday ifodalashini ko‘rsatish kerak. O‘qituvchi bu sinfda o‘rganilishi mo‘ljallangan asarlarni o‘tishda, o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilishda badiiy matndan kelib chiqadigan ijtimoiy, siyosiy, milliy, ma’naviy mazmundan ko‘ra, asarlar estetik xususiyatlarining o‘zlashtirilishiga ko‘proq e’tibor qaratishi shart[7]. Asar o‘qilayotganda, o‘quvchi uning estetik jozibasini his qilishga, qahramonlar, voqealar va ma’no bilan bog‘lanishga o‘rganadi. Asar haqida o‘qish jarayonida tahlil qilish orqali o‘quvchiga matnning estetik jihatlarini ochib berish zarur. Bu jarayonda matnning rang-barang tasvirlari, ritmi, o‘zgacha obrazlar va uning tuzilishi o‘rganiladi. O‘quvchilarni o‘zlarini matnni tahlil qilishga undash, ularni asarning estetik jozibasiga chuqurroq kirishishga, uning mazmuni va shaklini tushunishga yordam beradi.

Badiiy asar orqali o‘quvchiga san’at va hayotning bir-biriga qanday ta’sir qilishini tushuntirish muhimdir. O‘quvchi adabiy asarlarni o‘qib, nafaqat hayotdagi voqea-hodisalar va inson tabiatining go‘zalliklarini, balki uning murakkabliklarini ham chuqurroq anglaydi. Badiiy asarlarda insonning ichki dunyosini, uning tuyg‘ularini, fikrlarini, qarorlarini va hayotdagi kurashlari tasvirlanadi. Shu orqali o‘quvchi odamlar orasidagi munosabatlarni, ularning ijtimoiy va psixologik holatlarini yaxshi tushuna boshlaydi. Hayotdagi voqealar ko‘pincha oson va oddiy ko‘rinmaydi, lekin asarlarda ular ko‘pincha bir nechta qatlamlarga ega bo‘ladi. O‘quvchi bunday asarlar orqali hayotning murakkabligini, uning ko‘plab o‘lchovlari va qarama-qarshiliklarini tadqiq etadi. Masalan, bir kishi qiyinchiliklarni yengib o‘tishda qanday qarorlar qabul qilishi kerakligi haqida tushuncha hosil bo‘ladi. She’riyat yoki tasviriy nasr orqali o‘quvchi tabiatning va inson ruhining go‘zalligini ko‘rishi mumkin. Bu go‘zallikni anglash, tasavvurlarini boyitishga va hayotga bo‘lgan qarashini kengaytirishga olib keladi.

Bundan tashqari asarlar orqali o‘quvchi turli odamlarning hissiyotlari, ularning kurashlari va qiyinchiliklarini his qilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchida boshqa insonlarning ahvoliga nisbatan empatiya hissini rivojlantiradi. Shunday qilib, badiiy asarlar o‘quvchini faqat bilim bilan boyitibgina qolmay,

https://buxdu.uz

balki uning hayotga, jamiyatga va inson tabiatiga bo‘lgan qarashini, hissiyotlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Badiiy asarlarni o‘rganish va tahlil qilishda kuzatish, dalillash, umumlashtirish, baholash, okseologiya, shartlilik, komparativistika, qiyoslash, psixologik asoslanganlik, badiiy qimmatni tayin etish singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan samarali foydalanib kelinadi[8].

Muhokama. Besh asrkim Navoiy ijodini targ‘ib qilamiz, o‘rganamiz, o‘rganyapmiz. Ammo uni anglash, ta’lim bosichlarida o‘rganish mushkulligicha qolmoqda. Yuqori sinflarda shoir ijodini o‘rganish davomida dastlab nazariy ma’lumotlarni puxta va sodda tushuntirish muhim. Baytlarni shunchaki badiiyatni his ettirmasdan yodlatish samara bermaydi. O‘quvchi ma’lum bir ma’naviy ozuqa olishi kerak. Shoir asarlarini o‘rganishda diniy irfoniy tushunchalarga duch kelinadi. Shu o‘rinda o‘quvchi tasavvuf ta’limotidan xabardor bo‘lishi darkor bo‘ladi. Tasavvuf – musulmonlar olamida (mamlakatlarida) keng tarqalgan, butun dunyoda mashhur bo‘lgan islom diniga asoslanuvchi buyuk ta’limot. Tasavvuf orqali insoniyat islom dinining ichki va tashqi go‘zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Tasavvufning maqsadi insonni ruhiy, ma’naviy jihatdan poklash, ya’ni komil insonni tarbiyalashdir. Qalb pokligiga erishgan, yuksak ma’naviyatli, aqlan va jismonan barkamol shaxs komil insondir [9]. Shu jumladan shoir asarlarida ramziy ishoralarga ko‘proq urg‘u beriladi.

Xususan, “Farhod va Shirin” dostonida ***Jamshid jomi*** ramziy timsoli ifodalagan ma’noni quyidagicha izohlash mumkin. Farhod eshikni ochib, ichkariga qadam qo‘ydi. U uyning toqida porlab turgan bir jom ko‘rindi. Porloqlikda u quyosh kabi, quyosh ham emas, podshoh Jamshidning jomi singari edi. U jahonning markazida quyoshday porlab, dunyoni ko‘rsatuvchi oyna singari edi. Bu oynada ham yuz berib turgan ishlar, dunyoning ahvoli yaqqol ko‘rinib turardi. Jomning tashqi tomonida yer yuzining markazi, ichki tomonida esa to‘qqiz osmon aylanasi jilva etardi. Uning tashqi tomoni yetuk kishining qalbiga, ichi esa qalbi pok kishining yuragiga o‘xshab ko‘rinar edi[10]. Adib mazkur tilsimni Jamshid jomiga qiyoslash orqali jomning o‘ta mo‘jizakor xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlaydi. Voqealar davomida Farhod ana shu jomni qo‘lga kiritadi va uning siridan voqif bo‘ladi. Jomning asosiy siri xuddi jomi Jam kabi butun olamda yuz berayotgan ishlarning kishi ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgandek yaqqol aks ettirib turishidir. Ana shu sifatlarga ega bo‘lganligi bois ham muallif uni jomi Jam deb ataydi:

Anga qilg‘och nazar istab kushoyish,
Jahon timsolig‘a topti namoyish
Ko‘rub ul nav’kim mir’oti xurshed,
Jahonni ko‘rguzub chun jomi Jamshed. (“Farhod va Shirin”)

Jamshid jomining majoziy ma’nosi ham bor: jomi Jam komil insonning olamni ko‘zgu misol ko‘rsatuvchi ko‘ngli bo‘lsa, tilsim Haqdan o‘zga narsalarning ko‘ngil jomini zang singari qoplab olgan son-sanoqsiz suratlaridir. Jamshid jomiga ega bo‘lmoq uchun, dostonda tasvirlanganidek, ko‘ngilni o‘tib bo‘lmas qo‘rg‘on ichiga yashirib, g‘azabkor sher va temir paykardek dahshatli maxluqlar bilan qo‘riqlab yotgan tilsimni mahv etmoq lozim[11]. O‘quvchida uchun bu majoziy tushunchalarni anglash va ular ortida yashiringan haqiqatlarni ko‘ra bilish ko‘nikmasi shakllanishi kerak. Avvalo buning uchun o‘qituvchining o‘zi ramziy ishoralarni idrok qilishi, diniy-didaktik xarakterga ega bo‘lgan haqiqatlarni ochiq bayon eta olishi lozim. Mumtoz asarlarni tahlil qilishda uning til xususiyatlari bilan bog‘liq murakkabliklarga duch kelinadi. –man, -mon, -mam qo‘shimchalari; -ki, -kim, bog‘lovchi yuklamalari; arab va fors tillaridan o‘zlashgan –afshon, -oroy, -kash, -vash, -angiz, -vor, -po‘sh, -afzo, -rez, kabi qo‘shimchalar borki, o‘quvchi tushunmasligi mumkin. Masalan, -kim bog‘lovchi o‘zi ta’kid bergan so‘zdan ajratilib, keyingi misra boshida kelganda o‘quvchilar uni «kim» so‘roq olmoshi o‘rnida qabul qilishadi. Natijada misradan to‘g‘ri ma’no chiqarolmaydi.

Hamonkim emastur za’faron ul
Kim, aylar xurda og‘zida nihol ul. (“Farhod va Shirin”, 116-bet).

Birinchi misra hamda ikkinchi misra boshidagi “Hamonkim emastur za’faron ul kim..” jumlasi hozir tilimizda “Bordiyu g‘unchaning og‘zi za’faron bo‘lmasa ham...” tarzida qo‘llaniladi. Agar ikkinchi misra boshidagi *kim* bog‘lovchi yuklamani so‘roq olmoshi o‘rnida qabul qilinsa, umuman ma’no chiqmaydi.

Kelishiklarning belgisiz qo‘llanishi ham o‘quvchini chalg‘itadi.

Yo‘q, ul suv bog ‘ning ruxsori ongla
Anga sabza xati zangori ongla (“Farhod Shirin”, 120-bet).

O‘quvchilar birinchi misradagi *suv* so‘zida va ikkinchi misradagi *sabza* so‘zida tushum kelishigi yashirin kelganligini topa olsalar, baytni anglashlari oson kichadi[12]. Shoir asarlarini o‘qitish, tahlil qilish jarayonida sharh ilmiga ehtiyoj sezamiz. Ya’ni mutafakkir yaratgan asarlarda zohiriy, botiniy ma’nolar, she’riy san’atlar,(aruz vazni) qadimiy afsonalar, xayoliy fantastik timsollar borki baytlarni sharhsiz tushunish qiyin. Asarlarni sharhlab o‘rganish dastlab madrasalarda paydo bo‘lgan.

https://buxdu.uz

Natijalar va takliflar. Madrasalarda mumtoz matnlarni o‘rganish uchun quyidagi usullardan foydalanilgan.

1.Usuli hijoiya (savtiya)-bo‘g‘inga bo‘lib o‘qish.
2.Ilmi sharh – tafsir.
3.Ilmi tahlil -munozara, bahs, munosabat ifodasi.
4.Ilmiy munozara- munozara, bahs, munosabat ifodasi.
5.Ilmi qiroat-(ohang va so‘z talaffuzi orqali qiroat).
6.Ilmi fasohat (ilmi balog‘at)- chiroyli o‘rinli so‘zlarni qo‘llash.
7.Ilmi bayon-nozik ma’nolarni bayon qilish (ritorika)
8. Ilmi g‘ariba (g‘arib)-kam so‘z keng ma’noni ifodalash, aks ettirish.
9.Ilmiy maoniy – bayon etish bo‘lib, biror narsa yoki hodisaning mohiyatini, mazmunini yechib beruvchi ilm.
10.Ilmi nasr va insho-yozma ish turi, uslubi, maktub, yozuv savodxonligi.
11. Ilmi muhozirot-latifago‘ylik, hozirjavoblik, zukkolik.
12. Ilmiy muammo-badiiy san’at turi bo‘lib, she’riyatdagi masala va ramzlarni yechish usuli.
13.Ilmi mantiq -so‘z ma’nosidagi mazmun.
14.Ilmi kalom-naqliy masalani aqliy dalillash, isbot qilish.
15.Ilmi imlo-matnni yozdirish usuli.
16.Ilmi samo-eshitish, tinglash madaniyati[13]. Mumtoz adabiy lirik, epik janrga mansub asarlar matni tahlil qilinar ekan sharhlash usulisiz tasavvur qilish imkonsiz.

Bu kabi usullar, nafaqat mumtoz asarlarni sharhlashda balki zamonaviy asarlarni o‘rganishda ham qo‘llaniladi. Ana shunday tahlil o‘quvchining asarga bo‘lgan yondashuvini chuqurlashtiradi, uning fikrlash va his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy asar mohiyatini teran idrok etish, uni tushunib, ongli o‘qishga har tomonlama bog‘liq bo‘lib, natijada o‘quvchilarda jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilish xususida atroflicha fikr yuritish va xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keltiriladi.

Xulosa. Umaman olganda adabiyot mashg‘ulotlarida o‘quvchining asarda ifodalangan fikrni tushunish, tasvirlangan voqea-hodisalar ichida yashash, badiiylikni his etishda nazariya va amaliyotdan unumli foydalana bilish, hayot bilan bog‘lash kabi faoliyatlariga e’tibor qaratilsagina o‘quvchida tahlil ko‘nikmasi shakllanadi. Adabiyot o‘quvchiga boshqa davrlar, boshqa xalqlar, turli ijtimoiy va madaniy muhitlardagi insonlarni tushunish imkonini beradi. Adabiy asarlarni o‘qish, so‘z san’ati orqali insonlarning psixologik va ijtimoiy holatini anglash imkonini yaratadi. So‘z san’ati o‘quvchiga nafaqat boshqa odamlarning fikrlarini, balki o‘zining ichki dunyosini ham o‘rganish imkonini beradi. Adabiyot darslarida adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish, tahlil qilishda izchillik muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning adabiy tahlil malakasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini ko‘rsatishga intilish ilk darslardanoq amalga oshirilishi shart bo‘lgan bir ehtiyojdir.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Adabiy ta’limda innovatsion yondashuv. -Toshkent: “Bookmany print”. 2024. 98-bet.
2. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. -T.: Fan, 2006. -36.B.
3. Шарафиддинов О. Истеъдод жилолалари. - Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976, 150-бет.
4. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: Akademnashr, 2013. 52-bet.
5. Rasulov A. Tanqid, tahlil, baholash.-Toshkent: Fan. 2006.13-bet.
6. Yo‘ldoshev Q. “Adabiy saboqlar 8”. Umumta’lim maktablarining 8-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo‘llanma. -T.: Sharq, 2004.
7. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. 107-бет.

https://buxdu.uz

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA ESTETIK TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Boqiyev G‘ulomjon Ochilovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Pedagogika va o‘qitish metodikasi”
kafedrasi professori v.b.
Norova Maftuna Asad qizi
Pedagogika mutaxassisligi magistranti

Ushbu maqolada har bir yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi oilaning muhimliligi, shuningdek yosh avlodni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlarida bugungi kundagi zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqoladagi keltirilayotgan ma’lumotlar oliy ta’lim muassasalari talabalarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning estetik tarbiya ahamiyati haqida.

Kalit so‘zlar: *oila, tarbiya, ma’naviyat, diniy axloq, dunyoviy axloq, estetika, estetik tarbiya.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

В данной статье анализируется значимость семьи в воспитании каждого молодого поколения в духе национальных ценностей, а также современные подходы к воспитанию молодежи в духе преданности Родине. Информация, представленная в статье, посвящена важности эстетического воспитания студентов высших учебных заведений в духе национальных ценностей.

Ключевые слова: *семья, воспитание, духовность, религиозная этика, светская этика, эстетика, эстетическое воспитание.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF AESTHETIC EDUCATION OF YOUTH IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES

This article analyzes the importance of family in raising each young generation in the spirit of national values, as well as contemporary approaches to nurturing loyalty to the homeland in the younger generation. The information presented in the article focuses on the significance of aesthetic education in instilling national values among students of higher educational institutions.

Keywords: *family, upbringing, spirituality, religious morality, secular morality, aesthetics, aesthetic education.*

Kirish. Hozirgi zamonda ilg‘or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog‘li yuksaklikka ko‘tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o‘zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog‘lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Mamlakat aholisining milliyligi, ma’naviyati va ma’rifatini yuksaltirish bugungi kunda O‘zbekison taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Hayotimizda ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar, cheksiz rivojlanib borayotgan taraqqiyot tufayli odamlarning ongu tafakkuri o‘zgarib bormoqda. Ayni vaqtda bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan mafkuraviy globallashuv tufayli inson tafakkur tarzi va dunyoqarashini toraytirishga, e’tiqodini, millatning intellektual, ma’naviy-axloqiy, etno-madaniy va tarixiy qadriyatlarining barham topishiga, milliy o‘zlik va milliy g‘ururning rivojiga, insoniyatning ruhiy dunyosini izdan chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani e’tirof etilmoqda. Buning natijasida jamiyat rivojiga xavf tug‘diradigan darajadagi, milliy va an’anaviy umumbashariy qadriyatlar xiralashib, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, individual, korporativ va milliy xudbinlik kabi illatlar ildiz otmoqda. Bu kabi ayanchli holatlarning oldini olish uchun yoshlar tarbiyasi, ularni ilmli va har tomonlama etuk qilib voyaga etkazish muhim vazifa hisoblanadi.

Hozirgi zamonda rivojlanib borayotgan bir qancha ilg‘or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini yuksaklikka ko‘tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimiz bugungi kundagi tub o‘zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda

https://buxdu.uz

milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog‘lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Insoniyat taraqqiyot etib borar ekan uning har-bir bosqichida komil insonni tarbiyalash va barkamol avlodni voyaga yetkazish eng muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi.O‘quvchilarni milliy qadryatlar ruhida estetik tarbiyashning negizida ham komil inson masalasi yotadi.Chunki tarbiya keng qamrovli jarayon hisoblanib, estetik tarbiya uning bir bo’g’ini xolos. O‘z millatining qadriyatlarini bilmagan va ruhiyatini shu qadriyatlar bilan shakllantirmagan hech bir shaxsni biz komil inson deya olmaymiz. Davlatimiz tomonidan ezgu an’analar, muqaddas dinimiz, milliy qadriyatlar, tilimizning hayotdagi o‘rni qayta tiklangani hamda ularning jamiyatimiz qiyofasini o‘zgartirishda, ma’naviyatimizni, odamlarimizning ongu tafakkurini yuksaltirishda o’zining ijobiy samarasini berayotganligi diqqatga sazovor. Hadislarda insonni barkamol qilib tarbiyalash masalasi birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Ma’lumki, axloq mutlaq tarzda emas, balki nisbiy, shartli ravishda ikki qismga bo‘inadi: birinchisi – dunyoviy axloq, ikkinchisi – diniy axloq. Dunyoviy axloqning ilmiy me’zoni amalga mavjud bo‘lgan, obyektiv olamga namoyon bo‘ladigan real jarayonlardir.

Sharqdagi bir qator mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham oila chinakam oila bo‘lib shakllanganidan boshlab hozirgi davrga qadar ko‘p qirrali va murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Har bir tarixiy davrda oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari xilma-xil mazmun bilan boyib bordi hamda oila davrning chigalli sinovlaridan omon o‘tib, jamiyatning negizi sifatidagi xususiyatini saqlab qoldi. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi.

Shu boisdan mavjud urf-odatlar an’analar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasida farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun milliylikka yo‘g‘irilgan, qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida axloqiy tarbiyaning eng muhim tarbiya sifatida ko‘rishimiz mumkin. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan nodir asarlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo‘lib etishishlariga undagan. Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Turkiy “Guliston” yoxud axloq”, “Bahr al-ulum”, “Odob as-solihin’’, “Kachko‘li sultoniy”, “Jovidoni xirad”, “Bistu se hikmat”, “Hikoyoti dilpisand”, “Pandnoma”, “Siyosatnoma” singari asarlar shular jumlasidandir. Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, ularni ma’rifat-u madaniyatga yetaklash muammolariga alohida e’tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go‘zal axloqning inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad” hadislar to‘plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbeh ul g‘ofiliyn” asarlarida farzandlar ongida yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish masalalari tarannum etilgan.

Mirzo Ulug‘bekning oiladagi bolaning tarbiyasi haqida quyidagi qarashlari mavjud: “ Bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya’ni oila muhim o‘rin egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo‘lishini, tarbiya berishda ota-onaning o‘zi o‘rnak va hayotiy misol bo‘lishiga farzandi guvoh bo‘lishi eng ko‘p samara berishi ta’kidlangan”. Abdurauf Fitrat ham “Oila” asarida shunday mulohazalar bildiradi: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq.Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi.Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”. Shuningdek bir qancha yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar: – farzandingiz odamlar bilan muomalada, bosiq va kamtar, shirinso‘z, muloyim, bo‘lishiga e’tibor qarating; – odamlar g‘am-anduhidan qayg‘urish, xursandchiligini baham ko‘rish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir.

Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo‘ling; – farzandingizga o‘zgalar bilan muomala chog‘ida boshqalarni mensimaslik, g‘iybat qilish, obro‘si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring; – yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarishni ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor bering. Ota-bobolarimiz azaldan o‘g‘il qizlarning go‘zal xulqli, odobli bo‘lishiga katta ahamiyat berganlar. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud urf-odatlar an’analar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasida farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun milliylikka yo‘g‘irilgan, qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida axloqiy tarbiyaning eng muhim tarbiya sifatida ko’rishimiz mumkin.

https://buxdu.uz

Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qo‘yiladi. Farzand tarbiya qilganda, odatda, o‘g‘il bola tarbiyasi bilan ko‘proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug‘ullanadi. Albatta, bunda farzandning dunyoqarashini inobatga olish muhim. Bolaning biror-bir yutuqqa erishishida natijani ko‘rishga oshiqmaslik kerak. Masalan, ikki yoshgacha faqat shirin so‘z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o‘rganadi, asosiy ma’lumotni shu yosh oralig‘ida egallaydi. Bu davrda biz ko‘proq amaliy jihatdan namuna bo‘lishga urinishimiz, sog‘lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo‘ladi. Oilada otaning bolalariga loqayd bo‘lishi oxiri xunuk oqibatlarga sabab bo‘ladi. Loqaydlik yomon illat bo‘lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo‘l ochadi.

Ota sustkashlik qilib, burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o‘rgatmagani oqibatida o‘z farzandida zarur ijobiy xislatlarni shakllantira ololmagan. Farzand ham otasining namunali tarbiyasidan mahrum bo‘lib o‘sadi. Keyingi davr esa, bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o‘smirlik payti bo‘lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o‘rganadi. Bu davrda farzand to‘g‘ri yo‘lga solinsa, tarbiyali do‘stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo‘lib, yaxshi inson bo‘lishi uchun muhim qadam qo‘yiladi. Odatda onalar o‘z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo‘l qo‘ygan xatolari, qo‘l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o‘z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo‘rqmasdan qilaverishi mumkin. Mehr-muhabbat berishda ham me’yorni saqlay bilish kerak.

Bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to‘g‘ri-noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ma’qullash yoki bunga indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz o‘sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo‘yadi, mehr ko‘rsatish esa uni yanada faol bo‘lishga undaydi. Erka o‘sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydigan, mas’uliyatsiz bo‘lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo‘lib yetishishida onaning o‘rni va roli juda zarur va muhimdir. Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirin so‘zlikdir. Bu ikki vosita bir bo‘lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta’limni ham g‘azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma’qul. Zero, zo‘rlab berilgan ta’lim bola xotirasidan tezda o‘chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so‘nishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, ta’limning avvali ham to‘g‘ri va oqilona tarbiyadan boshlanadi.

Munozara va muhokamalar. Bugungi kunda farzand tarbiyasiga ijtimoiy tarmoqlardagi tajovuzkorliklar, internetdagi turli yot va g‘ayriaxloqiy g‘oyalar, uyali telefonlar orqali tarqatilayotgan behayoliklar kabi ijtimoiy muammolar jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo‘lishi bilan birga, ba’zi ma’naviyati to‘liq shakllanmagan yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoq ta’siriga tushib qolgan farzandlarga ota-onalar, o‘quv muassasalari, mahalla faollari hamkorlikda ta’sir o‘tkazib, ularda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishga harakat qilish lozim. Zero, tarbiyaga tashqaridan bo‘ladigan salbiy ta’sir bu eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo‘l qo‘yilmagach, u o‘z qiziqish va rag‘batlarini qondiradigan sabablarni chetdan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e’tibor qaratishi talab etiladi. Ya’ni, ular farzandi maktabdan keyin qayerga borishi, nimalar bilan shug‘ullanishini doimiy nazorat qilishlari lozim. Yosh avlod yetuk va komil shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil hayot tarziga aylanishi zarur. U ham bo‘lsa – kitobxonlik. Buning uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Ommaviy, ilmiy kutubxonalar, “Aybuk” tarzidagi kitob-kafe do‘konlari va boshqalar so‘zimizning yaqqol misolidir. Ota-ona farzandiga vaqtni unumli o‘tkazishni o‘rgatishida vosita sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan usullardan yana biri – zamonaviy axborot-texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishdir. Ota-ona bolada estetik tarbiya, go‘zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o‘zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go‘zallik latofatini singdirishi muhim.

Estetik tarbiya eng avvalo , tabiat va jamiyatda hamda san’at asarlarida go‘zallikni ko‘ra bilish , uni to‘g‘ri tushinish va qadrlash qobilyatini tarbiyalashdan iborat . U hayot va mehnatning barcha tomonlariga go‘zallik ato etish qobilyatini tarbiyalash , hayot va san’atda bema’nilikka , xunulikka qarshi kurash hamda qobilyatiga qarab san’atda o’zining ijodiy kamolotini ko‘rsatish nazarda tutadi. Estetik tarbiyaning asl mohiyati insonni real dunyoda mavjud bo’lgan go‘zallikni to‘g‘ri idrok qilishga va hayotda haqiqiy go‘zallik uchun kurashga o‘rgatishdan iborat. Yuqorida aytilganlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin :

Birinchidan, inson o’zining mehnat faoliyati natijasida voqelikni estetik o‘zlashtiradi .Undagi go‘zallikni kashf etadi va idrok qiladi .

Ikkinchidan , estetik tarbiya ishning barcha usul va vositalari kishida to‘g‘ri estetik fikr va idrok qilishni rivojlantirishga qaratilmog‘ lozim . Ya’ni kishining estetik bahosi , mulohazasi va idroki voqelikda mavjud bo‘lgan go‘zallikni yoki xunuklikni to‘g‘ri aks ettirishi kerak .

https://buxdu.uz

Uchinchidan, estetik tarbiya kishida har tomonlama va keng estetik did va manfaatlarni rivojlantirishni, kishilarni har qanday xunuklik, yaramaslikka nafrat ko‘zi bilan qarash, go‘zallikni ijod qilish ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Estetikaning maqsadi – insonda hayotdagi, san’atdagi go‘zalliklarni umumjahon qadriyatlari nuqtai nazardan idrok eta bilish va baho bera olish qobilyatini tarbiyalash va o‘stirishdan iboratdir. Biz estetik jihatdan yaxshi tarbiya olgan deb o‘z mehnati bilan hayot go‘zalligiga qo‘shuvchi, mehnat va ijtimoiy faoliyatini estetik kamolot darajasiga ko‘taruvchi komil insonni tushunamiz .

Talabalarning estetik madaniyatni oshirish uchun tarbiya jarayoniga alohida e’tibor qaratgan holda uning mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettirganligini anglashimiz zarur hisoblanadi. Talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirish jarayonida talabalarda shaxsga qo‘yiladigan axloqiy talablarga muvofiq jamiyatga naf keltiradigan, xulqiy malaka va ko‘nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun esa o‘quvchining tafakkuri, irodasiga ongiga, dunyoqarashiga tizimli, muntazam ta’sir etib boriladi

Natijalar va takliflar. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishning bir qancha samarali shakllari mavjud bo’lib, ulardan biri – oliy ta‘lim muassasalarida badiiy to‘garaklar faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishdan iborat. To‘garakning maqsadi: ― Yosh ijodkorlar badiiy to‘garagi talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirishga, talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirish asosida ularni g‘oyaviy, estetik faoliyatni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. Talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishda quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi: teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar, kutubxonalar, klublar, galereyalar, tarixiy obidalarimizdagi me’morchilik yodgorliklari, san’at asarlari va tarixiy madaniy joylar va hayot tarzimizdagi borlig‘imiz hamda ulardagi go‘zalliklar talaba yoshlarimizni estetik ruhda tarbiyalashga asos bo‘ladi.

Talaba yoshlarni Vatanga sadoqat, muhabbat ruhida tarbiyalashda madaniy merosga bo’lgan hurmatni shakllantirish, har tomonlama ularni Vatanimiz ertasini himoya qilishlarida intellektual salohiyatini oshirish bugungi kunning eng asosiy masalalaridan biri ekanlini unutmagan holda ularga milliy urf-odatlarimizga, madaniyatimizga, ma’naviyatimizga, o’zbekona ruhda tarbiyalashning eng yuksak samarali vazifalaridan biri ekanligini ota-onalar, keng jamoatchilik, ilm-fan fidoyilari bilan birgalikda xizmat qilish eng asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Yoshlarni Vatanarvarlik ruhida tarbiyalashda siyosiy, madaniy axborotlardan, adabiyotlardan keng foydalanish asosiy vazifalarni tashkil etadi. Ma’lumki, an’analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o‘tib kelayotgan bebaho ma’naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchi bo‘lib qolyapti. An’analar barhayot bo‘lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari yoshlar egallashi lozim. Ana’anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o‘zbek madaniyati tarixida muhim voqea bo‘lib qolmoqda. Bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan madaniyatning yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shu yo’l bilan azaliy bayramlarning tiklanishi bilan xalq madaniyatining eng qimmatli tomonlarini jonlantirishga zamin yaratildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma’naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini teran ifodalay oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o‘zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi. Oilada farzandlarni yaxshi tarbiyalashda to‘g‘ri va samarali yo‘lni tanlansa ular o‘sib ulg‘aygach ota onalariga va atrofdagilarga mehr-murruvat ko‘rsata oladigan bo‘lib yetishadilar. Shu jihatdan milliy farovonlik asosi bo‘lgan bolalar tarbiyasiga kuchli e’tiborni qaratgan holda farzandlarimizning har tamonlama kamol topishlari uchun qulay sharoitlar yaratish orqaligina oila tarbiyasida, farzandlarning ham axloqiy hamda ma’naviyati yetuk shaxs bo‘lib kamol topishida muvaffaqiyatlarga erishishimiz mumkin. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o‘z ajdodlariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’analariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. A.Sulaymonov. Oilada bolalarni estetik ruhda tarbiyalash // Xalq ta’limi. – T.: 2004. №2. –. 100–103-b.
2. Abdullayeva M. Estetik tarbiyalanganlik mezonlari // Xalq ta’limi. –T.: 2004. № 5. 120 – 123-b.

https://buxdu.uz

3. Abdullayeva M. Oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarini shakllantirish // Xalq ta’limi. – T.: 2006. № 4. 86–89-b.

4. Abdullayeva M. Oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda go‘zallik tuyg‘usini shakllantirish // Xalq ta’limi. – T.: 2007. №4. 95–98-b.

5. Abdurahmonova Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish:– T.: 1998. – 171 b.

6. Bokiyev G.O. The structure of the extensive curriculum is the basis of the effectiveness of the education. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences: -Great Britain, 2019, №12. –P. 102-106.

7. Bokiyev G. O. // Factors Providing Interconnectivity between Higher Education Stages and Qualification Upgrading Courses Integration as Pedagogical Phenomenom. Eastern European Scientific Journal. - GermaniY. 2019, №1. –P. 154-159.

8. Bokiyev G. O. Factors ensuring continuity between higher education levels and continuing education courses // The American Journal of Social Science and Education Innovations: - USA, December, 2020. –P. 115-121.

https://buxdu.uz

O‘QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Tursunov Jo‘rabek Baxtiyarovich,
O‘zbekiston-Finlandiya instituti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Maqolada o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning nazariy asoslari yoritiladi. Milliy qadriyatlar yosh avlodning ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda, ularning shaxsiy va ijtimoiy kamolotiga erishishida muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, maqolada Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi, milliy o‘zlikni anglash jarayoni va umuminsoniy qadriyatlarning ta’lim tizimiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan milliy qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini chuqur o‘rganish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, o‘quv faoliyati, ta’lim samaradorligi, ma’naviy tarbiya, pedagogik innovatsiyalar, Sharq mutafakkirlari, umuminsoniy qadriyatlar, ta’lim jarayoni, yosh avlod tarbiyasi, milliy o‘zlik.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В статье подчёркивается значение национальных ценностей в повышении эффективности образовательной деятельности и теоретические основы их интеграции в образовательный процесс. Национальные ценности рассматриваются как важный фактор формирования духовного воспитания молодого поколения, его личностной и социальной зрелости. В статье также анализируется научное наследие восточных мыслителей, процесс реализации национальной идентичности, влияние общечеловеческих ценностей на систему образования. В исследовании обосновывается необходимость глубокого изучения роли национальных ценностей в общественной жизни с педагогической и психологической точки зрения.

Ключевые слова: *национальные ценности, образовательная деятельность, эффективность образования, духовное образование, педагогические инновации, восточные мыслители, общечеловеческие ценности, образовательный процесс, воспитание молодого поколения, национальная идентичность.*

THEORETICAL BASIS OF USING NATIONAL VALUES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF EDUCATIONAL ACTIVITIES

The article discusses the importance of national values in increasing the effectiveness of educational activities and the theoretical foundations of their integration into the educational process. National values are considered an important factor in the formation of the spiritual education of the younger generation, their achievement of personal and social maturity. The article also analyzes the scientific heritage of Eastern thinkers, the process of national identity awareness, and the impact of universal values on the education system. The study justifies the need for a deep study of the place of national values in social life from a pedagogical and psychological point of view.

Keywords: *national values, educational activities, educational effectiveness, spiritual education, pedagogical innovations, Eastern thinkers, universal values, educational process, education of the younger generation, national identity.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi mintaqaviy va global o‘zgarishlarga moslashish maqsadida an’anaviy ma’muriy boshqaruv usullaridan demokratik va iqtisodiy modelga o‘tishni talab qiladi. Ushbu jarayon nafaqat ta’lim tizimini boshqarish masalasini oldingi planga olib chiqadi, balki ta’lim muassasalarini samarali boshqarish, rahbarlarning strategik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va ta’lim jarayonini takomillashtirish muammolarini ham ilgari suradi. Ta’lim tizimining rivojlanishi samarali boshqaruv mexanizmlari, innovatsion yondashuvlar va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo qiladi.

https://buxdu.uz

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda yosh avlodning ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishi muhim vazifa sifatida ko‘rilmoqda. Buyuk allomalarimizning o‘gitlari, donishmandlarning fikrlari yoshlar tafakkurini kengaytirish, ularning ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam beradi. Yoshlar – kelajak jamiyatining tayanchidir. Shu sababli, ularning har tomonlama yetuk, milliy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar shaxs bo‘lib shakllanishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonida tizimli yondashuvlar qo‘llanilishi lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib, yoshlarning axloq-odob madaniyatini rivojlantirish masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Unga ko‘ra, zamonaviy texnologiyalar va axborot oqimi ta’sirida yoshlar tez o‘zgaruvchan jamiyat sharoitida ulg‘aymoqda. Shu bois, ularning o‘z an’analarini unutmasliklari, milliy o‘zligini saqlab qolishlari va o‘zgaruvchan dunyoda o‘z mustaqil yo‘llarini topishlari uchun ta’lim muhitida aniq strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Shu bilan birga, insoniyat o‘z tarixiy yo‘lida jamiyatdagi o‘zgarishlarni anglash, adolat va ezgulik sari intilish orqali ijtimoiy taraqqiyot jarayonini yo‘lga qo‘ygan. Bugungi zamon sharoitida ham insoniyat ta’lim, fan, texnologiya va madaniyat sohalarida o‘z imkoniyatlarini kengaytirish orqali jamiyat rivojiga hissa qo‘shmoqda.

Bugungi kunda ta’lim standartlariga muvofiq, bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlari, balki ularni amaliy hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishlari talab etiladi. Talabalarning fikrlash doirasini kengaytirish, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish va davlat siyosatining dolzarb masalalarini mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi ta’lim jarayonining muhim maqsadlaridan biridir. Shu bois, ta’lim tizimida tizimli yondashuv asosida o‘quv fanlarini chuqur o‘zlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bizning fikrimizcha, milliy o‘zlikni anglash jarayonida yoshlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki yosh avlodning milliy o‘zligini anglash darajasi bevosita ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan moddiy va ma’naviy merosni qay darajada o‘zlashtirganligi bilan bog‘liq. Urf-odatlar, an’analar va qadriyatlarni anglash nafaqat milliy manfaatlarni tushunishga, balki vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shuning uchun ham Prezidentimiz bugungi kunda ma’naviy sohadagi vazifalarni belgilab berar ekan, komil inson tarbiyasini asosiy yo‘nalish sifatida ilgari surmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday ta’kidlaydi: “Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – e’tiqodi mustahkam, iroda kuchiga ega, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirishdir. Ya’ni, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat”. Ushbu g‘oya zamirida yosh avlodning tarixiy va madaniy merosni anglash asosida o‘zining shaxsiy va ijtimoiy kamolotiga erishishi yotadi [8].

Milliy qadriyatlarni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati ularning inson hayotidagi o‘rnini chuqurroq anglash, jamiyat qonun-qoidalariga mos yashash va shaxsiy harakatlarni ma’naviy me’yorlarga muvofiqlashtirish jarayoni sifatida qaraydi. Ushbu jarayon milliy qadriyatlarni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Insoniyatning ilk tarixi va birinchi madaniy markazlari Sharqda shakllangan bo‘lib, ular keyinchalik jahon taraqqiyoti uchun zamin yaratdi. Sharq madaniyati nafaqat moddiy, balki ma’naviy taraqqiyot yo‘nalishlari bilan ham ajralib turgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Sharq sivilizatsiyalari axloq, ma’naviyat, bilim va ta’limga katta e’tibor qaratgan. Bu jarayon insonning har tomonlama yetuk bo‘lishiga, jamiyat rivojlanishiga xizmat qilgan.

Bugungi kunda ham milliy qadriyatlarning rivojlanishi va ularning yosh avlod ongiga singdirilishi nafaqat ta’lim jarayonining, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim omili bo‘lib qolmoqda. Ma’naviy merosning saqlanishi, yoshlarning qadriyatlarga hurmat bilan yondashishi va ularning zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unligi mamlakat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biridir.

Sharq juda keng hududni qamrab olgan bo‘lsa-da, uni birlashtirib turuvchi umumiy xususiyatlar mavjud. O‘zbekiston ham Sharq sivilizatsiyasining ajralmas bir qismi bo‘lib, uning qadimiy merosini o‘zida aks ettiradi. Sharq xalqlari asrlar davomida hayotga bosiqlik bilan yondashib, murakkab muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga intilib kelgan. Ularning dunyoqarashida doimiy mehnat inson hayotining asosiy negizi sifatida qaralgan. Sharq tafakkuri hayotning o‘tkinchi ekanligini e’tirof etib, ortiqcha boylik to‘plashga intilmaslik, shaxsiy hissiyotlarni nazorat qilish kabi tamoyillarga asoslangan. Shu sababli, Sharq xalqlarining o‘ziga xos odob-axloq normalari va tarixiy urf-odatlari G‘arb sivilizatsiyasidan farq qiladi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari insoniyatga bebaho meros qoldirgan. Xorazmiy o‘zining ilmiy kashfiyotlari bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan bo‘lsa, Beruniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari va tabiat haqidagi ilmiy izlanishlari hozir ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Forobiyning adolatli jamiyat va yetuk inson haqidagi falsafiy fikrlari, Ibn Sinoning tibbiyot va ruhiyatga oid ilmiy ta’limotlari bugungi zamonaviy fan taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutadi.

https://buxdu.uz

Alisher Navoiy komil inson haqida chuqur falsafiy mushohadalar yuritib, insoniy fazilatlarni yuksak qadriyat sifatida e’tirof etgan. Ulug‘bek esa astronomiya ilmini rivojlantirib, yulduzlar harakati haqida jahon ilm-faniga katta ta’sir ko‘rsatgan. Bobur va Mashrab esa o‘z g‘azallarida insoniylik, adolat va umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lagan.

XX asr boshlarida jadidchilik harakatining namoyandalari – Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif So‘fizoda kabi ziyolilar ilm-ma’rifat orqali jamiyatni yangilash g‘oyasini ilgari surdilar. Ularning ijodi va faoliyati milliy ong va ma’naviyatni shakllantirishga katta hissa qo‘shgan.

O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlarning dunyoqarashi va ijtimoiy-ma’naviy hayoti ilk yozma manba – “Avesto” da o‘z ifodasini topgan. Zardushtiylik ta’limoti Markaziy Osiyoda dastlabki diniy va falsafiy tizimlardan biri bo‘lib, u tabiat kuchlarini ilohiylashtirishdan ko‘ra, inson hayotining mohiyatiga e’tibor qaratgan. Ushbu ta’limot zo‘ravonlik, qon to‘kish, harbiy to‘qnashuvlar va bosqinchilik harakatlarini qoralagan holda, tinch hayot kechirish, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishni targ‘ib etgan [2].

Zardushtiylik g‘oyalari ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash orqali jamiyatni yuksaltirish g‘oyasiga asoslangan. Diniy aqidalarga ortiqcha e’tibor qaratish o‘rniga, axloqiy va odob-axloq me’yorlarini ustuvor qo‘ygan. Bu tamoyillar asrlar davomida Sharq xalqlarining madaniy va ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutib kelmoqda.

Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi, unda tinchlik va osoyishtalik hukm surishi, aholining intellektual salohiyati va milliy o‘zlikni anglash darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shaxs, ijtimoiy guruhlar va millatlar jamiyatda ma’lum qadriyatlarni qabul qilib, ularga amal qilgan holda o‘z faoliyat yo‘nalishlarini belgilaydilar. Bu jarayon muayyan ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarga asoslanadi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar jamiyat ichida shakllanib, rivojlanib boradigan, o‘tgan tarixiy bosqichlardan hozirgi va kelajak avlodga yetib keladigan moddiy va ma’naviy boylikdir.

Milliy qadriyatlar mavzusi insoniyat tarixida chuqur ildizlarga ega. G‘arb olimlari odatda Yevropa madaniy merosi va falsafiy qarashlariga tayangan holda, qadriyatlarni aksilogiya (aksiologiya – qadriyatlar haqidagi ta’limot) sohasi doirasida o‘rganadilar. Bu yondashuv qadriyatlarni ilmiy jihatdan tizimlashtirishga imkon yaratgan.

Mustaqillik sharofati bilan bizning milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho meros o‘zining asl qiyofasida tiklana boshladi. Qur’oni karim va Hadislar ilk bor o‘zbek tiliga tarjima qilinib, ommaga taqdim etildi.

Ma’lumki, har bir millat va xalq o‘z hayot tarzini ajdodlari tajribasiga tayanib barpo etadi. Biror xalq begona andozalar asosida yashab, rivojlana olmaydi. Har bir jamiyat o‘zining tabiiy, geografik shart-sharoitlariga, tarixiy tajribalariga va milliy fe’l-atvoriga asoslangan holda o‘z hayotini tashkil etadi. Shu bois, mustaqillik sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yosh avlod ongiga singdirish jamiyat taraqqiyoti uchun zarur shartlardan biridir.

Milliy qadriyatlar inson va insoniyat tomonidan o‘tmish va hozirgi davrda yaratilgan, muayyan millatning o‘ziga xosligi va jamiyat taraqqiyoti uchun nihoyatda qadrli bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmuidir. Bu qadriyatlar xalq, millat, elat yoki ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qilish jihati bilan ajralib turadi.

Munozara va muhokamalar. Qadriyatlar muayyan ijtimoiy mohiyatga ega bo‘lib, ular jamiyat rivojiga hamda inson shaxsiy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular moddiy va ma’naviy qadriyatlar kabi ikki katta yo‘nalishga bo‘linadi. Moddiy qadriyatlarga tarixiy yodgorliklar, arxeologik topilmalar, qadimiy yozuvlar, madaniy meros obyektlari kiradi. Ma’naviy qadriyatlarga esa ilm-fan, san’at, axloq, madaniyat, adabiyot, ozodlik, erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, xalqaro hamkorlik va din bilan bog‘liq qadriyatlar kiradi.

1. Milliy qadriyatlar – muayyan xalq yoki millatga tegishli bo‘lib, ularning ajdodlari tomonidan shakllantirilgan qadriyatlardir.

2. Mintaqaviy (regional) qadriyatlar – muayyan geografik hudud xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo‘lgan moddiy va ma’naviy qadriyatlardir. Bu qadriyatlar tabiat, ilmiy, falsafiy, badiiy va axloqiy meroslarda o‘z aksini topadi.

3. Umuminsoniy qadriyatlar – butun dunyo xalqlariga tegishli bo‘lib, jahon sivilizatsiyasi boyliklari qatoriga kiradi.

Natijalar va takliflar. Umuminsoniy qadriyatlar eng muhim va yetakchi ahamiyatga ega bo‘lib, ular insoniyat tarixining uzviy qismi hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Shuningdek, ular ilmiy, badiiy va axloqiy rivojlanish uchun muhim omil bo‘lib qoladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar besh asosiy shaklda namoyon bo‘ladi: tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va diniy qadriyatlar.

https://buxdu.uz

- Tabiiy qadriyatlar – yer osti va yer usti boyliklari, daryo va dengizlar, o‘rmonlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda tabiiy resurslarni o‘z ichiga oladi.
- Iqtisodiy qadriyatlar – moddiy ne’matlar, ishlab chiqarish vositalari, texnika va texnologiyalar bilan bog‘liq qadriyatlardir.
- Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – shaxsning erkinligi, ozodligi, tengligi, adolat, tinchlik va xalqaro hamkorlik tamoyillarini qamrab oladi.
- Ma’naviy qadriyatlar – ilm-fan, falsafa, san’at, axloq, madaniyat, adabiyot, huquq va diniy ta’limotlarni o‘z ichiga oladi.
- Diniy qadriyatlar – diniy ta’limotlar va e’tiqod asoslariga bog‘liq bo‘lib, ular inson ma’naviyatining tarkibiy qismidir.

Sharq mutafakkirlari o‘z ilmiy meroslarida milliy qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rnini keng yoritgan. Ular qadriyatlarning inson kamolotiga ta’siri va ularning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini ta’kidlagan.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalar milliy qadriyatlarning shakllanishi, insoniyat ongidagi roli va barkamollikka ta’siri haqida qimmatli fikrlar bildirganlar. Shu bilan birga, "Avesto" va "Qur’on" kabi muqaddas manbalarda ham shaxs kamoloti va uning go‘zal xulqi ma’lum bir qadriyatlar asosida shakllanishi mumkinligi haqida qimmatli qarashlar ilgari surilgan.

Xulosa. Kishilik jamiyatining ming yillik tarixi shuni ko‘rsatadiki, har bir davrda insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ezgulik va bunyodkorlik qadriyatlari mavjud bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, ular bilan ziddiyatda bo‘lgan, inson hayotini izdan chiqaruvchi, jamiyat va ijtimoiy tizimlarning yemirilishiga, inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘luvchi buzg‘unchi illatlar ham mavjud bo‘lib, tarixiy tajriba bunday hodisalarning doimiy ekanligini tasdiqlaydi. Milliy qadriyatlar har bir xalq tomonidan ishlab chiqilib, uning vakillari tomonidan hayotga tatbiq etiladi. Agar milliy qadriyatlar unutilib, o‘rniga yot, begona va soxta qadriyatlarga berilish holati yuzaga kelsa, bu xalqning ma’naviy tanazzulga uchrashini anglatadi, bunday jarayon esa tarixiy jihatdan bir necha bor isbotlangan.

Bizning xulosamizga ko‘ra, ushbu jarayon pedagogik-psixologik muammo sifatida talqin qilinishi lozim. Ayniqsa, bu mavzuning bugungi kundagi dolzarbligini hisobga olgan holda, masalani yanada kengroq, aniqroq va mukammalroq tahlil qilish uchun ilmiy asoslangan empirik ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur. Shu sababli, keyingi paragraflarda talabalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qanday o‘rganilganiga alohida e’tibor qaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaeva B.S. “Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari” mavzusidagi Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. - Buxoro, 2022. – 104 b.
2. Axmedova Z.J. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatiga moslashuv motivatsiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi. - Buxoro, 2024. – 46 b.
3. Барначук Л.Ф. Психодиагностика: Учебник длуа вузов. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2009. – 384 с.
4. Bafaev M.M. “Globallashuv jarayonida milliy bag‘rikenglikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari”, diss T.: 2020. - 150 b.
5. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. –СПб.: «Речь» 2000. – 440 с.
6. Буева Л.П. Человек как высшая ценность и главное богатство общества // Человек в системе наук. - М., 2001. – 493 с.
7. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. - СПб Питер, 2008. – 400 с.
8. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия: Изучение влияния воспитания и семейных отношений. — М.: Апрель Пресс: ЭКСМО-Пресс, 2000. – 509 с.
9. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – 30 b.

https://buxdu.uz

TALABALARDA MA’NAVIY QADRIYATLARNI TA’LIM OLISH JARAYONIDA RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Xakimova Marxabo O‘raqovna,
O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti tadqiqotchisi

O‘quv jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanib milliy va ma’naviy qadriyatlarimizni talabalar ongiga yetkazish va singdirish bugungi kun ta’limining bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalaridan biridir. Olib borilayotgan tahlillar natijasida o‘quv jarayoni samaradorliligini oshirish va ma’naviy qadriyatlarni ta’lim oluvchilar ongida rivojlantirish uchun an’anaviy va innovatsion yondashuvlarni birlashtirishning mumkin bo‘lgan innovatsion ta’lim texnologiyalari va an’anaviy ta’lim texnologiyalarini asoslari.

Kalit so‘zlar: *interfaol, ta’lim-tarbiya, innovatsiya, tafakkur, ma’naviy qadriyat, texnologiya, ilmiy-uslubiy, metod, o‘qitish.*

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Внедрение в сознание студентов наших национальных и духовных ценностей с использованием современных образовательных технологий в учебном процессе является одной из важнейших задач современного образования. В результате проведённых исследований выявлены основы возможных инновационных и традиционных образовательных технологий для интеграции традиционных и инновационных подходов с целью повышения эффективности образовательного процесса и развития духовных ценностей в сознании обучающихся.

Ключевые слова: *интерактивный, образование и воспитание, инновация, мышление, духовная ценность, технология, научно-методический, метод, обучение.*

MODERN TRENDS IN DEVELOPING SPIRITUAL VALUES IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Conveying our national and spiritual values to students' consciousness by utilizing modern educational technologies in the learning process is one of the essential tasks of today's education. As a result of ongoing analyses, the foundations of innovative educational technologies and traditional educational approaches that combine traditional and innovative methods have been established to increase the effectiveness of the learning process and develop spiritual values in the minds of learners.

Keywords: *interactive, education, innovation, thinking, spiritual value, technology, scientific-methodical, method, teaching.*

Kirish. Ma’naviy qadriyatlar – inson ma’naviyati va axloqiy qiyofasiga daxldor bo‘lib, ijtimoiy hayotda jamiyat a’zolarini tarbiyalashga, ularning ma’naviy barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladigan qadriyatlar tizimini ifodalovchi tushuncha. Ma’naviy qadriyatlar deganda, inson tarbiyasi, odobi, axloqi va kamolotida muhim ahamiyatga ega, jamiyat va shaxs ma’naviyatini yuksaltiruvchi omil bu milliy ma’naviy qadriyatlar hisoblanadi. (Masalan, urf-odatlar, an’analar, Vatanni sevish, o‘z xalqi va millatini hurmat qilish, ota-onasini e’zozlash, tinchlik va totuvlikni saqlash va hokazo). [1,2].

Ma’naviy qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu asnoda milliy muhit yaraladi. Ma’naviy qadriyatlarni anglash kishining o‘z millati, yurti, eliga tegishli qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qiladi, chunki qanday asrashni, himoya qilishni va kelajak avlodga yetkazishni anglab yetadi. Muayyan millat ma’naviy qadriyatlarni qanchalik asrab-avaylasa, uning taraqqiyotida ma’naviy va moddiy omillar uyg‘unligi shunchalik mustahkam va barqaror bo‘ladi. Fanda ma’naviy qadriyatlarning qator funksiyalari o‘rganiladi. Ular avvalo, jamiyat a’zolarini o‘zini o‘zi tarbiyalashga, ajdodlardan meros qolgan qadriyatlar va ideallarga munosib bo‘lishga undaydi. Bu jarayonda ikki xil holat kuzatiladi.

Birinchisida ma’naviy qadriyatlar jamiyat a’zolari tomonidan ongli tarzda yaratiladi, ya’ni odamlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan ma’naviy me’yorlar va mezonlar haqidagi tushunchalar asosida ularga mos keladigan qadriyat va ideallarni yaratadi. Bunday sa’y-harakatlar jamiyat a’zolarining ma’naviy faolligini oshiradi, izlash, izlanish va yaratuvchanlikka chorlaydi.Shu tariqa yangi millayga xos qadriyat paydo bo‘ladi.

https://buxdu.uz

Ikkinchi holatda esa, jamiyat a’zolari tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, turli urf-odatlar yoki boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida olgan taassurotlari ham ma’naviy qadriyatlarning takomillashuviga xizmat qiladi. Ma’naviy qadriyatlarning shakllanishida har ikki holatning ham ta’siri kuzatiladi.Biz ikkinchi holat bo‘yicha keng tushunchalar beramiz. Ma’naviy qadriyatlar oiladan bola tug‘ilganidan boshlab uning tarbiyasi va ta’limi orqali berib boriladi.Ma’naviy qadriyatlar dastlab oila ichida dasturxonga o‘tirish, ota-onani(bobo va buvini) va aka-ukalarni hurmat qilish, salomlashish, mehmon kutish, qo‘ni-qo‘shni bilan va qarindoshlar bilan iliq munosabatlarni o‘rnatish bilan boshlanadi. Keyin bola ta’lim bilan shug‘ullana boshlagandan keyin, o‘rtoqchilik odoblari, ustoz-shogird an’analari, ta’lim olish madaniyati, adabiyotlarni o‘rganish, ta’lim olish jarayonida jamoada o‘zini tutish va xulq-atvorini ta’lim muassasasi qoidalariga mos ravishda shakllantirish ham ma’naviy qadriyatlarni kengayishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng miqyoda qo‘llash jahon mamalakatlari ta’lim tizimida taraqqiyot tendensiyasi hisoblanadi, lekin ma’naviy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish va texnologiyalardan vosita sifatida foydalanishimiz eng muhim tendensiya hisoblanadi. [3,4].

Ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan madaniy, ma’rifiy, axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy va hokazo turlarga bo‘linadi. Ular insonning aqli, kamoloti, dunyoni bilish maqsadi, bilimlarining haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezoni yoki biror ideal tarzida ham namoyon bo‘ladi. Ma’naviy qadriyatlarning inson tarbiyasi va jamiyatdagi o‘rniga doir asosiy funksiyasi ham ana shular bilan bog‘liq. Ma’naviy qadriyatlarning yana bir muhim jihati shuki, ularning ba’zilari insoniyat tarixi davomida asta-sekin shakllanadi va takomillashib boradi. Ularning miqdori va sifatining ortishi jamiyat a’zolarining tafakkur darajasining yuksalishi hamda insoniyat taraqqiyoti qanchalik ilgarilab ketganining ko‘rsatkichi hamdir. Deylik uzoq o‘tmishda ba’zi qadriyatlar, gazeta, radio, TV to‘g‘risida umuman tasavvur bo‘lgan emas. Bunday yangi ma’naviy qadriyatlarlar asrlar davomida shakllanib, takomillashib, boyib borgan. Ma’naviy qadriyatlar va qadriyat mezonlari millat ma’naviyati va unga mansub kishilarning xulq-atvorini tartibga solish va to‘g‘ri yo‘naltirish funksiyasini ham bajaradi. Bunday o‘ziga xos ma’naviy boshqarishning samaradorligiga erishish nihoyatda muhim. Zero, ma’naviy qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q, millat ma’naviy qadriyatlarning sohibi, yaratuvchisi va asrab-avaylab saqlab turuvchidir. Agar har bir millat o‘z ma’naviy qadriyatlarini asramasa, bu qadriyatlarning saqlanib qolishi qiyin. Millatning tanazzuli ma’naviy qadriyatlarning tanazzulidir. Ma’naviy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, buguni, kelajagi, urf-odat va an’analari, uni tashkil etgan avlodlar tafakkuri, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til hamda milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Keyingi yillarda ma’naviy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Zero, Ma’naviy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning irodasini mustahkam qiladigan, unga kuch bag‘ishlaydigan asosiy omillardan biridir. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros qolib kelayotgan ma’naviy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllanib, rivojlanib kelgan. Ularni uch ming yildan ortiq davrni mujassamlashtirgan xalqimiz sivilizatsiyasi yaratgan. Bizning ma’naviy qadriyatlarimiz ana shu sivilizasiyaga uzviy bog‘liq bo‘lib, ular millatimiz shakllangan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi. Ma’naviy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o‘xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an’analar ko‘plab uchraydi.

Tadqiqot obyekti va metodlar. Ta’lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta’lim texnologiyalarini va metodlarining rolini oshirish bilan tavsiflanadi. Ta’lim oluvchilar tomonidan ularning yordamida ta’lim va ta’lim olishga bo‘lgan manaviy qadriyatlar rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. Talabalar ta’lim olishda zarur bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarning bo‘lishi ta’lim samaradorligi va natijadorligiga yordam beradi. Chunki ma’naviy qadriyatlarning ko‘rinishlari talabani ta’lim olish odobi, darsga o‘z vaqtida kelishi, topshiriq va mustaqil ishlarni bajarishi, tengdoshlari va ta’lim beruvchi ustozlarni hurmat qilishi, jamoat joylarida talaba odobini saqslab yurishi va munosabatga kirishishda o‘zaro hurmat va odobni saqlaqlashi kiradi.

Amalda ko‘rsatish bilan biz bolani oilada manaviy qadriyatlarni o‘rgatamiz, ta’lim muassasalarida o‘sha oilada olgan tarbiyasi va singdirilgan qadriyatlar bilan o‘zini namoyon qiladi va talaba o‘zini ta’lim jarayonida va ta’limdan tashqari vaqtlarda ko‘rsatadi. Ya’ni odob-axloqidagi normalarni yangilaydi va o‘zini-o‘zi tarbiyalab boradi. Bunga sabab yangicha texnologiyalarni qo‘llashi va sinab ko‘rishi bilan amalga oshiriladi.

Kompetensiyaga asoslangan ma’naniv qadriyatlarni talaba yoshlarga singdirishimiz dastlab mavjud ma’naviy qadriyatlarimiz qanday kelib chiqqani haqida ma’lumot berilishi va ma’lumotlarni to‘liq anglashi va amalda bajarish yangicha talqinda o‘zining odobida ko‘rsatishi ma’naviy boy inson bo‘lishiga sabab bo‘ladi. [5,6].

https://buxdu.uz

Rus olimi D.A.Zagvyazinskiyning ta’kidlashicha, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar turlari aniqrog‘i o‘quv yoki pedagogik emas, balki o‘qitish deb ataladi va ishlab chiqarish sohasidan olingan atamaning o‘zi, albatta, ta’limda shartli ravishda qo‘llaniladi va ta’lim texnologiyasining o‘zi. ijtimoiy texnologiyaning bir turi sifatida ishlab chiqarish texnologiyasi kabi qattiq va oldindan belgilangan xususiyatga ega emas. Bunday texnologiyalarni ishlab chiqish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1) reproduktiv ta’lim ("individual ravishda belgilangan" trening, shaxsiylashtirilgan, shuningdek "jamoa-individual" trening);

2) tadqiqot mashg‘ulotlari (o‘quv jarayoni kognitiv-amaliy, amaliy ma’lumotlarni izlash sifatida quriladi);

3) tarbiyaviy muhokama uchun modellarni ishlab chiqish;

4) o‘yin modellari asosida o‘qitishni tashkil etish (o‘quv jarayoniga simulyatsiya va modellashtirishni kiritish).

Bu kabi qadriyatlarni shakllantirishimiz nafaqat intellektual yetuk shaxsni shakllantirish, balki ma’naviy boy shaxsni shakllantirishga sabab bo‘ladi.Ma’naviy bilim zaxirasiga ega inson kamoloti barcha sohalarda va davrlarda qadrlangan va faoliyati yuksak yutuqlar bilan e’tirof etilgan.

Natijalar va tahlil. Tahlil va natijalari shuni ko‘rsatib turibdiki ma’naviy qadriyatlar millatning o‘zligi va mafkurasini qudratini ko‘rsatadi.Har bir davrda texnologiyalar o‘zgaradi va zamon talabidan kelib chiqib, yangilanadi yoki yangisi yaratiladi. Shu yangi texnologiya zamonga mos qilib yangi texnologiya nomi beriladi. Bugungi kunda an’anaviylikdan ta’lim jarayonida qochishimiz ma’naviy qadriyatlarimizni yangicha usulda tarkib topishini taqozo qilmoqda. O‘yin texnologiyasini oladigan bo‘lsak dars jarayonida talabalarni faollagini oshirib olish uchun o‘qin texnologiyasidan foydalanib faollashtiramiz, ma’lumotlarni singdiramiz va mustahkamlaymiz. O‘yin texnologiyalarida ham ma’naviy qadriyatlar o‘rgatiladi misol uchun mehmon kutish odobi, “Mehmon” o‘yini, ota-onani hurmat qilish odobi, halollik mishiy mavzular sahnalarda va tadbirlarda namoyish qilinadi.

Ma’naviy qadriyatlar ta’lim muassasalarida turli milliy tadbirlar va bayramlar orqali ham talabalarga singdiriladi. Misol uchun “Navruz” bayramidagi milliy o‘yinlar va taomlar festivallari,” Xotira va qadrlash” kunida o‘tganlarni eslash va nuroniylarni xolidan xabar olish, “Xotin-qizlar kuni”ni va “Vatan himoyachilari” kunini nishonlanishi ayollar va erkaklarni qadrlash kabi bayramlarni nishonlanishi shu mamlakatdama’naviy qadriyatlar siyosat darajasida ekanligining bir isbotidir. Shu kabi tadbirlar talabalik davrida ham alohida e’tibor bilan bajarilishi va nishonlanishi ularda ma’naviy qadriyatlar oliy ta’lim bosqichida ham nishonlanishidir.

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlash zamonaviy davrning asosiy vazifalaridan biridir. Zamonaviy dunyo o‘zgarmoqda har kuni, va har daqiqa inson bo‘lib qolish uchun har qanday vaziyatda jang qilish zarurdir. Ta’lim va fan - bu barqarorlikning asosi bo‘lib, bu ikki sohani birlashtirish zarur. Ta’lim - bu shaxsini rivojlantirish va uning qadriyat dunyoqarashini shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. O‘qituvchilar nafaqat ta’lim, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, balki ular o‘quvchilar ongiga muhim axloqiy qadriyatlarni singdirishi, mehribonlik, halollik, mas’uliyatlilik kabi qadriyatlarga ega bo‘lishi shart.

Ilm ham odamlarga o‘zini yaxshiroq tushunish, o‘zi haqida tanqidiy fikrlash imkonini beradi. Ma’naviy va axloqiy qadriyatlar har bir insonning hayotiga quriladigan poydevordir. Ular hayotiy qadriyatlarni belgilaydi va shaxsning o‘sishi, rivojlanishi, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Ular asososida madaniyat va urf-odatlar avloddan-avlodga.meros bo‘lib o‘tadi. Keling, qanday ruhiy - axloqiy qadriyatlar dunyoqarash va xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, ko‘rib chiqamiz.

1. Diniy qadriyatlar. Xudoga ishonish, ibodat, rahm-shafqat, kamtarlik, halollik, mehribonlik va boshqa ma’naviy fazilatlar.

2. Axloqiy qadriyatlar. Axloqiy qadriyatlar to‘g‘ridan to‘g‘ri insonning xulq-atvorini va boshqa odamlarga munosabatini belgilaydi. Ular o‘z ichiga halollik, adolat, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga hurmat, javobgarlik, ishonch, mehribonlik, hamkorlik va boshqa sifatlar.

3. Ijtimoiy qadriyatlar. Ijtimoiy qadriyatlar to‘g‘ri xatti-harakatni belgilaydi. Ular mehnatni o‘z ichiga oladi, sevgi, mas'uliyat, boshqalarga hurmat, sog‘lom hayot tarzi, hamkorlik, birdamlik, fuqarolik mas'uliyati va boshqa fazilatlar.

4. Madaniy qadriyatlar. Madaniy qadriyatlar an’ana va urf-odatlarni belgilaydi. Bularga mamlakatimiz tarixi, madaniyati, an’analari, urf-odatlari, til, adabiyot, san’at va boshqa fadriyatlar kiradi.

5. Estetik qadriyatlar. Estetik qadriyatlar go‘zallik va uyg‘unlikni belgilaydi. Ularga insonning tabiat, musiqa, san’at, me’morchilik, adabiyot va ijodning boshqa to‘rlariga muhabbati kiradi.

6. Shaxsiy qadriyatlar. Shaxsiy qadriyatlar insonning individual fazilatlarni belgilaydi. Ular o‘z ichiga oladi amalga oshirish, O‘zini shakllantirish va rivojlantirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zini hurmat qilish, o‘ziga ishonch, ijodkorlik, halollik va boshqa fazilatlardir.

https://buxdu.uz

Xulosa. Ma’naviy qadriyatlar jamiyatdagi xilma-xillikni hurmat qilish va turli madaniyatlar bir-birini qabul qilish orqali ijtimoiy aloqalarni yaxshilaydi. Ushbu qadriyatlar turli etnik va madaniy tushunchalar talabalar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hurmatni kuchaytiradi, bu ijtimoiy nizolarni kamaytiradi va jamiyatning umumiy barqarorligiga hissa qo‘shadi. Ma’naviy qadriyatlar, shuningdek, turli millatlar bir-birini qabul qilish va integratsiyalashuviga yordam beradi, bu esa kengroq ijtimoiy integratsiya va hamkorlikka olib keladi. Bu jarayonlar jamiyatda turlicha fikrlash va turmush tarzini o‘z ichiga oluvchi yanada inklyuziv va bag‘rikenglik muhitini yaratishga yordam beradi.

Go‘zal ma’naviyat kishilarning o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatini oshiradi, bu esa ularni ijtimoiy muammolarga duch kelganda mustaqil fikrlovchi qiladi. Bu jarayon odamlarga o‘z qarorlarini qabul qilish va ular uchun mas’uliyatni his qilish imkonini beradi. Ma’naviyat insonning xatti-harakatlarini o‘zgartirish va muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yechimlarni topish qobiliyatini rivojlantiradi. Shaxslar ichki qadriyatlaridan kelib chiqib, turli ijtimoiy tazyiqlarga dosh bera oladilar, bu esa ularni jamiyatdagi salbiy oqibatlardan himoya qiladi. Axloqiy qadriyatlar ham o‘z-o‘zini nazorat qilishni talab qiladi, chunki bu qadriyatlar insonning harakatlarini chuqur aks ettirish va o‘z-o‘zini tanqid qilishni o‘z ichiga oladi. Bu o‘z navbatida insonni mustaqil, adolatli va mas’uliyatli fuqaro bo‘lishga o‘rgatadi. Axloqiy qadriyatlar yoshlarni jinoyat va boshqa salbiy ta’sirlardan asrashda muhim o‘rin tutadi. Yoshlar hayotda o‘z yo‘lini tanlashda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bunday paytlarda kuchli ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ularni noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishdan saqlaydi, to‘g‘ri yo‘l tanlashga yordam beradi.

Ma’naviy qadriyatlar yoshlarni jamiyatda qabul qilingan me’yor va qoidalar doirasida harakat qilishga undaydi, bu esa ularni noqonuniy harakatlar va salbiy ijtimoiy guruhlarga qo‘shilib ketishdan saqlaydi. Shuningdek, ma’naviy qadriyatlar yoshlarga kelajak maqsadlariga erishish uchun salbiy yo‘llardan foydalanmaslik kerakligini tushuntiradi. Bu qadriyatlar yoshlarni shaxsiy va kasbiy rivojlanishida ijobiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, ularni jamiyatning faol a’zosi bo‘lishga tayyorlaydi. Ma’naviy qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Ular odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchni kuchaytirib, fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirib, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi turishda muhim omil bo‘lmoqda. Bu qadriyatlar, shuningdek, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni rag‘batlantirish orqali jamiyatning umumiy barqarorligiga hissa qo‘shadi. Agar jamiyat yetarli darajada rivojlangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lsa, bu o‘z navbatida ijtimoiy integratsiyani yaxshilaydi va turli madaniy va etnik guruhlar o‘rtasidagi hamjihatlikni ta’minlaydi. Binobarin, ma’naviy qadriyatlar jamiyat barqarorligi va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, bu esa jamiyat hayotida ularga ustuvor ahamiyat berish zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxammedov R. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”. - Toshkent-2004 y.

2. Abduxamidov S.M, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish”. // Maktab va hayot jurnali. ISSN 2010- 5460, 2-son, 2019y, 17-bet.

3. Ishmuhamedov J. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari” - T.: TDPU, 2004-yil.

4. Hakimova M.F. Pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.TDIU., 2013, 230 – bet.

5. Abduxamidov S.M. “Methodology of improving independent learning skills of future fine art teachers (on the example of still life in colorful paintings)”. // International Journal of Psychosocial Rehablitation, Vol 24, Issue 05, 2020. ISSN 1475-7192. DOI:10.37200/IJPR/V2415/PR201880

6. Abduxamidov S.M, “Technologies for the development of artistic aesthetic thinking of students through art works”. // Journal NX. editor@journalnx.com, A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, Reserch for Revolution, ISSN №-2581-4230, Impact Factor-5.785. June – 2020. 684- 687-betlar.

7. Matchanova Barno Irkinovna. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(10), Nov., 2024 Research BIB / Index Copernicus www.oriens.uz.

https://buxdu.uz

PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI

TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA AJDODLAR MEROSINING AHAMIYATI XUSUSIDA

Azimova Kamola Karimovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)
kamoshrayxon.@mail.ru

Ushbu maqolada mamlakatimizda bugungi ta’lim tizimini rivojlantirish borasida islohotlar davomli amalga oshirilayotgan bir zamonda, yoshlarni tarbiyalashda ajdodlarimizning boy me’rosidan unumli foydalanish borasida bir qadar fikr-mulohazalar yuritilgan. Nafaqat mintaqamiz, balki butun musulmon olamining yetuk pirlarini shogird tarbiyasidagi fikr-mulohazalari va ulkan tajribalari ham mazkur maqolada misollar yordamida keltiriladi. Bugungi kundagi ta’lim-tarbiyani ajdodlarimiz tajribasisiz tasavvur qilib bo‘lmasligini tarixiy dalillar ham ko‘rsatishiga yana bir bora amin bo‘ldik. Pedagog va ijtimoiy gumanitar fanlar sohasida qalam tebratayotgan olimlar uchun buyuk millatdoshlarimizni ko‘p qirrali faoliyatini ochib berishda, yangicha tafakkur asosida yozilgan yuzlab tarixiy kitob va risolalar dunyoga kelishida ilmiy-metodolagik asos bo‘lgan asarlar juda ham ko‘p.

Kalit so‘zlar: *tarbiya, ta’lim, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat, mafkura, vatanga muhabbat, ulamolar, din peshvolari, tarixiy xotira, globallashuv, boshlang‘ich ta’lim, axloq, ma’rifat.*

О ЗНАЧЕНИИ НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье рассматриваются некоторые соображения об эффективном использовании богатого наследия наших предков в воспитании молодёжи в период, когда в нашей стране продолжаются реформы по развитию современной системы образования. В статье на примерах приводятся мысли и богатый опыт зрелых духовных наставников не только нашего региона, но и всего мусульманского мира в воспитании учеников. Мы ещё раз убедились, что исторические факты подтверждают невозможность представить современное образование без опыта наших предков. Для педагогов и учёных, работающих в сфере социальных и гуманитарных наук, существует множество трудов, служащих научно-методологической основой для раскрытия многогранной деятельности наших великих соотечественников и создания сотен исторических книг и трактатов, написанных с позиций нового мышления.

Ключевые слова: *воспитание, образование, воспитание молодёжи, духовность, идеология, любовь к Родине, улемы, религиозные деятели, историческая память, глобализация, начальное образование, этика, просвещение.*

ON THE SIGNIFICANCE OF ANCESTRAL HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM

This article examines some considerations regarding the effective use of our ancestors' rich heritage in educating youth during a period when reforms to develop the modern education system continue in our country. The article provides examples of ideas and extensive experience of mature spiritual mentors, not only from our region but throughout the Muslim world, in educating students. We have once again become convinced that historical facts confirm the impossibility of imagining modern education without the experience of our ancestors. For educators and scholars working in the field of social sciences and humanities, there are numerous works that serve as a scientific and methodological foundation for revealing the multifaceted activities of our great compatriots and creating hundreds of historical books and treatises written from the perspective of new thinking.

Keywords: *upbringing, education, youth education, spirituality, ideology, patriotism, ulema, religious figures, historical memory, globalization, primary education, ethics, enlightenment.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda tub burulishga molik o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xalqimizning tafakkurida tobelik pisixalogiyasidan qutilib bunyodkorlik erkin va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga

https://buxdu.uz

yaqinlashish o‘zligini anglash milliy urf-odatlari va ananalari asosida yashash tendensiyasi kuchaydi. Jahonda globallashuv jarayoni jadal davom etayotgan, taraqqiyotning turli bosqichlarida turgan mamlakatlar yonma-yon yashayotgan, O‘zbekiston dunyoga, dunyo O‘zbekistonga yuz ochgan, integratsiya jarayonlari avj olgan ijobiy tendyensiyalar bilan birga yod bulgan g‘oyalarning tarqalishi kuchayayotgan, raqobatli murakkab va ziddiyatli davrda yashayapmiz. Shunday ekan ma’nan barkamol, aqlan mustahkam, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan e’tiqodli, madaniyatli, dono farzandlarni tarbiyalash istiqlol istiqbolining tamal toshidir.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti boshlang‘ich ta’lim tizimini o‘qitishda ajdodlarimizni boy madaniy merosining ahamiyatini yanada ochib berishdan iborat. O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’lim tizimini ajdodlarimiz, ayniqsa yetuk mutafakkirlarning boy merosi asosida o‘rganish mavzusi bugungi kunga qadar ilmiy jihatdan kam o‘rganilgan. Shu sababdan, bu mavzuni tadqiq etishda davlatimiz hukumati tomonidan qabul qilingan turli normativ-huquqiy hujjatlar, qaror va farmonlar asosiy manba vazifasini bajaradi. Qolaversa, davriy matbuot materiallari, hukumat tomonidan qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar to‘plamlarni, turli davrlarda chop etilgan adabiyotlar ham o‘z navbatida mavzu mazmunini oydinlashtirishga xizmat qiladigan manbalar sirasiga kiradi. **Tadqiqot metodologiyasi** boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini bugungi kun uchun ahamiyatini yoshlarga singdirish tarixiy xronologik ketma-ketlikda tahlil etiladi. Bundan tashqari, sovet davridan boshlab boshlang‘ich ta’limga ta’sir ko‘rsatgan jarayonlarni tahlil qilish hamda mustaqillik davridagi ushbu jarayonlarga baho berishda retrospektiv usuldan foydalanildi. Shuiningdek, insoniylik tamoili asosida tarixiy jarayonlarda ajdodlarimiz merosining o‘rganish sabablari, yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati, yutuq va muammolari hamda istiqbollari ochib beriladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ta’lim va tarbiyani tubdan isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida zamonaviy taraqqiyot asoslarini barpo etish yo‘lida dadil qadamlar qo‘yildi. Ta’limning “milliy modeli”ni yaratish maqsadi istiqbolda boy tarixiy tajribani chuqur o‘rganishni taqozo qiladi. Zero prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “el-yurtimizning qon-qonida azaldan bo‘lgan aql-zakovat ilm-ma’rifat tufayli zaminimizda yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ulug‘beklar yetishib chiqishiga ishonchim komil” [1. 179-b] - deb bejizga fikr bildirmagandilar. O‘zbekiston Respublikasida bugungi avlodni hayotning barcha sinovlariga bardoshli chidamli irodali va iymon - e’tiqodli qilib tarbiyalashda xalqimizning boy o‘tmishi tarixiy ildizlari asosiy omil bo‘la olishi qayta-qayta takidlanadi. Ayniqsa birinchi prezidentimiz I.A. Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”, “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonanasida” kabi asarlarida qadimiy shaharlarimiz Toshkent, Buxoro, Xiva, Samarqand, Qarshi singarilarning yubileylari munosabati bilan so‘zlagan nutqlarida, o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim rol o‘ynagan vatan himoyasiga o‘z jonini tikkan tarixiy shaxslar yubileylaridagi bildirgan fikr-mulohazalarida yosh avlodni tarixiy ildizni izlashga davat etadilar. “Kim bo‘lishidan qat’iy nazar jamiyatning har bir azosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar tasiriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi irodasini mustahkamlaydi” – deb yozgan edilar.

Barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi etirof qilinar ekan ongi yuksak, yurish-turishi bilan ibrat namuna bo‘ladigan odobli bilimli ma’rifatli kishilar tarbiyasini tarixiy ildizlarimissiz tasavvur qilib bo‘lmasligi yuqoridagi asarlarda barq urib turadi. Bizning tariximiz eng nodir qo‘lyozmalarimizda mujassam bo‘lgan. Shunday qadimiy yozma manbalarimizdan biri xalqimizning tarixiy merosi Avesto muhim tarixiy hujjat ekanligi unda ekologik, ahloqiy, ma’naviy tarbiyaga oid ajdodlar tajribasi bilan bog‘lik ko‘plab ma’lumotlar olish mumkinligi alohida takitlangan. Avestoning 2700 yilligini nishonlash tashabbuskori ham I.A.Karimov bo‘lib, boy va betakror tariximizga murojaat qilishi go‘zal va muqaddas zamin bo‘lgan O‘zbekistonga yosh avlodni mehr-muhabbatini mustahkamlash bu ulug‘ tuyg‘uni yoshlarning shuur va qalblariga singdirishdan iboratdir. Shuning uchun: “inson o‘zligini anglagani nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib ulg‘aya boradi, bu ildiz qancha teran bo‘lsa, tug‘ulib o‘sgan yurtga muhabbat ham shuncha yuksak bo‘ladi, tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki tomirida milliy g‘urur Vatan ishqi jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi” – deb takidlangan edi.

Adabiyotlar tahlili. Ulug‘ avliyo va ulamolar yurti Buxoroyi – sharif vatandoshlarimiz hamda xorijdan tashrif buyurgan sayyohlar uchun muqaddas ziyoratgohdir. Buxoroga qadami yetgan har bir kishi “yetti pir ziyorati”ni yuragida maqsad qilib qo‘yadi, desak xato qilmaymiz. “Silsilai sharif”da keltirilishicha 114 xalifi (shogirdi, muridi, o‘rinbosari) bor bo‘lgan Sayid Mir Kulol (1288 – 1372 yy) shogirdlari va o‘ziga murid tutunganlarni doimo sinovdan o‘tkazgan. Tasavvufga oid tadqiqotlar olib borgan olimlardan ye.E. Bertels, A.A. Semyonov, Z.Y. Vohidov, Orif Usmon, N. Yo‘ldoshev, Sadriddin Salim Buxoriy asarlari bilan tanishar ekanmiz, Xoja Muhammad Boboiy Samosiy (vafotlari 1354 yil) Xoja Bahovaddin Naqshbandiy –

https://buxdu.uz

Muhammad ibn Muhammad Jaloliddin Buxoriy (1318 – 1389 yy) tarbiyasini Amir Sayid Kulolga topshirganiga guvoh bo‘lamiz. Xoja Muhammad Bobo dedilarki, “ul bizning farzandimizdir va biz ani qabul qildik va as’hab (muridlari) sari boqib debturlarki, bu ul erdurki, bizga ani isi yetib erdi. ... Amir Sayid Kulolga buyurdilarki, farzandim Bahovaddin haqida tarbiyat va shafqatni darig‘ tutmag‘aysen va senga bixil (avf, kechirish) qilmag‘ayman, agar taqsir qilsang. Amir dedikim: “Er bo‘lmag‘ayman, agar Xoja vasiyatida taqsir (nuqson, xato) qilsam” – degan fikrlarni qayd etadi, tarixchi olim N. Yo‘ldoshev.

Xoja Bahovaddin shu tariqa o‘z piridan shariat (qonun), tariqat (to‘g‘ri yo‘l) yo‘llarini o‘rgana boshlaydi. Ustozning shogird va muridlari ko‘p sonli bo‘lganligini yuqorida bayon qildik. Ba’zi manbalarda ular soni 200 dan ortiqligi qayd etiladi. Sayid Mir Kulol o‘z shogirdlarining ilmi, irodasi, qat’iyati va sadoqati kabilarni vaqti – vaqti bilan sinab ko‘rgan. Bu sinovning shakl va usullari xilma – xil bo‘lib, ular haqidagi ma’lumotlar bizgacha tarixiy voqyelik, rivoyatlar tarzida turli asarlar orqali yetib kelgan. Ayniqsa, Xoja Bahovaddindagi salohiyat, avliyoona karomat va iroda kuchini sezgan ustoz uni bot – bot sinovdan o‘tkazgan.

Tariqat ta’limotining katta qismini o‘zlashtirgan Xoja Bahovaddin 40 kun bir oyoqda turib chilla o‘tiradi. 39 kunda shayton kelib uni vasvasaga solib: “Sen bir kulolga xizmat qilyapsan. U senga hech qanday yaxshilikni ravo ko‘rmaydi, oyog‘ingni yerga qo‘y”, deb aytadi. Shaytonning vasvasasiga uchingan Bahovaddin 39 kunda oyog‘ini yerga qo‘yadi va ustozi uyidan bildirmasdan chiqib yo‘lga ravona bo‘ladi. Yo‘lda bir kishining ortidan iti ergashib kelardi, egasi uni tosh otib qaytishga buyurdi. Itning egasi uni qanchalar kesaklar otib haydasa ham, angillab xojasi ortidan qolmaydi. Bahovaddin it egasiga qanchalik vafo qilayotganligini ko‘rib qilgan ishidan pushaymon yeydi va ortiga qaytadi. Qarasa oyog‘ini yerga qo‘ygan joyda unga ta’lim va tarbiya bergan ustozi Sayid Mir Kulol turibdi. Ustoz shogirdga qarata: “sen oyog‘ingni yana bir kun yerga qo‘ymaganingda qazogardon bo‘lur erding, endi sen balogardon bo‘lding, har qanday baloni daf qiladigan kuchga egasan” – deb aytadilar.

Bu bilan Xoja Bahovaddin Balogardon asli ushbu rivoyatdan olinganligiga ishora qilinadi. Xoja Bahovaddin Naqshband ustozdan ta’lim olar ekan, uning imtihonga aylangan sinovlariga xush dar dam (har nafas hushyor turmoq) lik bilan javob qaytaradi.

Sharqshunos, tasavvufshunos olim Orif Usmonning “Ma’naviyat chinorlari” nomli kitobida keltirilishicha Sayid Mir Kulol 114 nafar muridlarining har biriga kunlardan bir kun bozorga borib bittadan xo‘roz sotib olishni buyuradi. Sotib olingan xo‘rozlarni hech bir zot ko‘rmaydigan joyda so‘yib kelishni topshiradi. Belgilangan kunda shogirdlarning barchasi o‘z xo‘rozlarini ko‘prik ostida, pana joyda, ovloqda, omborda so‘yganligidan ustozni xabardor qiladilar. Xoja Bahovaddin o‘ziga tegishli xo‘rozni tirik holda olib keladi. Ustozning “Bo‘tam siz nega o‘z xo‘rozingizni tirik holda olib keldingiz? – degan savoliga shogird: men xo‘rozni qaerda so‘ysam ham olloh (yaratgan) ko‘radiku!” – deb javob beradi. Ustoznnig bu sinovidanham shogird muvaffaqiyat bilan o‘tadi.

Sayid Mir Kulol o‘z shogirdlari bilan yo‘lda suhbat qurib ketayotgan kunlardan birida to‘satdan to‘xtaydilarda, kovushlari bilan yo‘lga uzun chiziq chizib, ushbu belgidan kim sakrab o‘tsa mening shogirdim emas, deb o‘z yo‘llarini davom ettiradilar. Shogirdlardan hech kim ustozi komildan ajralishni xohlamasdi. Shuning uchun ular chiziq qarshisida lol bo‘lib qotib qolishdi. Ular orasida Xoja Bahovaddin Naqshbandiy ham bor edilar. Xoja Bahovaddin bir oz o‘ylanib turgandan so‘ng, chiziqdan sakrab o‘tadilarda, ustozga tezda yetib olib, u kishi bilan yonma – yon keta boshlaydilar. Shunda Sayid Mir Kulol Bahovaddinga murojaat qilib: “Bo‘tam, to‘g‘ri ish qildingiz, bir jonsiz chiziqni deb mendan voz kechmadingiz” – deydilar. Bu sinovdan ham ishonchli o‘tgan Xoja Bahovaddin piri oldida sadoqatda benazir, mustahkam iroda va chidam, bardosh egasi bo‘lganlar. Sayid Mir Kulol qahraton qish tunlaridan birida o‘z kulbai xoslarida orom va uyquda bo‘lganlar. Xoja Bahovaddin u kishiga tahorat suvini isitib turganlar. Bir kecha qalin qor tushib uyning ostonasini ham qoplaydi. Sovuq va qorbo‘ron bo‘lishiga qaramay ustoz ostonasida choponga o‘ranib yuragi oldida oftoba suvini iliq saqlab yotgan Xoja Bahovaddin ustini qor qoplaydi. Sayid Mir Kulol uy ostonasida depinib ketsalar, shogirdlari turganini ko‘radilar. Shogird ustozga darhol tahorat suvini tutadi.

Tarixiy manbalarda bu ikki ulug‘ avliyo haqida bu kabi juda ko‘p naql va rivoyatlar saqlanib qolgan. Ularni to‘plash va tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazib, tahlil qilish bugungi kunda komil insonni tarbiyalash, yoshlarni zamonaviy bilimlarni egallashi bilan birga turli yod g‘oyalarga qarshi tura oladigan immunitet shakllantirishga, kishilarimizda insoniy tuyg‘ularni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi degan fikrdamiz.

O‘zbekistonning uzoq va boy tarixining eng qadimgi zamonlardan o‘zbek davlatchiligi tarixiy bosqichlari, milliy davlatchiligimiz tarixida muhim rol o‘ynagan davlat va hukumat arboblari, ularning bunyodkorlik faoliyatlari, jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan dunyoviy va diniy ilm namoyondalari, ma’naviyat darg‘alari haqida boy ma’lumotlar keltirilgan. O‘tmishda o‘chmas iz qoldirgan Turkiston mintaqasidan chiqgan tarixiy shaxslarga obektiv va xolisona baho berish boshlandi. Pedagog va ijtimoiy

https://buxdu.uz

gumanitar fanlar sohasida qalam tebratayotgan olimlar uchun buyuk millatdoshlarimizni ko‘p qirrali faoliyatini ochib berishda, yangicha tafakkur asosida yozilgan yuzlab tarixiy kitob va risolalar dunyoga kelishida ilmiy – metodolagik asos bo‘lgan asarlar juda ham ko‘p. Milly tariximizda yorqin iz qoldirgan yirik ilmiy kashfiyotlar qilgan Muxammadmuso Xorazmiy, Axmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabilar shaniga aytilgan fikrlar bir qator asarlarda qayt etilgan. Shuningdek vatanimizdan chiqqan milliy ma’naviyatimizni ilmiy-ijodiy merosimizni boyitishda muhim rol o‘ynagan ibratli faoliyati bilan iz qoldirgan yuzlab ma’rifatparvar fan fidoiylari haqida ham teran fikr bildiradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida marifatparvarlik g‘oyasini targ‘ib qilib o‘limga tik borgan jadidlar, sovet hokimyati yillarida ilm va fanni muqaddas deb bilib ma’naviyat xazinasiga beqiyos hissa qo‘shgan madaniyat arboblari, o‘z e’tiqodidan har qanday sharoitda qaytmagan millatdoshlarimiz xizmatlari tarixiy asarlarda bisyor, ular yordamida bugungi yosh avlodni tarbiyalash bizning burchimiz sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Том I. Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1 жилд. - Тошкент. Маънавият. 2000.
3. Ахмад Дониш. Главы из книги “Редкостные события” / В кн: Путешествие из Бухары в Петербург,- Сталинабад, 1960.
4. Аҳмад Дониш. Наводирул вақое. (Нодир воқеалар). Форс-тожикчадан А.Ҳамроев ва А.Шокиров таржимаси. Т.: Фан, 1964.
5. Айний С. Бухоро инқилоб тарихи учун материаллар. Асарлар. Тошкент: Бадиий адабиёт, I том. 1963.
6. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.: Шарқ; 1998.
7. Orif Usmon. Ma’naviyat chinorlari. – T.: Ma’naviyat; 1993.
8. Yo‘ldoshev N. Bahovaddin Naqshbandiy (hayoti va faoliyati, uning haqida ayrim rivoyatlar). Buxoro – 1992.

https://buxdu.uz

G‘AZZOLIY TA’LIMOTI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA UYG‘UNLIGI

Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna,
Qo‘qon universiteti Ta’lim fakulteti o‘qituvchisi
guljahoneshonqulova@gmail.com

Ushbu maqolada Imom G‘azzoliy asarlarida diqqat va qalb tarbiyasining ahamiyati tahlil qilinadi. Diqqatning inson ruhiy salomatligi hamda rivojlanishidagi o‘rni, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi diqqat tushunchalari Imom G‘azzoliyning falsafiy qarashlari va zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida izohlanadi. Maqolada Imom G‘azzoliyning “Ihyou ulumid-din”, “Mukoshafatul qulub” va “Kimyoyi saodat” kabi asarlaridan foydalanilgan bo‘lib, unda diqqat va tafakkurning qalb pokligi bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy psixologiyada diqqat, tafakkur va odatlarning shakllanishi, motivatsiya hamda irodaviy jarayonlarning rivojlanishi bo‘yicha qarashlar tahlil qilinadi. Maqolada Imom G‘azzoliy fikrlarining zamonaviy psixologiya bilan uyg‘unlik nuqtalarini aniqlashga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: *Imom G‘azzoliy, diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan keyingi diqqat, qalb tarbiyasi, tafakkur, motivatsiya, sabr, ruhiy tarbiya.*

ГАРМОНИЯ УЧЕНИЯ ГАЗАЛИ И СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

В данной статье анализируется значение внимания и воспитания сердца в трудах Имама аль-Газали. Роль внимания в психическом здоровье и развитии человека, понятия произвольного и послепроизвольного внимания разъясняются на основе философских воззрений Имама аль-Газали и современных психологических подходов. В статье использованы такие труды Имама аль-Газали, как «Ихья улюм ад-дин», «Мукашафат аль-кулюб» и «Кимья-и саадат», в которых раскрывается связь внимания и мышления с чистотой сердца. Также анализируются взгляды современной психологии на формирование внимания, мышления и привычек, развитие мотивации и волевых процессов. В статье предпринята попытка выявить точки соприкосновения идей Имама аль-Газали с современной психологией.

Ключевые слова: *Имам аль-Газали, внимание, произвольное внимание, послепроизвольное внимание, воспитание сердца, мышление, мотивация, терпение, духовное воспитание.*

THE HARMONY OF GHAZALI'S TEACHING AND MODERN PSYCHOLOGY

This article analyzes the importance of attention and spiritual education of the heart in the works of Imam Ghazali. The role of attention in human mental health and development, as well as the concepts of voluntary and post-voluntary attention, are explained based on Imam Ghazali's philosophical views and modern psychological approaches. The article draws from Imam Ghazali's works such as «Ihya Ulum al-Din», «Mukashafat al-Qulub», and «Kimya al-Sa'adat», which reveal the connection between attention and contemplation with the purity of the heart. Additionally, the article analyzes modern psychological perspectives on the formation of attention, thinking, and habits, as well as the development of motivation and volitional processes. The study aims to identify points of harmony between Imam Ghazali's ideas and modern psychology.

Keywords: *Imam Ghazali, attention, voluntary attention, post-voluntary attention, spiritual education, thinking, motivation, patience, spiritual training.*

Kirish. Bugungi tezkor axborot asrida inson e’tiborini tortish, diqqatini bir joyga jamlash tobora qiyinlashmoqda. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ongli e’tibor va ichki motivatsiya inson ruhiy holatiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shu bois, Imom G‘azzoliy asarlarida diqqat va qalb tarbiyasiga qaratilgan yondashuvlar aynan bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari orasida Imom G‘azzoliy bu borada chuqur fikr yuritib, qalb tarbiyasining inson ma’naviy yuksalishidagi o‘rnini alohida ta’kidlagan. Bugungi kunda psixologiya fanida diqqat, tafakkur va motivatsiya jarayonlari ham keng o‘rganilmoqda. Imom G‘azzoliy “Ihyou ulumid-din” asarida shunday yozadi: “Inson bir amalni ko‘p takrorlasa, u qalbiga o‘rnashadi va oxir-oqibat tabiati bo‘lib qoladi” [1. 18]. Bu fikr psixologiyada aynan ixtiyoriydan keyingi diqqat mexanizmini ifodalaydi. Ya’ni kishi avval o‘zini majburlab, keyin ichki ehtiyoj bilan biror ishga e’tibor qaratadi. Zamonaviy psixologiyada “odat shakllanishi” tushunchasi mavjud. Tadqiqotlardan ma’lumki, inson biror bir odatni shakllantirish uchun kamida 21 kun davomida muntazam

https://buxdu.uz

ravishda uni bajarishi kerak. Dastlab bu ixtiyoriy diqqat orqali amalga oshadi, keyinchalik esa o‘z-o‘zidan ixtiyoriydan keyingi diqqat orqali bajariladigan tabiiy jarayonga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Avvaliga erta tongda turib kitob o‘qish yoki sport bilan shug‘ullanish qiyin tuyuladi. Ammo bir oy davomida buni ongli ravishda bajarsak, u tabiiy ehtiyojga aylanadi va o‘zimiz sezmagan holda bu faoliyatga qiziqib ketamiz. Bu borada muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimda “Albatta har bir mashaqqat bilan birga yengillik bordir. Darhaqiqat, har bir mashaqqat bilan birga yengillik bordir” [2, 499], deyilgan. Bu oyat ilm yo‘lidagi qiyinchiliklar va izlanishlar oxir-oqibat inson tabiatiga singib, qulaylik tug‘dirishini ifodalaydi. Chunki diqqat bilan ruhiy huzur o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. Imom G‘azzoliy “Mukoshafatul qulub” asarida shunday deydi: “Kim Allohni zikr qilishga odatlansa, qalbi xotirjamlik topadi. Kim dunyo g‘ami bilan band bo‘lsa, fikri parishon bo‘ladi” [3,148]. Bu fikr ixtiyoriydan keyingi diqqat bilan bog‘liq, chunki zikr yoki ibodatga dastlab majburiy amal qilinadi va yoki anglanmagan holda bo‘lishi mumkin. Biroq qalb odatlangach, bu jarayondan inson huzur-halovatni his qila boshlaydi. Bunday xotirjamlikni zamonaviy psixologiya tadqiqotlarida ham uchratamiz. Masalan, Psixolog Karl Nyumanning tadqiqotlariga ko‘ra, “Diqqatni bir nuqtaga jamlash stressni kamaytiradi va ongni tinchlantiradi” [4,3], deyiladi. Chunki meditatsiya yoki chuqur nafas olish texnikalarini mashq qilgan shaxslar dastlab buni ongli ravishda amalga oshiradilar, lekin vaqt o‘tishi bilan ularning miyasi tabiiy ravishda bu texnikalardan so‘ng osoyishtalik, xotirjamlik holatiga o‘tadi.

Imom G‘azzoliy inson qalbi va ruhiy barqarorligi haqida fikr yuritar ekan, qalbning to‘rtta holatini ajratib ko‘rsatadi: tirik qalb, o‘lik qalb, sog‘lom qalb va bemor qalb. Bu tasnif zamonaviy psixologiyadagi depressiya, anksiyete va shaxsiyat buzilishlari bilan bog‘liq talqinlarga mos keladi (8, 199). Imom G‘azzoliy qalb pokligini saqlash uchun nafsni tarbiya qilish, istaklarni boshqara olish va murakkab fikr yuritish zarurligini uqtiradi. Imom G‘azzoliy va zamonaviy psixologiya o‘rtasidagi uyg‘unlik shuni ko‘rsatadiki, inson ruhiy salomatligi uchun nafaqat tashqi omillar, balki ichki tahlil, tafakkur va o‘zini anglash jarayoni ham muhim hisoblanadi. Uning muhosaba va muroqaba tamoyillari zamonaviy psixoterapiyada keng qo‘llanilayotgan introspeksiya va ixtiyoriy ong (yoki hushyor ong) tushunchalariga mos keladi. Imom G‘azzoliy ilgari surgan falsafiy fikrlardan nafsni tahlil qilish, qalbni poklash va shukr qilish tushunchalari zamonaviy psixologik usullar bilan uyg‘unlashib, inson ruhiy salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Diniy va ilmiy amaliyotlar bilan shug‘ullangan insonlar ham diqqatni yaxshi boshqara olish orqali tinchlik va xotirjamlikka erishadilar. Sababi, dastlab, qiyin bo‘lib tuyuladigan harakatlar va amallar vaqt o‘tishi bilan qalb uchun huzur manbayiga aylanadi.

Imom G‘azzoliyning ko‘plab asarlaridagi falsafiy fikrlarini zamonaviy psixologiya bilimlariga bog’lash mumkin. Ilm o‘rganish va ixtiyoriydan keyingi diqqatni ham aynan o’xshash tomonlari mavjud. Masalan, Imom G‘azzoliy ilm o‘rganishning uch bosqichini ta’kidlaydi:

- ✓ Qiyin bosqich – inson ilm olish uchun o‘zini majburlaydi (Mujarrad ilm).
- ✓ Qiziqish bosqichi – vaqt o‘tishi bilan ilm unga zavq bera boshlaydi (Mujarrad amal).
- ✓ Muhabbat bosqichi – ilm olmaslik unga noqulaylik tug‘diradi (Ilm va amaldan tarkib topgan harakat) [1,45]

Bu aynan ixtiyoriydan keyingi diqqat tamoyiliga mos keladi. Zamonaviy psixologiya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ilm o‘rganishda miyamizning ba’zi qismlari (prefrontal korteks) dastlab ko‘proq faollashadi, ya’ni ongli harakat talab etadi. Biroq vaqt o‘tishi bilan bu jarayon miya uchun avtomatlashtiriladi, ya’ni ilm olishga bo‘lgan e’tibor tabiiy ravishda ortadi [5,38]. Ya’ni biror chet tilini o‘rganishga kirishilganda miyaning prefrontal qismidan yuqori darajadagi faollik talab etiladi va so‘zlarni eslab qolish dastlab juda qiyin bo‘ladi. Ammo vaqt o‘tishi bilan, miyaning ixtiyoriydan keyingi diqqat tizimi faollashib, yangi til avtomatik ravishda yodda qola boshlaydi.

Dastlabki bosqichda inson ilm olish uchun majburlanadi, keyinchalik u shijoat bilan harakat qiladi va oxir-oqibat ilm uning ehtiyojiga aylanadi.

Imom G‘azzoliy tafakkur bobida shunday deydi: “Tafakkur ruhning nuri va yurakning hayotidir. Unga odat qilgan kishi ilmning eng yuksak darajasiga erishadi” [9]. Bu fikr ixtiyoriydan keyingi diqqat bilan bog‘liq, chunki tafakkur dastlab ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, keyin esa inson buni tabiiy ravishda bajarishni boshlaydi. Nevrobiologlar shuni aniqlashganki, dastlabki tafakkur qilish jarayonida miya ko‘proq energiya sarflaydi, ammo vaqt o‘tishi bilan chuqur fikrlash odatga aylanadi va miyada yangi neyron aloqalar shakllanadi. Psixologlar analitik fikrlash bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hayotdagi muammolarni tezroq hal qila olishlarini aniqlashgan [10]. Ya’ni ilk bor falsafiy yoki ilmiy mavzuda kitob o‘qishga uringan kishi, odatda, tez charchaydi. Ammo bu jarayon davom etsa, tafakkur tabiiy odatga aylanadi va inson undan zavq ola boshlaydi. Olimlar va ijodkorlar tafakkurga tabiiy ehtiyoj sezadilar, chunki ular ixtiyoriydan keyingi diqqat orqali bunga o‘rganib qolganlar.

https://buxdu.uz

Natijalar. Ixtiyoriydan keyingi diqqat va halovat xususida ham Imom G‘azzoliyning falsafiy fikrlari va psixologiya sohasida ilmiy o‘xshashliklar mavjud. Imom G‘azzoliy “Mukoshafatul qulub” asarida shunday yozadi: “Kim Alloh zikrini qalbiga singdirsa, unga bu zikr yoqimli taomdan ham shirinroq tuyuladi” [3, 192]. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, ixtiyoriydan keyingi diqqat orqali inson avval o‘zini majburlab bajargan amallaridan, keyinchalik ruhan zavq ola boshlaydi. Psixologiya sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ixtiyoriy diqqat bilan boshlangan faoliyat vaqt o‘tishi bilan miyada dofamin (baxt gormoni) ajralishini kuchaytiradi. Masalan, dastlab sport bilan shug‘ullangan inson uchun bu og‘ir bo‘lsa ham, vaqt o‘tishi bilan uning tanasi va miyasi sportga bo‘lgan ehtiyojni his qila boshlaydi. Ba’zi insonlar namoz o‘qish, Qur’on tilovati yoki ibodatga o‘zlarini majburlashlari mumkin. Ammo vaqt o‘tishi bilan ular bu amallardan ruhiy shodlik va halovat ola boshlaydilar. Ilm o‘rganishda ham xuddi shunday: avval inson qiyinchilikni his qiladi, keyin esa ilm unga huzur baxsh eta boshlaydi.

Ixtiyoriydan keyingi diqqat va shijoat (motivatsiya). Bu borada Imom G‘azzoliy ilm o‘rganish va amaliyotning birga borishini ta’kidlab, shunday deydi: “Agar ilm olsang, amal qilishdan erinma, chunki ilm amal bilan mustahkamlanadi, amal esa ilm bilan mukammal bo‘ladi” [1,21]. Bu fikr shuni anglatadiki, amal qilish (harakat) vaqt o‘tishi bilan tabiiy ehtiyojga aylanadi. Bu jarayon aynan ixtiyoriydan keyingi diqqat mexanizmi orqali sodir bo‘ladi.

Zamonaviy psixologiyada эса “o‘z-o‘zini boshqarish nazariyasi” (self-determination theory) shuni ko‘rsatadiki, inson o‘zi bajarayotgan ishidan qoniqish olsa, unga ichki motivatsiya paydo bo‘ladi va u o‘sha ishga ongli ravishda e’tibor qaratmay ham unga qiziqib qoladi [6,20]. Dastlab biror ishni qilish uchun tashqi motivatsiya kerak bo‘ladi, lekin vaqt o‘tishi bilan ichki motivatsiya (shijoat) shakllanadi. Olimlar yoki san’atkorlar o‘z sohalarida katta muvaffaqiyatga erishish uchun dastlab ixtiyoriy diqqat bilan ishlaydilar. Keyin esa bu jarayondan zavqlana boshlaydilar va ularning faoliyati hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Sportchilar, dasturchilar yoki yozuvchilar ham mashqni qayta-qayta takrorlashlari natijasida bu jarayondan zavq olishni boshlaydilar.

Muhokama. Imom G‘azzoliyning ko‘plab asarlari ruhiy salomatlik, axloqiy kamolot va nafs tarbiyasiga oid masalalarni o‘rganishga asoslangan bo‘lib, zamonaviy psixologiya borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali yanada kengroq anglash va ko‘plab uyg‘unliklarni toppish mumkin. Uning fikricha, inson qalbining pokligi va ruhiy barqarorligi nafs ustidan nazorat o‘rnatish, gunohlardan tiyilish va tafakkur orqali amalga oshiriladi. [1, 12…] Ixtiyoriydan keyingi diqqat va sabr (mashaqqatga chidam). Imom G‘azzoliy “Ihyou ulumid-din” asarida sabr va chidamlilik haqida shunday yozadi: “Kim sabr qilsa, oxir-oqibat sabr unga oson bo‘ladi. Chunki sabr qilgan odam ruhiy toblanadi va natijada unga mashaqqat yoqimli bo‘lib qoladi” [7,213]. Bu ixtiyoriydan keyingi diqqatning muhim jihatidir, ya’ni dastlab qiyin tuyulgan jarayon keyinchalik inson uchun oson va yoqimli bo‘lib qoladi. Psixologik tadqiqotlarda esa, inson biror murakkab faoliyat bilan uzoq vaqt shug‘ullansa, miyadagi neyronlar o‘sha faoliyatga moslashishi va diqqat tabiiy ravishda o‘sha narsaga qaratilishi ta’kidlangan [8, 311-312]. Masalan, musulmon inson ro‘za tutishda dastlab qiynaladi, lekin vaqt o‘tishi bilan ro‘za tutish unga tabiiy hol bo‘lib qoladi. Harbiy tayyorgarlik olgan askarlar dastlab og‘ir mashg‘ulotlardan qiynaladilar, ammo vaqt o‘tishi bilan ularning tanasi va ongi bu jarayonga moslashib ketadi. Olimlar esa uzoq yillar tadqiqot bilan shug‘ullangach, ilmiy izlanishlar ular hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Imom G‘azzoliy inson ruhiy salomatligiga nafaqat individual jihatdan, balki jamiyat miqyosida ham katta ahamiyat bergan. U insonlarning o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy barqarorlik va jamiyat a’zolarining axloqiy yuksalishi orqali ruhiy salomatlik va osoyishtalik mustahkamlanishini ta’kidlaydi. Ko‘pgina zamonaviy psixologik tadqiqotlar ham shuni tasdiqlayaptiki, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari, hamdardlik va jamoaviy hamkorlik inson ruhiy holatini barqarorlashtiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Bundan tashqari, Imom G‘azzoliy qalb tarbiyasida ichki muhokamaning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. U: “Har bir inson o‘z nafsini tahlil qilmasa, u haqiqiy kamolotga erisha olmaydi” [1,10], deya yozgan. Psixoterapiyaning kognitiv xulq-atvor terapiyasi va ichki refleksiya terapiya usullarida insonning ruhiy salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy isbotlangan. Bu esa Imom G‘azzoliyning nafsni tahlil qilish va inson o‘z ruhiy kamolotini nazorat qilishi haqidagi qarashlari bilan bog‘lanadi. Shuningdek, Imom G‘azzoliy insonning ma’naviy va ruhiy rivojlanishi uchun ilm va tafakkur muhim vosita ekanligini ko‘p bor ta’kidlaydi. U bilim inson qalbini yoritishini va ruhiy tahlillar orqali axloqiy yuksalishga erishish mumkinligini qayd etadi. Nevropsixologik tadqiqotlar ham shuni tasdiqlayaptiki, inson tafakkur va idrok jarayonlari orqali o‘z hissiyotlarini boshqarish, stressga chidamli bo‘lish va ruhiy salomatlikka erishishi mumkin.

Imom G‘azzoliyning birgina “Kimyoyi saodat” asarida nir necha o‘rinda diniy-falsafiy qarashlar va psixologiyaning uyg‘unligini topishimiz mumkin. Masalan, tafakkur va ruhiy poklikning uyg‘unligini quyidagi jumlalardan anglashimiz mumkin: “ Odam dili ibtidoi temirga o‘xshashdurkim, aningdin oyinai

https://buxdu.uz

ravshan qilurlar. Agar oyinani sof va ravshan tutsalar, hamma olam aning ichida ko‘rinur” [7, 25]. Yoki psixologiya sohasidagi bilimlardan introspeksiya tushunchasini, nafs tahlili bilan uyg‘unlashganini ko‘rishimiz mumkin: “Inson o‘z ruhini tanimoq birla haqiqiy o‘zligini bilur” [7, 55]. Bundan tashqari, barchamiz uchun ma’lum va mashhur bo‘lgan Z. Freydning “Psixoanalitik nazariya”si hamda A. Maslouning “Ehtiyojlar piramidasi” nazariyalarining mazmun mohiyatini Imom G‘azzoliyning “Kimyoyi saodat” asaridagi quyidagi jumlalar bilan izohlash mumkin: “Odamning asli farishtalar xislati bilan bog‘liq bo‘lib, jismoniy mayllar uni pasaytiradi” [7, 227].

Imom G‘azzoliy fikrlari ruhiy salomatlikning asosi insonning qalbini poklash, nafsini tarbiya qilish va tafakkur orqali ma’naviy yuksalishga intilishidan iborat ekanligini ko‘rsatadi. U ilgari surgan fikrlar zamonaviy psixologiya tadqiqotlari bilan uyg‘un bo‘lib, buning natijasida inson o‘z fikrlari va ruhiy holatini tahlil qilib, ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishi, salbiy odatlarni tark etish orqali yaxshi xulq-atvorni rivojlantirish va ruhiy salomatlikni yaxshilashi, hayotga qanoat nigohi bilan boqish orqali stressni kamaytirishi ta’kidlanadi. Imom G‘azzoliy “Kimyoyi saodat” asarining ko‘p o‘rinlarida ruhiy va jismoniy salomatlikni muvozanatda saqlash, halol rizq, me’yorida uyqu va jismoniy faollik qalb xotirjamligiga xizmat qilishini e’tirof etgan.

Imom G‘azzoliy asarlaridagi diniy-falsafiy qarashlarni ijtimoiy psixologiya va shaxsning rivojlanish nuqtayi nazaridan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi tadqiqotlar nafaqat tarixiy va falsafiy merosni o‘rganishga, balki inson ongining rivojlanish jarayonlariga ham yangi yondashuvlar olib kirishga xizmat qiladi

Xulosa. Yuqoridagi mulohaza va tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Imom G‘azzoliy inson ma’naviy kamolot sari harakat qilish jarayonida ilm va amal birligini asosiy shart sifatida ko‘rsatadi. Olimning ko‘plab asarlarida insonning ruhiy salomatligi, qalb pokligi va iroda mustahkamligi sabr, tafakkur va ixlos orqali shakllanishi ta’kidlanadi. Imom G‘azzoliy e’tirof etgan sabr va mashaqqatga bardosh berish jarayoni hozirgi zamon psixologiyasida insonning ruhiy toblanish qobiliyati sifatida izohlanadi. Bu esa insonning hayot sinovlariga nisbatan munosabatini belgilaydi.

Olimning fikricha, ilm va amal uyg‘unlashganda, ruhiy salomatlik, ichki barqarorlik va ma’naviy yetuklik hosil bo‘ladi. Imom G‘azzoliyning islomiy-falsafiy qarashlari va zamonaviy psixologiya o‘rtasidagi uyg‘unlik inson ruhiyati va axloqiy komillikka erishish masalasida chuqur mantiqiy asosga ega, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Imom G‘azzoliyning inson ruhiyatining ichki muvozanatini saqlash, ya’ni ruhiy salomatlik, nafs tarbiyasi va qalbni poklash borasida ilgari surgan fikrlari bugungi kun psixologiyasi bilan hamohangdir. Xususan, sabr, Allohdan qo‘rqish (taqvo), xastalik va g‘aflat holatlarining inson psixikasiga va xulq-atvoriga ta’siri bo‘yicha uning yondashuvlari zamonaviy ilmiy izlanishlar bilan tasdiqlanmoqda. Bugungi psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ichki xotirjamlik, murakkab hayotiy sinovlarga nisbatan sabr qilish va ruhiy poklik tamoyillariga amal qilish inson ruhiy salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Imom G‘azzoliy ko‘plab asarlarida aynan ushbu jihatlarga e’tibor qaratib, insonning qalbi halovat topishi uchun axloqiy va ma’naviy mezonlarni ta’kidlaydi. Shuningdek, olim g‘aflatni insonning ruhiy zaiflashishiga sabab bo‘luvchi asosiy omil sifatida ko‘radi va undan qutulish yo‘llari sifatida zikr, tafakkurni faollashtiruvchi ilmiy izlanishlar va ibodatda bo‘lishlikni tavsiya qiladi. Chunki ko‘pgina psixologik tadqiqotlarda ham aynan ongli ravishda hozirgi lahzaga e’tibor qaratish insonni qalbini hushyor saqlashini va insonni ma’naviy yuksalikka olib kelishi ta’kidlangan. Shunday ekan, Imom G‘azzoliy asarlari nafaqat diniy-falsafiy nuqtayi nazardan, balki zamonaviy ilmiy nuqtayi nazardan ham inson ruhiyatini mustahkamlovchi asos sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda inson ruhiy salomatlikka, psixologik farovonlikka erishish uchun ilm va amalni uyg‘unlashtirishi, aql va ehtirosni muvozanatda ushlashi, ma’naviy izlanish orqali o‘zini mukammallashtirishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Abu Homid G‘azzoliy, “Ihyou ulumid-din”, Miraziz A’zam tarjimasi, “Munir” nashriyoti, 2021.
2. “Tavsiri hilol”, ikkinchi nashr, 6-juz, Toshkent 2008
3. Imom G‘azzoliy, “Mukoshafatul qulub” Miraziz A’zam tarjimasi, "Munir" nashriyoti, 2021
4. Neumann, Karl. "The Role of Attention in Learning and Development". Cognitive Science Journal, 2002
5. Kahneman, Daniel. Thinking, Fast and Slow (Tez va sekin fikrlash). – Farrar, Straus and Giroux, 2011
6. Csikszentmihalyi, Mihaly. Flow: The Psychology of Optimal Experience (Oqim: Optimal tajriba psixologiyasi). – Harper & Row, 1990.

https://buxdu.uz

7. Imom G‘azzoliy, “Kimyoyi saodat”, “Adolat” nashriyoti. – 2005.
8. Kabat-Zinn, J. Full Catastrophe Living: Using the Wisdom of Your Body and Mind to Face Stress, Pain, and Illness. New York: Delta, 1990
9. Draganski et. al. (2004). “Changes in grey matter induced by training”. Nature, 427(6972).
10. https://www.alghazali.org
11. https://scholar.google.com
12. https://www.sciencedirect.com

https://buxdu.uz

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY-FALSAFIY MEROSIDA TABIATGA GUMANISTIK MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI

Raxmanova Zebiniso Po‘latovna,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim,
fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi
Bosh ilmiy-metodik markazi tadqiqotchisi

Ushbu maqolada tabiatga gumanistik munosabatni shakllantirishda Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi hamda ilmiy g‘oyalaridan foydalanish masalalalari yoritilgan bo‘lib, bugungi kunda yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi beqiyos o‘rni va ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, insonlar o‘rtasida ekologik mazmundagi bilimlarni targ‘ib etish, bu mazmundagi ta’limiy va tarbiyaviy qarashlar asosida ularda muayyan ko‘nikmalarni hosil bo‘lishiga erishish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Sharq mutafakkirlari, tabiatdan foydalanish, ekologik-ma’naviy sog‘lom muhit, falsafiy qarashlar, insoniyat va tabiat aloqalari, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabat, tashqi muhitning ta’siri, ekologik tushunchalar.*

СОЦИАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГУМАНИСТСКОГО ОТНОШЕНИЯ К ПРИРОДЕ В НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОМ НАСЛЕДИИ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

В данной статье освещаются проблемы использования научно-философского наследия и научных идей восточных мыслителей в формировании гуманистического отношения к природе, а также обосновывается ни с чем не сравнимая роль и значение развития экологической культуры молодёжи сегодня. Также внимание уделяется вопросам пропаганды экологических знаний среди людей, достижения формирования у них определенных навыков на основе образовательно-воспитательных взглядов в этом контексте.

Ключевые слова: *восточные мыслители, природопользование, экологическая и духовно здоровая среда обитания, философские воззрения, отношения человека и природы, бережное отношение к окружающей среде, влияние внешней среды, экологические концепции.*

SOCIAL FOUNDATIONS OF FORMING A HUMANISTIC ATTITUDE TO NATURE IN THE SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL HERITAGE OF EASTERN THINKERS

This article discusses the issues of using the scientific and philosophical heritage and scientific ideas of Eastern thinkers in the formation of a humanistic attitude to nature, and justifies their unique role and importance in developing the ecological culture of young people today. Attention is also paid to the issues of promoting ecological knowledge among people and achieving the formation of certain skills in them based on educational and upbringing views in this content.

Keywords: *Eastern thinkers, use of nature, ecologically and spiritually healthy environment, philosophical views, relations between humanity and nature, careful attitude to the environment, influence of the external environment, ecological concepts.*

Kirish. Qadimgi Sharq olamida, xususan, O‘rta Osiyo xalqlarida tabiat in’om etgan ne’matlardan tejab-tergab foydalanish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunda jadal taraqqiy etayotgan respublikamiz hayotida ma’naviy qadriyatlar, xalqimizning yuksak darajadagi madaniyati, jumladan, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bo‘yicha an’anaviy xo‘jalik yuritish tajribalarini umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish muhim amaliy tadbirlardan biri hisoblanadi. Bunda insonlarning, ayniqsa, o‘quvchi yoshlarning ma’naviy jihatdan yuksalishi, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mutanosiblashishida muhim ahamiyat kasb etishi, yurtimiz, qolaversa, butun jamoatchilik e’tiborini mazkur masalaga qaratish kelajak avlodlarni ekologik-ma’naviy sog‘lom muhitda tarbiyalash bilan bog‘liq vazifalarni aniq belgilab olish muhim hayotiy ehtiyojlardan biri hisoblanadi.

Buyuk tarixga ega mamlakatimizda ham mazkur muammoning yechimiga intilishi uzoq tarixga ega. Zero, “sivilizatsiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo‘lsa....yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhim. Yer, suv, havo va olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e’zozlab kelingan,

https://buxdu.uz

ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib, to islomgacha bo‘lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan” [1].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tarixiy taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida insoniyatning tabiat, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati, tabiat va jamiyatning aloqadorligi, ularni bir-biriga ta’siri uzviy va uzluksiz bo‘lib, abadiy muammolar sirasiga kiradi. Ya’ni, insoniyatning rivojlanish tarixi tabiatning rivojlanish tarixi bilan uzviy bog‘liqdir.

Bu borada, Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlari, ilmiy g‘oyalari katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, tabiat ne’matlarini asrab-avaylash, ularni tejash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Aytish joizki, bugungi kun yoshlarining ekologik bilimi, ekologik savodxonligi hamda ekologik qadriyatlarga sodiqlini rivojlantirishda mutafakkirlarimizning ilmiy-falsafiy merosi muhim o‘rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini yo‘lga qo‘yishga doir ilmiy adabiyotlar, ilmiy manbalar mazmuni bilan tanishish shunday dalolat beradiki, insonlar o‘rtasida ekologik bilimlarni targ‘ib etish, bu mazmundagi ta’limiy va tarbiyaviy qarashlar asosida ularda muayyan bilimlarni hosil bo‘lishiga erishish ijtimoiy zaruratga aylangan. Chunonchi, Markaziy Osiyoda yashab, ijod etgan buyuk mutafakkirlar – Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Umar Hayyom Alisher Navoiy, zahiriddin Muhammad Boburlar garchi o‘z asarlarida “ekologiya” tushunchasini qo‘llamagan bo‘lsalar-da, insoniy qadriyat sifatida tabiatga, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, tabiat in’om etgan ne’matlardan tejamkorona foydalanish, insonlardagi ayrim kasalliklarni davolashda o‘simliklardan davo sifatida foydalanish, tabiat boyliklarini isrof qilish katta gunoh ekanligi, bu kabi gunohlar albatta jazosiz qolmasligi va boshqa shu kabi qarashlarning mohiyati ochib berilgan.

Manbalar va metodlar. Buyuk alloma **Muxammad al-Xorazmiy** (782-847) bir risolasida shunday yozadi: “Biling-ki, daryoning ko‘zlari yoshlansa, uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig‘ tutmanglar”. Daryonning yoshli ko‘zlari deganda al-Xorazmiy nimalarni nazarda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo‘lishini nazarda tutgandir?! U eng avvalo, daryo bilan odamlarning bir-birlarini tushunishlari va til topishlari, o‘zaro mehr-muhabbat qo‘yishlarini nazarda tutgandir.

Xorazmiy o‘z asarlarida tabiat va uning boyliklari haqida qimmatli ekologik va huquqiy fikrlarni bildirgan mutafakkirlarimizdan biri hisoblanadi. U “Kiob surat al-arz” asarini 847-yilda yozgan bo‘lib, unda dunyo okeani, quruqlik materiklari, qutblar, ekvator, tog‘lar, daryolar va dengizlar, ko‘llar, o‘rmonlar va ularning o‘simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy boyliklari – yerning asosiy boyliklari haqida ma’lumotlar mavjud. Mazkur asarda dunyo xalqlarining tabiiy ko‘nikmalari va tarixiy ekologik bilimlari mavjudligi bilan bugungi kunda o‘quv yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Abu Nasr Forobiy (870-910)ning ilmiy-falsafiy merosi juda boy. Uning turli sohalarga oid 180 ta asari mavjud bo‘lganligini mutaxassislar e’tirof etadilar. Farobiy turli ilm tarmoqlariga ta’rif berish bilan birga tabiatshunoslik ilmiga ham katta e’tibor qaratgan. U tabiiy va inson ko‘li bilan yaratilgan sun’iy narsalarni ajratgan. Tabiatda inson omilining ta’siri katta ekanligini, tabiiy va sun’iy tanlash hamda tabiatga ko‘rsatiladigan boshqa ta’sirlarni atroflicha baholagan, tahlil qilgan.

Alloma tabiiy hamda insonlar qo‘li bilan yaratiladigan sun’iy narsalarni bir-biridan ajratib, tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini ta’kidlaydi. Tabiatga inson omilining ta’siri katta ekanligini, tabiiy va sun’iy tanlash hamda tabiatga ko‘rsatilgan boshqa ta’sirlarni atroflicha ekologik-huquqiy jihatdan baholab bergan [2].

Shuningdek, Forobiy tabiat va inson, ekologiya va uning insonlar hayotidagi ahamiyati haqida juda ko‘pgina qimmatli fikrlar yozib qoldirgan. Uning “Odam a’zolari haqida risola”, “Ilmning kelib chiqishi va tavsifi”, “Kitob al mobodi al-insoniya (Insoniyatning boshlanishi haqida kitob)”, “Kitob kal hajm al-mulkdor”, “Qalam fia’za az-Zavus” (Hayvon a’zolari haqida kitob) kabi asarlari tabiat va uning unsurlari haqida hamda insoniyat va tabiat aloqalari haqida batafsil ma’lumotlar beradi. Mutafakkirning barcha asarlaridan bilish mumkinki, matematika, kimyo, astronomiya, mantiq, tibbiyot va boshqa shu kabi fanlarga doir ma’lumotlar mujassamlashgan.

O‘z davrining qomusiy olimi va munajjimi bo‘lgan **Umar Hayyom** ham o‘z ilmiy merosida tabiat hodisalari haqidagi ko‘pgina fikrlari mavjud. U tabiatda quyosh tutilishi, oy tutilishi hamda ob-havoning o‘zgarishini oldindan bashorat qilgan. Olimning 400 ga yaqin ruboiylari mavjud bo‘lib, bugungi kunda ulardan 293 tasi Kembrij tibbiyot kutubxonasida saqlanib kelinmoqda.

Umar Hayyomning insoniyat, tabiat hamda tirik mavjudotlar haqida shunday fikrlari bor: “Odamlar va mavjudotlar dunyoga kirib, keyin qaytib ketadilar, ular yaxshi va g‘amgin bo‘ladi. Mutlaq hukmdor

https://buxdu.uz

tabiatni yaratadi va tartibga soladi, nega unga zarar yetkazadi? Agar sabab tabiatning nomukammalligida bo‘lsa, kim aybdor? Agar tabiat yaxshi bo‘lsa, nega uni yo‘q qilish kerak?”. Olimning ilmiy g‘oyalari negizida tabiatni asrab-avaylash, unga oqilona munosabatda bo‘lish, tabiat ne’matlaridan tejamkorona foydalanish masalalari yotadi. Bu esa bugungi kun yoshlarining tabiatga gumanistik yondashuvini yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Abu Rayxon Beruniy (973-1048) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan, narsa va hodisalarning o‘zaro ta’siri bilan tushuntirishga uringan. Uning fikricha, Yerdagi o‘simlik va hayvonlarning yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklidir. “Ekin ekish va nasl qoldirish bilan dunyo to‘lib boraveradi - deb fikr bildirgan. Beruniyning fikricha, o‘simlik va jonivorlar birdaniga paydo bo‘lib, birdaniga yuqolib ketmaydi. Balki, ularning biri yo‘qolsa ham, u o‘z nasliini qoldirib ketadi. Beruniyning tibbiyot va dorishunoslikka oid eng yirik asarlaridan biri “Kitob as-Saydana” deb nomlanadi. Dori vositalarini tayyorlashning mingdan ortiq manbalari va usullarini yoritib o‘tgan.

Shuningdek, alloma asarlarida insoniyatga beriladigan aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya ham alohida o‘rin tutadi. Uning “Minerologiya” asarida tanani dangasalik, kam harakatlikdan asrash kerakligi, bu illatlar tanada turli xil kasalliklarga olib kelishi haqida yozadi. Shuningdek, “Hindiston” asarida ham jismoniy madaniyatning foydalari haqida yozadi [4].

Beruniy ilmiy-nazariy tadqiqotlar va tajribalar asosida barcha tabiat hodisalari ma’lum qonuniyatlarga asoslanishini hamda tashqi kuchlar ta’sirida mazkur qonuniyatlarni o‘zgartirib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Allomaning ilmiy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalari va ilmiy xulosalaridan kelib chiqib, hayotning inson va tabiat o‘zaro uyg‘un ekanligiga amin bo‘lish mumkin.

Jahon ilm-fan va madaniyatiga katta hissa qo‘shgan mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning ekologik ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari bugungi kun yoshlarida ekologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamyaitga ega ekanligini alohida ta’kidlash joiz. Olim olamdagi tabiiy muhitdagi hodisalarni ularning rivojlanish qonuniyatlari va tabiat unsurlarining o‘zaro aloqadorligi bilan bog‘lab izohlashga harakat qiladi. U tabiat haqida fikr yuritib, o‘simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo‘jalikdagi ekologik tarbiyaviy ahamiyati haqida ma’lumotlar beradi. Allomaning tabiat va insoniyat o‘rtasidagi aloqadorliklari, tabiat hodisalar va xususiyatlari haqidagi ilmiy qarashlari ayniqsa, “Minerologiya”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Saydana” kabi asarlarida uchraydi. Uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Eronning turli tropik o‘simliklari va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining almashinuvi bilan bog‘liq ravishda o‘zgarishini tushuntirib o‘tadi.

Agar Yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko‘payishiga ham, daraxtning o‘sishiga ham o‘rin qolmaydi. Beruniyning “Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar” asarida, O‘simlik va hayvonlarning tashqi muhit bilan aloqalari, qish qattik sovuq kelsa, qushlarning tog‘dan tekisliklarga tushishi, chumolilarning uyasiga berkinib olishi kabilar ifoda etilgan [5].

Sharq allomalaridan **Bahouddin Naqshband** dunyoqarashida ekologik tarbiya ijobiy fazilat, axloqiy me’yor sifatida muhim o‘rinni egallagan. U insoniyatni bu fazilatlarni o‘zida singdirish mumkinligiga ishontiradi va ularni shunga undaydi. Deydiki, “Men bu imorat bilan hayvonlarga bir necha yil qaradim. Yo‘lovchilar aziyat chekmasligi uchun yo‘llarni tozalab, reza chinlik xizmatini ado etmog‘im lozim ekan. Men bu xizmat bilan yetti yil mashg‘ul bo‘ldim: yetti yil davomida etagim va yengimdan tuproq hidi hargiz arimadi va har bir ishimning natijasini mushohada etar va bunday fayzi yor bo‘lardim. [6]”

Bu bilan zodagon inson bilimi, uning tafakkuri rivoji haqida gap ketganda, ekologik ta’limning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Allomaning fikricha, tuproqdan inson jismi paydo bo‘lsa-da, biroq u qorong‘ulikka va zulmatga ega unsurdir. Demak, alloma o‘z fikrida suv, havo, olov va tuproqning ekologik hislarni aniq ta’riflab, insoniyat hayotidagi ahamiyatini ko‘satgan [7].

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) jahon madaniyati va fani rivojiga ulkan xissa qo‘shgan olimlardan biridir. Yirik qomusiy olim sifatida u o‘z davri ilm-fanining deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullangan. Jumlalarga e’tibor bering: “Jon agar bir shisha bo‘lsa, Ilm unda shamchiroq”. Ibn Sino asarlari orasida uning mashhur “Tib qonunlari” nomli shox asari tibbiyot ilmining qomusi hisoblanadi. U kishi organizmiga tashqi muhitning ta’siri muhimligini asoslagan (Agar havoda chang va g‘ubor bo‘lmaganda odam ming yil yashar edi). Bu asarida insonni o‘rab turgan tabiiy muhit, o‘simliklar dunyosi kasalliklarni davolovchi dori vazifasini bajarishi ta’kidlanadi.

Ibn Sinoning ilmiy qarashlari bugungi kunda nafaqat tibbiyotda, balki yoshlarning tabiatga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda foydalaniladi. U o‘z davridagi bemorlarni davolashda havo, suv, tuproq, iqlim, oziq-ovqat, yashash muhitining ahamiyatini ta’kidlab, bu elementlarning inson salomatligiga ijobiy va salbiy ta’sirini alohida ajratib beradi. Ammo, kasalliklarning paydo bo‘lishi va ularni davolashda hayotiy sharoit hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan va “Tib qonunlari” asarining maxsus

https://buxdu.uz

bobi inson salomatligini saqlashga bag‘ishlangan [8]. Aytish joizki, Ibn Sino o‘z davrining ilm-fanining deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullangan qomusiy olim hisoblanadi. Uning 450 dan ortiq asarlari bo‘lib, bizgacha ularning 240 ta asari yetib kelgan.

Ibn Sinoning bugungi kunda ta’lim oluvchilarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishdagi ahamiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish kerakligini anglab yetishlarida muhim ahamiyat kasb etadi [9]. Olimning tog‘larning paydo bo‘lishi, yer yuzining o‘zgarishi, zilzilalar, konlar kabi turli xil tabiiy jarayonlar haqidagi g‘oyalari ekologik ta’lim-tarbiya rivojiga xissa qo‘shadi. Shuningdek, alloma “Shaxs ar-Rais”, ya’ni “Donishmandlar sardori” nomi bilan mashhur. U mustaqil o‘rganish orqali bilim cho‘qqisiga erishgan. Bu haqda allomaning o‘zi shunday yozadi: “Men o‘n yoshimda Qur’on ilmini o‘rgandim, adabiyot o‘qidim. Mantiqqa doir kitoblarni o‘qitganimdan so‘ng bu ilmning nozik tomonlarini mustaqil o‘zlashtira oldim, shundan so‘ngi esa tibbiyotga yuzlandim”.

Alloma tabiat musaffoligini saqlash masalalariga to‘xtalib, shunday yozadi. “Agar chang va g`ubor bo’lmaganida edi, inson ming yil yashagan bo’lar edi”. Shuningdek, uning fikriga ko‘ra, Hindistonda bundan 4000 yil avval quyosh nuri, momaqaldiroq va yomg`irlar sabali o’simliklarning shifobaxshlik xususiyati ortishini aniqlaydi.

Zahiridain Muhammad Bobur (1483-1530) faqat shoirgina bo‘lmay, balki podshox, sarkarda, tarixchi, mashshoq, ovchi va bog‘bon, sayyoh va tabiatshunos ham bo‘lgan. Tabiat bilan jamiyatning o‘zaro munosabatlarini ekologik jihatdan yuksak darajada talqin etilganligini o‘zbek milliy shox asari “Boburnoma”da ko‘rish mumkin. “Boburnoma” haqiqiy asar sanalsa-da, tom ma’nodagi ekologik asar hamdir [10].

Buyuk davlat arboblaridan biri bo‘lgan Javoharla’l Neru o‘zining hamkasbi Zahiriddin Muhammad Bobur haqida shunday yozadi: “Bobur mafturkor, mard va mehnatkash inson edi, u gullarni sevar, bog‘larni juda yaxshi ko‘rar edi. Ko‘pincha issiq Hindistonda vatani haqida o‘ylardi”.

Boburning asarlari, ilmiy ma’lumotlari boshqa sayohatchilar, jumladan, Yevropa sayohatchilarinikidan ishonchliligi bilan ustun turadi. Bobur shunday yozadi: “Hisor va Xatlan va Samarqand va Farg‘ona yaylovlari tamom Kobul viloyatining yaylovlariga o‘xshash...Tog‘lari tamom Kofiristondir (hozirgi Nuriston). Tog‘larida noju (qarag‘ay) va chilg‘o‘za (kedr) va balut (dub) va yong‘oq yog‘ochlari bisyor bo‘lur, o‘simliklari serob...”

Shu bilan birgalikda Bobur Hindiston nabototidan gullar, mevali daraxtlar, ularning hidi, mevasi, shakli va o‘ziga xos tabiiy xususiyatlari haqida to‘liq ma’lumotlar berib o‘tgan [11]. Bobur tabiat va uning muvozanati, o‘simlik va hayvonlarinng tabiatga va iqlimga moslashishi, ularning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi haqida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan [12].

Bobur Hindistonning o‘simliklariga ta’rif berar ekan, u Hindiston xurmosiga alohida to‘xtaladi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ajoyib tarzda ta’riflab beradi. Shuningdek, u o‘simliklarni iqlimlashtirish borasida ham kuzatish ishlarini olib borgan. 1526-yilda “Qodul-Baxt” bog‘ida birinchi marotaba yurtimizdan olib borilgan qo‘vun va uzumlarni o‘stirishga kirishadi va o‘zi kutgan natijaga erishadi.

Bobur zamonida tabiat haqidagi fanlar, jumladan, biologiya fan sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, u tabiat va insoniyat o‘rtasidagi muvozanat, hayvonot va naboto, atrof-muhitni asrab-avaylash bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Yuqorida nomi zikr etilgan “Boburnoma” asarida o‘zining ko‘rgan kechirganlari, borgan joylarining tabiati, o‘ziga xos xususiyatlari, tabiiy boyliklari, o‘sha yerlarda istiqomad qiladigan odamlari, ularning urf-odatlari, o‘simlik va hayvonot olamini tasvirlab beradi.

Tahlil va natijalar. Sharq mutafakkirlarining tabiatshunoslik sohasida olib borgan ilmiy izlanishlari, ilmiy ma’lumotlari insonlarda tabiatga bo‘lgan bo‘lgan gumanistik munosabatni shakllantirishda asosiy manba bo‘lib qoladi. Chunki, hali dunyo mamlakatlarida ekologik tushunchalar shakllanmagan bir vaqtda bizning ona tuprog‘imizda dunyoga kelgan mutafakkirlar tabiatni har tomonlama o‘rganib chiqib, unga bo‘lgan munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish masalalarini talqin etganlar. Shuningdek, tabiatni, undagi tirik organizmlarni asrash va saqlash, ularning insonlar hayotidagi roli beqiyos ekanligini o‘z asarlaridda keltirib o‘tdilar.

Jumladan, alloma Jurjoniy inson yashagan tabiatda biron bir hodisa sababsiz kelib chiqmasligini ta’kidlaydi [13]. Allomaning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to‘rt unsur, ya’ni olov, havo, suv va tuproq mavjud. To‘rt unsur tabiatda harakatda ekanligidan o‘zgaruvchan bo‘ladi, harakat natijasida biri ikkinchisiga aylanib qolishi mumkin. Mana shu to‘rt unsurni ilmiy o‘rganish va ularni tushunib yetishi va avaylash bizning qadriyatlarimiz hisoblanadi.

Barcha Sharq mutafakkirlarning ekologik tarbiyaga doir fikrlari, qarashlarining asosi “Qur’oni Karim” va “Hadis” ta’limotiga asoslanadi. Mutafakkirlarning tabiatga munosabatni yo‘lga qo‘yish borasidagi ilmiy

https://buxdu.uz

qarashlari natijasida tabiat unsurlariga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga qiziqish ortib bordi. Shuningdek, tabiiy fanlarni o‘qitishning uslublari masalalariga e’tibor kuchaydi.

Xulosa va takliflar. Ekologik ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda Sharq mutafakkirlarining beqiyos merosi, o‘gitlari katta ahamiyatga ega. Sharq pedagogik an’analaridan ma’lum bo‘ladiki, ta’lim oluvchilarning ekologik dunyoqarashini rivojlantirishda mutafakkirlarimizning ilmiy-falsafiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z ta’sirini yo‘qotmagan. Shuning uchun ular qoldirgan ilmiy meros yosh avlodni ekologik tarbiyalashning eng muhim vositasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Sharq mutafakkirlari insonlarda tabiatga insonparvar munosabatlarni tarkib toptirishning odob-axloq qoidalarini, islom ta’limoti, Qur’on talablari hamda Hadislar asosida yoritib berganlar. Ularning ushbu say’i-harakatlari bugungi kun ekologik ta’lim-tarbiya jarayonlarida dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлида. 4-т. -Тошкент: Ўзбекистон. 1996. 350 б.
2. Forobiy. Fozil shahar aholisi qarashlari haqida risola // V kn.: С.Н.Григорян. Из истории Средней и Ирана VII-XII веков. –М., 1960. 136-б.
3. Jalilov Z.B. Sharq mutafakkirlari merosini o’rganishning didaktik metodlari. // Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017 yil, 5-son.
4. Nosirov R.N., Sirojiddinov SH.S., Ziyautdinova X.A. O'rta Osiyolik allomalarning falsafiy qarashlari. – T.: O'zbekiston, 2007.
5. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Т. Қадимги халқдардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент.: Фан, 1968.
6. Frederic P. Miller, Agnes F. Vandome, John McBrewster «Baha-ud-Din Naqshband Bukhari» 2011.
7. Ашуров А. Баҳоуддин Нақшбанд ва унинг тасаввуф мактаби. // Нақшбанд.уз. 2018 йил. 8-б.
8. Абу Али ибн Сино. “Тиб қонунлари”. Уч жилдлик қўлланма. – Тошкент.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.
9. Zunnunov A. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: Fan, 1996.
10. Хасанов С. Захириддин Маҳаммад Бобур. - Т.: Узбекистан, 2011. - 88 б.
11. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. 1 қисм. – Тошкент. Ўзбекистон, 1948. – 250 б.
12. Ражабов С. Халқ маорифи ва педагогика фанининг буюк алломалари. // Т.. Ўқитувчи. 1990. - б. 127.
13. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. «Самарқанднинг сара уламолари». –Тошкент, «Ҳилол Нашр» 2014. –Б. 54.

https://buxdu.uz

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.

https://buxdu.uz



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 40011086006401709410035005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil 4-son (115)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 28.04.2025
Bosmaxonaga topshirish vaqti 29.04.2025
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.

https://buxdu.uz